



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OILA VA XOTIN-QIZLAR
DAVLAT QO'MITASI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAHALLA VA NURONIYLARNI
QO'LLAB-QUVVATLASH
VAZIRLIGI



“OILA VA XOTIN-QIZLAR”
ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI

“KEKSALIK VA HOZIRGI ZAMON: MAVJUD HOLAT, RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLDAGI MUAMMOLAR”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami
(13-oktabr 2022-yil)

*Сборник материалов Республиканской научно-практической
конференции на тему*

«СТАРОСТЬ И НАСТОЯЩЕЕ ВРЕМЯ: ТЕКУЩАЯ СИТУАЦИЯ, ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ И ПРЕДСТОЯЩИЕ ПРОБЛЕМЫ»

(13 октября 2022 года)

Collection of materials of the Republican scientific-practical conference on theme

“OLD AGE AND PRESENT TIME: CURRENT SITUATION, TENDENCIES OF DEVELOPMENT AND FORTHCOMING PROBLEMS”

(October 13, 2022)

“Mahalla va oila nashriyoti”

Toshkent – 2022

UO'K: 316-043.92(575.1)

KBK: 60.56(50')

X 69

“Keksalik va hozirgi zamon: mavjud holat, rivojlanish tendensiyalari va istiqboldagi muammolar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami.
– Toshkent: “Mahalla va oila” nashriyoti, 2022. – 208 b.

Mas’ul muharrir:

N.Egamberdiyeva, *pedagogika fanlari doktori, professor*

Tuzuvchi va tartib beruvchi:

S.Xodjayev, F.Sodiqov

Tahrir hay’ati:

O.Musurmonova, X.Abduramanov, B.Mavlonov,
U.Yunusov, S.Xodjayev, F.Sodiqov

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-martdagi 101-F-sonli farmoyishi asosida respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasiga muvofiq “Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot institutida 2022-yil 13-oktabr kuni “Keksalik va hozirgi zamon: mavjud holat, rivojlanish tendensiyalari va istiqboldagi muammolar” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi. Mazkur to‘plam konferensiya ma’ruzalar materiallarini o‘zida jamlaydi.

ISBN 978-9943-8745-7-2

© Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi, 2022

© «Oila va xotin-qizlar» ilmiy-tadqiqot instituti, 2022

© «Mahalla va oila nashriyoti», 2022



KIRISH





Nodira Egamberdiyeva,

*Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi raisi o‘rinbosari,
pedagogika fanlari doktori, professor*

Assalomu alaykum, anjuman qatnashchilari!

Barchangizga ma’lumki, mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning asosiy maqsadlaridan biri keksa avlod vakillarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularning ijtimoiy faolligini oshirish, ularda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hisoblanadi.

Keksalarni e’zozlash, ularga munosib hurmat ko‘rsatish masalasi Yangi O‘zbekistonda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida qaralmoqda. Keyingi yillarda amalga oshirilgan o‘zgarishlar natijasida keksa avlod vakillarining moddiy va maishiy sharoitlari yaxshilandi, ularning jamiyatdagi nufuzi oshdi. Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda nuroniy otaxon va onaxonlarimizning ulkan tajribasidan unumli foydalanib, ma’naviy muhit barqarorligida hamda yosh avlodni tarbiyalashda ularning ishtiroki ortib bormoqda.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2022-yilning boshiga kelib O‘zbekistonda aholining 60 yoshdan katta qismi, ya’ni keksalarning umumiy soni 3,103,423 nafarni tashkil etdi. Agar keksalarning umumiy aholi sonidagi ulushiga e’tibor qaratiladigan bo‘lsak, bu miqdor 8,8 foizni tashkil etadi. Keksalarning 1,688,984 nafari, ya’ni 55,6 foizi esa ayollar hisobiga to‘g‘ri keladi.

Keksalarni yosh toifalari bo‘yicha tahlil qiladigan bo‘lsak, ularning 42 foizini 60-64 yosh oralig‘idagi, 26 foizini 65-69 yoshdagi, 16 foizini 70-74 yoshli toifa, 8 foizini 75-79 yoshli, 5 foizini 80-84 yoshgacha bo‘lgan hamda qolgan 2 foizini 85 yosh va undan katta bo‘lgan keksalar tashkil etadi.

Xalqimizda keksalar haqida “Qarisi bor uyning – parisi bor”, “Qari kelsa oshga, yosh kelsa ishga”, “Qarilikni donolik bezar”, “Keksalar izzatda, yoshlar xizmatda”, “Qariyalar – xonadonlarimizning fayzi va farishtasi”, “Qari bilganini pari bilmas”, “Har keksada bir naql” kabi hikmatli iboralar ko‘p uchraydi. Mana shu iboralarning hayotimizda keng tarqalganligi azal-azaldan O‘zbekistonda jamiyat hayotida aholining bu yoshi ulug‘ qismi katta obro‘-e’tiborga sazovor bo‘lganligi, ijtimoiy hayotdagi ularning tutgan o‘rni naqadar salmoqli ekanligidan dalolat beradi.

So‘nggi yillarda Davlatimiz rahbari boshchiligida olib borilayotgan islohotlar natijasida keksa va nuroniyning ijtimoiy faolligini oshirish va ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida qator institutsional o‘zgarishlar amalga oshirildi.



Jumladan, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlashga oid 10 dan ortiq qonunchilik hujjati (1 ta qonun, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 ta Farmoni va Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 4 ta qarori) qabul qilindi, 16 ta normativ-huquqiy hujjatlar takomillashtirildi.

Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi keksalar va faxriylarni yosh avlodni tarbiyalashga qaratilgan ijtimoiy faoliyatga jalb etishga, ularning ijtimoiy faolligini qo‘llab-quvvatlashga, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ishtirokini ta’minlash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda keksa yoshdagi odamlar, imkoniyati cheklangan shaxslar va yolg‘iz keksalarning turmush sharoitlari va sifatini oshirish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish, manzilli ijtimoiy himoyani kuchaytirish va ularga ko‘rsatiladigan yordam turlarini kengaytirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Ushbu o‘tkazilayotgan konferensiyaning maqsadi – keksalarning ijtimoiy faolligi, ularning foydalanilmagan potensialidan samarali foydalanish, ularni huquqiy, ijtimoiy, tibbiy, psixologik qo‘llab-quvvatlash, keksalar yoshi bilan bog‘liq jahonda kuzatilayotgan ijtimoiy-demografik tendensiyalar borasidagi dolzarb masalalarni muhokama qilish, bu borada faoliyat olib borayotgan amaliyotchi-mutaxassis hamda ekspertlarning fikr-mulohazalarini o‘rganish, keksalar, avlodlararo munosabatlar, demografiya va sotsiogerontologik yo‘nalishlarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan tanishtirish, aholi o‘rtasida keksalarni e’zozlash, ularning hayotiy va kasbiy tajribalaridan samaradi foydalanishni targ‘ib qilish, mazkur masalalar bo‘yicha tajriba almashish, ularning natijalari asosida taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Umid qilamanki, “Keksalik va hozirgi zamon: mavjud holat, rivojlanish tendensiyalari va istiqboldagi muammolar” mavzusida respublika ilmiy-amaliy konferensiya yakunida bildiriladigan taklif va tavsiyalar mamlakatimizda keksalarga oid davlat siyosatni takomillashtirishga, uni yanada sifatiy darajaga ko‘tarishga xizmat qiladi.



Rustam Kalanov,
Toshkent shahar nuroniy jamg‘armasi raisi,
senator

TOSHKENT SHAHRIDA NURONIYLARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH BORASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR

Assalomu alaykum, anjuman qatnashchilari!

Mahalla yo‘nalishida jami **22 453 nafar** (shundan **13 384 nafari** otaxonlar va **9 069 nafari** esa onaxonlar) faol keksa nuroniylar bo‘lib, ular quyidagi ijtimoiy faollik yo‘nalishlariga jalb etilgan:

Uyushmagan yoshlarga biriktirilgan keksalar – 2 082 nafar;

Notinch oilalarga biriktirilgan keksalar – 823 nafar;

Tarbiyasi og‘ir yoshlarga biriktirilganlar – 287 nafar;

Oilalarni yarashtirishda qatnashayotganlar – 3 512 nafar;

Ishsiz yoshlarga hunar o‘rgatayotganlar – 726 nafar va boshqa yo‘nalishlarda.

1 560 ta oilani nuroniylar ko‘magida (**66,5 %**) yarashtirishga erishildi.

Shuningdek, 3 451 nafar yoshning nikoh to‘ylari Nuroniylar maslahat kengashlari orqali ixcham tarzda o‘tkazishga erishildi.

“Bir nuroniy o‘n yoshga mas‘ul” tamoyili asosida mahallalarda hayotiy va katta amaliy tajribaga ega bo‘lgan obro‘- e‘tiborli nuroniylar va ziyolilarni ishsiz, tarbiyasi og‘ir va muammoli yoshlarga biriktirish orqali ularning jamiyat uchun foydali insonlar bo‘lib yetishishiga ko‘maklashish dasturlari ishlab chiqilgan va ijroga qaratilgan.

Shuningdek, Toshkent shahrida 579 nafar (shundan 490 nafari otaxonlar va 89 nafari onaxonlar) faol nuroniylarga 5 701 nafar (4308 nafar yigitlar, 1393 nafar qizlar) uyushmagan ijtimoiy ko‘makka muxtoj yoshlar biriktirildi. Har bir yosh bilan individual ishlar olib borilmoqda. Shundan 3 933 nafar yoshning muammolari o‘z yechimini topdi. Jumladan, ularning bandligi ta‘minlandi, oylik o‘quv kurslariga jalb etildi, profilaktik ro‘yxatdan chiqarildi, oilalari yarashtirildi, uyushmagan yoshlarga murabbiylar tayinlandi.

“Bir nuroniy o‘n yoshga mas‘ul” tamoyili asosida sektorlararo va tuman bosqichlari ko‘rik-tanlovlari o‘tkazildi. Nuroniy jamg‘armasi hisobidan o‘tkazilgan ko‘rik-tanlovlarda 1-, 2-, 3-o‘rin g‘oliblari pul mukofotlari va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.



Toshkent shahridagi 579 ta fuqarolar yig'inlari tomonidan nuroniylar tashabbusi va tajribasidan keng foydalangan holda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirish bo‘yicha mahallalarning dasturlari qabul qilinishi yuzasidan tegishli ko‘rsatmalar berildi, tegishli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Toshkent shahridagi barcha mahallalarda **“Buvijonlar maktablari”** tashkil etilgan bo‘lib, ularning har birida 10–15 nafar a‘zo bo‘lib, a‘zolarning umumiy soni 5 075 nafarni tashkil etadi. Hozirgi kunda nuroniylar bilan birgalikda “Buvijonlar maktabi” a‘zolari ajrim yoqasiga kelib qolgan notinch oilalar bilan ishlashda alohida jonbozlik ko‘rsatmoqda. Bu kabi oilalarga kirib, suhbatlar olib borish natijasida ularda sog‘lom muhit shakllanmoqda.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida barcha mahallalarda umumxalq hasharlari, keng qamrovli obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish tadbirlari bo‘lmish “Mahalla barakasi”, ta’lim muassasalarining o‘quvchi va talabalari ishtirokida esa “Mahallamga nihol ekaman!” aksiyasini o‘tkazish hamda Toshkent shahar hududida gul ko‘chatlari ekilishi yuzasidan bir kunda jami 14 589 ta gul ko‘chati ekilgan bo‘lib, tadbir boshidan buyon jami 1 430,4 ta ko‘chat ekilgan.

Shu bilan birga, tumanlarda ko‘p qavatli uylar joylashgan hududdan tashqari boshqa hududlarda gul ko‘chatlarini ekish bo‘yicha bir kunda jami 12 840 ta gul ko‘chati ekilgan bo‘lib, tadbir boshidan buyon jami 155 733 ta ko‘chat ekilgan hamda mevali daraxtlarni ekish bo‘yicha bir kunda jami 11 348 ta gul ko‘chatlari ekilgan bo‘lib, tadbir boshidan buyon jami 115 971 ta ko‘chat ekilgan.

Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan hozirgi kunga qadar jami 114 nafar o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz keksalar va yolg‘iz yashaydigan keksalar hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj keksalar Yunusobod tumanida joylashgan “Nuroniylar” sanatoriysida “Nuroniylar” jamg‘armasi hisobidan bepul sog‘lomlashtirildi.

Toshkent shahrida shifokorlarning ko‘rsatmalariga binoan **3 oylik ehtiyojdan kelib chiqib, dori vositalari, tibbiy va maxsus protez-ortopediya moslamalari** olib berilishi hamda jarrohlik amaliyotlarining xarajatlari qoplanishi yuzasidan 1 239 nafar og‘ir va kam ta’minlangan keksalar ro‘yxati shakllantirildi.

Jumladan,

- 39 nafar muhtoj keksalar hassa;
- 60 nafar muhtoj keksalar eshitish moslamasi;
- 26 nafar muhtoj keksalar qo‘ltiqayoq;
- 213 nafar muhtoj keksalar nogironlar aravachalari;
- 10 nafar muhtoj keksalar yurish moslamasi bilan ta’minlandi.



Toshkent shahar Nuroniylar jamg'armasi tomonidan dori-darmonlar olish uchun jami **12** nafar o'ta muhtoj oilaga 20 mln so'mdan ortiq moddiy yordam ko'rsatildi.

Jamg'arma mablag'lari hisobidan jami **180** nafar keksaning jismoniy tarbiya va sport yo'nalishidagi muassasalarda (stadion, sport zallari, basseyn va boshqa sport majmualari) **jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishi uchun** abonement xarajatlari qoplandi.

Shuningdek, **162** nafari sog'lomlashtirish-suzish, **15** nafari fitnes-sheyping, **3** nafari badminton va gimnastika klublarida qatnashib kelmoqda.

Toshkent shahrida “Keksalar doimo e'zozda!” shiori ostida keksalar yoshlar bilan birga **10** ta teatr va **12** ta muzeyga tashrif buyurishdi.

Shuningdek, haftaning har seshanbasi “Muzeylar kuni” munosabati bilan keksalar **48** marotaba muzeylarga tashrif buyurib, mazkur tashriflarga **138** mingdan ortiq keksalar va **469** mingdan ortiq yoshlar jalb etildi.

Bu borada davlat teatrlarida homiylar va mahalliy hokimliklar bilan birgalikda **46** marotaba beg'araz tashkil etilgan “O'lding aziz bo'lding”, “Kelgindi kuyov”, “Antiqqa sovchilar”, “Alisher Navoiy”, “Oq qushlar”, “Gammlet”, “Bog'chasaroy fantani” hamda “Toxir va Zuxra” va boshqa spektakllarga **138** mingdan ortiq keksalar va **469** mingdan ortiq yoshlar jalb etildi.

O'zgalarning parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz keksalar va yolg'iz yashaydigan keksalarni ma'naviy tomondan qo'llab-quvvatlash maqsadida Yoshlar ishlari agentligi hamda ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda “Nuroniylar e'zozimizda” shiori ostida faol yoshlardan iborat bo'lgan ko'ngilli patronaj guruhlarini shakllantirish va ularni rag'batlantirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi hamda ijroga qaratildi.

Ushbu guruhlar tomonidan har oyda kamida bir marotaba o'zgalarning parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz keksalar va yolg'iz yashaydigan keksalarning holidan xabar olish tizimi yo'lga qo'yildi hamda jamoatchilik nazorati o'rnatildi. Toshkent shahrida joriy yilda 645 nafar yolg'iz pensioner va nogironligi bo'lgan shaxslar ro'yxatga olingan, ulardan **494** nafari yakka-yolg'iz, o'zgalar parvarishiga muhtoj, **151** nafari o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz yashovchilarga esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 237-sonli qaroriga asosan ijtimoiy xizmat ko'rsatiladi.

Ro'yxatga olingan yolg'iz pensioner va nogironligi bo'lgan shaxslardan dispanser ko'rigi natijalariga ko'ra, 645 nafar yakka-yolg'izlar uyda ijtimoiy xizmat ko'rsatishga muhtojligi belgilanib, ularga tuman tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish bo'limining ijtimoiy xodimlaridan 71 nafari xizmat ko'rsatib kelmoqda.



Ushbu guruhlar tomonidan har oyda kamida bir marotaba o'zgalarning parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz keksalar va yolg'iz yashaydigan keksalarning holidan habar olish tizimi yo'lga qo'yildi.

O'zgalar parvarishiga muhtoj 494 nafar yolg'iz pensioner va nogironligi bo'lgan shaxslarga 302,8 mln so'mlik 19 xil turdagi bepul eng zarur oziq-ovqat mahsulotlari va gigiyenik vositalari, ularga biriktirilgan ijtimoiy xodimlar orqali belgilangan muddatlarda yyetkazib beriladi.

2022-yil davomida 1 160 nafar pensioner va nogironligi bo'lgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi tizimidagi sanatoriylarida dam olish va davolanish uchun bepul yo'llanmalar bilan ta'minlandi.

Jumladan, Mirzo Ulug'bek tumani “Ulug'bek” shaharchasi Uzumzor ko'chasi 12-uyda istiqomat qiluvchi 103 yoshni qarshilagan ijtimoiy himoyaga muxtoj Usametova Kunduz ayaning holidan xabar olinib ularning xonadonlarida hashar uyushtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 26-sentabrdagi “Keksalar haftaligi”ga tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori saviyada o'tkazish chora-tadbirlari to'g'risidagi 4-sonli bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- keksa avlod vakillarini qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolliklarini oshirish maqsadida 519 ta mahallada xalq deputatlarining, 497 tasida esa davlat boshqaruvi organlari rahbarlarining keksa avlod vakillari bilan ochiq muloqotlari o'tkazildi, ularda 23 397 nafar nuroniylar ishtirok etdi;

- “Saxovat” va Muruvvat” uylarida 212 nafar keksalar uchun 5 marotaba madaniy tadbirlar va ijodiy uchrashuvlar o'tkazildi;

- boshqa hududlarga 2 065 nafar nuroniyning, o'z hududlardagi muzeylar va ziyoratgohlarga 6 576 nafar nuroniylarning sayohatlari uyushtirildi;

- 341 ta mahallada 13 248 nafar keksa chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazildi;

- nogironligi bor 195 nafar keksaga reabilitatsiya vositalari (nogironlik aravachalari, hassa va qo'ltiq tayoq, eshitish moslamasi kabilar), 5149 nafar yakka yolg'iz keksalarga oziq-ovqat mahsulotlari taqdim etildi, 1159 nafari esa zarur dori-darmonlar bilan ta'minlandi;

- 665 nafar keksalarning xonadonlarida hasharlar, 54 nafar yakka yolg'iz keksalarning esa yubiley kechalari o'tkazib berildi;

- “Keksalik – hayotning ajib fasli” mavzusida 407 ta ko'rgazmalar tashkil etilib, ularga 6741 nafar keksalar jalb etildi;



- uyida yotib qolgan 8 709 nafar hamda shifoxonalarda davolanayotgan 948 nafar nuroniylarning holidan xabar olish, ularga moddiy va ma’naviy yordamlar ko‘rsatish tadbirlari uyushtirildi;
- 214 nafar keksaning tomorqa ishlariga ko‘maklashildi;
- 483 ta mahallada keksa avlod vakillarining yoshini hisobga olgan holda shaxmat-shashka, 347 tasida esa piyoda yurish, voleybol, mini-futbol, stol tennisi kabilar bo‘yicha “Keksalar zavqi” sport musobaqalari o‘tkazildi, ularda 14 554 nafar nuroniylar ishtirok etdi;
- 317 ta ta’lim muassasasida “Keksalar — oila chirog‘i” mavzusida qo‘shimcha mashg‘ulotlar o‘tkazildi, shuningdek, 271 ta maktabdagi to‘garaklar faoliyatiga 4 696 nafar keksa jalb etildi, ular ishtirokida “Nuroniylar yoshlar nigohida” mavzusida uchrashuvlar tashkillashtirildi.

Nuroniylar o‘rtasida madaniy-ma’rifiy va targ‘ibot tadbirlari:

- 342 ta mahallada keksalarning diydorlashuv tadbirlari, 153 tasida tomorqadan samarali foydalanish bo‘yicha tadbirlar tashkil etilib, ularga 11 880 nafar keksa va nuroniylar jalb etildi;
- “Asr bilan yuzma-yuz” tadbirlari doirasida 100 yosh va undan katta 21 nafar nuroniylar holidan xabar olindi, 1 017 nafar keksalar va yoshlar ushbu tadbirlarga jalb etildi;
- 16 ta harbiy qismda 223 nafar nuroniylar va nafaqadagi harbiy xizmatchilar ishtirokida “Keksalar ma’rifati” mavzusida ma’naviy tadbirlar uyushtirildi;
- 311 ta mahallada “Bobom, buvim va men kitobxon” shiori ostida kitobxonlik aksiyalari, 412 tasida “Kasbim – faxrim” mavzusida uchrashuvlar tashkil etildi, ularga 14 411 nafar keksa avlod vakillari hamda 18 237 nafar yosh avlod vakillari jalb etildi;
- 579 ta mahallada 13 249 nafar nuroniylar ishtirokida oilalarni mustahkamlash, yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat qilish ruhida tarbiyalash targ‘ibot tadbirlari o‘tkazildi, ularga 16 501 nafar yoshlar jalb etildi;
- 170 ta mahallalarda milliy mahsulotlarning ko‘rgazmasi o‘tkazildi;
- 473 ta mahallada “O‘zbekiston – umumiy uyimiz” shiori ostida turli millat vakillari o‘rtasida madaniy-ma’rifiy tadbirlar, 152 tasida amaliy san’at, hunarmandchilik buyumlari, milliy mahsulotlarning ko‘rgazmasi o‘tkazildi;
- 313 ta ta’lim muassasasida “Nuroniylar yoshlar nigohida” mavzusida uchrashuvlar, 248 tasida “Bobomning aytishicha” mavzusida “Nabiralar inshosi” tanlovi o‘tkazildi, ularda jami 6568 nafar nuroniylar va 12 018 nafar yoshlar ishtirok etdi;



– 13 161 nafar nuroniylar ishtirokida “Yangi O‘zbekistonni barpo etishda nuroniylarning o‘rni” mavzusida 442 ta ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etildi;

Shuningdek, tuman (shahar)larda 1 ta mahalla idorasi va 16 ta boshqa obyektlarning foydalanishga topshirish tadbirlari o‘tkazildi.

Yuqorida qayd etilgan tadbirlar haqida markaziy va mahalliy telekanallarda 36 ta ko‘rsatuv namoyish etildi, bosma OAVlarida 6 ta va ijtimoiy tarmoqlarda 1 711 ta material e‘lon qilindi.

Toshkent shahar Nuroniy jamg‘armasi tashabbusi bilan haftalik doirasida joriy yilning 4-oktabr kuni Toshkent shahrining har bir tumanidan **8–10** nafardan jami **102** nafar faol nuroniy otaxon va onaxonlarning **Samarqand** shahriga sayyohatlari tashkil etildi, 5-oktabr kuni Olmazor tumanidan **50** nafar jami **152** nafar nuroniylar uchun **41 million** so‘m mablag‘ ajratildi.

Haftalik doirasida 3 nafar nuroniylarga nogironlik aravachasi, 3 nafariga eshitish moslamasi ajratildi.

Yangihayot tumanida istiqomat qiluvchi ijtimoiy himoyaga muxtoj keksa nuroniylar uchun “Bir piyola choy ustida” loyihasi asosida tadbir tashkil etilib, 80 nafar nuroniy madaniy hordiq chiqarishiga (4 800 ming) so‘m mablag‘ ajratildi.

Toshkent shahrida istiqomat qiluvchi 100 yoshni qoralagan 21 nafar nuroniylarning hollaridan xabar olish maqsadida 900 ming so‘mlik sovg‘alar xaridi uchun 18 900 ming so‘m mablag‘ ajratildi.

Faol nuroniylarni sportga jalb qilish maqsadida 38 nafar otaxon va onaxonlar uchun sport maskanlariga qantashi uchun 20 million so‘m mablag‘ ajratildi.

151 nafar yakka yolg‘iz nuroniylarga 500 ming so‘mdan mablag‘ ajratildi.

Toshkent shahar Nuroniy jamg‘armasi tashabbusi bilan 2640 nafar keksalar O‘zbek milliy akademik teatriga, 1200 nafar rusiyzabon millatiga mansub keksalar M.Gorkiy nomidagi rus davlat drama teatriga olib borilishi ta’minlanmoqda.

Joylarda “Keksalar haftaligi” doirasida tadbirlar davom etmoqda.

Nuroniyalar faoliyatini rivojlantirishda mavjud bo‘lgan muammolar va takliflar.

Nuroniyalarni qo‘llab-quvvatlash, ularga bo‘lgan e‘tiborni yanada kuchaytirish, keksalar va faol nuroniylar bilan olib borilayotgan ishlarni jadallashtirish maqsadida Nuroniyalar jamg‘armasi Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash vazirligidan alohida tashkilot sifatida ajralib chiqdi:

– har bir mahallada nuroniylar jamoatchilik guruhiga keksalar maslahat guruhi bilan birlashtirish, qo‘shib yuborish, nuroniylar va faxriylar ishlari bo‘yicha viloyat, shahar, tuman (shahar) bo‘limlarini amalda tashkil etish.



Oila va xotin-qizlar bilan ishlash bo‘yicha mavjud jamoatchilik komissiyalari va harakatlari ro‘yxati:

- Ota-onalar universiteti jamaotchilik tuzilmasi (VM№554, 19.07.2018), “Oqila ayollar” harakati jamoatchilik tuzilmasi (VM№437, 08.08.2022);
- Ayollar maslahat kengashi (Nizomi normativ hujjat bilan qabul qilinmagan, PAning 10.02.2021 dagi 4-son XDFU);
- Xotin-qizlar bilan ishlash komissiyasi;
- Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash komissiyasi.

Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash vazirligi qoshidagi “Buvijonlar maktabi” jamoatchilik tuzilmasini Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi tarkibiga qo‘shish yuqorida qayd etilgan tuzilmalar bilan birlashtirish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrdagi “O‘zbekiston faxriylarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash “Nuroniylar” jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4906-sonli Farmonlariga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari 2017-yil 1-sentabrgacha har bir tuman va shaharda, qoidaga ko‘ra, madaniyat va dam olish istirohat bog‘lari hududida “Nuroniylar maskani” majmualarida faoliyat ko‘rsatilishi, ularda “Nuroniylar” jamg‘armasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tumanlardagi (shaharlardagi) bo‘limlarini joylashtirish uchun binolar ajratilishi yoki qurilishini ta‘minlash nazarda tutilgan.

Majmualarni qurishda boy kitob fondiga ega bo‘lgan kitobxonlar zallari, shaxmat, shashka o‘ynash uchun dam olish xonalari, keksalar uchun maxsus trenajyorlar bilan jihozlangan davolash jismoniy tarbiya zallari, shuningdek, oshxona va tibbiy xona tashkil etilishi, ularni zarur mebel, kompyuter texnikasi va aloqa vositalari bilan jihozlash nazarda tutilgan bo‘lib, ushbu qaror ijrosini ta‘minlashda sustkashlikka yo‘l qo‘ymaslik, “Nuroniylar maskani” majmualarining qurilishi va tashkil etilishini qat’iy nazoratga olish.



I SHO‘BA.

KEKSA AVLOD VA IJTIMOIY SIYOSAT





Elmira BASITXANOVA,
*O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash
vaziri o‘rinbosari*

“KEKSALAR HAFTALIGI”DA SOG‘LIQNI SAQLASH TIZIMIDA AMALGA OSHIRILGAN ISHLAR TO‘G‘RISIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada sog‘liqni saqlash tizimida keksalarga tibbiy xizmat ko‘rsatish holati, amalga oshirilgan ishlar va mavjud muammolar ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: tibbiyot, tibbiy xizmat, nuroniy, o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lganlar, oilaviy poliklinika, salomatlik maktabi.

Аннотация. В данной статье показано состояние медицинских услуг пожилым людям в системе здравоохранения, проделанная работа и существующие проблемы.

Ключевые слова: медицина, медицинская помощь, пожилые люди, люди, нуждающиеся в уходе, семейная поликлиника, школа здоровья.

Annotation. This article shows the state of medical services for the elderly in the health care system, the work done and the existing problems.

Key words: medicine, medical care, elderly people, people in need of care, family clinic, health school.

Davlatimiz rahbari tomonidan mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy siyosatning asosiy maqsadlaridan biri keksa avlod vakillarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ularni e‘zozlash, ijtimoiy faolligini oshirish, keksa avlod vakillari orasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hisoblanadi.

Ayniqsa so‘nggi yillarda mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya qilish, yolg‘iz keksalar, ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta‘minlangan oilalarga har tomonlama ko‘maklashish, nuroniylarning bilim va boy hayotiy tajribasidan yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik ruhini mustahkamlash yuzasidan ibratli va ezgu ishlar amalga oshirilmoqda.

Mahallalarda **“Keksalar maslahati”** guruhleri va **“Buvijonlar maktabi”** kengashlarining tashkil etilishi, **“Nuroniylar”** maskanlarining barpo etilganligi, **«Hech kim mehr va e‘tibordan chetda qolmasin»** shiori ostida ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan keksalar va nuroniylar holidan doimiy xabar olish tizimi yo‘lga qo‘yilganligi va tizimli ravishda har yili oktabr oyining birinchi haftasida **“Keksalar haftaligi”**ning o‘tkazilishi fikrimizga yaqqol dalil bo‘ladi.



Shu bilan birgalikda, **2022-yil 15-martdagi “Nuroniylarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning turmush darajasini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 167-sonli** qaroriga muvofiq nuroniylarimizni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha bir qator yangiliklar kiritildi, xususan **2022-yilning 1-aprelidan** boshlab Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan:

- o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz keksalar va yolg‘iz yashaydigan keksalar **har yili bir marotaba sanatoriylarda bepul sog‘lomlashtirilishi;**

- sharoiti og‘ir va kam ta‘minlangan keksalarga shifokorlarning retseptlariga asosan **3 oylik ehtiyojdan** kelib chiqib, **dori vositalari, tibbiy va maxsus protez-ortopediya moslamalari olib berilishi** hamda **jarrohlik amaliyotlarining xarajatlari qoplanishi;**

- og‘ir tashxisli kasalliklari hamda nogironligi bo‘lgan keksalarga shifokorlarning retseptlariga muvofiq, **3 oylik ehtiyojdan** kelib chiqib, **dori vositalarining 50 foizigacha** bo‘lgan summasi kompensatsiya qilinishi;

- ayniqsa keksalarning madaniy hordiq chiqarishlari va salomatliklarini mustahkamlash uchun jismoniy faolligini moddiy jihatdan ham qo‘llanishi juda ko‘p mamlakatlar xavas qilsa arzigulik ibratli amaliyot hisoblanadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda **55** yoshdan katta yoshdagi fuqarolarimiz **4 630 926** nafarni tashkil etib, ular orasida nuroniylarimiz **280 mingga** yaqinni tashkil etadi.

Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan har bir keksa yoshdagi fuqarolarimiz **956** ta oilaviy shifokorlik punktlari, **1028** ta oilaviy poliklinikalar, **207** ta ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalarning oila shifokorlari tomonidan hisobga olingan bo‘lib, ular uchun salomatlik holatiga ko‘ra sog‘lomlashtirish-reabilitatsiya tadbirlari bilan qamrab olingan. Shu bilan birga JSSTning “bir qadam” tamoyiliga asosan keksa yoshdagi fuqarolarimizning murojaatlarini inobatga olgan holda **1002** ta mahalla tibbiy punktlari tashkil etilib, **3,5 mln.** nafar aholiga birlamchi tibbiy xizmat yaqinlashtirildi.

Yil yakunigacha hududlarda yana **30** ta oilaviy poliklinika va **298** ta mahalla tibbiy punktlari tashkil etilishi natijasida qo‘shimcha **700 ming** nafar aholiga birlamchi tibbiy xizmat yaqinlashtiriladi.

Shu bilan birga, birlamchi tizimda **19,5** mingta kunduzgi shifo o‘rinlari tashkil qilinishi va ularning ish faoliyati 20-00gacha uzaytirilishi natijasida, poliklinikalarga murojaatlar soni **191 mln.tani** tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **4 mln.taga** ortdi.

Poliklinikalardagi kunduzgi shifoxonalarda **740** ming nafar bemorning (2021-yil davomida – 603 ming) oilasidan ajralmagan holda davolanish imkoniyati yaratildi.



Joriy yilda birlamchi tibbiyot muassasalariga **31** mln dollar qiymatidagi **820** tadan UZI va EKG uskunalar yetkazib berildi, stomatologik hamda ginekologik kabinet va xirurgik jamlanmalar xarid qilindi va yetkazib berildi.

Birlamchi tizim muassasalariga markazlashtirilgan holda **33** turdagi **136** mlrd so‘mlik asosiy dori vositalari mahalliy ishlab chiqaruvchilar bilan tuzilgan shartnomalariga asosan yetkazib berilmoqda.

Joriy yil **“Keksalar haftaligi”** davomida respublika bo‘yicha **665 961** nafar keksalarimiz ko‘riklardan o‘tkazilib, kasallik aniqlanganlarning **387 979** nafari (**58,2%**) ambulator sharoitda davolangan bo‘lib, ularning **109 055** nafari (**28%**) dori darmonlar bilan ambulator davolash muassasalari tomonidan bepul ta‘minlangan.

5012 nafar keksalarimizga protez-ortopediya moslamalari bilan ta‘minlash uchun Tibbiy ijtimoiy xizmatlar agentligining xududdiy bo‘limlariga xulosa berilgan bo‘lib, o‘tgan davrda **4 170** nafar fuqarolar ijtimoiy xizmatlarga berilgan ma‘lumotlar asosida protez-ortopediya moslamalari bilan ta‘minlangan.

O‘tkazilgan ko‘riklar natijasida **2 076** nafar keksa-nuroniylarda jarrohlik amaliyoti o‘tkazishga ehtiyoj aniqlangan bo‘lib, o‘tgan davrda ularning **1 401** nafarida ushbu amaliyotlar o‘tkazilgan va bemorlar darddan forig‘ bo‘lgan.

Shu bilan birga, mahallalarda “Salomatlik maktabi” faoliyatini yo‘lga qo‘yish orqali keksa avlod vakillariga “Sog‘lom ovqatlanish” yarmarkalari tashkil etish orqali to‘g‘ri ovqatlanish tamoyillariga rioya qilish bo‘yicha suhbatlar o‘tkazilmoqda.

Mahallalarda tashkil etilgan “E‘zozli ayollar” klubi vakillari o‘z dardiga jismoniy faollik tufayli malham topgan ayollarni biriktiradi. Bugungi kunda ularning saflari kundan kunga ortib bormoqda. Bu ayollar erta tongdan turib ommaviy ravishda badan tarbiya mashqlarini bajarsalar, kechki payt “Salomatlik yo‘laklari”da kechki sayrni amalga oshirmoqdalar. Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan har shanba kuni mahallalarda o‘tkaziladigan “Salomatlik kuni”ning faol ishtirokchilari ham aynan mana shunday sog‘lom qarilik gashtini surayotgan otaxon-onaxonlarimiz hisoblanadi.



To‘lqin Tog‘ayqulov,
Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash vazirligi
Nuroniylar va faxriylarni qo‘llab-quvvatlash, ularning
ijtimoiy faolligini rivojlantirish boshqarmasi
boshlig‘i o‘rinbosari

NURONIY VA KEKSALARNI QO‘LLAB-QUVVATLASH BO‘YICHA DAVLAT SIYOSATINING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatda nuroniy va keksalarni qo‘llab-quvvatlash borasida davlat tomonidan olib borilayotgan siyosat mazmun-mohiyati, uning asosiy yo‘nalishlari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: keksalarga oid siyosat, keksalar haftaligi, nuroniylar maskanlari, uch avlod uchrashuvi, ijtimoiy va moddiy ta‘minot.

Аннотация. В данной статье описывается сущность государственной политики поддержки пожилых и пожилых людей в стране, и ее основные направления.

Ключевые слова: политика пожилых людей, неделя пожилых людей, дома престарелых, встреча трех поколений, социальная и материальная поддержка.

Annotation. This article describes the essence of the state policy to support the elderly in the country, and its main directions.

Key words: policy of the elderly, the week of the elderly, nursing homes, meeting of three generations, social and material support.

Xalqimizning boy ma‘naviy merosiga nazar solsak, azaldan qariyalarni qadrlash, e‘zozlash va hurmatini joyiga qo‘yish – milliy qadriyat darajasida e‘tirof etib kelingan. Xalqimizda “Qari bilganni pari bilmas”, “Qarisi bor uyning parisi bor”, “Qari uyning farishtasi, saranjomi, sarishtasi” kabi maqollar bejizga aytilmagan. Shuning uchun ham deyarli barcha o‘zbek xonadonlarida har qanday ishga kattalarning rozi-rizoligi va yo‘l-yo‘rig‘i bilan qo‘l uriladi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda istiqomat qilayotgan **3 million 160 ming nafardan** ortiq keksalar va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash, ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida to‘laqonli, faol ishtirok etishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish bilan bog‘liq masalalarda keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, keksalarning ijtimoiy faolligini yuksaltirish va turmush darajasini yanada yaxshilashga hamda ularning jamiyat, oila va mahallalarda tinchlik va osoyishtalikni ta‘minlash,



yosh avlodni ko‘p asrlik an‘analarimizga hurmat ruhida tarbiyalash borasidagi rolini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Davlatimiz rahbari boshchiligidagi olib borilayotgan islohotlar natijasida so‘nggi yillarda keksa va nuroniylarning ijtimoiy faolligini oshirish va ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida **10 dan ortiq** qonunchilik hujjati qabul qilinib, quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- 1) 1941–1945-yillardagi urush qatnashchilariga sanatoriyalarda har yili yo‘llanmaning o‘rtacha narxiga teng ravishda kompensatsiya olish huquqi berildi;
- 2) Kasaba uyushmalari Federatsiyasi mablag‘larining **30 foizini** pensionerlarni, birinchi navbatda urush va mehnat fronti faxriylarini sog‘lomlashtirishga yo‘naltirish yo‘liga qo‘yildi;
- 3) Barcha ishlovchi pensionerlarga **pensiyalarni 100 foiz miqdorida to‘lash**, pensionerlarga pensiyalarini **naqd pulda** berish va xonadonlariga yetkazib berish tizimi joriy etildi;
- 4) **“Mehnat faxriysi”** ko‘krak nishoni ta‘sis etildi;
- 5) **148 ta** tuman (shahar)da keksa avlod vakillari uchun **“Nuroniylar maskanlari”** tashkil etildi;
- 6) Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini davlat byudjeti mablag‘lari hisobidan oziq-ovqat mahsulotlari, zarur kiyim-kechak va poyabzallar hamda gigiena tovarlari bilan **bepul ta‘minlab borish tartibi** joriy etildi;
- 7) Bayramlarda urush qatnashchilari va mehnat fronti faxriylariga moddiy yordam ko‘rsatish tizimi joriy etildi;
- 8) Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hamda tumanlar va shaharlarda **Nuroniylar jamoatchilik kengashlari** tashkil etildi;
- 9) Barcha mahallalar qoshida **“Keksalar maslahati”** guruhlarini tashkil etildi;
- 10) har yili **oktabr oyining birinchi haftasi “Keksalar haftaligi”** sifatida keng nishonlanadigan bo‘ldi;
- 11) har yili **1 noyabrdan 30 noyabrga** qadar **“Keksalar uchun turizm oyligi”** o‘tkazilishi yo‘liga qo‘yildi;
- 12) Barcha umumta‘lim maktablarida har oyning bir kuni yuqori sinf o‘quvchilari uchun **“Nuroniylar tarbiyaviy soati”** etib belgilandi;
- 13) Mahallalarda, ta‘lim muassasalarida va harbiy qismlarda mehnat faxriylarining yoshlar bilan **“Uch avlod”** uchrashuvlarini muntazam ravishda o‘tkazib borish tizimi yo‘liga qo‘yildi.



Shuningdek, bugungi kunda mamlakatimizda **keksalarga hurmat, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalalari davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan** bo‘lib, bu O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-sonli Farmonida o‘z aksini topgan.

Mazkur Farmon bilan quyidagilar nuroniy va keksalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari etib belgilandi:

1. Ijtimoiy hamjihatlik va adolatlilik tamoyillari asosida **keksa avlod vakillarining hayot sifati va uzoq umr ko‘rish darajasini oshirish** uchun qulay shart-sharoitlar yaratish.

2. Keksav avlod vakillariga o‘z vaqtida, manzilli va samarali ijtimoiy yordam ko‘rsatilishini ta‘minlash, ularga sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya, ta‘lim, madaniyat va transport tizimlaridan keng foydalanishi uchun **zarur shart-sharoitlarni yaratish.**

3. Keksav avlod vakillarining kafolatli **ijtimoiy va moddiy ta‘minotini tashkil etish.**

4. Zamonaviy iqtisodiyotda keksav avlod vakillarining **huquqiy va moliyaviy savodxonligini oshirib borishga** sharoitlar yaratish.

5. Keksav avlod vakillarining tizimli ravishda jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishlari uchun zarur sharoitlarni yaratish.

Bugungi kunda mamlakatimizda qariyalarga munosib turmush sharoiti yaratish maqsadida ularni davlat tomonidan ijtimoiy himoyalash, moddiy va ma‘naviy jihatdan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari ko‘rilmoqda. Bu borada vazirliklar, davlat qo‘mitalari, idoralar, aksiyadorlik kompaniyalari, uyushmalar va boshqa xo‘jalik birlashmalari, tashkiliy-huquqiy shaklidan qat‘i nazar, ularning rahbarlari zimmasiga pensiyaga chiqadigan xodimlarga doimiy g‘amxo‘rlik va e‘tibor ko‘rsatish, ularga zarur moddiy va ijtimoiy yordam berish, jamiyat hayotida faol qatnashishiga ko‘maklashish, shuningdek, pensionerlardan, ayniqsa, yakka-yolg‘izlardan xabar olish, tug‘ilgan kunlarida va bayramlarda ularga esdalik sovg‘alar berish, ularning uy-joy, maishiy muammolarini hal etishda ko‘maklashish, sanatoriya-kurortda sog‘lomlashtirish va davolashni tashkil etish, muqaddas joylarga va ziyoratgohlarga ekskursiyalar tashkillashtirish va boshqa ijtimoiy ahamiyatli tadbirlarni amalga oshirishni ta‘minlash masalalarida shaxsiy mas‘uliyat yuklangan.

Qisqacha aytganda, keyingi yillarda keksalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha izchillik bilan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida mamlakatimizda keksalarning turmush darajasi va hayot sifati yaxshilandi.



Keksalarni e'zozlash dunyo hamjamiyatida ham ahamiyatli mavzu bo'lib, BMT Bosh Assambleyasining 1990-yil 14-dekabrda rezolyutsiyasi bilan **1 oktabrning “Xalqaro keksalar kuni”** sifatida belgilanishi buning dalilidir.

Misol uchun, Yaponiya, Koreya, Xitoy va Hindiston davlatlarida keksa odamlarni hurmat qilish an'anasi mavjud bo'lib, farzandlar keksa ota-onalariga g'amxo'rlik qilishga burchli hisoblanadi.

Ammo, bugungi kunda dunyoning ko'pgina mamlakatlarida globallashuv jarayonlari ta'sirida qadimiy qadriyatlar emirilayotganligi sababli, farzandlarning o'z ota-onasidan doimiy hol-ahvol so'rab turishga, ularni muntazam ravishda borib ko'rishga vaqt topishi amri mahol bo'lib borayapti.

Shuning uchun hozirgi kunda Yaponiyada qariyalarga yangi texnologiyalarni, shaxsiy kompyuter va internet, ijtimoiy tarmoqlardan unumli foydalanishni o'rgatish orqali ish o'rinlari yaratish maqsadida qariyalar uchun zamonaviy kompyuterlarda va dasturlarda ishlash ko'nikmalarini o'rgatuvchi maxsus kurslar muvaffaqiyatli joriy qilinmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shuningdek, xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish natijalari asosida keksalarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, sohadagi muammolarni bartaraf etish bo'yicha quyidagi takliflarni bildiramiz:

1. Keksalar avlod vakillarini zamonaviy hayot tarziga moslashtirish, ularning to'laqonli hayot kechirishlarini ta'minlash maqsadida ularga yangi texnologiyalarni, shaxsiy kompyuter va internet, ijtimoiy tarmoqlardan unumli foydalanishni o'rgatish lozim. Buning uchun keksalarga zamonaviy kompyuterlarda va dasturlarda ishlash ko'nikmalarini o'rgatuvchi maxsus kurslar tashkil etish talab etiladi.

Mazkur kurslarni muvaffaqiyatli o'zlashtirgan keksalar **birinchidan**, dunyoning turli burchaklaridagi o'z yaqinlari bilan internet va boshqa aloqa vositalari orqali bimalol muloqotga kirisha oladi.

Ikkinchidan, o'zlariga zarur mahsulot va xizmatlarni uyda o'tirib, buyurtma qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Uchinchidan, malakali keksalarning tarjimonlik, ma'lumotlar bazalari bilan ishlash, saytlarni yuritish, ijtimoiy tarmoqlardagi bahs-mulohazalarga javob qaytaruvchi sifatida bandligi ta'minlanadi.

Eng muhimi buning uchun keksalarga alohida ofis yoki ish joylari, mehnat shartnomasi tuzish ham talab qilinmaydi. Buni uyda o'tirib, bimalol bajarishlari mumkin bo'ladi;

2. O'zbekiston sharoitida keksalar otaxon va onaxonlarimiz uy-joy qurilishi, bolachaqaqning orzu-havasi va to'y-tomosha tashvishidan ortmaydi. Shu bois keksalar



turizmini rivojlantirish choralari ko'rish lozim. Buning uchun keksalarga xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan turkompaniyalar ochib, yoshi ulug'lar uchun mamlakat ichida alohida sayyohlik yo'nalishlarini yaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

3. Keksalarning ijtimoiy izolyatsiyasi, ya'ni odamlarga qo'shilmasdan uyda yolg'iz yashashi, muloqot qilmasligi ularning sog'ligi va ruhiyatiga katta zarar etkazadi. Oila a'zolari va boshqa insonlar bilan yaxshi va faol muloqotlar esa ularning kayfiyatini ko'taradi va salomatligini mustahkamlaydi. Shuning uchun keksalar o'rtasida jismoniy faollik, bir-biriga yordam berish, turli o'yinlar o'ynash, quvnoq muloqot o'tkazish yo'nalishlarida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni doimiy yo'lga qo'yish tizimini ishlab chiqish va joriy etish lozim. Ushbu tizim keksalarning ijtimoiy faolligi va hayot sifatini oshirishga xizmat qiladi.

4. Oktabr oyining har birinchi yakshanbasini **“Keksalarni e'zozlash kuni”** sifatida belgilash va shu kuni keksalarga o'zlarini xuddi shohlarday his qilishlari uchun jamoat transporti, sport va madaniyat maskanlari, sartaroshxona va boshqa xizmatlardan tekin foydalanish imkoniyatini yaratish, shuningdek, ehtiyojmand keksalarga bir martalik yordam pullari berishni yo'lga qo'yish.

5. Kexsa yoshdagi haydovchilarning xavfsizligini ta'minlash uchun ularga tegishli mashinaning orqa oynasiga yopishtiriladigan maxsus ogohlantiruvchi belgi qo'yishni joriy qilish lozim. Bu belgili mashinalarni ko'rgan boshqa haydovchilarning keksalarga hurmat bilan munosabatda bo'lishlariga, kexsa haydovchilarga xalaqit qilmasliklariga, ularni quvib o'tishda ehtiyotkorlikka amal qilishlariga, tezlikni kamaytirib ketayotgan bo'lsa, sabr-toqatli bo'lishlariga xizmat qiladi.

6. Pensiyani hisoblashning bazaviy miqdorini narx-navoning o'zgarishiga qarab har yili qayta ko'rib chiqish tartibini joriy qilish va uning miqdori keksalarning hayotiy muhim ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli bo'lishini ta'minlash choralari ko'rish lozim (misol uchun bazaviy pensiyani moliyalashtirishni sug'urta badallari, ish beruvchilar va davlat dotatsiyasi hisobidan qoplash).

7. Keksalik bilan bog'liq bo'lgan muammo va kasalliklar juda ko'p. Ammo, mamlakatimizda keksalar sog'ligidagi muammolar bilan shug'ullanadigan gerontolog va geriatr mutaxassislari etishmaydi, tibbiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida “gerontologiya” va “geriatriya ishi” mutaxassisliklari bo'yicha bakalavriatura va magistraturaga qabul kvotalari mavjud emas. Shuning uchun mamlakatimizda tibbiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida “gerontologiya” va “geriatriya ishi” mutaxassisliklari bo'yicha o'qitish tizimini joriy qilish maqsadga muvofiq.

8. Keksalarga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatilishini ta'minlash maqsadida ularning sog'ligini sug'urtalash tizimini joriy lozim. Ushbu tizimning joriy etilishi keksalarga



sog‘ligini tiklash uchun qilingan sarf-xarajatlarning asosiy qismini sug‘urta mablag‘lari hisobidan qoplash imkonini beradi.

Xullas, davlat siyosatida ham xalqimiz orasida ham keksalarga hurmat-ehtirom ko‘rsatish eng oliy qadriyatlarimizdan biri bo‘lib, oltinga teng xazinamiz bu – hayotning past-balandini chuqur biladigan, donishmand va ochiqko‘ngil nuroniylarimiz hisoblanadi.

Shu bois barchamiz Yaratgan nasib qilsa, bir kun kelib keksayishimizni unutmagan holda, yoshi ulug‘ insonlarni e‘zozlashimiz, ularning bosib o‘tgan hayot yo‘lidan ibrat olishimiz, yosh avlodni ham mana shu ezgu ishlarga da‘vat etishimiz ham farz ham qarzligini yodda tutib, nuroniylarimizni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash yo‘lida vijdonan xizmat qilishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *O‘zbekiston Respublikasining “Keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va aholining boshqa ijtimoiy ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to‘g‘risida”gi Qonuni (2016-yil 26-dekabr);*
2. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrda “O‘zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash “Nuroniylar” jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4906-son Farmoni;*
3. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrda “Keksalar va nogironlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-2705-son Qarori;*
4. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevralda “Jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-sonli Farmoni;*
5. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martda “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-sonli Farmoni;*
6. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-martda qabul qilingan “Nuroniylarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning turmush darajasini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 167-son qarori;*
7. *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-sentabrda “Keksa avlod vakillarining jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy faolligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 816-son qarori;*
8. *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 28-mayda “Keksalarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 340-son qarori.*



Nodira Musayeva,

*“Nuroniylar” jamg‘armasi Respublika boshqaruvi bo‘lim boshlig‘i,
falsafa fanlari doktori*

QADRIYATGA AYLANAYOTGAN AN‘ANA

Annotatsiya. Maqolada davlat tomonidan keksa va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash siyosati xalqimizning hayotida an‘ana sifatida azal-azaddan shakllangani va qadriyatga aylanayotgani ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: an‘ana, qadriyat, keksalar, mehnat faxriysi, “Nuroniylar” jamg‘armasi, keksalar haftasi, keksalar maslahat guruhi.

Аннотация. В статье выявлено, что политика поддержки государством пожилых людей и интеллигенции сформировалась как традиция в жизни нашего народа с незапамятных времен и становится ценностью.

Ключевые слова: традиция, ценность, пожилые люди, ветеран труда, фонд «Нурони», неделя пожилых людей, консультативная группа пожилых людей.

Annotation. The article reveals that the policy of state support for the elderly people has been formed as a tradition in the life of our people since immemorial times and is becoming a value.

Key words: tradition, value, elderly people, labor veteran, Nuroni Foundation, the week of the elderly people, advisory group of the elderly.

O‘zbekistonda yangi davr boshlandi. Davlatimiz rahbari “Xalqimiz bilan boshlagan demokratik islohotlar yo‘lini yanada qat’iy davom ettiramiz va bu yo‘ldan hech qachon ortga qaytmaymiz! Yangi O‘zbekistonni birgalikda, albatta, barpo etamiz!” deya juda ko‘p davralarda ta’kidlamoqda. Ishonch bilan aytilgan bu so‘zlar barchamizni yanada faolroq ishlashga da’vat etmoqda. 2022-yilda inson qadrini ulug‘lash nomli atamaning tez-tez quloqqa chalina boshlagani besh yil muqaddam boshlangan tub islohotlardan ortga qaytmasligimizdan dalolatdir.

Yangi O‘zbekistonda “Davlat – inson uchun” tamoyili asosida inson huquqlarini mustahkamlash, odamlarni rozi qilish islohotlarning eng ustuvor yo‘nalishiga aylandi va bu boradagi sa’y-harakatlar kelgusida ham izchil davom etadi. Ularning nechog‘li samarador bo‘lishida esa jamiyatimiz asosi bo‘lgan mahalla hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shu jihatdan, mazkur tizimdagi ishlar yanada takomillashtirilib, har bir mahallani hokimliklar bilan bog‘lash maqsadida mahallalarda hokim yordamchisi lavozimi joriy etilgani, amaliy ko‘nikmalarga ega nuroniylarimizni ijtimoiy faollikka chorlash



maqsadida turli loyihalarning ishga tushgani xalq bilan davlatni yaqinlashtirib, o‘rtadagi ishonch ko‘prigini mustahkamlayotir. Bu esa Prezidentimiz qayd etganidek, joylarda rahbarlar faqat davlatga emas, avvalo, inson va oilaga, ularning qonuniy manfaatlarini ta‘minlashga xizmat qilishiga erishishda dasturilamal bo‘lib xizmat qiladi. Bu o‘zgarish shuningdek nafaqat mahallada, balki yurtimiz bo‘ylab nuroniy otaxonu onaxonlarimiz bilan ishlash, pand-nasihati va duosini olishga ham imkon yaratayotir.

Xususan, Taraqqiyot strategiyasining birinchi yo‘nalishi erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, inson qadr-qimmati va uning qonuniy manfaatlarini ta‘minlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarni yangi pog‘onaga ko‘tarishga yo‘naltirilgan vazifalardan iborat. Ular hayotimizga tatbiq etilishi orqali millati, tili va dinidan qat’i nazar, yurtimizda yashayotgan har bir fuqaroning, butun xalqimizning farovonligini ta‘minlashga xizmat qiladigan “Yangi O‘zbekiston – xalqchil va insonparvar davlat” g‘oyasini amalga oshirishga alohida e‘tibor qaratilib, “Inson qadri uchun” degan ustuvor tamoyil to‘laqonli ro‘yobga chiqariladi.

Yoshi ulug‘ insonlarni qadrlash esa o‘zbek xalqining muhim milliy qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Chunki nuroniy larni e‘zozlash, g‘amxo‘rlik qilish kabi azaliy qadriyat xalqimizni jipslashtirish, odamlar orasida mehr-oqibat va hamjihatlikni mustahkamlash va turli millat vakillarining ahil, inoq totuvlikda yashashiga xizmat qilayotir.

Taraqqiyotga yetaklovchi yo‘l

Shuningdek, xalqimiz qariyalar qadr topgan yurtda mehr-oqibat, qut-baraka, tinchlik-xotirjamlik bo‘ladi, deyishadi. Bunday qadriyatlarga amal qilgan jamiyatda inson qadr topadi, ulug‘lanadi. Jamiyatning keksa avlod vakillariga e‘tibori va g‘amxo‘rligi mamlakatning-da taraqqiyot darajasini belgilaydi. Chunki ulug‘ maqsadlar yo‘lidagi harakatlar nuroniy larning hayotiy tajribalariga tayangan holda, ularning maslahati, duolari bilan boshlanadi. Zero, “Qarisi bor uyning – parisi bor” maqoli bejiz aytilmagan. Inchunun, qariyalarni e‘zozlashga dinimizda ham alohida e‘tibor berilgan. Imon-e‘tiqodli, ixlosli va nuroniy keksalarning hayotiy tajribalarini o‘rganish, ulardan ibrat olish, ularga izzat-ikrom ko‘rsatish yoshlar uchun juda foydalidir. Bunday xayrli ishlar Qur’oni Karimda ham, Payg‘ambarimiz Muhammad (sollallohu alayhi va sallam) hadislarida ham aytib o‘tilgan. Imom Termiziy Anasdan (roziyallohu anhu) rivoyat qilgan hadisi sharifda Muhammad (sollallohu alayhi va sallam) keksalarni ulug‘lash haqida bunday deganlar: “Yosh yigit keksa kishini yoshi ulug‘ligi uchun hurmat qilsa, Alloh taolo uni ham keksayganida hurmat qilinadigan insonlar qatoriga qo‘yadi”.



Nuroniyni qadrlagan yurt

Aynan shu jihatlar inobatga olinib, O‘zbekistonda oktabr oyining birinchi haftasi “Keksalar haftaligi” etib belgilangan va har yili “Keksalarni e’zozlash, ularga hurmat-ehтиrom ko‘rsatish xalkimizga xos ezgu fazilat” degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan “Keksalar haftaligi” o‘tkazib kelinmoqda. Bu kabi keng qamrovli tadbirlarning o‘tkazilishi yoshlar tarbiyasi uchun ham ahamiyatli va manfaatli, desak mubolag‘a bo‘lmas.

Xususan, hafatlikda nuroniylarimiz mamlakatimizning tarixiy shahar, ziyoratgohlari va dam olish maskanlarida bo‘lib, ma’naviy xordiq chiqaradi. Misol uchun, o‘tgan yili “Keksalar sayohat oyi” munosabati bilan “Nuroniylar” jamg‘armasi hamda Kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan 70 nafardan ortiq nuroniylarimiz uchun Samarqand shahriga sayohat va ziyorat tadbirlari uyushtirildi. Shu bilan birga, Imom Buxoriy nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi bilan hamkorlikda markaz anjumanlar saroyida “O‘zbekiston – keksalarni e’zozlagan yurt” mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya tashkil etilgandi.

Bundan tashqari, Prezidentimizning “O‘zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash “Nuroniylar” jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni hamda “Mehnat faxriysi” ko‘krak nishonini ta’sis etish to‘g‘risida”gi qarori asosida joriy 2022-yilda 1200 nafarga yaqin faol nuroniylar ko‘krak nishon bilan taqdirlandi. Bunday xayrli tadbirlarning davomi sifatida fidoyi onalarga bag‘ishlangan “Yurtning sharaflari onalari” nomli kitob-albom Respublika “Nuroniylar” jamg‘armasi tashabbusi bilan chop etishga tayyorlanmoqda.

Shuningdek, “Keksalar maslahati” guruhlarining izchil va samarali faoliyati sabab quyidagi yo‘nalishlarda ham samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan,

- keksa avlod vakillarining davlat va jamiyat hayotidagi ijtimoiy faolligini oshirish, mahalladagi muammolarni hal etish, milliy urf-odat, an‘ana va marosimlarni tashkil etish va o‘tkazishda yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish;

- mahallalarda ijtimoiy ma’naviy-muhit barqarorligini ta’minlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishda va aholining ayniqsa yoshlarning huquqiy savodxonligini yuksaltirishda faollik ko‘rsatish;

- mahallalarda aholiga xizmat ko‘rsatuvchi tashkilot va idoralar, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ustidan qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik nazoratini o‘rnatish;

- mahallalarda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, aholining, ayniqsa, yoshlarning huquqiy savodxonligini yuksaltirishga ko‘maklashish;



– kam ta’minlangan va ko‘p bolali oilalar, yolg‘iz, nogironligi bo‘lgan fuqarolar holidan xabar olish, ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashda davlat va jamoat tashkilotlariga ko‘maklashish;

– mahallalarda aholi o‘rtasida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari guruhlarini shakllantirish, ommaviy sport musobaqalariga yoshlarni qiziqtirish va keng jalb etishda faollik ko‘rsatish va boshqa yo‘nalishlardagi ishlari ham maqsadimizga to‘liqligicha erishishimizga debocha bo‘lmoqda.

Shuningdek, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, O‘zbekiston faxriylarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash “Nuroni” jamg‘armasi bilan birgalikda mamlakatda keksalarning turmush darajasi hamda sifatini oshirish maqsadida amaldagi qonunchilik va xalqaro tajribalarni chuqur o‘rganib, bugungi kunda uchrayotgan muammolarni tahlil qilgan holda keksa avlod vakillari, xususan, yakka yolg‘iz keksalar, mehnat faxriylari va pensionerlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan ishlar ham yuqoridagi islohotlarning mantiqiy davomidir.

Xulosa o‘rnida...

Darvoqe, yuqorida e’tirof etayotgan barcha ishlarimiz ijtimoiy-ma’naviy muhitni barqarorlashtirish, ehtiyojmand, mehr-muruvvatga muhtoj, boquvchisiz qolgan keksa va nogironligi bo‘lgan fuqarolarni moddiy-ma’naviy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgani bilan ahamiyatga molik.

Bu yil ham “Keksalar haftaligi” ni yuqori saviyada o‘tkazish, keksa avlod vakillarining davlat va jamiyat hayotidagi ijtimoiy faolligini oshirishga doir salomoqli ishlar reja qilingan. Maqsad esa bitta nuroniylarimizni qadrlash, ular orqali mahallalarda ijtimoiy ma’naviy-muhit barqarorligini ta’minlab, yoshlarni Vatanga manfaati tegadigan qilib tarbiyalashdir.



A.A.Xuseynova,

*Buxoro davlat universiteti professori,
falsafa fanlari doktori*

N.E.Sultonova,

*TAQI “Falsafiy va ijtimoiy-siyosiy fanlar”
kafedrası dotsenti, falsafa fanlari doktori (PhD)*

O‘ZBEK OILALARIDA KEKSALARNI E‘ZOZLASH – ENG OLIY QADRIYAT EKANLIGINI KELAJAK AVLODGA YOD ETISH ZAMON TALABIDIR

Annotatsiya. Maqolada oilalarda keksalarni e‘zozlash – eng oliy qadriyat sifatida qadrlash kelajak avlod tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega ekani tahlil etilgan. Yosh avlodni bilimga, ta’limga, ilmga, kitobga mehr-muhabbati, qadriyat va an’analarga sodiqlik tuyg‘ularini shakllantirish oiladan, mahalladan boshlash asosiy maqsad qilib olingan.

Tayanch so‘zlar: oila, nikoh, mehr, muhabbat, axloq, kitob, bilim, akl, inson, insonparvarlik, vatanparvarlik, ta’lim tizimi, odoq-axloq, milliy qadriyatlar, an’analari.

Аннотация. В статье проанализировано, что почитание пожилых людей в семьях, оценка их как высшая ценность, имеет важное значение в воспитании подрастающего поколения. Основная цель – сформировать у молодого поколения любовь к знаниям, образованию, науке, книгам, верность ценностям и традициям, начиная с семьи и махаллы.

Ключевые слова: семья, брак, привязанность, любовь, нравственность, книга, знания, разум, человек, гуманизм, патриотизм, система воспитания, нравы, национальные ценности, традиции.

Annotation. The article analyzes that honoring the elderly in families, valuing them as the highest value, is important in educating the younger generation. The main goal is to form a sense of love for knowledge, education, science, books, loyalty to values and traditions in younger generation, that starts in the family and the mahalla.

Key words: family, marriage, affection, love, morality, book, knowledge, mind, person, humanism, patriotism, education system, morals, national values, traditions.

O‘zbek oilalarida onaning mehr-muhabbati bo‘lganidek, farzandning keksa otasiga mexri qanday bo‘ladi degan savol insonni kiynaydi. O‘zbekistonda keksalarni qadrlashdan iborat xalqimizga xos asriy an’analarni, oilalarda tinchlik va totuvlik, jamiyatda barqarorlik muhitini shakllantirishga, jamiyatni tubdan o‘zgartirishda, sog‘lom avlodni tarbiyalashda, boy kasbiy va hayotiy tajribaning, ezgu an’analari



hamda madaniy qadriyatlarning uzviyligida va ularni yoshlarga etkazishda keksalarning faol ishtirok etishlarini ta'minlash, bolalar va yoshlarni ota-onalar hamda keksalarni izzat-hurmat qilish, qadrlash va ular to'g'risida g'amxo'rlik qilish ruhida tarbiyalash va ta'lim berish tizimini takomillashtirish-eng oliy qadriyat ekanligi aytiladi. Eng avvalo qariyalarni e'zozlash tushunchasini farzand tarbiyasidan boshlash maqsadga muvofiqdir. Sharq mamlakatlari yashash tarzida qadriyatlari, odatlarini o'rganish jarayonida “mehr-muhabbatning fenomeni” insonning ushbu xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, bunda “4+6 qadriyati” formulasi ishlab chiqildi. To'rt odat mehr-muhabbatni paydo qiladi: 1. Sevgi to'la kulgi. 2. Yaxshilik qilish. 3. Samimiylik. 4. Ko'maklashish. Insonlarning qalbidagi his-tuyg'ulari shakllanib urf-odatga aylanadi, ular shakllanib qadriyatlarni keltirib chiqaradi. Bu quyidagi to'rt qadriyat qahramonlik belgisidir : 1. Mardlik. 2. Dilozorlik qilmaslik. 3. Yaxshilikni mukofotlash. 4. Xatosiga jazolashni kechiktirmaslik. To'rt qadriyat 4 xarakat tufayli qo'ldan ketadi: 1. Rizq - noshukurlik qilsang. 2. Quvvat - hasad qilsang. 3. Fursat - qadriga yetmasang. 4. Obro' - manmanlik qilsang qo'ldan ketadi. To'rt qadriyat sog'lom fikrlash belgisi sanaladi: 1. Ertani ko'ra olish. 2. Sir saqlashni bilish. 3. Oxirigacha kurashish. 4. Maslahatlashib ish ko'rish. To'rt qadriyat sizni to'rt ne'matga etkazadi: 1. Sabr - orzularingizga. 2. G'ayrat - omadga. 3. Ibodat - taqvoga. 4. Qanoat - muhtojlik ko'rmaslikka. [1:54] Insonlarni sharq olimlarimiz “aqli mavjudot” sifatida o'rganib ijtimoiy-antropologik jixatdan to'rt xil xususiyatga bo'lib o'rganadilar:

1.O'zining aybini ko'rmaydi, o'zgalarnikini ko'radi. Bundaylar odatan xudbin, mutakabbir kishilar bo'ladi. Bu turdagilar nafslariga qul bo'lishadi. Ular o'zlarini doimo haq deb o'ylashadi.

2. O'zining aybini ko'radiyu, o'zgalarnikini ko'rmaydi. Bu turdagi shaxslar o'zlaridan bo'lak hammani alloma deb o'ylashadi. O'zlarini esa mutloq noto'g'ri yo'ldaman deb, o'zidan boshqa har qanday insonga ergashaverishadi. Natijada istagan inson ularni aldab, adashtirib ketaveradi.

3. O'zining aybini ham, o'zgalarning aybini ham ko'rmaydi.Bu navdagi kishilar befarosat, befahm, tentak kishilar bo'lishadi. Bular dunyodagi o'z vazifalarini unutib, dunyo hayoti bor yo'g'i o'yin-kulgidan iborat deb o'ylashadi.

4. O'zining ham, o'zgalarning ham aybini ko'ra biladiganlar. Bu toifadagilar oqil, olim, oliy farosat sohibi va kimga ergashishni biladigan zakiiy insonlardir. Ularning ko'zlarini na shaxs muhabbati, na mol-dunyo muhabbati ko'r qilmagandir. Ular har qadamlarida haqni izlaydilar. Ular o'zlaridagi aybni payqagan zahotlari o'zlarini isloh etadilar. O'zgalardagi xatoni ko'rganlarida ularga xolis nasihat qiladilar. Ayb qilib, aybini tan olmaydigan, nasihatga quloq tutmaydiganlarni tark qiladilar.



Muhiddin ibn Arabiyning "Inson nasihatni nafsingga qil, insonlar oldin ishingga boqarlar, so'zlaringga emas" inson haqida va uning his-tuyg'usi, odob-ahloqi, nafsini tiyib olishi, mehr-muhabbatni oliy his-tuyg'u sifatida qadrlash kerakligini ta'kidlagan.

Olim Mahmud Az-Zamaxshariy o'z asarlarida bu to'rt qadriyatni yuksak ma'naviyat-ma'rifat belgisi sifatida talqin qiladi. Bu to'rt qadriyatga amal qilgan insonlar komil ma'naviyatli inson sanaladi. Mehr-muhabbatning qadriyatlari insonni ulug'lanishi, kamol topishi uchun, hayotga go'zal boqishi, yashashni sevishi, insonlarga mehr-muhabbatli bo'lishi, samimiylik hislatlarining insonga jam bo'lishini ko'rsatib beradi. Mahmud Az-Zamaxshariy maqtovg'a, yolg'onga g'urur, ezmalik va safsatabozlikka berilmaslikka chorlaydi: "Agar kimdur o'zini kelib chiqishi bilan maqtansa, bu sarob kabi zohiriydir", "Haqiqat va nomus yo'li o'rmondagi arslon qadami bilan tenglashadi", "Til orqali (ruhiy) madad moddiy madaddan ustundir"[2:28] degan umuminsoniy va komillik sifatlar orqali erishish mumkin bo'lgan iroda haqida, insoniyatni farovonlik va xotirjamlikka, sabrlilikka intilishi haqida yozib qoldirgan.

Mehr-muhabbat antropologiyasida insonning buyukligi, qalbidagi inski bashariyat uchun manfaatli ishlarni amalga oshira olganligi bois ham yuksakdir. Insondagi oliy his-tuyg'u uning yurak qalb jarayonlarining amalga oshishi bilan bog'liq albatta. Lekin, har qanday muhitda dilida imon-e'tiqodini asrab-avaylishi, insoniyatning botiniy buyukligidir.

Ko'ngil uchun aytilgan ikki og'iz so'zning qudrati shundaki, u inson kayfiyatini ko'tarib, yashashga bo'lgan ishonchini mustahkamlab, saxovatli ishlarga undaydi. "Boshqalardan "Menga mehr ber" deb so'rash o'rniga, mehr berishni boshlang. Mehr so'rash haqida unuting, shunchaki, mehr beravering - berganingizdan ham ko'proq mehr olasiz."

Inson falsafasida diniy asarlarimizda, jumladan hadislarda "Musulmon kishi birodarlari va yaqinlari bilan uchrashganda, odamlar qarshisidan o'tayotganda, biror majlis yoki jamoat joyiga kirganda "Assalomu alaykum!" (Sizga tinchlik va omonlik bo'lsin) deb salom berishi zarur. Salomni yanada to'liq va chiroyli qilish uchun "Assalomu alaykum va rahmatullohi va barokatuh" deyiladi. Alik ham shunga yarasha mukammal bo'lishi kerak. Salom berish Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallamning ko'rsatmalari (sunnat), unga alik olish esa Alloh taoloning buyrug'i (farz) hisoblanadi. Darhaqiqat, mehr-muhabbat antropologiyasida insonning qalbi boshqa insonlarga mehrli bo'lsagina shakllanadi. Qachonki etnoslarda mehr-muhabbat his-tuyg'usi qalbida bo'lmas ekan, yovuz illatlarning shakllanishi, insonga bo'lgan nafrati salomlashish jarayoniga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi [4:65].

Hasan Basriy o'z asarlarida Dunyo hayoti uch kun: kecha, bugun, erta. Kecha o'tdi, ertaning bo'lishi noma'lum. Shunday ekan, bugungi kunni qadrlash, har bir



kunimizni mehr-muhabbat bilan o'tkazish, yaxshi yashashni o'rganish, hayotni sevish bilan belgilanadi.

Barchamiz hayotimiz davomida insonlar bilan munosabatga kirishar ekanmiz, ushbu munosabat doirasida turli psixologik holatlarni boshdan kechiramiz. Jumladan, biror inson bilan ziddiyatga borib qolganimizda unga nisbatan jahl, nafrat, adovat, kek kabi yaxshilikka olib bormaydigan zararli tuyg'ularni yuragimizdan o'tkazamiz.

Olimlarning fikricha adovat yoki kek saqlab yurish inson salomatligi uchun zararli bo'lib, yurak-qon tomir va immun tizimining buzilishiga turtki berishi mumkin. Bundan tashqari insonda depressiya, xavotir, jizzakilik kabi muammolarni keltirib chiqarar ekan. Psixologlar bunday holatdan chiqib ketishning yo'li inson kechirimli bo'lishga harakat qilishi kerakligini ta'kidlashadi. Kechirimli bo'lish insonlar o'rtasidagi yaxshi munosabatlarni ta'minlashga hamda uni mustahkamlashga ko'mak beradi. Kechirimli bo'lish ancha qiyin ish bo'lsada ammo uni o'zlashtirsa bo'ladigan san'atdir. Avf etishni ikki turga ajratishadi. Tashqi “beixtiyoriy” (inson kechiradi, ammo uni xafa qilgan odamga kelajakda munosabati o'zgaradi) va ichki “emotsional” kechirish (insondagi ichki nafrat va xavotirning ijobiy tuyg'ularga, ya'ni achinish va hamdardlik kabi hislarga aylanadi). Tashqi beixtiyoriy kechirish o'zaro munosabatlarni tiklashda ancha muhim sanalsa, ichki emotsional kechirish esa bizning jismoniy va ruhiy salomatligimiz uchun o'ta muhim hisoblanadi.

Buyuk faylasuf olimlarimiz: “Kasal bolani davolashning eng oson yo'lini ko'rsatar ekanlar onaning mehr-muhabbat antropologiyasini bayon qiladilar. Bola kasal bo'lganida onaning ko'ngliga hech narsa sig'may qoladi. Bolani davolash uchun palon pullik dorilarga pulini ham, shifokorlar qabuliga tushish uchun vaqtini ham ayamaydi. Bu holat ayolning qalbidagi inski (his-tuyg'usi) bo'lib, bolani ona ham davolashi mumkin. Buning uchun faqat mehrga to'la qalb talab etiladi, xolos. Afsuski 21-asrda ona mehri muhabbatini topish qiyin bo'lib bormoqda.

Mehr-muhabbat antropologiyasida “ona mehri sigmenti” quyidagicha:

1. Ona mehri vitamini. Ushbu oddiy so'zlar bilan ona bola organizmini foydali vitamin bilan to'ydira oladi: “Sen mening hayotimdagi eng kerakli insonsan. Sen men uchun qadrlisan. Men sensiz yashay olmayman. Biz (dadang va onang) seni juda yaxshi ko'ramiz!” Farzandning ota-onasi mehr-muhabbatining oshib borilishiga olib keladigan ijtimoiy jarayon.

2. Onaning mehr-muhabbat terapiya. Yengil kasalliklarda davo vositasi: “Sen juda kuchlisan va sog'lomsan. Sening yuraging, tanang va qorning kuchli va sog'lom. Sen yaxshi ovqatlanasan va sog'lom rivojlanasan. Sen juda kam kasal bo'lasan” – deya bolani hayotga bo'lgan mehr-muhabbatini oshirish va kuchli sog'lom fikrlash,



farzandining g‘oyalari va maqsadlarini qo‘llab-quvvatlash ijtimoiy-antropologik jarayondir.

3. Onaning bolasiga mehr-muhabbat-psixologik ko‘magi. Bolaning psixikasi sinmasligi uchun unga ozuqa berib turish lozim. “Sen yoqimli bolasan. Yaxshi uxlaysan. Asabiy emassan. Sabr-toqatli va aqlli bo‘lasan. Tiling yaxshi rivojlangan. Miyang yaxshi ishlaydi. Senda hammasi yaxshi bo‘ladi”, deb ona bolaga psixologik kuch beradi

4. Onaning mehr-muhabbati Bola uchun kuchli zarba. Bola qattiq kasal bo‘lganida dori vositalaridan tashqari onaning mehr va e‘tibori nihoyatda kerak. Ona o‘zining shirin so‘z-u-mehri bilan kasallikka zarba berishi lozim. “Seni juda yaxshi ko‘raman. Sen bizga keraksan. Kasalliklaring yo‘q bo‘lib ketsin. Kasalligingni olib tashlab yuboraman. Qiynalganlaringni olib unutib yuboraman”. Bola ota-onasidan hadeb tanbeh eshitaversa, kasal bo‘lishi oson bo‘lib qoladi. Ota-onasi ishonmagan, urushgan bolani tuzalishi qiyinroq kechadi.

5. “Ona bolasiz, bola onasiz yashay olmaslik” formulasini ishlab chiqish: Ota-ona bolaga charchov, alam va ranjish ko‘zlari bilan qarasa, bolaning hayotida omadsizliklar va kasalliklar ko‘p yuz beradi. Bu tasdiqlangan psixologik faktor. Bolalar ota-ona bilan birga yashashi, o‘ssishi, hayot jarayonida baxtlilikni keltirib chiqaradigan ijtimoiy-antropologik jarayon. Har kuni bolaga kamida 3 marta ota-ona mehrga to‘la so‘zlarni aytishi lozim. Bola onasining gaplarini his etib qabul qilishi kerak. Kasal bo‘lgan bolaga esa, bundan 10 barobar ko‘proq mehr va e‘tibor talab etiladi. Bolaga har doim, “Men seni yaxshi ko‘raman”, deb yurishga odatlarni bugungi oilalardagi farzand tarbiyasidagi mehr-muhabbat antropologiyasi sifatida o‘rganiladi [3:34].

Inson – hayot gultoji. Uning qadri, hurmati har doim e‘zozga loyiq. Keksalarni ardoqlash, izzat-hurmat qilish, ko‘makka muhtojlarning hurmatini joyiga qo‘yish qon-qonimizga singib ketgan fazilat. Ayniqsa, o‘tganlarni xotirlash, aziz otaxon-u onaxonlarning duosini olmoqlik saodati o‘zgacha.

Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son Farmoni ijrosini ta‘minlash, shuningdek, aholi sog‘ligini mustahkamlashga ko‘maklashadigan aniq dasturlarni amaliyotga joriy etish, yoshlar, ayollar va keksalarni sog‘lom turmush tarziga keng jalb qilish va ularni jismoniy faolligini oshirish uchun qo‘shimcha shart sharoitlar yaratildi. Aholining uzoq umr ko‘rish davomiyligini ta‘minlash dolzarb masalalardan biridir. Zero, ushbu ko‘rsatkich insonlarning sog‘lom turmush tarzi va farovon hayoti ifodasidir. Shu o‘rinda sog‘lom turmush tarzi nima, unga amal qilish me‘yorlari qanday, yurtimizda sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar nimalardan iborat, kabi savollar



tug‘iladi. O‘zbekiston miqiyosida eng uzoq umr ko‘rganlar soni bugungi kunga kelib (100 yoshdan oshgan) 15 dan ortiq kishini tashkil qilganligini hisobga olgan holda, haqiqatan ham respublika miqiyosida o‘rtacha yoshni oshirish davlat darajasidagi masala sifatida ko‘rilishi bejizga emasdir.

Bizga ma’lumki, tarbiya-avlodlararo ijtimoiy-tarixiy va hayotiy tajribani uzatishga xizmat qiluvchi, oila, ta’lim muassasalari, ijtimoiy, siyosiy va boshqa tashkilotlar, OAV va boshqalar ta’siri ostida jismonan sog‘lom, ma’nan barkamol insonni shakllantiruvchi va takomillashtiruvchi uzluksiz jarayon hisoblanadi. Yuksak ma’naviyatni tarbiyalash vositasi hisoblangan, muayyan shaxs, jamoa, muayyan guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkamollik, ruhiy, axloqiy, ma’naviy yetuklik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta’lim-tarbiya jarayonini ifodalovchi tushuncha bu – ma’naviy tarbiyadir. Ma’naviy tarbiya keng ma’noda inson shaxsini shakllantirishga, uning ishlab chiqarish va ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy hayotda faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan barcha ma’naviy ta’sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig‘indisini ifodalaydi.

O‘zbek xalqi hech qachon birovga bosh egmagan, hech kimdan kam bo‘lmagan va hech kimdan kam bo‘lmaydi ham. Yoshlarimiz, zaminimizda yashayotgan har bir fuqaro qalbidan shu yurt, shu xalq bilan g‘ururlanish, uning kelajagi, faravonligi yo‘lida qayg‘urish, kuyunchaklik hislari chuqur ildiz otmog‘i lozim. Zero, har qanday millatni, shu xalqni ulug‘lash uchun yashashi kerak. Ana shu tuyg‘uni qalbida jo qilgan, shu g‘oya atrofida birlashagan xalqni hech qanday kuch yengolmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Maxmud Az-Zamaxshariy. Al-mafassal.* – Toshkent: O‘zR FA Sharqshunoslik instituti, 2007. (420-423) – B. 54-58.
2. *Abdurauf Fitrat. Oila yoki oilani boshqarish tartibi.* – Toshkent: Ma’naviyat, 1998. – B. 28.
3. *Husayn Voiz Koshifiy “Axloqi Muxsiniy”.* – Toshkent: Ma’naviyat, 1996, – B. 34.
4. *Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al Buxoriy. Hadis. 2 Tomlik.* – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – B. 65.



Soatov Orzuqul,
O'zbekiston Oliy Majlisi senati a'zosi

KEKSALARI E'ZOZ TOPGAN YURT KAM BO'LMAYDI

Annotatsiya. Ushbu maqolada yurtimizda inson qadrini ulug'lash, shu jumladan keksalarimizga ko'rsatilayotgan ehtirom, hurmat va izzat, ularga yaratilib berilayotgan shart-sharoitlar haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: keksalar, nuroniy, hurmat, qadriyat, taraqqiyot strategiyasi, inson qadri, xalq, meros, an'ana, ehtirom, ijtimoiy himoya, nafaqa.

Аннотация. В данной статье представлена информация о почитании человеческого достоинства в нашей стране, уважении и почете, оказываемом пожилым людям, и созданных для них условиях.

Ключевые слова: пожилые люди, уважение, ценность, стратегия развития, человеческая ценность, люди, наследие, традиции, уважение, социальная защита, пенсия.

Annotation. This article provides the information about the veneration of human dignity in our country, respect and honor given to older people, and the conditions created for them.

Key words: elderly people, respect, value, development strategy, human value, people, heritage, traditions, social protection, pension.

Keksalarni hurmat qilish, ularga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish jamiyatimizning o'ziga xos yuksak madaniyatining azaldan davom etib kelayotgan ma'naviy va madaniy belgisidir. O'zbek xalqiga xos bo'lgan fazilatlar istiqbolimizning dastlabki yillaridan mamlakatimizda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ishlab chiqilgan Yangi O'zbekistonni 2022–2026-yillarda rivojlantirishga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida belgilangan muhim tamoyillardan biri aholini ijtimoiy himoya qilish bilan bog'liq vazifalarni amalga oshirish jarayonida inson qadri ustuvor vazifaga aylanib bormoqda. Yangi O'zbekistonni rivojlantirishning 2022–2026-yillarda mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi mamlakatimiz istiqbolini tubdan o'zgartirish yo'nalishlarini belgilab berdi [1].

Aholini ijtimoiy himoya qilish bo'yicha mustahkam huquqiy bazaga asoslangan ishonchli tizimni shakllantirish esa ushbu modelning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Zero, inson, uning hayoti va orzu-umidlari davlatimizning doimiy diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda.

Oila iqtisodida jamg'armaning o'rni katta. Oilaning jami puli, daromadlari va sarf-xarajatlari oila jamg'armasini tashkil qiladi. Oilaning qancha daromadi, qancha



xarajati mavjudligi jamg‘armadan kelib chiqqan holda hisob-kitob qilib borilishi ham zarur omil hisoblanadi. Oilaning moddiy baquvvatligi oila daromadini mohirona ko‘paytirish va uni xo‘jalik yuritishda mohirona sarflashga ko‘p jihatdan bog‘liq. Tejamkorlik esa oila farovonligini ta‘minlovchi muhim moddiy-ma‘naviy qadriyat hisoblanadi. Tejamkorlik – xasislik emas, balki uning mazmunida oila mablag‘ini qattiq nazorat qilish, halol mehnat evaziga kelgan pul va ro‘zg‘or anjom-ashyolari, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechaklarni qadrlash, avaylab-asrash, iqtisodiy kamchilikni chuqur bilish, ehtiyotkorlik, nafsni idora etish, “boyvachchalik” ortidan keladigan manmanlikdan o‘zni tiyish, har bir narsadan unumli foydalana bilish mahoratiga ega bo‘lish demakdir.

Keksalar oilalarni poydevori, hikmati, aql-tafakkuri, ziynati, toji-tarozisi, kamtarlik, samimiylik, komillik, ibrat namunasi. Shu bois, keksalari oila iqtisodida jamg‘armaning o‘rni hisoblanadi. Keksalar oilaning jami puli, daromadlari va sarf-xarajatlari oila jamg‘armasini himoya qilish, o‘z o‘rnida sarflash manbayidir. Keksalar nazorati tufayli oilaning daromadi, qancha xarajati mavjudligi jamg‘armadan kelib chiqqan holda hisob-kitob qilib boriladi. Oilaning moddiy baquvvatligi oila daromadini mohirona ko‘paytirish va uni xo‘jalik yuritishda mohirona sarflashga ko‘p jihatdan keksalarga bog‘liq. Tejamkorlik esa oila farovonligini ta‘minlovchi muhim moddiy-ma‘naviy qadriyat hisoblanadi. Keksalarni faolligi natijasida tejamkorlik – xasislik emas, balki uning mazmunida oila mablag‘ini qattiq nazorat qilish, halol mehnat evaziga kelgan pul va ro‘zg‘or anjom-ashyolari, oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechaklarni qadrlash, avaylab-asrash, iqtisodiy kamchilikni chuqur bilish, ehtiyotkorlik, nafsni idora etish, boyvachchalik orqasida bo‘ladigan manmanlikdan o‘zni tiyish, har bir narsadan unumli foydalana bilish mahoratiga ega bo‘lish demakdir.

Bugungi kunda mamlakatimiz yangi taraqqiyot yo‘lini belgilar ekan, eng avvalo, inson qadriga munosib e‘tibor qaratib, jamiyatimizda yashayotgan har bir insonning orzu maqsadlari hamda niyatlarini ro‘yobga chiqarishga munosib sharoit yaratib berilmoqda. Taraqqiyotimizning yangi bosqichida iqtisodiy rivojlanish, taraqqiyot, ijtimoiy himoya kabi sohalarga katta e‘tibor qaratilmoqda. Keksalarni qo‘llab-quvvatlash davlat tizimini yanada takomillashtirish maqsadida qariyalar va faxriylarni ijtimoiy himoyalash, ularning faolligini oshirish, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida to‘laqonli ishtirok etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, tinchlik va osoyishtalikni ta‘minlash sohasida katta avlod vakillarining rolini oshirishga katta e‘tibor qilinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “Keksalar haftaligi”ga tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori saviyada o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 158-son bayon qarori ham aynan mana shunday ulug‘ maqsadlarni ro‘yobga chiqishiga bag‘ishlangan desak ayni haqiqat bo‘ladi [2].



Bu yurtimizdagi barcha xonadonga surur baxshida qilib, keksalarimiz ko‘ngillarini tog‘dek ko‘tardi. Bu bilan, albatta, keksalarimizga yanada e‘tiborli, mehrli bo‘lish, ularning hayot tajribalarida sinalgan bebaho o‘gitlaridan foydalanish, oilalarning tinch-totuv, to‘kis yashashida, farzandlar tarbiyasida ularning pand-nasihatlariga ergashish kabi azaliy qadriyatlarimiz yanada rivojlanadi.

Zero, yoshi ulug‘larning pand-nasihatlariga quloq tutib faoliyat yuritish, ish boshlagan paytimizda ularning duosini olish eng qadrlan‘analarimiz sarasiga kiradi. Yurtboshimiz bu haqda ta‘kidlab: “Xonadonlarimizning fayzu farishtasi bo‘lgan nuroniy otaxon va onaxonlarimizni e‘zozlash, ularni hayotdan rozi qilish, qo‘limizdan kelganicha umrlarini uzaytirish asrlar davomida eng ulug‘ qadriyatlarimizdan biri bo‘lib kelmoqda. Bunday tabarruk insonlarga xizmat qilish, ularga munosib turmush sharoitlarini yaratib berish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar ko‘rishni ezgu va savobli ishimiz deb bilamiz”, deb alohida ta‘kidlab o‘tdilar [3].

Keksalar duosi ijobatining mahsuli, yurtimizning tinchligi shahar-u qishloqlarimiz obodligi farzandlarimiz baxti, bekiyos ne‘matlarning to‘kinligi ko‘zimizni quvontiradi. Bu yurtga Allohning nazari tushgan yurtboshisi odil, keksalarga e‘zozi bor.

Darhaqiqat, keksalarni e‘zozlash, ularga doimo e‘tiborli va mehrli bo‘lish qononimizga singgan qadriyatlarimizdan. Ularning hayot tajribalarida sinalgan bebaho o‘gitlari oilalarning tinch-totuv, to‘kis yashashida, farzandlar tarbiyasida qanchalar zarurligini hammamiz yaxshi bilamiz. Yoshi ulug‘lar bilan maslahatlashib ish tutish, ish boshlashdan oldin ularning duosini olish eng qadrlan‘analarimizdandir. Buning ma‘no-mohiyati “Qari bilganni pari bilmas”, degan naqlda ham yaqqol aks etgan. Azaldan xalqimiz ko‘plab ezgu ishlarida ko‘pni ko‘rgan otaxon-u onaxonlarning maslahatlariga tayanadi.

Yurtimizdagi har bir korxona va tashkilot, ta‘lim va tarbiya muassasalarida, davlat va nodavlat tashkilotlarida faxriylarga, nuroniylarga e‘tibor qaratilmoqda. Mehnat faxriylari e‘zozda, ularga zarur moddiy, ma‘naviy, tibbiy yordam ko‘rsatish choralarini ko‘rishda, barcha muammolarini echishda atrofdagilar beg‘araz yordam ko‘rsatilmoqda.

Xalqimizning yaxshi odatlari juda ko‘p. Masalan, oila, mahalla-ko‘yda, korxona va tashkilotlarda yoshi ulug‘ insonlarga o‘zgacha mehr-e‘tibor bilan munosabatda bo‘lishdan tashqari, biron ezgu ishni boshlashdan oldin keksa avlod vakillarining maslahati va duosini olishga odatlanganmiz. Ularni e‘zozlash bobidagi ezgu amallar qatoriga yana biri qo‘shildi. Gap shundaki, Vazirlar Mahkamasining “Keksa avlod vakillarining jamiyatlardagi o‘rni va ijtimoiy faolligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan 2019-yildan e‘tiboran oktabr oyining boshi “Keksalar



haftaligi” etib belgilandi. Shundan kelib chiqib, 2019-yilda mamlakatimiz tarixida ilk bor barcha shahar va qishloqlarda ushbu haftalik keng miqyosda nishonlandi [4].

Haftalik davomida Prezidentimiz tashabbusi bilan 600 nafar ijtimoiy faol keksa va nuroniylarga “Yangiyo‘l” sanatoriysida bepul dam olish imkoniyati berildi, 2019-yil 5–6-oktabr kunlari barcha teatrlar, shu yilning 7–8-oktabr kunlari esa muzeylar keksalarga bepul xizmat ko‘rsatdi.

Mazkur haftalik doirasida o‘tkazilgan tadbirlar asnosida: 28 357 nafar keksalarga turli sovg‘alar, 11 929 nafariga oziq-ovqat mahsulotlari, 3 343 nafariga dori-darmonlar ulashildi. 5 586 nafar nuroniyga 270 million, “Saxovat” va “Muruvvat” uylariga esa 222,844 million so‘mlik moddiy yordamlar ko‘rsatildi. Nuroniylarning 21 891 nafari sayyor “Tibbiyot brigadalari” tomonidan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi. 55 nafar keksalarga nogironlik aravachalari taqdim etildi [5].

Yoshi ulug‘ insonlar salomatligini mustahkamlash maqsadida “Har kuni 5 ming qadam” shiori ostida tashkil etilgan piyoda yurish marafonlarida 80 mingdan ortiq otaxon va onaxonlarimiz qatnashdi. Qadimiy urf-odatlar, qadriyatlar va marosimlar makon hisoblangan Surxondaryo viloyatida keksalarga bo‘lgan e‘tibor cheksiz hurmatga ega bo‘lib, asrlar davomida keksalar yoshlarga ibrat maktab bo‘lib, vatanparvarlik, insonparvarlik, mardlik, jasurlik, mehnatsevarlik, kamtartrlik, samimiylik, kasbga muhabat, oilani tashkil etish va boshqarish borasida yuksak ma‘naviyat maktabi hisoblanib kelmoqda. Shu bois Yangi O‘zbekiston sharoitida keksalarni mustaqillikni mustahkamlash, millatlar o‘rtasida o‘zaro do‘stlik, hamkorlikni yanda targ‘ib etishda faolligi oshib bormoqda. Surxondaryo viloyatida 2022-yilda 192 929 ta nuroniylar bo‘lib, shundan 170 240 tasi o‘zbeklar, 18 226 tasi tojiklar, 2 363 tasi turkmanlar, 990 tasi ruslar, 145 tasi qozoqlar, 23 tasi qirg‘izlar, 2 tasi qoraqolpoqlar va 934 tasi boshqa millat vakillari hisoblanib, bir-biriga hurmat, vatanga sadoqat ruhida istiqomat qilib kelmoqdalar. Nuroniylar e‘tibor davlat siyosatining asosiy dasturlardan biri bo‘lib, viloyatda 11 ta ikkinchi jahon urushi ishtirokchilari, mehnat fronti qatnashchilari 1244 ta, afg‘on urushi qatnashchilari 3839 ta, Chernobil AES qatnashchilari 314 tani tashkil etadi [6]. Yurtimizdagi tinchlik-xotirjamlik, o‘zaro mehr-oqibat, hamjihatlik muhiti, davlatimizning o‘z fuqarolariga g‘amxo‘rligidadir. Ayniqsa, keksa avlod vakillariga bo‘lgan munosabat, e‘tibor qaratishda. Bu ezgu ishda nafaqat farzandu nabiralar, mahalla-ko‘y, hokimlik vakillari, balki butun xalqimiz faol ishtirok etmoqda. Shaxsan yurtboshimizning ibрати biz, keksalarga, bo‘lgan ehtiromida ham ko‘rinyapti. Bundan ko‘nglimiz tog‘dek ko‘tarilmoqda.... Bu ham bizning baxtimiz» deydi to‘qsondan oshgan, turmushning chuchugidan ko‘ra achchig‘ini ko‘proq totgan, urush dahshatlarini boshidan o‘tkazgan, qisqasi, hayotning baland-pastini ko‘rgan, bugungi dorilamon



kunlarning qadrini yaxshiroq idrok etadigan otaxon»[7]. Yaratilgan sog‘lom ma‘naviy muhit, keksa avlodga ko‘rsatilayotgan bunday e‘zoz, g‘amxo‘rlik kishini yashashga undaydi, baraka topishsin, deb e‘tirof etmoqda otaxon va onaxonlarimiz. Surxondaryo viloyatida keksalarni e‘zozlash va ularni moddiy-ma‘naviy qullab-quvvatlash hamda kasbiy bayramlariga alohida e‘tibor berish bilan birga, har bir keksa avlod vakillari doimiy diqqat bilan ijtimoiy himoya qilinib kelmoqda. Jumladan, o‘zgalar parvarishiga muhtoj keskarlar 349 ta, yolg‘iz keksalar 91 ta, faol nuroniylar 3 229 ta, davlat mukofatiga sazovar bo‘lgan nuroniylar 276 ta, O‘zbekiston qahromonlari 6ta, ilmiy darajasi bor keksalar 54 tani tashkil etib, ular hamisha ijtimoiy himoya nazorati hisobidadir [8].

Haqiqatan ham bu yurt farzandlari azal-azaldan ota-onalari keksalarni xonadonining to‘riga o‘tqazib, xizmatlariga labbay deb turishadi, kelinlari, qizlari g‘oyatda tavozelik bilan qo‘llari ko‘ksida choy uzatib e‘zozu-hurmatda bo‘lishadi. Bundayin hurmat e‘zoz, ulug‘ fazilatlarni dunyoning hech bir eridan topib bo‘lmaydi.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro‘yxati:

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” PF-60-son Farmoni.*
2. *Xalq so‘zi gazetasi. 2021-yil, 18-sentabr.*
3. *Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – B. 199.*
4. *Yangi O‘zbekiston gazetasi. 2020-yil, 26-oktabr.*
5. *Yangi O‘zbekiston gazetasi. 2020-yil, 30-oktabr.*
6. *Surxondaryo viloyati Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi hisoboti. 2022-yil 1-iyul. 2 shakl. – B.1.*
7. *Iqbol Mirzo. Eng katta baxt. // Xalq so‘zi gazetasi. 2019-yil, 13-yanvar.*
8. *Surxondaryo viloyati Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash boshqarmasi hisoboti. 2022-yil, 1-iyul. 2-shakl. – B. 2.*



Sobir Xodjayev,

*“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti
bo‘lim boshlig‘i, sotsiologiya fanlari
bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

FAOL QARISH INDEKSI KEKSALARGA OID IJTIMOIIY SIYOSAT ASOSI

Annotasiya. Maqolada faol qarish indeksi, uning asosiy yo‘nalish va indikatorlari bo‘yicha xorij tajribasi va uni O‘zbekistonda joriy etish borasidagi fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: keksalik, qarish, faol qarish, uzoq umr ko‘rish, indeks, faol qarish indeksi, indikator.

Аннотация. В статье описаны индекс активного старения, его основные направления и показатели, зарубежный опыт и мнения специалистов по его внедрению в Узбекистане.

Ключевые слова: старость, старение, активное старение, долголетие, индекс, индекс активного старения, индикатор.

Annotation. The article describes the active aging index, its main direction and indicators, foreign experience and point of views on its implementation in Uzbekistan.

Key words: old age, aging, active aging, longevity, index, active aging index, indicator.

Yigirmanchi asr Yevropa mamlakatlari uchun birinchi navbatda keksa kishilar uchun qashshoqlik xavfini kamaytirishga qaratilgan pensiya siyosatining joriy etilishi bilan ajralib turadi. Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi asta-sekin kengayishda davom etib, bu davlatlarda keksalarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatishni ham qamrab oldi.

Aholining qarishi odatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning natijasi hamda asosiy global muammolaridan biri sifatida e‘tirof etiladi. Shu bilan birga, so‘nggi o‘n yilliklarda dunyoda qarishni idrok etishda - nafaqat aholining yosh tarkibidagi o‘zgarishlarni kelib chiqadigan muammolarga keskin salbiy munosabatdan, shu bilan birga iste‘mol, turmush tarzi va sifati, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faoliyat hamda ta‘lim sohalarida namoyon bo‘layotgan imkoniyatlarga o‘tish tendensiyasi kuzatilmoqda.

Tug‘ilishning qisqarishi, o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligining oshishi va aholining katta qismining pensiya yoshiga erishishi natijasida boshlangan aholining qarishi keksalarga nisbatan tor maqsadli siyosat uchun muammoga aylandi. Buning uchun nafaqat davlat pensiya ta‘minoti va sog‘liqni saqlash tizimlari barqarorligini ta‘minlash, balki bunday barqarorlikka keksalarning o‘zlarining faol ishtiroki orqali erishish uchun ham bunday siyosat ko‘lamini kengaytirish zaruriyati paydo bo‘ldi.



Ushbu maqsadga erishish uchun sog'lom va to'laqonli keksalikni ta'minlashga yordam beradigan turmush tarzini rag'batlantirish talab etilar edi.

Shundan kelib chiqqan holda keksalarga doir siyosatning bir qator yo'nalishlari: bandlik va ijtimoiy faollikni rag'batlantirish, qashshoqlikni kamaytirish, salomatlikni yaxshilash, farovonlikni yaxshilash va ko'pgina holatlarga taalluqlidir. Bunday siyosatlar odatda aniq aniq maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lsada, ular keksa kishilar hayotining barcha jabhalariga ta'sir ko'rsatadigan yagona global yondashuvga birlashtirilishi lozimligidan ularning aksariyati faol qarish indeksi (FQI) loyihasiga kiritilgan.

Faol qarish tushunchasi birinchi marta 2002-yilda Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining faol qarish strategiyasida ifodalangan bo'lib, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ta'rifiga ko'ra, u “shaxsning sog'lig'i, ijtimoiy faolligi va keksaygan sari hayot sifatini yaxshilash maqsadida himoyalanganlik imkoniyatlarini takomillashtirish jarayonini”¹ tavsiflaydi. Faol qarishing asosiy prinsiplari 2002-yilda keksayish muammolari bo'yicha ikkinchi Jahon Assambleyasining yakuni hujjati – Madrid xalqaro harakat rejasiga kiritilgan.

Faol uzoq umr ko'rish indeksi (Active ageing index) ko'p o'lchovli tarkibli indeks bo'lib, Yevropa Komissiyasining Bandlik, ijtimoiy masalalar va integratsiyasi bo'yicha Bosh Direktorati (DG YeMPL) va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa Iqtisodiy Komissiyasi (UNECE) aholishunoslik masalalari bo'yicha guruhining qo'shma loyihasi doirasida ishlab chiqilgan.

Active Ageing Index so'z birikmasi o'zbek tiliga so'zma-so'z tarjima qilinganda Faol qarish indeksi deb tarjima qilinishi lozim va bu tarjima BMT ning Yevropa Iqtisodiy komissiyasi (EIK) rasmiy hujjatlarida keng qo'llaniladi. Biroq, faol qarish tushunchasi lingvistik jihatdan “tezlashtirilgan qarish” atamasi bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli, og'ir turmush sharoitida yashovchi shaxs yoki keksalarning nisbiy soni tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan jamiyat tushuniladi, shuning uchun salbiy ma'noga ega (Sidorenko A, Zaidi A., 2013)². Shundan kelib chiqqan holda mazkur maqolada o'zbek tilida mazmunan bu jarayonni to'g'ri ifodalash “faol uzoq umr ko'rish” atamasi tanlanganda maqsadga muvofiq kelishini aytib o'tishni joiz deb topdik.

1 Концепция политики активного долголетия. Издательский дом Высшей школы экономики. – Москва, 2020. – С 4. // <https://www.eurofound.europa.eu/observatories/eurwork/industrial-relations-dictionary/active-ageing#>

² Sidorenko, A., & Zaidi, A. (2013) “Active ageing in CIS countries: Semantics, challenges, and responses”. Current gerontology and geriatrics research, 2013.



FQI loyihasining maqsadi turli siyosiy tadbir va dasturlarni amalga oshirish orqali keksa kishilarga jamiyatga hissa qo'shish va o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishga yordam beradigan sohalarini aniqlashdan iborat. Buning uchun individual darajadagi faol qarishga intilishlar samarali siyosat va dasturlar orqali qanday qo'llab-quvvatlanishi va kengaytirilishi mumkinligini ko'rsatadigan dalillar bazasini taqdim etish talab etiladi. FQI tomonidan ishlab chiqiladigan dalillar bazasi bir qator muhim siyosiy savollarga javob berishga yordam beradi:

Qanday qilib ba'zi mamlakatlar faol qarishning barcha sohalarida boshqalarga qaraganda yaxshiroq natijalarga erishmoqda va bu holat pastroq natijalarga erishgan mamlakatlar uchun qanday rag'bat va yo'l-yo'riq bo'lishi mumkin?

U yoki bu mamlakatda faol qarilikning qaysi sohalarida ko'proq yutuqlarga erishish mumkin?

Boshqa davlatlar tajribasidan qanday xulosalarga chiqarish mumkin?

Shunday qilib, FQI loyihasi siyosatchilarga faol qarish ko'rsatkichlari va tarkibli indekslar ko'rinishidagi qiyosiy va mazmunli dalillar bazasiga asoslangan siyosatni shakllantirish imkoniyatini beradi. Indeksdan yaqin kelajakdagi siyosiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashda ham foydalanish mumkin.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) faol uzoq umr ko'rishning oltita asosiy determinantlari: xulq-atvor shakllari; individual biologik va psixologik xususiyatlar; tibbiy va ijtimoiy xizmatlar; jismoniy muhit; ijtimoiy omillar; iqtisodiy omillarni ajratib ko'rsatadi.

Faol qarish siyosati insonning o'rtacha umr ko'rish davomiyligini oshirishga asoslangan salohiyatini rivojlantirish va ro'yobga chiqarishga qaratilgan. Faol qarish siyosatining ikkilamchi maqsadi barcha fuqarolarga samarali va mustaqil hayotni davom ettirish imkoniyatini berish, shu bilan birga keksayotgan jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun uning salohiyatini safarbar qilishdir.

Faol qarish indeksi pensiya bilan bog'liq masalalar bilan chegaralanib qolmay, ijtimoiy hayotning yanada kengroq sohalarini, xususan, sog'liqni mustahkamlash, davomiy professional faoliyatni rag'batlantirish va jamiyat hayotida ishtirok etishda davom etishni ta'minlashni qamrab oladi.

Faol qarish indeksi o'z ichiga 4 ta: **bandlik; jamiyat hayotida ishtirok etish; mustaqil, sog'lom va xavfsiz hayot; faol qarish uchun qulay muhit va imkoniyatlar** yo'nalishlaridan iborat bo'lib, jami bo'lib 22 ta individual ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.


Birinchi uchta yo'nalish yutuqlar (natijalar) ni o'lchasa, to'rtinchisi esa faol qarish uchun taalluqli ijobiy natijalarga erishish uchun dastlabki sharoitlarni o'lchashni



ko‘zda tutadi. Barcha ko‘rsatkichlar va jamlangan tarkibiy indekslar erkaklar va ayollar uchun alohida hisoblanadi.

Faol qarish indeksining amaliy ahamiyati shundaki, u faol qarishni har tomonlama ko‘rib chiqishni belgilab beradigan siyosatni rag‘batlantiradi. Indeks keksa kishilarning ijtimoiy hissalari va salohiyatining turli jihatlarini to‘g‘risida kengroq tasavvurga ega bo‘lish imkoniyatini beradi.

Shu tarzda, faol qarish indeksi siyosatchilarga va boshqa manfaatdor tomonlarga boshqa mamlakatlarga nisbatan yaxshilanishi mumkin bo‘lgan sohalarni aniqlashga hamda faol qarish uchun yaxshiroq va barqarorroq muhitni yaratish borasidagi maqsadlarni belgilashga yordam beradi.



1-rasm. Faol qarish indeksi tuzilishi.

Tarkibli indekslar ko‘p o‘lchovli hodisalarni o‘lchaydi va taqqoslash imkoniyatini beradi. Tarkibli indekslar soni, jumladan, keksa kishilarga taalluqli bo‘lgan ko‘rsatkichlar zoimiy ravishda o‘sib bormoqda (OECD, 2008).



FQI - bu siyosiy chora-tadbirlarning samaradorligi va axborot-ma’naviy ishlar uchun juda mos bo‘lgan tarkibli indeksdir. FQIning qo‘shimcha ahamiyati shundaki, u ko‘p qirrali faol qarish hodisasini aks ettiruvchi individual ko‘rsatkichlar panelidan farqli o‘laroq, oson foydalanish mumkin bo‘lgan yagona ko‘rsatkichni taqdim etadi. Bu keksa kishilarning salohiyatini ro‘yobga chiqarish sohasidagi umumiy vaziyatni ko‘p o‘lchovli tahlil qilish uchun barqaror va ishlatish uchun qulay instrument sanaladi. Murakkab ijtimoiy hodisaning oson talqin qilinadigan raqamli ifodasi sifatida FQI barcha darajadagi davlat organlarining aholining qarishi bilan bog‘liq jarayonlardan xabardorligini oshiradi va rasional qarorlar qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, u keksadarning iqtisodiyot va jamiyatga qo‘shgan turli hissalarini ifodalaydi, shu bilan ijtimoiy birdamlik va avlodlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlaydi.

FQI natijalarini boshqa mamlakatlarning tegishli natijalari, masalan, iqtisodiy rivojlanish darajasi bir xil bo‘lgan davlatlar bilan taqqoslash orqali tahlil qilish mumkin. Yo‘nalishlar siyosat maqsadlari yoki ekspertlar fikrlarini inobatga olgan holda ham belgilanishi mumkin.

FQI barcha yoshdagi kishilar uchun mukammal jamiyat qurish yo‘lidagi tarkibiy va madaniy to‘siqlarni aniqlash orqali keksa kishilarning jamiyat rivojiga hissa qo‘shishga tayyorligi bilan uni amalga oshirish imkoniyatlari o‘rtasidagi tafovutni ko‘rsatib beradi. FQI insonning butun hayoti davomida bandlik, parvarish, ta’lim va dam olishni tashkil etishdagi o‘zgarishlarni rag‘batlantirish vositasi sifatida ishlatilishi mumkin. Bu ish bilan shaxsiy va oilaviy hayot o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash orqali tarkibiy elementlarni ketma-ketlikdan parallel ravishda amalga oshirishni ko‘zda tutadi, natijada bundan alohida shaxs ham, jamiyat foyda ko‘radi. FQI turli ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatlar va o‘z salohiyatini amalga oshirish uchun mavjud imkoniyatlarni ifodalash bilan hayotiy muvozanatning asosi va baholash mezonini bo‘lishi mumkin.

FQI loyihasini amalga oshirish natijasi keksa fuqarolarning turmush farovonligi va ijtimoiy-madaniy rivojlanishini oshirish, ularning salomatligini mustahkamlash, umr ko‘rish davomiyligini va faol uzoq umr ko‘rish salohiyatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning shakllangan tizimi bo‘ladi.

Mamlakatimizda FQI indeksini joriy etish va unda belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirish natijalari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

keksa fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish;

keksa avlod fuqarolarini zamonaviy hayot tarziga moslashtirish, ularning to‘laqonli hayot kechirishi, faol uzoq umr ko‘rishlari uchun sharoit yaratish;



ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tizimini rivojlantirish, ijtimoiy xizmatlar va parvarishning yangi texnologiyalari va shakllarini joriy etish;

keksa fuqarolar uchun qulay muhitga ega yagona muloqot, ijodiy, konsalting, madaniy va dam olish platformasini yaratish;

keksa fuqarolarning sog'lig'ini mustahkamlash, jismoniy faollikni rivojlantirish, sportga jalb qilish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish;

ko'ngillilar harakatini rivojlantirish;

faol uzoq umr ko'rish uchun shart-sharoitlar va yangi imkoniyatlar yaratish orqali keksa fuqarolarning hayot davomiyligi va sifatini oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Концепция политики активного долголетия. Издательский дом Высшей школы экономики. – Москва, 2020. – С.4. <https://www.eurofound.europa.eu/observatories/eurwork/industrial-relations-dictionary/active-ageing#>
2. Современный образ пожилого человека: социологический аспект. Международный научно-исследовательский журнал – № 11 (65), часть 1, ноябрь 2017. – С. 59.
3. Формоса М. The Third Age [Электронный ресурс] // The Universities of Third Age. – Режим доступа: <http://www.um.edu.mt/pub/formosam5.html>
4. Laslett P. A Fresh Map of Life: the Emergence of the Third Age. / P. Laslett. London. 1990.
5. Sidorenko, A., & Zaidi, A. "Active aging in CIS countries: Semantics, challenges, and responses". Current gerontology and geriatrics research, 2013.



Xurshida Saydivaliyeva,

*“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim boshlig‘i,
yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

VOYAGA YETGAN, MEHNATGA LAYOQATLI FARZANDLARNING OTA-ONALARIGA TA‘MINOT BERISH MAJBURIYATI

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasi oila qonunchiligida voyaga etgan mehnatga layoqatli farzandlarning ota-onalari oldidagi konstitutsiyaviy burchlari, shuningdek, aliment majburiyatlari, qonunchilikda belgilangan talablar tahlil qilinadi, sud amaliyoti materiallari, xorijiy mamlakatlar qonunchiligida ota-ona va farzandlar o‘rtasidagi o‘zaro majburiyatlarning qiyosiy huquqiy tahlili keltiriladi.

Kalit so‘zlar: farzand, voyaga etgan, ota-ona, ta‘minot, majburiyat, aliment, sud qarori, tarbiya, burch, huquq, da‘vo.

Аннотация. В статье представлены конституционные обязанности совершеннолетних трудоспособных детей перед своими родителями семейном законодательство Республики Узбекистан, а также алиментные обязательства, требования, установленные законом, материалы судебной практики, сравнительно-правовой анализ взаимных обязательств между родителями и детьми в законодательство зарубежных стран.

Ключевые слова: ребенок, совершеннолетний, родитель, снабжение, обязательство, алименты, решение суда, воспитание, обязанность, закон, иск.

Annotation. The article presents the constitutional obligations of adult able-bodied children to their parents in the family legislation of the Republic of Uzbekistan, as well as alimony obligations, requirements established by law, as well as materials of judicial practice, comparative legal analysis of mutual obligations between parents and children in the legislation of foreign countries.

Keywords: child, adult, parent, supply, obligation, alimony, court decision, upbringing, duty, law, lawsuit.

Mamlakatimizda oila institutini mustahkamlash va oilada ijtimoiy-ma‘naviy muhit sog‘lomligini saqlash, oila farovonligi borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Oilalarni mustahkamlash, oilalarda nizoli vaziyatlar oldini olishda oila a‘zolari o‘rtasida milliy ma‘naviy-axloqiy an‘analar va oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib kelmoqda.

Ayniqsa, farzandlar tarbiyasi, ularning ta‘minoti ota-ona mas‘uliyati kabi masalalar, bundan tashqari farzandlarning ota-ona oldidagi majburiyatlari masalasi ham dolzarb ahamiyatga molik masalalardan sanaladi.



O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 66-moddasida voyaga etgan, mehnatga layoqatli shaxslarning o‘z ota-onasiga g‘amxo‘rlik qilish majburiyati belgilangan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 109-moddasida ham xuddi shunday majburiyat belgilab qo‘yilgan.

Voyaga etgan, mehnatga layoqatli bolalar mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj o‘z ota-onasiga ta‘minot berishlari va ular to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishlari shart.

Ota-onasining davlat va nodavlat muassasalari qaramog‘ida ekanligi voyaga etgan mehnatga layoqatli bolalarni ota-ona haqida g‘amxo‘rlik qilish va ularga moddiy yordam ko‘rsatish majburiyatidan ozod qilmaydi.

Demak, ota-onalarga bolalar tomonidan ta‘minot berish majburiyati yuzaga kelishi uchun quyidagi asoslar bo‘lishi lozim :

- voyaga yetgan farzandlar bilan ota-onalar o‘rtasida ota-ona va bolalik aloqalari bo‘lishligi;
- ota-onaning haqiqatda mehnatga yaroqsizligi va moddiy ta‘minotga muhtoj bo‘lib qolganligi;
- bolalarning voyaga etganligi va mehnatga yaroqliligi;
- bolalarni aliment berish majburiyatidan ozod etuvchi holatlarning mavjud emasligi.

Ota-onaning aliment olishga ehtiyoji quyidagi omillardan kelib chiqib belgilanadi³:

- moddiy ahvoli;
- mavjud daromadlari darjasi (masalan, pensiya miqdori, mol-mulktni rentaga berishdan qo‘shgan daromad, dividendlar olish);
- mehnatga layoqatli er(xotinning mavjudligi);
- er (xotin) tomonidan moddiy ko‘mak mavjudligi;
- boshqa shaxslardan ko‘mak olishi.

Oila kodeksining 110-moddasiga asosan, ota-onaga beriladigan ta‘minot miqdori va tartibi belgilab berilgan bo‘lib, unga ko‘ra, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar o‘z ota-onasiga ixtiyoriy ravishda moddiy yordam berishdan bo‘yin tovasalar, ta‘minot miqdori bolalarning oilaviy va moddiy ahvolini hisobga olgan holda sudning hal qiluv qaroriga asosan belgilanadi. Ota-ona, aliment undirish haqidagi talabni o‘z bolalarining biriga yoki bir nechtasiga nisbatan qo‘yganligidan qat’i nazar, aliment miqdorini belgilashda sud voyaga etgan, mehnatga layoqatli bolalarning barchasini hisobga olishi lozim. Voyaga etgan, mehnatga layoqatli bolalardan aliment undirish nizosi uzil-kesil hal bo‘lgunga qadar sudya shu nizo bo‘yicha vaqtincha to‘lab turilishi

³ Аёллар ва болалар мулкый манфаатларини алимент муносабатлари орқали таъминлаш масалалари:
–Тошкент: Янги аср авлоди, 2019. – 162 б.



lozim bo‘lgan summani ko‘rsatib, ajrim chiqarishi mumkin. Voyaga etgan, mehnatga layoqatli bolalardan undirilayotgan aliment miqdori qonunchilikda belgilangan mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 11,75 foizidan kam bo‘lmasligi kerak.

Shuningdek, Oila kodeksining 111-moddasi talablaridan kelib chiqib, voyaga etgan, mehnatga layoqatli bolalar ota-onasining kasalligiga va boshqa uzrli sabablarga ko‘ra qilinadigan qo‘shimcha xarajatlarda ishtirok etishlari shart. Voyaga etgan, mehnatga layoqatli bolalar tomonidan qo‘shimcha xarajatlar ixtiyoriy ravishda qoplanmasa, talab qilinayotgan summa sud tartibida undirilishi mumkin.

Ota-onalar faqat voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlaridan aliment undirishga haqli. Shuningdek, ota yoki ona bir vaqtning o‘zida mehnatga layoqatsiz va yordamga muxtoj bo‘lishlari lozim.

Mehnat qonunchiligiga ko‘ra mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj ota-onalarni ta‘minlash majburiyati bolalarining moddiy ahvolidan qat’iy nazar so‘zsiz ijro etiladi. 55 yoshga to‘lgan ayollar va 60 yoshga to‘lgan erkaklar mehnatga layoqatsiz, deb hisoblanadi. Shuningdek, yashash uchun yetarli mablag‘ga ega bo‘lmagan shaxslar yordamga muhtoj, deb tan olinadi.

Ota yoki onaning aliment olishga muhtojligi quyidagi omillardan kelib chiqib belgilanadi:

- moddiy ahvoli;
- mavjud daromadlari darajasi;
- mehnatga layoqatli turmush o‘rtog‘ining bor-yo‘qligi;
- turmush o‘rtog‘i moddiy yordam berish-bermasligi.

Ota-onaning oziq-ovqat olishga, kommunal xizmatlarni to‘lashga va dori-darmonlarga daromadi etmasligi ularning yordamga muhtoj deb tan olinishiga sabab bo‘ladi.

Oila kodeksining 81-moddasiga ko‘ra esa, ota-onaning ota-onalik huquqidan mahrum qilinganligi bolalarni ularni ta‘minlash majburiyatidan to‘liq ozod qilish uchun asos hisoblanadi. Bundan tashqari, Kodeksning 113-moddaga ko‘ra esa, agar sud ota-onaning ota-onalik majburiyatini bajarishdan bo‘yin tovlaganligini aniqlasa, bolalarni mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj ota-onasiga ta‘minot berish majburiyatidan ozod qilishi mumkin.

Ota-onasiga moddiy yordam berish to‘g‘risidagi sudning hal qiluv qarorlarini bajarmaslik ma‘muriy va jinoiy javobgarlikka sabab bo‘ladi.

Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi Kodeksning, 47⁵-moddasiga ko‘ra, voyaga etgan shaxslarning mehnatga layoqatsiz va moddiy yordamga muhtoj bo‘lgan ota-onani yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarni moddiy ta‘minlashdan bo‘yin tovlashi, ya‘ni



ularni moddiy jihatdan ta’minlash uchun sudning hal qiluv qaroriga binoan undirilishi lozim bo‘lgan mablag‘ni jami ikki oydan ortiq muddat mobaynida to‘lamasligi, o‘n besh sutka muddatga ma’muriy qamoqqa olishga yoki “Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risida”gi Kodeksga muvofiq ma’muriy qamoq qo‘llanilishi mumkin bo‘lmagan shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.

Birinchi marta huquqbuzarlik sodir etgan shaxs, agar u ma’muriy huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ishni ko‘rish jarayonida aliment majburiyatlari bo‘yicha qarzdorlikni ixtiyoriy ravishda to‘lagan bo‘lsa, javobgarlikdan ozod etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 123-moddasiga asosan, voyaga etgan shaxslarning mehnatga layoqatsiz va moddiy yordamga muhtoj bo‘lgan ota-onani yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarni moddiy ta’minlashdan bo‘yin tovlashi, ya’ni ularni moddiy jihatdan ta’minlash uchun sudning hal qiluv qaroriga binoan undirilishi lozim bo‘lgan mablag‘ni jami bo‘lib ikki oydan ortiq muddat mobaynida to‘lamasligi, shunday qilmish uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Agar shaxs aliment majburiyatlari bo‘yicha qarzdorlikni to‘liq to‘lagan bo‘lsa, u javobgarlikdan ozod qilinadi.

Xorijiy mamlakatlar qonunchiligi tahlili shuni ko‘rsatadiki, qator davlatlarning Konstitutsiyalarida konstitutsiyaviy norma sifatida ham ota-onalarning ham voyaga etgan farzandlarning ota-onalariga o‘zaro ta’minot berishi va g‘amho‘rlik qilishi haqida alohida norma belgilanadi. Xususan, Xorvatiya Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasi⁴ga asosan, bolalarga keksa va zaif ota-onalarga g‘amxo‘rlik qilish majburiyatini yuklaydi va Litva Respublikasi Konstitutsiyasining 38-moddasi⁵ga ko‘ra, ota-onalarni hurmat qilish, qarilikda ularga g‘amxo‘rlik qilish, ularning merosini saqlash majburiyati belgilangan. Ozarbayjon Respublikasi Konstitutsiyasining 34-moddasi⁶da ota-onalarga hurmat va g‘amxo‘rlik qilish bolalarning burchi bo‘lib, mehnatga layoqatli voyaga etgan bolalar tomonidan nogiron ota-onalarni moddiy qo‘llab-quvvatlash (ta’minlash) burch sifatida qaraladi.

Bundan tashqari, chet davlatlarning fuqarolik va oila qonunchiligida ota-onalarning va voyaga etgan farzandlarning ota-onasiga ta’minot berishi va o‘zaro majburiyatlari belgilangan.

⁴ <https://legalns.com/download/books/cons/croatia.pdf>

⁵ https://www.lrs.lt/home/Konstitucija/Konstitucija_RU.htm

⁶ <https://mincom.gov.az/>



Misol uchun, Avstriya fuqarolik kodeksida 1458-moddasi⁷da ota-onalar (ota va ona teng huquqli) voyaga etmagan farzandlarining tarbiyasi haqida g‘amxo‘rlik qilishlari va umuman ularning farovonligiga hissa qo‘shishlari shartligi belgilab qo‘yilgan. Ota-onalar va bolalar bir-birlarini qo‘llab-quvvatlashlari kerak, bolalar ota-onalariga e‘tibor berishlari kerak. Voyaga etmagan bola ota-onasining ko‘rsatmalariga amal qilishi shart.

Germaniya fuqarolik kodeksining 1626–1699-moddalari⁸da ota-onalar va bolalarning bir-biriga yordam berish va bir-birini hurmat qilish o‘zaro majburiyligi to‘g‘risidagi ko‘rsatmasi 1601-moddada alohida, bolalarning o‘z ota-onalarga ta‘minot berish majburiyati hamda yaqin qarindoshlarning o‘zaro ta‘minot majburiyatlari o‘rin olgan.

Xitoy Xalq Respublikasining “Nikoh to‘g‘risida”gi Qonunining 21-moddasi⁹ga muvofiq, ota-onalar farzandlarini qo‘llab-quvvatlashga va ularga ta‘lim berishga, bolalar ota-onalariga yordam berishga majbur ekanliklari mustahkamlangan. Qonun bolalarni tark etish va bolalarga zarar yetkazadigan boshqa harakatlarni taqiqlaydi. Ota-onalar o‘zlarining kichik farzandlarini himoya qilish va tarbiyalashga majburdirlar. Voyaga etmagan bolalar tomonidan davlatga, jamoaga yoki shaxslarga zarar yetkazilgan taqdirda ota-onalar fuqarolik javobgarligi yuzaga keladi. Shu bilan birga, bolalar ota-onalarining nikoh huquqini hurmat qilishlari va ota-onalardan biri tomonidan qayta turmush qurishga va nikohdan keyingi hayotga aralashmasliklari kerak. Shunday qilib, xitoylik qonun chiqaruvchi ota-onalar va bolalarning huquqlari va burchlarining o‘zaro bog‘liqligini ta‘kidlaydi.

Chexiya Fuqarolik Kodeksi¹⁰ning ikkinchi qismi ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarga bag‘ishlangan. Fuqarolik kodeksining 855-moddasida ota-onalar va bolalarga o‘zaro huquq va majburiyatlar o‘z aksini topgan bo‘lib, ota-ona va bola bir-birlariga yordam berishlari, qo‘llab-quvvatlashlari va o‘zaro hurmat ko‘rsatishlari shart. Chexiya fuqarolik kodeksining 884-moddasida ota-onalar bolaga g‘amxo‘rlik qilishda muhim rol o‘ynashi, ular o‘z farzandlari uchun umumbashariy namuna bo‘lishi kerakligi, ko‘rsatib o‘tiladi.

Sud amaliyotiga nazar soladigan bo‘lsak, ota-onalar tomonidan farzandlaridan aliment undirish bilan bog‘liq ishlarda o‘zaro ota onaga nisbatan behurmatlik, oila rishtalarining uzulganligi kabi holatlarga guvoh bo‘lamiz. Andijon viloyati Bo‘ston tumanlararo sudi¹¹da

⁷ <https://books.google.co.uz/books>

⁸ <http://oceanlaw.ru/wp-content/>

⁹ https://chinalawinfo.ru/civil_law/law_marriage/law_marriage_ch3

¹⁰ http://juristpraha.cz/ru/89_2012_rus

¹¹ Андижон вилояти суд материаллари архивидан.



ko‘rilgan ishda da‘vogar A. da‘vo ariza bilan murojaat qilib, farzandlaridan aliment undirishni talab qilgan. Sud tomonidan aniqlangan holatlarga ko‘ra, da‘vogar A. qonuniy nikoh asosida S. bilan turmush qurganini, birgalikdagi turmushlaridan 6 nafar farzandlari borligini, turmush o‘rtog‘i 24.12.2020da vafot etganini, farzandlari D., V., E., J., Z., I. ekanini, farzandlari D., V., Ye. lar onalari vafot etganidan so‘ng uning holidan umuman xabar olmay qo‘yganini, behurmat qilishlarini, uyda kenja farzandi I. bilan turishini, keksayib qolgani uchun moddiy va ma‘naviy tomondan qiynalib qolganini, olayotgan 1.000.000 so‘m pensiyasi etmayotganini, farzandlari D., V., Ye. lar sog‘lom va mehnatga layoqatli ekanini bildirib, ularning har biridan qonunda belgilangan miqdorlarda aliment undirishni so‘ragan. Sud majlisida javobgar D. da‘voni tan olib, da‘vogar otasi ekanini, onasi S. 2020-yilda vafot etganini, otasidan xabar olib turishini, otasi onasiga hayotligi davrida ko‘p Zug‘um o‘tkazganini, qiynaganini, boshqa uylanaman deb mahalla-ko‘y oldida sharmanda qilganini, onasi kasalligi davrida xo‘rlaganini, shu sabab otalari bilan o‘rtaga sovuqchilik tushib qolganini, otasi ukasi I. bilan birga turishini, ukasining turmush o‘rtog‘i uyga ularni kiritmasligini, otasining ta‘minoti uchun aliment to‘lashga roziligini bildirib, suddan nizoni qonuniy hal etishni so‘ragan. Sud da‘vogarning mehnatga qobiliyatsiz ekanligi, moddiy yordamga muhtojligi, javobgarlar D., V., Ye.larning voyaga etgan, mehnatga layoqatliligi, da‘voni qisman tan olganliklari, o‘z ixtiyori bilan da‘vogarni moddiy ta‘minlab kelmaganliklarini inobatga olib, da‘vogar foydasiga javobgarlar D., V., Ye.larning har biridan 200.000 so‘mdan aliment undirishni lozim topadi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘zbek millatining qadimdan shakllangan ota-onaga hurmat va extiromda bo‘lishi, ularni asrab avaylab muomala qilishi, qarigan chog‘ida dastak bo‘lish va parvarishlashi kabi majburiyatlari jamiyatimizda bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q. Milliy qonunchilik va xorijiy davlatlar qonunchiligi tahlili ham farzandlarning ota-ona oldidagi majburiyatlarini mustahkamlaydi, o‘z o‘rnida sud, huquq tartibot organlari tomonidan ta‘sir choralari orqali ham mehnatga layoqatsiz ota-onalarning huquqlarini ta‘minlanishi, insonparvarlik prinsiplarining amaldaligini tasdiqlaydi. Muhimi, bu borada muammoning ijtimoiy jihatlariga ahamiyat qaratish zarur ekanligi, farzandlar tarbiyasi, oiladagi sog‘lom ma‘naviy muhitning shakllanishiga ahamiyat qaratish xamon o‘z muhimligini saqlab qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi // www.lex.uz*
2. *O‘zbekiston Respublikasi Oila Kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi // www.lex.uz*



3. *O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi// O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi //www.lex.uz*
4. *O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi // www.lex.uz*
5. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son qarori // <https://lex.uz/ru/docs/5841063>*
6. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 1-martdagi PF-81-son Farmoni // <https://lex.uz/ru/search/>*
7. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 7-martdagi PF-87-son Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/5899498>*
8. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2022-yil 1-martdagi PQ-146-son qarori // <https://lex.uz/ru/docs/5884084>*
9. *Ayollar va bolalar mulkiy manfaatlarini aliment munosabatlari orqali ta‘minlash masalalari: – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. –162 b.*
10. *<https://legalns.com/download/books/cons/croatia.pdf>*
11. *https://www.lrs.lt/home/Konstitucija/Konstitucija_RU.htm*
12. *<https://mincom.gov.az/>*
13. *<https://books.google.co.uz/books>*
14. *<http://oceanlaw.ru/wp-content/>*
15. *https://chinalawinfo.ru/civil_law/law_marriage/law_marriage_ch3*
16. *http://juristpraha.cz/ru/89_2012_rus*



Furqat Sodiqov,

“Strategik tahlil va prognozlashtirish”

bo‘limi kichik ilmiy xodimi,

tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

O‘ZBEKISTONDA KEKSA AVLOD VAKILLARINI QO‘LLAB-QUVVATLASH BORASIDAGI ISLOHOTLAR

Annotatsiya. Maqolada oxirgi yillarda O‘zbekistonda keksalarni qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilgan islohotlar statistik ma’lumotlar, qabul qilingan normativ hujjatlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: keksa, “Saxovat” va “Muruvvat” uylari, pensiya, “Keksalar haftaligi”, “Keksalar turizmi”, “Keksalar maslahati”, “Buvijonlar maktabi”, “Nuroni”, islohot.

Аннотация. В статье на основе статистических данных и принятых нормативных документов анализируются реформы, проводимые в последние годы в Узбекистане в части поддержки пожилых людей.

Ключевые слова: пожилые люди, дома «Саховат» и «Муруват», пенсия, «Неделя старшего поколения», «Туризм старшего поколения», «Советы пожилым», «Школа бабушек», «Нурони», реформа.

Annotation. Based on statistical data and adopted regulatory documents, the article analyzes the reforms carried out in Uzbekistan in recent years in terms of supporting the elderly.


Key words: elderly people, “Sakhovat” and “Muruvat” houses, pension, “Week of the older generation”, “Tourism of the older generation”, “Councils of the elderly”, “Grandmothers’ school”, “Nuroni”, reform.

Keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarda nuroniy, yoshi ulug‘ insonlarga alohida e’tibor qaratish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi. Yangi O‘zbekiston davrida nuroniylarimiz kelajakka bundanda ko‘proq umid bilan boqishlari, hayotdan mamnun bo‘lib yashashlari lozim. O‘zbekiston Respublikasida aholini, shu jumladan, keksalarni ijtimoiy himoya qilish sohasida amalga oshirib kelinayotgan ishlarning barchasi Konstitutsiyada kafolatlangan ijtimoiy ta’minot hamda ijtimoiy madad olish huquqini ro‘yobga chiqarishga qaratilgan.

Davlat statistika qo‘mitasining saytida qayd etilishicha, 2022-yilning 1-iyun holatiga ko‘ra respublikamizda 60 yoshdan yuqori bo‘lgan fuqarolar soni 3 103 423 nafarni tashkil etmoqda. Ularning 41,8 foizini 60-64 yoshli, 26,4 foizini 65-69 yoshli keksalar, 16,2 foizini 70-74 yoshli, 8 foizini 75-79 yoshli, 5,2 foizini 80-84 yoshli



va qariyb 2,4 foizini esa 85 yoshga etgan va undan katta bo‘lgan nuronilar tashkil etadi. (1-rasm)



1-rasm. O‘zbekistonda keksalarning yosh tarkibi bo‘yicha taqsimoti
(foiz hisobida)¹²

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2018-yil 12-dekabrda imzolangan “Fuqarolarning pensiya ta’minoti tizimi samaradorligini oshirish va pensionerlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi¹³ Farmoni ko‘pchilik pensionerlar uchun uzoq kutilgan yangilik bo‘ldi. Unga asosan, 2019-yil 1-yanvardan boshlab barcha sohalarda ishlaydigan pensionerlarga pensiyalarining to‘liq berilishi ko‘zda tutildi. Natijada, o‘sha yili 83 ming nafar pensionerning oylik daromadlari o‘rtacha 450 ming so‘mga ko‘paydi. “Bungacha (1995-yildan beri) ishlovchi pensionerlarga pensiyalarining 50 foizi to‘lanar, e’tirozlar ortganidan ortib borayotgandi”¹⁴.

“Saxovat” internat uylari hamda Urush va mehnat faxriylariga, respublika pansionatida yashovchi yolg‘iz pensionerlarga shaxsiy sarf-xarajatlari uchun kamida to‘lanadigan oylik pensiya miqdorini 10 foizdan 20 foizgacha oshirish, uch yil va undan avval tayinlangan yoki qayta hisoblangan pensiyalar tekshirilishiga hamda pensiya miqdoridan ortiqcha pullar to‘langanligi aniqlangan holatlarda ortiqcha to‘langan summalarni ushlab qolishga yo‘l qo‘yilmasligi ham muhim o‘zgarishlardan sanaladi¹⁵.

¹² <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>

¹³ <https://lex.uz/docs/-4103211>

¹⁴ <https://kun.uz/news/2021/08/01/pensiya-tizimi-yangi-davrda-nimalar-ozgardi>

¹⁵ <https://xs.uz/uzkr/post/mamlakatimizda-keksalarni-ezozlash-davlat-siyosati-darazhasiga-kotarilmoqda>



2019-yil 27-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Keksa avlod vakillarining jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy faolligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 816-son Qarori qabul qilindi¹⁶. Mazkur qarorga muvofiq, mamlakatimizda “1-oktabr – Xalqaro keksalar kuni”ni har yili munosib nishonlash maqsadida, oktabr oyining birinchi haftasi “Keksalar haftaligi” etib belgilandi.

Mazkur qaror keksa avlod vakillarining jamiyatdagi o‘rnini oshirishda hamda ularning ijtimoiy faolligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Qarorga asosan joylarda “Keksalar maslahati guruhleri” tuzilib, jamiyat hayotida yoshi ulug‘ insonlarning boy tajribasidan foydalanish, yoshlar tarbiyasida va kamolotida nuroniylarning rolini oshirishda katta ahamiyat kasb etdi.

“Keksalar maslahat guruhleri” faoliyatini tashkil etish masalasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-iyundagi “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan yanada mutsahkamlandi¹⁷. “Keksalar maslahat guruhi”ning maqsadi keksalarning muammolarini manzilli o‘rganish va bartaraf etish, keksa avlod vakillarining boy hayotiy tajribasidan oilalar va mahallada ijtimoiy-ma’naviy muhitni barqarorlashtirish, yoshlarni tarbiyalashda unumli foydalanish, ularning islohotlar jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlashdan iboratligi belgilandi.

2021-yildan boshlab keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj boshqa toifalariga tibbiy-ijtimoiy xizmat ko‘rsatish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishga mas’ul agentlik tashkil etildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-martdagi PF-6195-son Farmoniga asosan Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar agentligi tashkil etildi¹⁸. Agentlik keksalar, nogironligi bo‘lgan shaxslar va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj boshqa toifalariga tibbiy-ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasida vakolatli davlat boshqaruvi organi hisoblanishi ko‘zda tutildi. Shuningdek, Agentlik tarkibida yuridik shaxs hisoblanmaydigan, Nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hamda byudjetdan tashqari “Muruvvat” va “Saxovat” internat uylarini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi faoliyat yuritishi belgilandi¹⁹.

Keyingi yillarda keksa va faxriylarimizni nafaqat moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash, balki ularning ijtimoiy faolligini oshirishga ham katta e’tibor qaratilmoqda. Keksalarimizning ijtimoiy faolligini rivojlantirish orqali ularning salomatligini

¹⁶ <https://lex.uz/ru/docs/-4532381?ONDATE=05.04.2022&ONDATE2=28.09.2019&action=compare>

¹⁷ <https://lex.uz/docs/-5461749>

¹⁸ <https://lex.uz/docs/5342462>

¹⁹ Keksalari e’zolangan yurt: ilmiy-ommabop risola. – Toshkent: “Mahalla va oila nashriyoti”, 2021. – B.34.



mustahkamlash bilan birgalikda, ularning katta hayotiy tajribalaridan yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishga, ularni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga hissalarini qo’shishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-martdagi “Nuroniylarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning turmush darajasini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 167-son qarori²⁰ ijrosini ta’minlash maqsadida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- “Bir nuroniy o‘n yoshga mas’ul” tamoyili asosida ishsiz, tarbiyasi og‘ir va muammoli yoshlarga biriktirilgan nuroniylarni mahallalardagi yoshlarning tarbiyasi va axloqida bo‘lgan ijobiy o‘zgarishlardan kelib chiqib, “Nuroniylar” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan rag‘batlantirib borish yo‘lga qo‘yildi;

- xodimning pensiya yoshiga to‘lganligi munosabati bilan ish beruvchining tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilishni taqiqlash bo‘yicha qonun loyihasi ishlab chiqildi;

- o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz keksalar va yolg‘iz yashaydigan keksalarni “Nuroniylar” jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan har yili bir marotaba sanatoriyalarda bepul sog‘lomlashtirish yo‘lga qo‘yildi;

- sharoiti og‘ir va kam ta’minlangan keksalarga shifokorlarning retseptlariga asosan 3 oylik ehtiyojdan kelib chiqib dori vositalari, tibbiy va maxsus protez-ortopediya moslamalari olib berish hamda jarrohlik amaliyotlarining xarajatlari qoplash tartibi joriy etildi;

- og‘ir tashxisli kasalliklari hamda nogironligi bo‘lgan keksalarga shifokorlarning retseptlariga muvofiq, 3 oylik ehtiyojdan kelib chiqib dori vositalarining 50 foizigacha bo‘lgan summasini kompensatsiya qilish yo‘lga qo‘yildi;

- keksalarning jismoniy tarbiya va sport yo‘nalishidagi muassasalarda (stadion, sport zallari, basseyn va boshqa sport majmualari) jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishlari uchun abonement xarajatlarini qoplash tartibi ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi;

- davlat teatrlari va muzeylariga keksalar uchun chipta narxlari to‘liq qoplab berilishi yo‘lga qo‘yildi;

Quyidagi institutsional o‘zgarishlar amalga oshirildi:

- keksalarni qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish sohasida vakolatli davlat boshqaruvi organi – Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash vazirligi tashkil etildi;

²⁰ <https://lex.uz/uz/docs/-5910513>



- tumanlar va shaharlarda Nuroniylar jamoatchilik kengashlari tashkil etildi;
- mahallalarda keksalar ishlari bo‘yicha jamoatchilik asosida faoliyat yuritadigan rais maslahatchisi lavozimi kiritildi;
- mahallalarda “Keksalar maslahati” guruhlari va “Buvijonlar maktabi” jamoatchilik kengashlari tashkil etildi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, keksalarimiz kabi el-yurt manfaatlari yo‘lida ko‘p yillar sadoqat va fidoyilik bilan xizmat qilgan, hayot achchiq-chuchugini totigan, mehnat faoliyati davomida yosh avlodni ona-Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalab, ularga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatgan keksalar, faxriylarning holidan xabar olish va ulardan xizmat sir-asrorlarini mukammal o‘rganish yosh avlod vakillariga ham farz, ham qarzdır.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>
2. <https://lex.uz/docs/-4103211>
3. <https://kun.uz/news/2021/08/01/pensiya-tizimi-yangi-davrda-nimalar-ozgardi>
4. <https://xs.uz/uzkr/post/mamlakatimizda-keksalarni-ezozlash-davlat-siyosati-darazhasiga-kotarilmoqda>
5. <https://lex.uz/ru/docs/-4532381?ONDATE=05.04.2022&ONDATE2=28.09.2019&action=compare>
6. <https://lex.uz/docs/-5461749>
7. <https://lex.uz/docs/5342462>
8. *Keksalari e‘zolangan yurt: ilmiy-ommabop risola.* – Toshkent: “Mahalla va oila nashriyoti”, 2021. – B.34.
9. <https://lex.uz/uz/docs/-5910513>



Z.R. Axmedov,

*Jizzax viloyati Sh.Rashidov tumani
Xalq ta’limi bo’limiga qarashli 49-maktabning
yoshlar masalalari va ma’naviyat ishlar bo’yicha
direktor o’rinbosari, mustaqil tadqiqotchi*

NURONIYLARNI DAVLAT VA JAMIYAT HAYOTIDAGI ROLINI OSHIB BORISHI

Annotatsiya. O‘zbek davlatchiligi tajribasidan kelib chiqqan holda, nuroniylar hurmatini joyiga qo‘yish, bugungi globallashuv davrida Yangi O‘zbekiston yoshlari tarbiyasida keksalarning hayotiy tajribasidan foydalanish, aytgan o‘gitlariga amal qilib, jamiyat va davlat boshqaruvida ularning o‘rnini oshib borishini ko‘rsatish maqsad qilib olingan.

Kalit so‘zlar: nuroniy, Prezidentimizning nuroniylarga e’tibori, “Nuroniy” jamg‘armasi, ota-ona haqida buyuklar hikmati, “Oltin fond” nuroniylar jamiyati, Yangi O‘zbekiston, nuroniylarga e’tibor, maktablarda nuroniylar soati.

Аннотация. Опираясь на опыте узбекской государственности, ставится цель почтить старшее поколение, использовать их жизненный опыт в воспитании молодежи в современный период глобализации, показать, что следуя их учению, они превзойдут свое место в обществе и управлении государством.

Ключевые слова: Нурони, внимание Президента к старшему поколению, Фонд «Нурони», изречения великих о родителях, общество «Золотой фонд», Новый Узбекистан, внимание к старшему поколению, учебный час старшего поколения в школах.

Annotation. Based on the experience of Uzbek statehood, the goal is to honor the older generation, use their life experience in educating young people in the modern period of globalization, to show that by following their teachings, they will surpass their place in society and government.

Key words: Nuroni, attention of the President to the older generation, Nuroni Foundation, great sayings about parents, Golden Fund society, New Uzbekistan, attention to the older generation, study hour of the older generation in schools.

Tarixda bir hukmdor o‘z davlatida keksalarni o‘ldirib yuborish haqida buyruq beribdi. Shunda bir cho‘pon yigit keksa otasini tog‘ga yashirib olib qolibdi. Bir kuni, ko‘l o‘rtasiga, bir yarqiroq nur taralib turaveribdi. Odamlar rosa izlanibdi lekin bu nur qayerdan kelayotganini topa olishmabdi. Oxiri nuroniy yoshdagi cho‘pon yigitni otasidan so‘raganda, ko‘l bo‘yidagi daraxt tepasiga chiqishni buyuribdi. Chiqib qarashsa, laylakni uyasida bir yarqiroq buyum bor ekan. O‘sha buyum o‘z



aksini suvga tushirib turgan ekan. Shundan keyin o'sha davlatda kekslarga hurmat ko'rsatila boshlabdi.

Tarixdan ma'lumki, keksa avlod vakillalrini e'zozlash, ularning tajribasiga tayanish nafaqat oilalarimizda, balki jamiyat taraqqiyotida ham o'z samarasini berib kelgan. Yoshlarning boshini silab, bir adashgan insonni to'g'ri yo'lga boshlab, yiqilgan insonni turg'azib qo'yish uchun madad qo'lini uzatish, keksalarini ulug'lagan xalqning kelajagi porloq, ertasi bugunidan ko'ra farovon bo'lishiga tarix guvoh. Demoqchimizki, fikrimizning isboti sifatida davlatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng, ilk kunlaridan boshlab Birinchi Prezidentimizning yolg'iz pensionerlar va nogironlarning ijtimoiy himoyasi bilan bog'liq masalalar bilan bog'liq hujjatalrida 1991-yil 27-maydagi "O'zgarlar parvarishiga muhtoj yolg'iz pensionerlarni ijtimoiy himoyalash yuzasidan qo'shimcha tadbirlar to'g'risida"gi PF-212-son Farmoni va "O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunida o'z aksini topdi. Birinchi Prezidentimizni alohida e'tibori va g'amxo'rliqi tufayli yoshi ulug' insonlarni ijtimoiy muhofaza qilish, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, turmush darajasini yaxshilash inson manfaatlari ustuvor bo'lgan davlatimiz siyosatida muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilab olindi. Bu borada izchil islohotlar amalga oshirilib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroniylar" jamg'armasi to'g'risida"gi **1996-yil 4-dekabrda Farmonini bajarish** yuzasidan Vazirlar Mahkamasi qarori asosida O'zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroniylar" jamg'armasi tashkil etildi.

Odamzodning xarakteri shunday yaralganki, har tomonlama keng dunyoqarashga ega, kuchli va xalqparvar rahbari tan olib ortidan ergashadi. Xalqparvar rahbar ham xalqini yuragiga qo'l solib dardiga darmon bo'ladi. Bu haqda sharq allomalarining ko'plab asarlarida keltirilgan, jumladan fikrimizni isboti sifatida, hazrat Navoiy bobomizning mashhur satrlarini keltiramiz:

*"Odami ersang, demagil odami
Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami"*²¹

O'tgan qisqa davr ichida "Xalq qabulxonasi" degan so'zlar paydo bo'lib, rahbarlar oddiy xalq bilan muloqot qilishni o'rgandi. Bunda yolg'iz keksalar, nogironlar, nuroniylar fikrlari so'ralib muammolariga yechim topilmoqda. Bunday isloholar dunyo xalqlarida ham qiziqish uyg'otmoqda. Dunyo siyosatchilari O'zbekistonda

21 Rafiqov Quadratulla Mening Prezidentim. – Toshkent: Akademnashr, 2021. – 72 b.



amalga oshirayotgan jadal islohotlarni kuzatar ekan, bu yangilanishlar tashabbuskori Hurmatli yurtboshimiz Sh.Mirziyoyevni **“Xitoy mo‘‘jizasi”** muallifi Den Syaopinga qiyoslashmoqda. Ehtimol, bu o‘xshashlikni tahlilchilar ochiqlik va keskin islohotlar asosida donishmandlik bilan ish tutgan Den Syaopinning **“Odamlar o‘tgan yilga nisbatan bu yil yaxshiroq yashasin”** degan yagona shiori bilan Shavkat Mirziyoyevning **“Odamlar ertaga emas, uzoq kelajakda emas, bugun yaxshi yashashi kerak”** degan amaliy tashabbuslari o‘rtasida ko‘rgan bo‘lishlari ham mumkin”²². Hurmatli yurtboshimiz faoliyatining ilk kunlaridanoq, hududlarda uchrashuvlar, odamlarning kayfiyati, ularning yashash tarzi bilan qiziqish, ularning dard-u orzularini tinglash, xalqning ichiga kirish, uni rozi qilish degan talablarning o‘rtaga qo‘yilishi asosiy maqsadi edi.

O‘zbekiston Respublikasida o‘tkazilayotgan mamalakat iqtisodini barqaror va dinamik ravishda rivojlantirishga tayangan kuchli ijtimoiy siyosat natijasida aholi farovonligi jiddiy ravishda o‘tib bormoqda, odamlarning turmush sifati yaxshilanmoqda va bu o‘z navbatida o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligining va aholi strukturasida keksa yoshdagi odamlar ulushining oshishiga asos bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari Prezidentlik lavozimiga kirishgan ilk davrdanoq keksalarga doimiy g‘amxo‘rlik ko‘rsatish davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Bu borada Yurtboshimizning keksalarni qo‘llab –quvvatlash davlat tizimini yanada takomillashtirish maqsadida qariyalar va faxriylarni ijtimoiy himoyalash, ularning faolligini oshirish, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida to‘laqonli ishtirok etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, tinchlik va osoyishtalikni ta‘minlash sohasida kata avlod vakillarining rolini oshirish uchun qabul qilingan **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrda “O‘zbekiston faxriylarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash “Nuroni” jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4906 Farmonida va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrda “Keksalar va nogironlarni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2705 qarorida quyidagilar ko‘zda tutilgan:**

– “oqsoqollar, keksalar va faxriylarni yoshlarni xalqimizning ko‘p asrlik an‘analariga, Vatanga muhabbat, keksalarni e‘zozlash ruhida tarbiyalashga qaratilgan ijtimoiy faoliyatga jalb etish;

– joylarda keksalar turmush sifatini oshirish, ularning ijtimoiy faolligini qo‘llab-quvvatlash, mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ishtirokini ta‘minlash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga ko‘mak berish;

²² Rafiqov Quddratulla Mening Prezidentim. – Toshkent: Akademnashr, 2021. – 73 b.



– fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda oilalarda tinchlik va osoyishtalikni ta‘minlash, Yoshi keksa faollarni bolasi bor muammoli oilalarga biriktirish, shuningdek yolg‘iz va muhtoj keksalarga ijtimoiy va moddiy ko‘mak ko‘rsatish fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida jamoatchilik tartibida fuqarolar yig‘ini (ovular, qishloqlar, mahallalar) raisining o‘rinbosari – keksalar va faxriylar ishlari bo‘yicha maslahatchi lavozimini kiritish”²³. Demak, yoshi ulug‘ insonlar mahallalarimiz ko‘rki va vijdoni hisoblanib, qariyalar va faxriylarni ijtimoiy himoyalash, ularning faolligini oshirish, mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida to‘laqonli ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratish, tinchlik va osoyishtalikni ta‘minlashni nazarda tutadi. **Yuqoridagi ikki hujjatni muhim tomoni shundaki**, yoshlarni xalqimizning ko‘p asrlik an‘analariga, Vatanga muhabbat, keksalarni e‘zozlash ruhida tarbiyalashga qaratilgan bo‘lib, bu borada boy hayotiy tajribaga ega keksalarimizning ijtimoiy faolligini qo‘llab –quvvatlash maqsad qilingan. Davlatimizda hozirgi paytda mahallalar va oilalardagi ijtimoiy-ma‘naviy muhitni barqarorlashtirish, **maktablarda o‘quvchilar davomatini nazorat qilish, har juma kuni nuroniylar soatlarini xalq ta‘limi tizimiga kiritilishi** kollej bitiruvchilari va uyushmagan yoshlar bandligini ta‘minlash, ularning bo‘sh vaqtlarini samarali tashkil etish, aniqlangan muammolarni o‘z vaqtida bartaraf etish bo‘yicha jamoatchilik nazorati o‘rnatilgani yaxshi samara beryapti. Bu borada yoshlar bilan alohida suhbat o‘tkazilib, ularning muammo va maqsadlari atroflicha o‘rganilyapti. Usta hunarmandlar shogirdlar tayyorlashga da‘vat e‘tilmoqda. Targ‘ibot ishlari tufayli ko‘plab o‘g‘il-qiz hunarmandlikka, turli sport va fakultativ to‘garaklarga jalb etilib kelinmoqda. Shu bilan birga “Nuroni” jamg‘armasi tomonidan proflatik hisobga olingan va jinoyat sodir etgan voyaga etmagan yoshlar hamda notinch oilalar bilan ishlash bo‘yicha amalga oshirayotgan tadbirlar ham o‘z natijasini berayotganini yuqoridagi fikrlarimizni isboti sifatida keltirishimiz mumkin. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarida jamoatchilik asosida fuqarolar yig‘ini raisining o‘rinbosari-keksalar va faxriylar ishlari bo‘yicha maslahatchi lavozimi joriy qilingani ham mahallada tinchlik va osoyishtalikni ta‘minlash, milliy qadryatlarimizni e‘zozlash, keksalarga e‘tiborni kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda “Nuroni” jamg‘armasi tomonidan vatanimizda hududlarda sog‘lom ma‘naviy-axloqiy muhitni barqarorlashtirish borasida ham ularni o‘rni alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy-ma‘naviy muhit barqarorligini yanada yaxshilash, uyushmagan aholi va yoshlarni yovuz niyatli kimsalar qo‘liga tushib qolishidan asrash, noqonuniy migratsiyaning oldini olish, erta turmush va ajrimlarga yo‘l qo‘ymaslik, voyaga etmagan o‘g‘il qizlarni dars mashg‘ulotlari payti o‘z o‘rinlarida bo‘lishini ta‘minlash, jinoyatchilik, huquqbuzarliklarning oldini olish,

²³ Keksalik gashti ilk soni. – 1-son 2017-yil. – B. 5.



shuningdek, hududlarni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish, tomorqadan unumli foydalanishni targ‘ib qilish kabi masalalarda nuroynilarimiz faolligini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda davlatimizda bugun. Jumladan, fikrimizni isboti sifatida; 2017-yil – Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yilida “Namangon viloyati tuman va shaharlaridagi fuqarolar yig‘inlari, o‘quv muassasalari soni va salmog‘idan kelib chiqqan holda, o‘z hududlarida obro‘-e‘tibor, malaka va tajribaga ega faol nuroniylar maxsus ishchi guruhlariga jalb etilgan. Jumladan, faollarning 173 nafari qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq ishlarga, 1900 nafari fuqarolar yig‘inlari ishiga, 343 nafari ichki ishlar bo‘limlari nazoratida turgan yoshlar bilan ishlashga, 1020 nafari ta‘lim muassalariga o‘zlarining boy hayotiy tajribasi va bilimlari bilan ko‘maklashmoqdalar”²⁴.

Hurmatli yurtboshimiz 2021-yil saylov oldi dasturida aytganlaridek: **“Har bir insonning qadri bor”**. Demoqchimizki, odamga kuch bag‘ishlaydigan eng muhim vosita ham bu – e‘tibordir. E‘tibor natijasida jamiyat ravnaq topadi, odamlar ko‘nglida yangi orzu-umidlar paydo bo‘ladi. E‘tiborli bo‘lgan inson hayotga, yon-atrofida ro‘y berayotgan voqealarga befarq qaramaydi. U odamlarning tashvishi, dardiga sherik bo‘ladi, ular uchun kuyunadi. 2018-yil “Nuroniylar jamg‘armasi Jizzax viloyat, shahar va tumanlar bo‘limlari tomonidan yoshlar bilan ishlash, ular o‘rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish hamda oilalardagi ahillik va tinch, osoyishta, shukronalik bilan hayot kechirishni ta‘minlashda hamkor jamoat tashkilotlari bilan birgalikda quyidagi ishlar amalga oshirigan. Jumladan: 2018-yilda Jizzax viloyatida “290 ta ishchi nuroniylar guruhlari hamkor jamoat tashkilotlari vakillari bilan birgalikda yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik holatlarini oldini olish, oilalarning ijtimoiy muammolarini o‘rganish borasida 112 104 ta oilalar o‘rganilib chiqildi. O‘rganishda 5 470 ta ijtimoiy himoyaga muhtoj, 2485 ta yashash sharoitini yaxshilashga muhtoj va 15 974 ta tadbirkorlikka istagi bor, 672 ta notinch, 282 ta jinoyatchilikka moyil va 170 ta (71ta ayol, 99 ta erkak) o‘z joniga qasd qilgan oilalar borligi aniqlandi. Nuroniylar guruhining bevosita harakati va shahar, tuman tashkilotlarining yordami bilan 493 ta oilalarning yashash sharoitini yaxshilashga yordam berilib, 4 000 dan ziyod oilaga tadbirkorlik qilishlari uchun banklardan kredit olishlariga amaliy yordam ko‘rsatildi. 398 nafar yoshlar hunarmandchilik kasbiga yunaltirildi. O‘rganishda aniqlangan turli ekstremistik oqimga kirgan 195 nafar (shu jumladan 5 nafar yoshlar) shaxslar bilan tarbiyaviy suhbatlar ushtirilib, ularga doimiy murabbiylar biriktirildi”²⁵. **Bugungi hayot sur‘atlarini shiddat bilan rivojlanayotgan, globallashuv davrida bugungi kun yoshlari turmush sinovlarida toblangan, katta hayotiy tajribaga ega bo‘lgan, teran aql-idrokli kishilar ko‘magi va maslagiga doim ehtiyoj seziladi. Mehnatsevar, halol-**

²⁴ Keksalik gashti ilk soni. – 1 son, 2017 yil. – B.7.

²⁵ Nuroniylar jamg‘armasi Jizzax viloyat bo‘limining 2018-yilda amalga oshirilgan ishlari haqida ma‘lumot



pok, diyonatli, davlat va jamiyat manfaati uchun fidoyi inson bo‘lib ulg‘ayishni istagan har bir yosh o‘g‘il-qiz keksalar hayotiy tajribasidan foydalanishi zarur deb hisoblaymiz. Jizzax viloyatida, “2018-yilda viloyatda profilaktik hisobda turgan voyaga etmagan yoshlar 116 nafarni tashkil qiladi. Shundan qizlar 19 nafar, maktab o‘quvchilari 66 nafar, 48 nafar kasb-hunar kolleji o‘quvchilari bulib, ularga 242 nafar mahalla faollari, nuroniy keksalar, sobiq imom xatiblar, profilaktika inspektorlari va xotin-qizlar qo‘mitalari vakillari, jamoatchilik Kengashi a‘zolari birlashtirilgan. O‘tgan davrda voyaga etmagan yoshlar tomonidan 27 ta jinoyat sodir etilib, 78 foizini o‘g‘irlik tashkil etadi. 124 nafar voyaga etmagan yoshlar profilaktik hisobga olingan bo‘lib, 128 nafar voyaga yetmagan yoshlar profilaktik hisobdan chiqarildi. Voyaga etmagan yoshlar tomonidan huquqbuzarliklarning oldini olish uchun xotin-qizlar qo‘mitalari, yoshlar ittifoqi tashkilotlari, mahalla fuqarolar yig‘inlari hamda huquq-tartibot organlari vakillari va faol nuroniy keksalar bilan hamkorlikda ishlar olib borilmoqda”²⁶. Keksalarning oltin o‘gitlariga amal qilib yashash komillik, turmush farovonligimiz va tinch-osoyshta hayotimizning tamal toshidir. “Shu kabi, qariyalar yoshlarni tarbiyalash borasida ham millatimiz oltin fondi, deb e‘tirof e‘tilmoqda. Chunki ular kechagi kunni bugungi dorilamon zamon bilan qiyoslay oladigan, xulosa chiaradigan kishilardir”²⁷. Demak, turli sohalarida erishayotgan yutuqlarimizda ota-onalarimiz, mo‘tabar qariyalarimizning unutilmas va ulkan xizmati borligini, biz ular oldida umrbod qarzdor ekanimizni unutmasligimiz, qo‘limizdan kelganicha ularning og‘rini engil, umrini uzoq qilishni o‘zimizning insoniy burchimiz, deb bilishimiz lozim. Jumladan, 2018-yilda Jizzax viloyatida “Shahar va tumanlardagi 290 ta mahalla fuqarolar yig‘inlarida mazkur yig‘inlar raislarining o‘rinbosarlari – keksalar va faxriylar ishlari bo‘yicha maslahatchilari hamda 3079 nafar “Nuroniylar jamoatchilik Kengashlari” a‘zolari ham keng jamoatchilik vakillari bilan hamkorlikda yoshlar o‘rtasida huquqbuzarlik holatlarining oldini olish, yosh avlodni vatanga mehr-muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan ishlarda faol ishtirok etib kelmoqdalar. Joylarda jamoat tashkilotlari vakillari hamda birlashtirilgan murabbiylar tomonidan tegishli targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish natijasida 2018-yilda 224 ta notinch, janjalkash oilalar, 82 ta profilaktik hisobda turuvchi voyaga etmaganlar, 76 ta spirtli ichimlikka ruju qo‘yganlar, 39 ta turli diniy oqimga kirgan oilalar, 98 ta jazo muddatini o‘tgan shaxslar, 241 ta kam ta‘minlangan oilalar, jami 760 ta oila bilan ma‘rifiy-tarbiyaviy suhbatlar o‘tkazildi.

Ushbu o‘tkazilgan suhbatlar natijasida 147 ta notinch, janjalkash oilalar yarashtirildi, 86 ta profilaktik hisobda turuvchi voyaga etmaganlar hisobdan chiqarildi, 71 ta spirtli

²⁶ Nuroniy jamg‘armasi Jizzax viloyat bo‘limining 2018-yilda amalga oshirilgan ishlari haqida ma‘lumot

²⁷ Keksalik gashti ilk soni 2017-yil, aprel. 1-son. – B. 8.



ichimlikka ruju qo‘yganlar bunday salbiy illatdan xalos etildi. 238 ta kam ta‘minlangan oilalarga moddiy yordam ko‘rsatilib, turli diniy oqimga kirgan oilalar o‘z qilmishlaridan pushaymon ekanliklarini bayon qilib sog‘lom turmush tarziga qaytdilar”²⁸. **Yuqoridagi fikrlardan xulosa o‘rnida aytadigan bo‘lsak.** Keksalarga hurmat xalqimizning uzoq asrlardan buyon jon-joniga singib ketgan udumlaridan hisoblanadi. Bunday hurmat avvalo insonning o‘z ota-onasiga bo‘lgan hurmatdan boshlanadi. Hayotga samimiy chanqoqlik bilan, kata umid va orzular bilan yondashadigan har bir yosh va navqiron yigit yoki qiz hayotda atrofdagilarning e‘tiborini qozonib uzoq va dorilamon yashashni orzu qilsa, yoshi ulug‘ odamlarga albatta hurmat va ehtirom ko‘rsatadi. Shuning uchun ham yurtimizda yoshi ulug‘ insonlarni qadrlash milliy qadryat hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari va ma‘ruzalari.

1. I.Karimov “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008.
2. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat kilish – eng oliy saodatdir. – Toshkent: O‘zbekiston. NMIU. 2015.
3. Shavkat Mirziyoyev “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”. – Toshkent “O‘zbekiston”, 2016-yil noyabr
4. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidaginatq / Sh.M. Mirziyoyev. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 24 yilligigabag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi. Xalq so‘zi // 8.12.2016.
6. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir. –Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018 y.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018 y.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2020-yilni 29-dekabr kuni Oliy Majlisga murojaatnomasi
9. Yangi O‘zbekiston. Demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – Toshkent: -2021 y.
10. Rafiqov Qudratulla. Mening Prezidentim. – Toshkent: Akademnashr, 2021. – 72 b

Jurnallar:

1. Keksalik gashti jurnalining ilk soni. 2017-yil, aprel. – B. 13.

Hisobotlar.

1. Nuroniy jamg‘armasi Jizzax viloyat bo‘limining 2018-yilda amalga oshirilgan ishlari haqida ma‘lumot

²⁸ Nuroniy jamg‘armasi Jizzax viloyat bo‘limining 2018-yilda amalga oshirilgan ishlari haqida ma‘lumot



Turayeva S.R.,

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası professori, t.f.n.*

AYOLNI ULUG'LASH – OILANI, VATANNI, HAYOTNI ULUG'LASHDIR.

Annotatsiya. Maqolada yurtimizda keksa avlod vakillarini qo'llab-quvvatlash, ularning mazmunli umr kechirishi uchun zarur sharoitlar yaratish, nuroniylarning hayotini yanada fayzli qilish, ular o'zlarining boy tajribasi, foydali maslahatlari bilan ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi, keksa avlod vakillarining ulkan xizmatlari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: ayol, oila, Vatan, ota-ona, xotin-qizlar, avlod, tarbiya, e'tibor, g'amxo'rlik.

Аннотация. В статье рассматривается положение поддержки представителей пожилого поколения в нашей стране, создание необходимых условий для того, чтобы они жили осмысленной жизнью, делая их жизнь более счастливой, активно вовлекать их в жизнь общества, использовать их богатый опыт и знания в воспитании молодого поколения.

Ключевые слова: женщина, семья, Родина, родители, женщины, поколение, воспитание, внимание, забота.

Annotation. The article discusses the situation of supporting the representatives of the older generation in our country, creating the necessary conditions for them to live a meaningful life, making their life happier, actively involve them in society, use their rich experience and knowledge in educating the younger generation.

Key words: woman, family, motherland, parents, women, generation, upbringing, attention, care.

Dunyodagi har qanday xalq, davlat va jamiyatning taraqqiyot va madaniyat darajasi avvalo ularning xotin-qizlarga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi.

Ayol bor ekan, oila degan muqaddas qo'rg'on, farzand degan bebaho ne'mat bor. Ayollarimiz baxtli bo'lsa albatta oilamiz, jamiyatimiz ham baxtli bo'ladi.

Xotin-qizlar barcha soha va tarmoqlarda erkaklar bilan teng huquqqa ega bo'lib, yuksak hurmat-ehtiromda yashagan mamlakatda albatta tinchlik va hamjihatlik, o'sish va yuksalish bo'ladi.

Shuning uchun ham biz uchun buyuk Ona timsoli bo'lgan ayol zotini xalqimiz azal-azaldan ulug'lab, e'zozlaydi.

Odamzotga asrlar davomida mehr tuyg'usini singdirib, uni go'zallik, vafo va sadoqat, vatanparvarlik ruhida tarbiyalab kelayotgan aziz va mukarram zot ham onalarimizdir.



Prezidentimiz ta’kidlaganidek, bu hayotda nimaga, qanday yutuq va natijalarga erishgan bo‘lsak, ularning barchasi munis va mehribon onalarimiz tufaylidir. Shuning uchun biz xotin-qizlarimiz oldida doimo qarzдорlik hissi bilan yashaymiz. Ularga har qancha mehr va e’tibor ko‘rsatsak, arziydi.

Yurtimiz aholisining qariyb yarmini tashkil etadigan muhtarama onalar, opa-singillarimizning qonuniy huquq va manfaatlarini ta’minlash, xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va nufuzini oshirish borasida davlat siyosatini olib borishda biz aynan ana shunday qadriyatlarga tayanamiz. Millat kelajagiga e’tibor- bu xotin qizlarga, ular shart- sharoitlariga, ta’limiga, salomatligiga e’tibordan boshlanadi.

Keyingi yillarda bu muhim masalaning amaliy ijrosiga qaratilgan 24 ta hujjat, jumladan, 2 ta qonun, Prezidentning 6 ta farmon va qarori, Vazirlar Mahkamasining 16 ta qarori qabul qilingani opa-singillarimizga bo‘lgan yuksak e’tibor va g‘amxo‘rlik ifodasidir.

Hurmatli ayollarimiz hayotimizning barcha soha va tarmoqlarida faol ishtirok etib, Yangi O‘zbekistonni barpo etishga beqiyos hissa qo‘shmoqdalar.

Bugungi kunda mamlakatimizda Gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha komissiya, Oliy Majlis Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi, Respublika Xotin-qizlar jamoatchilik kengashi kabi tuzilmalar opa-singillarimizning manfaatlarini himoya qilishda muhim rol o‘ynamoqda.

Mamlakatimizda xotin-qizlarni ish o‘rinlari, uy-joy bilan ta’minlash, ularga tibbiy xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash masalalariga alohida e’tibor berilmoqda. Bu borada ayollarni kasb-hunarlarga qayta o‘qitish markazlari joriy etilgani, arzon uy-joylar dasturi amalga oshirilayotgani muhim ahamiyatga egadir. Har yili og‘ir turmush sharoitida yashayotgan ayollarning uy-joy bo‘yicha boshlang‘ich badallari davlat byudjeti hisobidan to‘lab berilmoqda.

Jamiyat hayotida faol ishtirok etayotgan, turli sohalarda ibratli natijalarga erishayotgan, sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalashga munosib hissa qo‘shayotgan opa-singillarimiz 8 mart – Xalqaro xotin-qizlar bayrami, Mustaqillik kuni, turli kasb bayramlari munosabati bilan davlatimizning yuksak mukofotlari, shuningdek, **“Mo‘tabar ayol”** ko‘krak nishoni bilan taqdirlanmoqda.

Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlangan qizlarning soni **367 nafarga** etgani ham ana shunday ishlarimiz qatoriga kiradi. “Ayollar daftari” tizimi asosida xotin-qizlar o‘rtasida kambag‘allik va ishsizlikni tugatish bo‘yicha izchil ish olib borilmoqda

2021-yil 16-avgust O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga



javoblarida ham shu bugungi konferensiyamizda ko‘tarilgan masalalarga e‘tibor qaratil edi. “Savol: Yurtimizda xonadonlarimizning fayzu farishtasi bo‘lgan keksa avlod vakillari, muhtaram faxriylarimizga alohida mehr va g‘amxo‘rlik ko‘rsatib kelinmoqda. Bu boradagi amaliy ishlarning kelgusi rivoji haqida ham fikringizni bilmoqchi edik. Javob : Men har doim bugungi tinch-osoyishta, erkin va farovon hayotimiz haqida o‘ylaganimda, bunday yorug‘ kunlarga etib kelishda qancha-qancha avlod vakillari, ota-bobolarimiz tinimsiz mehnat qilganlari, o‘z boshiga tushgan barcha sinov va mashaqqatlarni sabr-matonat bilan engib o‘tganlarini chuqur minnatdorlik bilan eslayman. Ular o‘zlari qiynalib bo‘lsa ham bizni shunday tinch va dorilomon kunlarga etkazganlari – bu hech narsa bilan o‘lchab, baholab bo‘lmaydigan ulkan jasorat, fidoyilik va qahramonlikdir. Shuning uchun bunday mard va olijanob ajdodlarimizdan o‘tganlarining xotirasini ulug‘lab, hamisha chuqur hurmat-ehtirom bilan yod etish, bugun oramizda yashab kelayotgan muhtaram nuroniylarimizni har tomonlama ardoqlash – muqaddas burchimizdir.

Eng muhimi, bunday savobli ishlarimiz yoshlarimiz uchun ham tarbiya va ibrat maktabiga aylanadi. Albatta, siz, jurnalistlarga yaxshi ma‘lum – yurtimizda keksa avlod vakillarini qo‘llab-quvvatlash, ularning mazmunli umr kechirishi uchun zarur sharoitlarni yaratish borasida katta ishlar qilinmoqda. Xususan, pensiya va nafaqalarni rasmiylashtirish, ularni o‘z vaqtida to‘lash, turli ijtimoiy xizmatlardan foydalanish bilan bog‘liq qiyinchilik va muammolar bartaraf etildi. Jamiyatimiz hayotida faol ishtirok etib kelayotgan otaxon va onaxonlarimiz “Nuroniylar” jamg‘armasi tomonidan moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirilmoqda. Keksalar avlod vakillarining salomatligini asrash, ularga respublikamizdagi turli sanatoriya va dam olish uylariga imtiyozli yo‘llanmalar berish, bayram kunlarida ularni alohida qutlab-tabriklash, doimiy izzat-hurmat ko‘rsatish ezgu an‘anaga aylanib bormoqda.

Takror aytaman, o‘z vaqtida bor kuch-g‘ayrati, bilim va salohiyatini Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligi uchun bag‘ishlagan bunday tabarruk insonlar oldida biz bir umr qarzidormiz. Muhtaram nuroniylarimizning hayotini yanada fayzli qilish, ular o‘zlarining boy tajribasi, foydali maslahatlari bilan ijtimoiy hayotimizda, ayniqsa, Yangi O‘zbekiston yoshlarini tarbiyalashda yanada faol ishtirok etishlari uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratamiz.

Bu masalalarga alohida urg‘u berib gapirayotganim albatta bejiz emas. Biz Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida xalqimizni rozi qilishni o‘z oldimizga ulug‘ maqsad qilib qo‘ygan ekanmiz, buni jamiyatimizning har bir a‘zosi o‘z hayotida sezishi, his etishi biz uchun g‘oyat muhimdir.



Hozirgi kunda mamlakatimizning barcha hududlarida uch avlod vakillari o'rtasida samimiy uchrashuvlar o'tkazilayotgani, ularda muhtaram nuroniylarimiz ham faol ishtirok etib, o'zlarining mehnat va hayot tajribasi, bugungi tinch va yorug' kunlarning qadr-qimmati va ahamiyati haqida bildirayotgan fikrlari yoshlarimiz uchun chinakam tarbiya maktabi bo'lib xizmat qilmoqda.”- deb javob bergan edilar muhtaram Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev.

1974-yil 23-noyabr kuni Indera Gandi o'zning Dehlidagi bir nutqida: “Ko'hna sanskrit maqolida shunday deyiladi: “Ayol bu — oila, oila esa jamiyatning asosidir”. Biz o'zimizga ro'zg'or quribgina jamiyatni barpo eta olamiz. Agar oilada bir qizni ta'lim olishiga imkon yaratilsa, butun bir oilani farzandlarini ham ta'limi uchun hissa qo'shilishini ta'kidlagan edi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martda **“Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”** N PQ-5020 qarori qabul qilindi. Qarorning 6-bandida a) 2021-yilda “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” va “Temir daftar”ga kiritilgan xotin-qizlarni uy-joy bilan ta'minlash maqsadida, ularga ipoteka kreditlari bo'yicha boshlang'ich badalni to'lab berish va ijtimoiy uy-joylar sotib olish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlariga: noturar joylarda istiqomat qilayotgan ayollarni uy-joy bilan ta'minlashga - 10 milliard so'mdan;

-ota-onasidan yoki ularning biridan ayrilgan hamda yolg'iz onasi, yolg'iz otasi yoki boshqa shaxslar qaramog'ida bo'lgan voyaga etgan uy-joyga muhtoj xotin-qizlarni uy-joy bilan ta'minlashga - 5 milliard so'mdan mablag' ajratsin;

b) bir hafta muddatda ayollar muammolarini tizimli va manzilli ravishda o'rganish va hal etish doirasida shakllantirilgan maxsus jarrohlik amaliyotlari o'tkazish orqali davolanishga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlar ro'yxatidagi hamda “Ayollar daftari”, “Yoshlar daftari” va “Temir daftar”ga kiritilgan xotin-qizlarning davolanishi uchun Jamg'armaga 30 milliard so'm yo'naltirildi.

Belgilansinki, mazkur bandda ko'zda tutilgan chora-tadbirlarni moliyalashtirishga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlariga asosan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish xarajatlari uchun ajratilgan mablag'lar hisobidan jami 240 milliard so'm yo'naltirildi.

2021-yil 14-aprel kuni **“Xotin-qizlarni qo'llab quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”**gi Hukumat qarori qabul qilindi. O'zbekistonda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi qayta tashkil etildi.



Unga ko'ra, “Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi hukumat qarori qabul qilingan va qaror bilan birga jamg'arma to'g'risidagi nizom tasdiqlangan. Ta'kidlanishicha, jamg'arma: og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, shu jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslarga, nogironligi bo'lgan farzandlarini tarbiyalayotgan, kam ta'minlangan, farzandlarini to'liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj xotin-qizlarga uy-joylarning boshlang'ich badalini to'lab beradi;

xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, sog'lig'ini saqlash, ayollar sportini rivojlantirish, mehnat va o'qish sharoitlarini yaxshilash bilan bog'liq tadbirlarni moliyalashtirishga ko'maklashadi;

xotin-qizlarning tadbirkorlik tashabbuslarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun tijorat banklariga resurs mablag'larini belgilangan tartibda joylashtiradi;

xotin-qizlarga mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha bilim va ko'nikmalarni egallashlari uchun zarur sharoitlar yaratish bilan bog'liq tadbirlarni moliyalashtirishga ko'maklashadi. Eslatib o'tamiz, avvalroq Prezident farmoni bilan “El-yurt umidi” jamg'armasi xorijda o'qiydiganlar uchun o'rinlar sonini 5 baravarga oshirilishi xabar qilingandi.

2021-yil martda **“O'zbekistonda Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashi”** tashkil qilindi. O'zbekiston Prezidenti mamlakatda Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashini tashkil qilishni nazarda tutuvchi qarorni imzoladi. Quyidagilar kengashning vazifalari etib belgilandi:

- xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyatini aholi o'rtasida keng targ'ib qilish;

- xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish;

- hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda xotin-qizlarga ko'rsatiladigan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini, ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini ta'minlash borasidagi ishlar samaradorligini oshirish;

- xotin-qizlarning oilalarni mustahkamlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash hamda ularning farzand tarbiyasidagi rolini oshirish choralari ko'rish va boshqalar.

Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi sifatida qayta tashkil etiladi. Har yili davlat byudjetidan jamg'arma vazifalariga har yili 300 milliard so'mgacha mablag' ajratiladi.



Uning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: og‘ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, shu jumladan nogironligi bo‘lgan shaxslar, nogironligi bo‘lgan farzandlarini tarbiyalayotgan, kam ta‘minlangan, farzandlarini to‘liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj xotin-qizlarga uy-joylarning boshlang‘ich badalini to‘lab berish; xotin-qizlarga mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarni egallashlari uchun zarur sharoitlar yaratish bilan bog‘liq tadbirlarni moliyalashtirishga ko‘maklashish.

Xalqimiz tarixida buyuk allomalar, jahongir bobolarimiz qatorida, bunday insonlarni dunyoga keltirib, tarbiyalagan, ulug‘vor ishlarga ruhlantirgan fozila ayollar ham ko‘p bo‘lgan. Bugun ham xotin-qizlarimiz farzand tarbiyasida, turli sohalarda, mahallalarda fidoyilik ko‘rsatmoqda. Ularning og‘irini engil qilish, huquq va manfaatlarini ta‘minlash maqsadida so‘nggi yillarda bir qator qonunlar, farmon va qarorlar qabul qilindi.

2021-yilda ayollar tadbirkorligi dasturlari doirasida 200 mingdan ziyod loyihalarga 2 trillion so‘m kredit va subsidiyalar ajratilib, 320 ming xotin-qiz doimiy ish o‘rniga ega bo‘ldi. 190 ming nafar ayol kasb-hunarga o‘qitildi. 4 mingdan ziyod xotin-qizlarga uy-joy to‘lovining boshlang‘ich badaliga mablag‘ ajratildi.

2 ming nafar qiz alohida grant asosida oliy ta‘limga qabul qilindi. Natijada, o‘tgan yili oliy o‘quv yurtlariga kirgan talabalarning 60 foizini xotin-qizlar tashkil etdi. Umuman, 2020-yildan boshlab, “Ayollar daftari” tizimi yo‘lga qo‘yilib, unga kiritilgan 900 mingga yaqin xotin-qizlarga ijtimoiy-iqtisodiy, tibbiy, huquqiy va psixologik ko‘mak berilgan.

Hozirgi kunda “Ayollar daftari”da 630 mingdan ziyod xotin-qiz ro‘yxatda turibdi, ulardan 200 ming nafari ishsiz. Ayollar o‘rtasida jinoyatchilik, oilada zo‘ravonlik va tazyiq holatlari, afsuski, hali ham bor.

Davlatimiz rahbari bu muammolarni hal etishda mahalla faollari, jamoatchilik va nuroniyatlarning o‘rni va ta‘siri sezilmayotganini aytdi. **“Bugungi farovon hayotimiz ham, yorug‘ kelajagimiz ham ayollarga bog‘liq. Agar xalqimiz bizdan rozi bo‘lishini xohlasak, avvalo, mo‘tabar onalarimiz, opa-singillarimiz uchun munosib turmush sharoitlari yaratishimiz kerak. Ona rozi bo‘lsa, oila rozi bo‘ladi, oila rozi bo‘lsa, jamiyat rozi bo‘ladi”,** – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bu maqsad mamlakatimizning taraqqiyot strategiyasida eng muhim yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Ularning ijrosini tizimli tarzda, har bir mahalla kesimida amalga oshirish uchun Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida Prezident farmoni qabul qilindi.

Qo‘mita raisi ayni paytda Bosh vazir o‘rinbosari va Senat a‘zosi sifatida faoliyat yuritadi. Qo‘mitaning viloyat, tuman va shahar boshqarmalari rahbarlari esa, hokim o‘rinbosari hisoblanadi.



Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi hamda "Ayollar daftari" jamg'armasi mazkur qo'mita tomonidan boshqariladi. Yurtimizdagi 9 ming 309 ta mahalla raisining xotin-qizlar va oila bo'yicha o'rinbosari lavozimlari ham qo'mita tizimiga o'tkaziladi hamda har bir mahallada xotin-qizlar faoli lavozimi yangidan joriy qilindi.

Endi har bir mahallada ayollarning dardi bilan yashaydigan tizim bo'ladi. Qaysi ayolga nima kerakligi, o'qishi, davolanishi, bolalari tarbiyasi bo'yicha mening stolimda adolatli raqam bo'ladi, – dedi davlatimiz rahbari.

Ma'lumki, xotin-qizlar masalalari Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tizimida edi. Alohida qo'mita tuzilishi munosabati bilan, bu vazirlik ham **Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi sifatida** qayta tashkil etildi.

Bu sohada ham yangi tizim yaratilishi belgilandi. Joylarda bu vazifa bevosita hokimlarning zimmasiga yuklatiladi, hokim o'rinbosari lavozimi qisqartiriladi. Mahalla raisi o'z hududida hokim yordamchisi, yoshlar etakchisi va xotin-qizlar faolining hamjihatlikda ishlashni ta'minlaydi.

Shuningdek, Xalq qabulxonalarining vazifalari ham endi shahar va tumandan mahalla miqyosiga tushadi.

Yig'ilishda davlatimiz rahbari ayollarni ijtimoiy himoya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratdi. 2022-yil 1-sentabrdan xususiy sektorda rasmiy ishlayotgan ayollarga homiladorlik nafaqasini davlat tomonidan to'lash tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha ko'rsatma berildi. Bu maqsadlar uchun joriy yilda byudjetdan 200 milliard so'm, 2023-yilda esa 1 trillion 700 milliard so'm yo'naltirilishi qayd etildi.

Ayollarning uy-joy sharoitini yaxshilash masalasiga to'xtalar ekan, Prezidentimiz shunday dedi:

– Bir vaqtlar ayollarga imtiyozli uy berishga imkon yo'q edi, bunga qonuniy asos, mablag' yo'q edi.

Yig'ilishda ipoteka kreditlari bo'yicha ajratiladigan subsidiyalarning kamida 40 foizi xotin-qizlarga yo'naltirilishi belgilandi.

Ularning salomatligini tiklash bo'yicha ham aniq tadbirlar amalga oshiriladi. Xususan, joriy yilda 6 ming nafar ayolga yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatiladi. Nogironligi bo'lganlar rehabilitatsiya vositalari bilan ta'minlanadi. 3 million nafar xotin-qiz onkologik skriningdan o'tkaziladi. Shuningdek, qizlarni emlash, fertil yoshdagi ayollarni dori va vitaminlar bilan bepul ta'minlash bo'yicha topshiriqlar berildi.

Qizlarning yaxshi ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi Prezidentimizni hamisha o'ylantiradigan masalalardan biri. Bu yig'ilishda ham ular uchun ta'lim sharoitlarini kengaytirish bo'yicha tarixiy qarorlar qabul qilindi.



Jumladan, 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Xotin-qizlar ta’limini qo‘llab-quvvatlash dasturi ishlab chiqiladi. Dastur doirasida, poytaxtimizda asosan xotin-qizlarni o‘qitish uchun davlat-xususiy sherikchilik asosida to‘qimachilik sohasida alohida universitet tashkil etiladi. Paxta-to‘qimachilik va pillachilik klasterlari ishtirokida joylarda universitetning texnikumlari ham ochiladi.

Yangi o‘quv yilidan boshlab, ta’lim kontraktlarini to‘lash uchun qizlarga ilk marotaba 7 yil muddatga foizsiz kredit berish joriy qilinadi. Buning uchun, joriy yilda banklarga 1 trillion 800 milliard so‘m, kelgusi besh yilda 8 trillion so‘m mablag‘ ajratiladi.

Yana bir yangilik: kelgusi o‘quv yilidan boshlab, magistraturada o‘qiyotgan qizlarning kontrakt pullari to‘liq byudjetdan qoplab beriladi. Shuningdek, ehtiyojmand oila vakillari, ota yoki onasini yo‘qotgan talaba qizlarning ta’lim kontrakti mahalliy byudjetdan to‘lanadi.

Jamiyatimizda olima ayollar ulushini sezilarli oshirish uchun doktorantura yo‘nalishida xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratiladi.

Monomarkazlar va oliygohlar qoshida Malakani baholash markazlari tashkil etish, ayollarni talab yuqori bo‘lgan ishchi kasblarga o‘qitish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

2022–2024-yillar uchun **“Biznes ayollar”** dasturi qabul qilinishi belgilandi. Uning ijrosiga jami 8 trillion so‘m yo‘naltiriladi. Ayollar uchun tadbirkorlik kurslari tashkil etiladi, imtiyozli kreditlar beriladi.

Davlatimiz rahbari ehtiyojmand xotin-qizlar bandligini ta’minlagan tadbirkorlarni ham qo‘llab-quvvatlash zarurligini ta’kidladi. Ular uchun ko‘plab soliq va savdo imtiyozlari belgilandi.

Yig‘ilishda ayollarning huquqiy himoyasini kuchaytirish masalasiga ham to‘xtalib o‘tildi. Bugungi kunda tazyiq va zo‘ravonlik uchragan ayollar 30 kun muddatga alohida himoyaga olinadi. Lekin, undan keyingi tizim bo‘shliq bo‘lib qolgan.

Shu bois, endi ayollarning tazyiq va zo‘ravonlikdan himoyasi sud tomonidan ta’minlanishi, alohida himoyaga olish bir yilgacha belgilanishi aytiladi.

Oilalarni mustahkamlash, farzand tarbiyasida ota-onaning mas’uliyatini oshirish ham bugungi kundagi dolzarb masalalardan.

Prezidentimiz bu borada obro‘-e’tiborli, bilimli xotin-qizlardan iborat **“Oqila ayollar”** harakatini tashkil qilish taklifini bildirdi.

– Bu harakat **“mahallaning vijdoni”**ga aylanishi kerak. Chunki ma’rifatli jamiyatni ma’rifatli onalarsiz qurib bo‘lmaydi, – deya ta’kidladi Shavkat Mirziyoyev.

Xotin-qizlar ta’limi masalasi.

Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz,



Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq.

Buyuk yunon olimi Aristotelning “Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi”, degan so‘zlari bejiz aytilmagan. Qarang, bu fikrlar miloddan avval aytilgan. Demak, insoniyat ongli hayot kechira boshlagan davrdan buyon ta’lim va tarbiya masalasi, doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Shuning uchun ham keyingi yillarda yurtimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, yangi O‘zbekistonni yaratish maqsadida barcha sohalar qatori ta’lim tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda.

Bu borada o‘nlab muhim farmon, qaror va dasturlar qabul qilingani sizlarga yaxshi ma’lum. Mana, 2021-yil 5-iyulda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun ushbu soha taraqqiyotida, hech shubhasiz, yangi ufqlarni ochib beradi. Qonunga muvofiq, ta’lim olishning masofaviy, inklyuziv shakllari joriy qilindi, ta’lim tashkilotlariga xorijiy muassasalar bilan qo‘shma fakultet va o‘quv markazlari tashkil qilishga ruxsat etildi. Shuningdek, o‘qituvchilarga mualliflik dasturi va o‘qitish uslublarini joriy etish, zamonaviy pedagogik shakllar, o‘qitish va tarbiya usullarini erkin tanlash huquqi berildi.

Biz keng ko‘lamli demokratik o‘zgarishlar, jumladan, ta’lim islohotlari orqali O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya’ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o‘zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak.

Tarixga nazar solsak, Buyuk ipak yo‘lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o‘choqlaridan biri bo‘lganini ko‘ramiz. Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me’moriy obidalar, nodir qo‘lyozmalar, turli osori atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi.

Ulug‘ ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z vaqtida biz uchun ikki emas, to‘rt tilni bilish zarur, deb bong urgan edi. Behbudiy bobomizning ushbu da’vati hozir ham g‘oyat dolzarb bo‘lib turibdi.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomadagi bir fikrga e’tiboringizni qaratishni o‘rinli, deb bilaman. Ya’ni: “Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir”.

Albatta, bu boradagi ishlarimiz nafaqat izchil davom ettirilmoqda, balki yanada yuqori bosqichga ko‘tarilmoqda. Shu maqsadda 2021-yil 13-iyulda qabul qilingan



“Yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmon bu fikrni tasdiqlaydi.

Mazkur hujjatda mamlakatimiz yoshlari uchun qo‘shimcha 30 dan ortiq yangi imtiyoz va imkoniyatlar yaratish ko‘zda tutilgan. Ana shunday imkoniyatlardan faqat bittasi haqida fikr yuritmoqchiman. “Temir daftar”ga kiritilgan oilalarning oliygohlarda ta’lim olayotgan farzandlarining 2021-2022 o‘quv yilidagi kontrakt puli birinchi o‘quv yili uchun Davlat byudjeti hisobidan to‘lab beriladi. Bunday imkoniyatdan yurtimiz bo‘yicha 4 mingdan ziyod oilalar farzandlari foydalanadi. Buning uchun byudjetdan 29,2 milliard so‘m ajratiladi.

Yurtimizda ota-onasidan ajragan, mehrga muhtoj bolalarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ta’lim-tarbiya olishi, ish joyi va uyiga ega bo‘lishi, jamiyatda munosib o‘rin topishi, “Mehribonlik uylari”, maxsus maktab-internatlar va “Bolalar shaharchasi”ning moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyatini mustahkamlashga jiddiy e’tibor berilmoqda.

Ayniqsa, “Mehribonlik uylari”dagi bolalarni oilaga yaqin muhitda tarbiyalash, bilimli, kasb-hunarli va ma’naviyatli, vatanparvar insonlar etib voyaga etkazish – hammamizning muqaddas burchimiz. Shularning barchasini hisobga olib, “Mehribonlik uylari” va maxsus maktab-internatlarda ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish bo‘yicha yangi tizimni joriy etmoqdamiz.

Ana shunday o‘quv-tarbiya muassasalari tarbiyalanuvchilarining muammolarini o‘rganish hamda hal etish, ularning orzu-istaklarini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha yangi tizim – **“Mehr daftari”** joriy etilmoqda. Shuningdek, etim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni uy-joy bilan ta’minlash tartibi belgilandi. Unga ko‘ra, o‘ziga biriktirilgan uy-joyga ega bo‘lmagan va turarjoyga muhtoj sifatida hisobda turgan ana shunday bolalarga ular 18 yoshga to‘lgan yili umumiy maydoni 25 kvadrat metrdan kam bo‘lmagan 1 xonali, voyaga etgan bolalar o‘rtasida nikoh tuzilgan holatlarda esa 50 kvadrat metrdan kam bo‘lmagan 2 xonali kvartiralar ajratiladigan bo‘ldi.

Respublikamizda xotin-qizlar masalasiga katta e’tibor berilishiga qaramay, **hali echimini kutayotgan muommolar** ham mavjud. Masalaga oydinlik kiritish maqsadida respublikamizning 20 yoshdan – 45 yoshgacha bo‘lgan xotin-qizlar orasida maxsus ular muommolari va echimlariga takliflar yuzasidan sotsiologik so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovlar natijasida ayrim ayollarimizni bugungi kundagi turmushga chiqqandan keyin turmush o‘rtog‘ining oilalari doimiy yashash joyiga ro‘yxatga o‘tkazmaganligi, turmushga chiqqan ayol bir necha farzandlari bilan hali ham ota onasi uyida doimiy ro‘yxatda bo‘lish holatlari ko‘p ekanligi aniqlandi. Bu holatdan ko‘pchilik ayollar norozi bo‘lib, ayolning tug‘uruq davrigacha bo‘yicha salomatligini nazorat qilish masalalarida ayrim qiyinchiliklarga duch kelayotganligini ko‘rsatgan.



Yana respublikamizda aksariyat ayollar qizlarni erta turmushga bermaslik, uning aksariyat fojiiyaviy oqibatlari masalasiga, to'ylarda sarf harajatlarni cheklash, ayrim oilalarda ajrim holatlari bo'lganda farzand erkak oilasida qolgan taqdirda bola uchun aliment undirish ayollarga nisbatan qo'llanilmaganda ayol e'zozlanishi qonunchiligimizda yaqqol ko'rinar edi. Tabiatan zaifa yaratilgan ayollar farzandni dunyoga keltirishda erkakga nisbatan salomatligida, fiziologik holatlarida ko'proq o'zgarishlar sodir bo'lishini inobatga olib, ularni alement to'lashdan ozod etilishi davlat tomonidan ijtimoiy muhofazalangan bo'lar edi, deb masalalariga doir amaldagi qonunlarning ayrimlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yuzasidan takliflarni ilgari surganlar.

Mavjud holatlarni o'rganib, hurmatli qonun ijodkorlariga, bu boradagi mutasaddi tashkilotlarga oilani mustahkamlashga qaratilgan huquqiy asoslarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish davr talab ekanligidan kelib chiqqan holda yuqorida ko'rilgan masalalar yuzasidan **quyidagi takliflarni beramiz:**

– qizlarni turmushga berganimizda nikoh munosabatlari rasmiy-lashtirishganda shunday tizimni amaliyotga kiritish kerakki, nikoh rasmiylashtirilishi bilan er-xotin (yangi oila) erkak yoki ayolning doimiy yashash joyiga ro'yxatga bir manzilga doimiy yashash joy ro'yxatiga qo'yilsin. Bu bilan oilada tug'ilgan bolalar doimiy yashash joyida ro'yxatga qo'yilishi muommolari o'z- o'zidan bartaraf bo'lar edi. Ko'pchilik oilalarda bo'layotgan yangi kelinni yashash joyga doimiy ro'yxatga o'tkazmaslik holatlariga chek qo'yilar edi.

– “Oila kodeksi”da belgilangan ayrim ajrimdagi oila bolalari uchun to'lanadigan aliment, agar bola sud qaroriga ko'ra erkak bilan qoldirilgan taqdirda ayollardan undirilmasligi yuzasidan qonunchiligimizga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

– nuroniy yoshda otaxon va onaxonlar uchun respublikamizda “ijtimoiy madaniy maskanlar” tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bunday “ijtimoiy-madaniy maskan” barpo etishda Yaponiya tajribasi diqqatga sazovordir. U erga keksalar ertalabdan borib sog'lom turmush tarzi, madaniy-ma'rifiy tabdirlar ishtirokchisiga aylanib, o'zlarining sog'liqlarini tiklaydi hamda faolligini qayd qiluvchi kartochnalarga o'z yutuqlari qayd etib boriladi. Bu ma'lum muddat va ko'rsatkichga ega nuroniyga mamlakatimizdagi tabarruk ziyoratgohlariga, tarixiy shaharlarga ekskursiyalar, dam olish maskanlariga borishga qo'shimcha imkoniyat yaratar edi. Natijada muhtarama keksalar hayoti faollashib, turli aqliy, jismoniy musobaqalar orqali o'rtacha umr ko'rish yoshini yanada uzaytirib, hayotiy tajribasi bilan yoshlarga ibrat maktabi bo'lishdek mas'uliyatli vazifani bardavomligini ta'minlashlari mumkin edi. bunday faol turmush



tarzi ularda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan ko‘plab kasalliklarning oldini olishi mumkin. Xullas, mamlakatimizda inson qadri, xotin-qizlarimiz, nuroniylarimiz ulug‘lanmoqda. Mamlakatimizda har bir fuqaro islohotlar ishtirokchisi bo‘lib, jannatmakon o‘lkamizda yashayabganidan, shu muqaddas zaminning farzandi ekanligidan, yurt taraqqiyotiga hissa qo‘shib yashashi uchun mavjud imkoniyatlarini, intellektual salohiyatini ishga solishiga qulayliklar, shart-sharoitlar yaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *“Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda // O‘zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston” gazetasi bosh muharriri Salim Doniyorovning savollariga javoblari. 16-avgust 2021. //www.yuz/uz/news/yangi-oz.*
2. *“2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi (PF-60) Prezident Farmoni. 2022-yil 28-yanvar // lex.uz.*
3. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.*
4. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.*
5. *2021-yil 5-martda “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” N PQ-5020 qarori // lex.uz*
6. *2021-yil 14-aprel “Xotin-qizlarni qo‘llab quvvatlash davlat maqsadli jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 14.04.2021dagi 210-son // www.lex.uz.*
7. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 01.03.2022dagi PQ-146-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” // www.lex.uz .*



Jaxongirov Yusufbek Sobirjonovich,
AnDU tayanch doktoranti

O'ZBEKISTONDA IJTIMOIIY-MA'NAVIIY MUHIT BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA OTINOYILAR FAOLİYATI O'RNI

Annotatsiya. Maqolada ayol oila asosi saqlovchisi, millatning ertasi va yurt taraqqiyotini belgilab beruvchi kuch, yoshlarning bosh tarbiyachisi ekani ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim-tarbiya, barqarorlik, keksa avlod, farzand, urf-odat, xalqlar, ilmiy, tadqiqot.

Аннотация. В статье подчеркивается, что женщина является хранительницей основ семьи, определяющей силой будущего нации и развития страны, главным воспитателем молодежи.

Ключевые слова: воспитание, стабильность, старшее поколение, ребенок, традиция, народ, наука, исследование.

Annotation. The article emphasizes that a woman is the guardian of the foundations of the family, the determining force for the future of the nation and the development of the country, the main educator of youth.

Keywords: upbringing, stability, older generation, child, tradition, people, science, research.

Mintaqamizda ayollarning islomiy ta'lim-tarbiya olishi, boshqa o'lkalarga qaraganda yuqori darajada qaralgan. Tarixdan ma'lumki, momolarning farzandlariga, nabira-chevaralariga islomiy urf-odat va an'-analari asosida shakllangan tarbiya mintaqamizga islom dini kirib kelgan paytlardan boshlangan. Ayniqsa, qizlar tarbiyasi doim muhim sanalib, ona eng asosiy tarbiyachi vazifasini o'tagan. Islom dini kirib kelguniga qadar, ya'ni johiliyat davrida Arabiston yarimorolida erkaklar o'z ayolidan qiz farzand ko'rishini o'zlari uchun or deb bilgan. Tug'ilgan qiz chaqaloqlarni tiriklayin ko'mgan, ayollarga zulm ko'rsatgan. Ularning cho'ri sifatida sotilishi, ularning mol-mulkka qo'shib meros sifatida otadan o'g'ilga o'tgani, ayolning inson sifatida ko'rilmashligini, ayollarga nisbatan zulm shafqatsiz darajada kuchaygani bilan izohlash mumkin. Islom dinining kirib kelishi ayollarga munosabatni tubdan o'zgartirgan.

Bugungi global o'zgarishlar, ma'naviy qadriyatlarga putur yetayotgan bir davrda oilalarning mustahkamligini ayollarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ayol – oila asosini saqlovchi, Vatanimizning kelajagi, millatning ertasi va yurt taraqqiyotining belgilab beruvchi kuch – yoshlarning bosh tarbiyachisi. Shu jihatdan istiqlolning ilk diniy



mustaqillik qo‘lga kiritilgan yillardan boshlab ayollarning islomiy ta’lim-tarbiyasiga ham e’tibor berildi. Bugun mamlakatimizda oilalarda, mahallalarda ushbu vazifani otinoyilar [1.20] amalga oshirib kelmoqda. Istiqlolgacha ayollarning islom ilmini qayerda olgani, ayollarga ixtisoslashgan diniy muassasalar faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa-da, ayolning iffati va boshqa hususiyatlarini inobatga olgan holda ma’lumotlar taqdim qilinmas va arxiv materiallari ma’lumotlari deyarli kam bo‘lgan.

Respublikada ayollarning islomiy ta’lim tarbiya olishlari bilan bugungi kunda 2 ta ayollar madrasasi va O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida ayollar bo‘limi faoliyat yuritmoqda. Biroq ularni madrasalarda ta’lim-tarbiya olish oriyentatsiyasi faqatgina shar’iy bilim olib, kelajakda faqatgina farzandlarining diniy sabog‘ini chiqarish bilan kifoyalanayotganini ko‘rish mumkin. Chunki ayollar madrasalari bitiruvchilarni kelajakda diplom bo‘yicha kasbiy yo‘nalishi otinoyilik deb qaralsa, ularda shar’iy ilimlarga oid bilimlari kuchli sanalsa-da, bitiriboq “otinoyi mutaxassis” bo‘lib ishlashga tajribalari ozlik qilmoqda. Bu yerda turli yoshdagi xotin-qizlar madrasaga hujjat topshirishi nazarda tutilsa, madrasaning qabul imtixonlari o‘zlashtirib talaba bo‘lish imkoniyatiga yosh qizlar ega bo‘lmoqdalar. Yoshi katta, oila bekasi bo‘lgan, o‘zbek oilalaridagi diniy rasm-rusmlarini bajarilishida, turli diniy-ma’rifiy suhbatlarda qizlarga ta’sirchan pand-nasihad qila oladigan ayollarning esa diniy sohada kasbiy ixtisosligi yetarli bo‘lmayapti. Shu sababdan xotin-qizlarga ixtisoslashgan madrasalarni bitirgan talabalarning barchasi otinoyi bo‘ladi degan tushuncha ularni faoliyatidan yiroq sanalib kelinmoqda. Bu masala bo‘yicha Respublikada amalda faoliyat yuritib kelayotgan otinoyilarning qancha foizi diniy sohadagi diplomga ega ekanligini ko‘rish mumkin. .

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Toshkent shahar va viloyatlarda faoliyat ko‘rsatayotgan otinoyilar haqida ma’lumot
(2015-yil 1-iyun holatiga) [2.204V]

№	Viloyatlar	Otinoyi lar soni	MA’LUMOTI				
			Oliy	Oliy diniy	O‘rta- maxsus	Diniy o‘rta- maxsus	Umumiy
1.	Andijon	384	28		52		304
2.	Buxoro	247	56		85	15	106



3.	Jizzax	44	16		5		23
4.	Navoiy	61	6		4		51
5.	Namangan	372	38		61		273
6.	Samarqand	283	33		66		184
7.	Sirdaryo	43	5		6		32
8.	Surxondaryo	50	9		11		30
9.	Toshkent vil.	191	59	1	38	1	94
10.	Toshkent sh.	97	40		37	3	20
11.	Farg‘ona	205	32		58		115
12.	Xorazm	350	20		67		263
13.	Qashqadaryo	52	17		14	4	21
14	Qoraqalpog‘iston	30			2		28
Jami		2409	359		506		1544

Jadvaldan ko‘rinib turiptiki, ayollar madrasalarining o‘ziga xos xususiyatlaridan va muammolaridan biri bitiruvchilarning kasbiy komponenti sanaladi. Mahallarda diniy-ma’rifat va ma’naviy-ahloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchisi lavozimi, shuningdek viloyatlarda bosh imom-xatibning xotin-qizlar masalalari bo‘yicha yordamchisi kabi lavozimlarning joriy etilishi ham ushbu muammoni to‘liq hal etganicha yo‘q. Chunki ushbu lavozimga nomzodlar oliy ma’lumotli bo‘lmog‘i, kamida 10 yil pedagogik ijtimoiy sohada ishlagan, islom dini haqida ma’lumotga ega bo‘lgan, xalq orasida obro‘ va ishonch qozongan **[3.29B]** fuqarolar bo‘lishi lozim.

2017-yilga kelib respublikada jami 5 604 ta otinoyi ro‘yxatga olinib, ularning 2 767 nafari rasmiy faoliyat yuritayotgan otinoyilar, 2 837 nafari esa ro‘yxatdan o‘tmagan norasmiy faoliyat otinoyilarni tashkil qilgan **[4.141V]**.

Bugungi davr turli ekstremistik va terrorchi kuchlarning dunyoning turli nuqtalarida g‘arazli faoliyatlarni olib borishi va ularning asosiy e’tibori ko‘proq ayollar va yoshlarga qaratilayotganligi, aynan bunday kuchlarga qarshi tura oladigan, islom dinining asl mohiyatini anglaydigan, boshqalarga ham to‘g‘ri yetkazib bera oladigan mutaxassis ayollarga talab ortib bormoqda. Yuqoridagi jadval esa ayollar madrasalari bitiruvchilarini o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha mazkur muammolarga yordam berishda



faollik sezilmayotganidan dalolatdir. Shunday ekan, bugungi kunda ayollarning islomiy ta'lim tarbiya olishlari yuzasidan tushayotgan takliflarni chuqur o'rganish lozim. Mamlakatimizda ayollar ta'lim tarbiyasiga berilayotgan e'tibor, shuningdek xotin-qizlar madrasalariga O'MI va homiylar, “Vaqf” jamoatchilik fondi tomonidan yaratilayotgan shart-sharoitlar inobatga olinsa, mazkur soha vakillarini mamlakatimiz xotin-qizlarining ijtimoiylashuvida muhim rol o'ynashini ko'rish mumkin.

Bundan ko'zlangan maqsad esa hududlarda, shahar-tumanlarda, mahallalarda milliy-diniy qadriyat va ma'rosimlarni tiklash, xotin-qizlar o'rtasida din bilan bog'liq masalalarni to'g'ri talqin etish, yurtimizda olib borilayotgan diniy-ma'rifiy islohotlar mohiyatini tushuntirib borish, oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirish, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilish bo'yichi manzilli chora-tadbirlar samaradorligini oshirishdir. Mazkur faoliyatni bajarishda albatta mahallalardagi norasmiy liderlar toifasiga kirgan otinoyilarni o'rni muhimdir. Shunday ekan, bugun Respublikamizda ayol-qizlarga xoslangan madrasa bitiruvchilarini har tomonlama diniy va dunyoviy bilimlar, qo'shimcha hunarli bo'lib, ulardan jamiyatda ana shunday ishlarni bajarishda foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan ayollar madrasalardan biri Jo'ybari Kalonga 1992–1993-o'quv yilidan 2005–2006-o'quv yillar oralig'ida 452 nafar talaba o'qishga kirgan, ulardan 335 nafar talaba bitirgan va mustaqil hayotga yo'l olgan. O'quv intizomi pedagogik jamoaning diqqat markazida bo'lgan. Aksariyat talabalar o'quv intizomini buzganligi va boshqa sabablarga ko'ra talabalar safidan chiqqan. Bilim yurtining 80 foiz talabalari qo'shimcha to'garaklar orqali bilimlarini mustahkamlaganlar.

2006–2007-o'quv yilidan 2015–2016-o'quv yiligacha 130 nafar talaba tahsil olgan va tamomlagan. Ularga 17–19 nafar mudarrisalar saboq bergan [5.154V]. Mazkur yillarda Jo'ybari Kalonda ancha ishlar tashkil qilinib, asosan ularni yaxshi shart-sharoitlarda o'qishi, madrasaning qiyofasi yangi bosqichga ko'tarilgan. Talabalarni adabiyotlar bilan ta'minlash, madrasadagi ARM fondidagi adabiyotlarni boyitishdagi ishlar takomillashib, mutaxassislik va darsliklar, turli ijtimoiy-siyosiy, badiiy adabiyotlarning adadi 10 000 (o'n ming) dan ortgan hamda talabalar ixtiyoriga topshirilgan.

Hozirgi kunda Jo'ybari kalon o'rta maxsus islom bilim yurtida oldingi yillarga qaraganda kvota teng barobarga 30 tagacha oshirilgan. Bundan tashqari bitiruvchilar faoliyatini keyingi bosqichda Toshkent islom instituti va Mir Arab oliy madrasasida davom ettirish istagi ortib bormoqda.



Toshkentdagi Xadichai Kubro islom o'rta-maxsus bilim yurtining o'quv jarayonlari keyingi davrlarda ancha takomillashib, uning kadrlar tayyorlash tizimida ham o'zgarishlar kuzatilgan. Bilim yurti markazda joylashganligi sababli xotin-qizlarning ushbu ilm dargohida tahsil olish ehtiyojining yuqoriligi muammosi xali-xanuz saqlanib qolmoqda. Keyingi paytlarda 1 o'ringa 30-40 abituriyent to'g'ri kelayotganligidan xotin-qizlarning diniy ta'lim olishga bo'lgan istagi ortib borayotganini ko'rish mumkin. Mamlakatda xotin-qizlarning diniy ta'lim olishga sharoit yaratish maqsadida, respublikada barcha islom o'rta-maxsus bilim yurtlari qoshida qur'on kurslari tashkil etilib, tegishli tartibda o'qitish joriy qilingan. Bugungacha Xadichai Kubroni 800 ga yaqin xotin-qizlar tamomlab chiqqan bo'lsa, ular mamlakatning turli jabhalarida faoliyat ko'rsatib kelmoqdalar.

Keyingi yillarda Respublikada gender siyosati alohida ustuvor yo'nalish sifatida qaralib, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtiroki ta'minlanib, "Ayollarga ilm berish – jamiyatni ilmiy, ma'rifatli va salohiyatli qilish" [6.250B] degan aqida hayotga izchil tadbiriq etilmoqda. Mazkur ishlarni bajarishda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning Xotin-qizlar bilan ishlash bo'limi, O'zbekiston musulmonlari idorasining ayollar bo'limi, Qoraqalpog'iston Respublikasi qoziyoti, Toshkent shahar, viloyatlar vakilligi bosh imom-xatiblarining ayollar masalalari bo'yicha yordamchilari diniy sohada faoliyat yuritayotgan xotin-qizlarning bilimlarini mustahkamlash, ularga reja asosida seminar va o'quvlar tashkil qilish, diniy-ma'rifiy sohada "jaholatga qarshi ma'rifat" bilan kurashish konsepsiyasi asosidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirib kelmoqdalar.

Shu o'rinda ayollar diniy ta'limini ham davr talabiga mos holda takomillashtirish zarurati tug'ilmoqda. O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi, tashkil etilayotgan xalqaro ilmiy tadqiqot markazlari, Xalqaro islom akademiyasi, Toshkent Islom instituti ayollar bo'limi, Mir arab oliy madrasasi ayollar bo'limi, o'rta-maxsus ayollar bilim yurtlarini hamda mazkur sohada boshqa ilmiy maskanlar faoliyatini hamkorligini yanada kuchaytirish orqali keng xalq ommasiga sof islom dini ta'limotining etkazilishini ta'minlash, shuningdek, dinimizdagi ayollar masalasidagi nozik tushunchalarni oila va jamiyatning ayollar bilan bog'lik o'tkir muammolarini islom dini tadqiqotlarida ayollar masalalari yo'nalishlarini tobora rivojlantirish orqali etuk iqtidorli, ma'rifatli olimlar etishtirishni davrning o'zi taqozo qilmoqda.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A. Otaboyev. *Qutlug‘ qadamlar*. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2018. – B. 20.
2. O‘zPAA M-975-jamg‘arma, 30-ro‘yxat, 2804-yig‘majild, 204-varaq
3. A.Mansur, I.Usmonov Ma‘rifat ziyosi:// Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar Bosh imom-xatiblarining xotin-qizlar maslalalari bo‘yicha yordamchilari uchun qo‘llanma. – Toshkent: “TIU” nashriyot-matba birlashmasi, 2015.- 29-b.
4. O‘zbekiston musulmonlari joriy arxivi. “Buxoro shahar Jo‘ybari Kalon ayol-qizlar o‘rta-maxsus bilim yurti o‘quv yili hisobotlari, ish rejalari, oyliklar, o‘quvchilar fanlar baholari”. 3d ro‘yxat, 413-yig‘majild.
5. O‘zPAA M-975-jamg‘arma, 30-ro‘yxat, 2803-yig‘majild, 154-varaq
6. Mirziyoyev Sh.M. *Yangi O‘zbekiston Strategiyasi*. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2021. – 250 b.



II SHO‘BA.

KEKSALIK VA HOZIRGI ZAMON: IJTIMOIY VA DEMOGRAFIK O‘ZGARISHLAR





F.Q.Akramova,
Urush va mehnat faxriylari uchun
Respublika pansionati direktori

URUSH VA MEXNAT FAXRIYLARI UCHUN RESPUBLIKA PANSIONATIDA KEKSALARNI IJTIMOYIY HIMOYALASH MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada “keksayish” tushunchasi, Urush va mehnat faxriylari uchun Respublika pansionatida keksalarni ijtimoiy HIMOYALASH doirasida olib borilayotgan ishlarga urg‘u berilgan.

Kalit so‘zlar: keksayish, «Saxovat» va «Muruvvat», vasiylik, Urush va mehnat faxriylari uchun respublika pansionati.

Аннотация. В данной статье подчеркивается понятие «старость», работа, проводимая в рамках социальной химиотерапии пожилых людей в Республиканском доме-интернате для ветеранов войны и труда.

Ключевые слова: старость, «великодушные» и «милосердие», опека, Республиканский дом-интернат для ветеранов войны и труда.

Annotation. This article emphasizes the concept of “old age”, the work carried out within the framework of the social protection of the elderly in the Republican boarding school for war and labor veterans.

Key words: old age, “generosity” and “Mercy”, guardianship, Republican boarding school for war and labor veterans.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida «Saxovat» va «Muruvvat» internat uylarida vasiylikka olingan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, ularning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash yuzasidan zarur chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

2022-yil 30-avgust kuni Prezidentimizning “Saxovat” va “Muruvvat” internat uylari hamda Urush va mehnat faxriylari uchun Respublika pansionati faoliyatini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-365 son Qarori²⁹ vasiylikka olingan keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarga qaratilgan davlat siyosatini ko‘rsatib beradi.

“Saxovat” va “Muruvvat” internat uylari hamda Urush va mehnat faxriylari uchun Respublika pansionatida istiqomat qilayotgan bolalar, keksalar va nogironligi

²⁹ <https://lex.uz/uz/docs/6178090>



bo‘lgan shaxslarga tibbiy-ijtimoiy va maishiy xizmatlar ko‘rsatishning yangilangan tizimini joriy etish orqali ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralarini yanada kuchaytirish, ularga hamho‘rlik qilish maqsadida qilingan Vazirlar Mahkamasi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, Davlat bojxona qo‘mitasi va Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligining «Saxovat» va «Muruvvat» internat uylari hamda Urush va mehnat faxriylari uchun Respublika pansionatini Davlat bojxona qo‘mitasiga birlashtirish to‘g‘risidagi taklifga rozilik berildi.

Ho‘sh aslida “Saxovat” va “Muruvvat” internat uylari hamda Urush va mehnat faxriylari uchun Respublika pansionatida istiqomat qilayotgan aholi qatlami qanday omillar ta’siri yuzaga keldi?

Ularni hayotga bo‘lgan intilishlari, orzu-maqсадlari nimalardan iborat? Ularni “Saxovat” va “Muruvvat” internat uylari hamda Urush va mehnat faxriylari uchun Respublika pansionatidagi hayotini mazmunli o‘tkazishi uchun qanday ilmiy tadqiqotlar va innovatsion loyihalar amalga oshirilmoqda.

Men rahbarlik qilayotgan Urush va mehnat faxriylari uchun Respublika pansionati vasiylikka olingan keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni odatiy hayotga bog‘lovchi va unga tayyorlovchi transfer vazifasini bajarishimiz lozim deb hisoblayman. Bu bugungi kunning, zamoni talabi.

Mamlakat aholisining demografik o‘sishi (Xitoy, Hindiston) yoki pasayishi (Rossiya va Yevropa davlatlari) bir qator davlatlarda asosiy muammolardan biriga aylangan. Umumiy aholining katta qismini keksalarni tashkil qilishi bu zamonaviy demografik hodisasidir. Har bir mintaqada keksayishning rivojlanishi ittensiv bo‘lsada, keksayishning rivojlanishi hozirgi kunda barcha davlatlar uchun xos bo‘lmoqda. Aholining keksayishi aholi umumiy sonida ulug‘ yoshdagilar ulushini ortishi, yoshlar salmog‘ining kamayishi, shu bilan birga o‘rta yoshdagi aholi sonining ko‘payishida o‘z aksini topadi. Takidlash joizki, aholining keksayishi deganda bu yosh guruhidagi kishilar salmog‘ining, balki mutloq sonning ortishi ham tushuniladi.

O‘zbekistonda ham bugungi kunda jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar demografik jarayonlarga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatdi. O‘lim ko‘rsatgichlari keskin oldingi yillarga qaraganda kamayib bormoqda. Buning natijasida aholining “keksayishi” jarayoni tezlashdi.

Fanda keksalik va uning dastlabki ko‘rinishlari, keksalik yoshi va uning chegaralari kabi masalalar atrofida baxs-munozaralar anchadan beri olib borilmoqda. Lekin so‘ngi yillardagina bu masalalar iqtisodiyot, demografiya, sotsiologiya, gerontologiya kabi fanlarning jiddiy tadqiqot abektiga aylandi. Chunki aholining keksayish jarayoni bilan bir vaqtda keksa kishilarning ijtimoiy, fiziologik va biologik xarakteristikasida



tub o'zgarishlar ro'y beradi. Bu o'zgarishlarning silliqroq kechishi nafaqat sog'liqni saqlash tizimiga, balki jamiyatning boshqa tuzilmalariga – iqtisodiy, ishlab chiqarish, rekreatsiya, ijtimoiy ta'minot, oila va boshqalarga ham bog'liqdir.

Fikrimizcha, inson organizmida ro'y beradigan o'zgarishlar: jismoniy quvvatning zaiflashuvi, ish qobiliyatining susayishi, tashqi ta'sirga moslashishi va javob reaksiyalarining sekinlashuvi va boshqalar 55–60 yosh chegarasidan yuzaga chiqadi. Demak, keksalik davrining boshlanishiga shartli ravishda O'zbekistonda belgilangan mehnatga layoqatli yoshning eng yuqori chegarasini asos sifatida olishni va mehnatga layoqatli yoshdan katta bo'lgan aholi – 55 va undan yuqori yoshdagi ayollar, 60 va undan yuqori yoshlarni erkaklarni qariyalar guruhiga kiritish mumkin, deb hisoblaymiz.

Keksalarda yoshi bilan birga paydo bo'ladigan ko'pgina muammolari mavjud. Keksalarning asosiy muammolaridan biri bu – sog'lig'i deb olish mumkin. Ma'lumki, “qariyalar orasida kasallanish darajasi yoshlarga qaraganda 2 baravar, keksalar orasida esa 6 baravar yuqori. Bu surunkali kasalliklar (artikulyar, yurak-qon tomir va boshqalar), eshitish qobiliyati, ko'rish, ortopedik muammolardan iborat. Keksalarni davolash qiymati yoshlarga qaraganda 1,5-1,7 baravar ko'pni tashkil etadi”³⁰. Ko'pincha, keksalarning kasalliklari shu qadar jiddiyki, ular o'zlariga xizmat qila olmaydilar va 24 soat tibbiy yordamga muhtojdirlar.

Keksalarning muhim muammolaridan biri – yolg'izlik, injiqlik va ijtimoiy munosabatlarning etishmasligi bilan tavsiflanadi. Qarilikda bunday muammolar fojiali sabablarga ko'ra paydo bo'ladi: misol, turmush o'rtog'ining o'limi, uzoq davom etgan kasallik, kasbiy va ijtimoiy faoliyatning to'xtashi.

Moddiy ta'minot, aniqrog'i ishonchsizlik keksalarni doimiy tashvishlantirishga zamin yaratadi. Ko'pincha o'zining eng zarur narsalar uchun mablag' ajratish, o'z dafn marosimini moliyaviy qo'llab-quvvatlash haqidagi sarf xarajatlarni rejalashtira olmaydilar.

Keksalikning o'ziga xos xarakterli psixologik xususiyatlaridan biri bu ongli ravishda yaqinlashib kelayotgan o'limini ogohlantirilishidir. Kexsa fuqarolarning o'limi sabablari, umuman ularning yoshiga, psixologik, ijtimoiy va moddiy muammolariga qarab qisqartirilishi mumkin.

Toshkent shahridagi “Urush va mehnat faxriylari uchun Respublika pansionati” 1968-yilda tashkil etilgan. Urush va mehnat faxriylari uchun Respublika pansionati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligining tibbiy-ijtimoiy muassasalari to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash” haqida 2021-yil 17-sentabirdagi 575-sonli 5 ilovasida Urush va mehnat

³⁰ Кузнецова М.А., Новак Е.С. Теория социальной работы. – Волгоград, 2004, – С.74.



faxriylari uchun Respublika pansionatining maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, shuningdek, ularning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi. Qarorga muvofiq O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan I va II guruhlar nogironligi bo‘lgan shaxslar, O‘zbekiston Respublikasining Oila [kodeksining 110–111-moddalariga](#) muvofiq ularni ta‘minlashga majbur bo‘lgan qarindoshlar yoki boshqa shaxslarga ega bo‘lmagan yolg‘iz urush va mehnat faxriylarini davlat o‘z qaramog‘iga olgan. Bo‘sh joylar mavjud bo‘lgan taqdirda pansionatga yolg‘iz urush va mehnat faxriylaridan tashqari O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan, O‘zbekiston Respublikasining Oila [kodeksiga](#) muvofiq ularni parvarish qilishi shart bo‘lgan qarindoshlari yoki boshqa shaxslar bo‘lmagan yolg‘iz keksalar, 18 yoshdan boshlab I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar, o‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz yashovchi I guruh nogironligi bo‘lgan keksalar ham qabul qilinishi mumkin. Qabul qilish bo‘sh o‘rinlar mavjud bo‘lgan taqdirda amalga oshiriladi.

Ushbu hududida ma‘muriy bino, madaniyat va ma‘rifat maskani, asosiy 4 qavatli bino, oshxona, kutubxona, kir yuvish uchun xona, 2 qavatli reabilitatsiya statsionar bo‘limi, morg(o‘likxona) joylashgan. Markaz o‘z faoliyatini 20 nafar keksa kishidan iborat 12 ta ishchi guruh bilan boshlagan, hozirgi kunga kelib keksalarning soni 140 nafarni, ishchi xodimlar 100 nafarni tashkil etadi. Bugungi kunda Urush va mehnat faxriylari uchun Respublika pansionatida 72 ta ayollar, 68 ta erkaklar, 6 nafar front orti xizmatchilari, 65 nafar mehnat fahriysi, 28 ta nogironligi bo‘lgan shaxslar-bulardan 12 nafar I-guruh, 16 nafar II-guruh nogironligi berilgan. O‘zgalar parvarishiga muhtojlar soni – 65 nafar fuqaroni, yordamchi vositalari bilan yuruvchilar – 26 nafarni, o‘zgalar yordamiga muhtoj bo‘lmaganlar – 74 nafarni tashkil etadi. Urush va mehnat faxriylari uchun Respublika pansionatida 45nafar o‘zbek, 60 nafar russ, 2 nafar qozoq, 10 nafar tatar va 23 nafar boshqa millatlarga mansub fuqarolardir.

Urush va mehnat faxriylari uchun Respublika pansionatida ma‘naviy-ma‘rifiy va madaniy tadbirlarni, shu jumladan konsert dasturlari tashkil etish orqali keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarning madaniy hayotda faol ishtirok etishlarini ta‘minlash yo‘nalishida turli ko‘rik-tanlov va ko‘rgazmalar tashkil etiladi hamda vasiylikka olingan shaxslar ishtiroki orqali ular kelajakka umid, intilishlarini orttirish hamda vaqtlarini sermazmun o‘tkazishlari uchun xar turdagi qiziqarli to‘garaklar, “Momojonlar” xor guruhi, “Sevilgan kino” kuni, har mavsumda tug‘ilgan kunlar, diqqatga sazovor joylar va ziyoratgohlarga tashriflarini ta‘minlab ekskursiyalar, sayohatlar, bayramlar tadbirlari muntazam ravishda, reja asosida o‘tkaziladi.

Pansionatda tibbiy mutaxassislar va ijtimoiy ish bo‘yicha mutaxassislar bilan to‘liq ta‘minlangan. Tibbiy xizmat ko‘rsatish pansionatning tibbiyot xodimlari tomonidan



amalga oshiriladi, ular (ma’muriyat bilan bir qatorda) vasiylikka olinganlarning sog‘lig‘i, ovqatlanish rejimi va sifati, davolash-profilaktika tadbirlarining o‘tkazilishi hamda sanitariya qoidalari normalari va gigiena normativlariga rioya etilishi uchun javob beradilar. Dastlabki tibbiy yordam ko‘rsatish, sog‘liqni saqlash tizimining yuqori malakali mutaxassislarini jalb etgan holda keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni har yili ikki marta bepul tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, sanatoriylarda sog‘lomlashtirish va ixtisoslashtirilgan statsionarlarda davolashni tashkil qilinadi. Keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarni protez-ortopediya buyumlari, reabilitatsiyaning texnik vositalari (eshitish apparatlari, nogironligi bo‘lgan shaxslar aravachalari, hasa va qo‘ltiqayoqlar, yurish moslamalari), shaxsiy gigiena vositalari bilan ta’minlanadi.


Pansionatda vasiylikka olinganlarning tibbiy-ijtimoiy ta’minoti to‘liq davlat ta’minoti asosida amalga oshiriladi. Vasiylikka olinganlarni oziq-ovqat, kiyim-bosh, poyabzal, ashyoviy ta’minotning boshqa buyumlari va yumshoq anjomlar bilan ta’minlash va pensionat faoliyatini moliyalashtirish O‘zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan ajratiladigan mablag‘lar, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari, qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

Urush va mehnat faxriylari uchun Respublika pensionatidagi fuqarolarning toifalari bo‘yicha ma’lumot

Umumiy kasallik bo‘yicha nogironlar	Bolalikdan nogiron	Harbiy nogiron	Yoshga doir nogiron	UVUN	UVUQ	UTF	Baynalminal	ChAES	Mehnat faxriysi
20	2	1	65	1	1	6	0	0	65



Urush va mehnat faxriylari uchun Respublika pansionatidagi pensioner va nogironlarning kelgan hududlari (kishi his.)



Urush va mehnat faxriylari uchun Respublika pansionati doimiy yoki vaqtinchalik yashash uchun muassasa bo‘lib, Bu yerda yashagan har bir keksa fuqaroning hayot tarixini o‘z arxivlarida saqlaydi. Har bir keksa fuqaroning pansionatda yashashining o‘ziga xos sabablari bor. Biz 2020-yil yanvar oyida Urush va mehnat faxriylari uchun Respublika pansionatidagi keksa fuqarolarning ijtimoiy farovonligini aniqlash maqsadida ijtimoiy so‘rovnoma o‘tkazdik. Tadqiqotning muhim jihati pansionatdagi keksalarga ko‘rsatilayotgan ijtimoiy xizmatlar darajasini aniqlash edi.

Tadqiqot so‘rov va intervyu metodlari yordamida olib borildi. So‘rovnomada 99 nafar keksalar qatnashdi, ularning 51 nafari ayol, 48 nafari erkaklar. Respondentlarning 41% “55-65 yosh”, 39% “66-75 yosh”, 20% “75 yoshdan kattalar”.


“Keksalar o‘z tinchligini baholashi”ni ko‘rib chiqqanda, ular 4 ta asosiy narsaga e’tibor berganliklari aniqlandi. Sog‘liq – 80%, baxtli turmush, oila, bola-chaqa – 51%, xotirjam qarilik – 49%, moddiy farovonlik – 43%.

Keyin ushbu to‘rtlikda keng farq bilan qo‘yidagi qiymatlar olindi: mamlakatda tinchlik – 18%, yaxshi do‘stlar, qo‘shnilar – 17%, boshqalarning hurmati – 16%, vijdoniylik – 10%, qiziqarli dam olish – 7% (1-jadval).




1-jadval

Keksalar o‘z tinchligini baholash.



2-jadval

Keksa fuqarolarni tashvishlantirayotgan omillar






Bugungi kunda keksalarimizni tashvishlantirayotgan omillardan 37% adolatsizlikning mavjudligi, 22% aniq fikrga ega emasligi, 21% mahalliychilik, tinish-bilishchilik, 17% buzg‘unchi g‘oyalar kuchayib borayotganligi, 3% rahbarlardagi tajribasizlik deb baholashgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, bugungi kunda keksalarga bo‘lgan munosabatda adolat, hurmat, tajriba kabi mezonlarni yanada mustahkamlashni taqazo etaldi.

3-jadval

Jamiyatdagi so‘nggi o‘zgarishlarning keksalar kayfiyatiga ta’siri




Keksa fuqarolarni tashvishlantirayotgan omillar va jamiyatdagi so‘nggi ijtimoiy o‘zgarishlarning keksalar kayfiyatiga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha berilgan savollarga respondentlar holis baho berishdi. Bundan ko‘rinib turibdiki, hali tumanlar miqyosida mazkur yo‘nalishlarda ishlarni olib borish talab etiladi (2-3jadval).

Keksa fuqarolarning ijtimoiy muammolarini o‘rganganimizda, birinchidan, jiddiy muammolardan biri bu sog‘lig‘ining yomonlashishi va borgan sari og‘irlashishi, ikkinchidan, o‘zaro yordam zarurligi munosabati bilan nikohning ahamiyati. Yana bir eng muhim muammolardan biri bu maqbul moddiy turmush darajasi. Afsuski, ularning moliyaviy aholi respondentlarning atigi 18% “yaxshi”, 71% “qoniqarli”, 11% “yomon” deb baholashgan (4-jadval).



4-jadval


Keksa fuqarolarning moddiy farovonlik holati



Shu bilan birga, respondentlarning 78% ijtimoiy yordam va ijtimoiy imtiyozlardan foydalanishadi. Ular pensiya va nafaqalariga qo‘shimcha ravishda har oyda kompensatsiyalar olishadi. (5-jadval)

5-jadval

Keksalarni ijtimoiy imtiyozlar foydalanishlari






So‘rov natijalariga ko‘ra keksa fuqarolar kamroq qismi o‘zlarining moliyaviy ahvoli, inflyatsiya darajasi, kommunal xizmatlaridan xavotirga tushadilar. Shuning uchun qariyalarning 28% ishlashda davom etishni xohlaydilar (6-jadval).

6-jadval

Ishlashda davom etishni xohlarmidingiz?




Siz kimning fikrini ko‘proq qadrlaysiz? degan savolga respondentlarimiz, umuman olganda, qariyalar uchun eng muhimi ijtimoiy guruh bu – oila va qarindoshlar davrasi (65%). Bundan tashqari, sezilarli darajadagi bir xil yoshdagi odamlar (17%), do‘stlar (16%), shuningdek qo‘shnilar (9%) fikrlarini qadrlashlarini aytishgan. Respondentlarning 13% hech kimni fikrini ma’qullamasliklarini, balki o‘zini qiziqishlari bilan qolishini aytishgan.

Keksalarning ijtimoiy farovonligi avvalo, ularning sog‘ligi, kelajakka munosabati, shuningdek hayotdan qoniqishga bog‘liq bir qator jihatlar bilan baholanadi.

Keksalarning pansionatga kelib qolish sabablarini o‘rganganimizda, markazda yashashning muhimligi sababi o‘z-o‘zini parvarish qilish qobiliyatining pasayishi aytilgan. Ikkinchi o‘rinda turar joy etishmasligi. Bu degani, keksa fuqarolar pansionatni o‘z uylaridek, yaqinlarining g‘amxo‘rligi bilan ko‘rishni xohlashadi. Uchinchi o‘rinda, keksalarning yolg‘izlik muammosi turadi. Bu shuni ko‘rsatadiki, keksalar muloqotga muhtoj, suhbatdosh qidirib, ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga harakat qilishadi. (7-jadval)



Pansionatga tushib qolish sababi



Bu Urush va mehnat faxriylari uchun Respublika pensionatining tibbiyotga va ijtimoiy xizmatga katta ahamiyat berishi kerak ekanligidan dalolat beradi. Chunki keksa fuqarolarning uchdan bir qismi tibbiy yordamsiz va ijtimoiy xizmitsiz tura olishmaydi.

Sogʻliq holatini baholashda – “ba’zida oʻzimni yomon his qilaman” – 38%, yaxshi – 9%, qoniqarli – 41%, ya’ni 50% keksalar oʻzlarining sogʻliklaridan mamnunligini koʻrishimiz mumkin. Keksalar fuqarolar oʻz sogʻliklarini 10% - “yomon”, 1% – “juda yomon”, ya’ni ularning 11% oʻz sogʻliklariga salbiy baho berishgan (8-jadval).

Shu tarzda, keksa fuqarolar oʻzlarining sogʻligini haddat tashqari ijobiy baholashdan qochishadi (vaqti-vaqti bilan yomon, ayniqsa, yoshini hisobga olgan holda juda ijobiy deb qarash mumkin).

Ma’lumki, zamonaviy jamiyatga xos boʻlgan salbiy hodisalardan biri, yoshlar keksa fuqarolarni fikrlarini inobatga olmasliklaridir. “Sizning fikringiz bilan hisoblashishadimi?” degan savolga respondentlarimizning 47% ba’zan, 30% - yo‘q, 13% - ha degan variantlarni belgilashgan.


Respondentlarning hissiy va psixologik holatini baholashda “Siz kelajakka qanday qaraysiz?” degan savolga, 57% - umid bilan qarashi, 14 %i esa umidsizlik bilan qarashini koʻrishimiz mumkin. Erkaklar orasida pessimistlarning nisbati ayollarnikiga



qaraganda ko'proq. Respondentlarning 17% hayot biz xohlaganchalik chiqmadi, hayot qiyinlashdi, amma 51% respondentlar hayotida qoniqish paydo bo'ldi.

8-jadval.

Siz o'z sog'ligingizni qanday baholaysiz?



Umuman olganda, fuqarolar pensiya yoshiga etgandan keyin insonning ijtimoiy dunyosi torayib, yaqin qarindoshlari, ayrim qo'shnilari va bir nechta do'stlari bilan ijtimoiy munosabatlari cheklanib qoladi. Ko'pchilikka bo'lgan bog'lanish yoqolib boradi. Eng muhim, amaliy yagona aloqa oila bilan bo'ladi. Keksalar fuqarolarning onglarida oilaviy qadriyatlar ustunlik qiladi. Keksalarning moddiy, hissiy va boshqa ehtiyojlarining amalga oshirilishida oila asosiy maydonga aylanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, keksalar fuqarolar yordam olishdan ko'ra, yordamni ko'proq berishadi. Ular nevaralarini tarbiyalashlarida o'z farzandlariga, shuningdek, o'rta avlod vakillariga uy ishlarini olib borishda va moddiy yordam berishda qo'llab-quvvatlaydilar. Yaqin qarindoshlari bo'lmagan, yoki yaqin qarindoshlari bor bo'lsa ham, ularni qo'llab-quvvatlamaydigan keksalar juda qiyin vaziyatga duch kelishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://lex.uz/uz/docs/6178090>
2. Кузнецова М.А., Новак Е.С. Теория социальной работы. – Волгоград, 2004. – С.74.
3. Values of Older Adults Related to Primary and Secondary Prevention <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/books/NBK53768/>
4. Abdikakimov M.T. Ценностные установки молодёжи и старшего поколения казахстанского общества // https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/32347/1/klo_2015_02.pdf
5. O'zbekistonda keksalar soni ortmoqda. <https://anhor.uz/uz/society/3593-2/>



Abduramanov Xamid Xudaybergenovich,
“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti
direktori o‘rinbosari, i.f.d., prof

KEKSALARNI IJTIMOIIY HIMOYA QILISHNING DEMOGRAFIK ASOSLARI

Annotatsiya. Maqolada aholining keksayish darajasi mezonlari, keksayish darajasining “qarish indeksi” hamda rivojlanishining hozirgi bosqichida ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o‘zgarishlar demografik jarayonlarga ta’siri ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: oila, demografik baholash, tug‘ilish, o‘lim ko‘rsatkichlari, xotin-qizlar, aholi, keksayish darajasi.

Аннотация. В статье показаны критерии старения населения, влияние «индекса старения» на социально-экономические изменения жизни и демографические процессы на современном этапе развития.

Ключевые слова: семья, демографическая оценка, рождаемость, смертность, женщины, население, старение.

Annotation. The article shows the criteria for population aging, the impact of the “aging index” on socio-economic changes in life and demographic processes at the present stage of development.

Key words: family, demographic assessment, birth rate, mortality, women, population, aging.

Aholining keksayishi hozirgi davrning zamonaviy demografik hodisasi hisoblanib, garchi uning rivojlanish intensivligi turlicha bo‘lsada, barcha mamlakatlar uchun xos bo‘lmoqda. Kishilik jamiyati rivojlanishining hozirgi bosqichida ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi o‘zgarishlar demografik jarayonlarga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatdi: tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari keskin kamaydi, aholining tug‘ilganda kutilayotgan hayot davomiyligi uzaydi. Buning natijasida aholining keksayish jarayoni boshlandi.

Demograf olimlar tomonidan aholining keksayish darajasini “qarish indeksi” yordamida baholash taklif etilgan. “Qarish indeksi” tushunchasi fanga taniqli demograf A.Sovi tomonidan kiritilgan. Fransuz demografi qarish indeksini mehnatga layoqatli yoshdan katta bo‘lgan aholi (qariyalar) sonining mehnatga layoqatli yoshgacha bo‘lgan aholi (bolalar) soniga foizlarda hisoblangan nisbati orqali aniqlashni va aholining keksayish darajasini baholashda hozirda jahonning ko‘pchilik mamlakatlarida foydalanilayotgan quyidagi demografik mezonni taklif qildi (1-jadval).



1-jadval

Aholining keksayish darajasi mezonlari*

Bosqich	Aholining qarish indeksi, %	Aholining qarish darajasi
I	20 dan kam	past
II	20-30	o‘rta
III	30 dan baland	yuqori

* *Jadval muallif tomonidan “Калинюк И.В. Возрастная структура населения. – Москва: Статистика, 1975. – С. 14” ma’lumotlari asosida tuzilgan.*

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, aholining qarish indeksi 20 %dan kamni tashkil etsa, shu hudud aholisining keksayish darajasi past hisoblanadi. Agar qarish indeksi 30 %dan ortsa shu hudud aholisi yuqori darajada keksayayotgan hududlar qatoridan o‘rin oladi.

Muayyan hududda aholining keksayishi jarayonining rivojlanish darajasini baholashda belgilangan yosh chegarasidan yuqori yoshdagi aholi salmog‘i ko‘rsatkichidan foydalaniladi. Mazkur ko‘rsatkichning ortib borishi bilan shu hudud aholisi demografik nuqtai nazardan qari hisoblanishi mumkin. Shu munosabat bilan ko‘p mamlakatlardagi olimlar demografik qarilik to‘g‘risidagi masalani ko‘tarmoqda. Masalan, fransuz demograflari Jaklin Bojyo-Garne va E.Rosset demografik qarilikni to‘rt bosqichga ajratishni taklif qilgan (2-jadval).

2-jadval

Aholi qarish jarayonining rivojlanish darajasiga ko‘ra keksalik tasnifi*

Bosqich	Qariyalar salmog‘i (60 yosh va undan yuqori), % hisobida	Qarish bosqichlari va aholining keksayish darajasi
I	8 kam	demografik yosh
II	8-10	qarish bo‘lag‘asida
III	10-12	haqiqiy qarish
IV	12 va yuqori	demografik qari
	12-14	demografik qarilikning boshlang‘ich bosqichi
	14-16	demografik qarilikning o‘rtacha bosqichi
	16-18	demografik qarilikning baland darajasi
	18 va yuqori	demografik qarilikning juda baland darajasi

* *Jadval Медков В.М. Демография. – Москва: Инфра, 2008. – С.132 ma’lumotlari asosida tuzilgan.*



2-jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, muayyan hudud aholisi tarkibida qariyalar ulushi 8 %dan kamni tashkil qilsa, bu hudud aholisi demografik yosh, 12 %dan ko‘p bo‘lsa demografik qari hisoblanadi. Hozirgi kunda bu holat asosan iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar, jumladan Germaniya (24%), Fransiya (23,7%), Buyuk Britaniya (20,3%) va shu kabilarda kuzatilayotganligining guvohi bo‘lamiz.

BMT demograflari demografik qarish darajasini baholash maqsadida uch bosqichli shkala ishlab chiqqan (3-jadval).

3-jadval

Aholining qarish shkalasi*

Bosqich	65 va undan yuqori yoshdagilar ulushi, % hisobida	Aholining qarish darajasi
I	4 dan kam	demografik yosh
II	4 - 7	qarish bo‘sag‘asida
III	7 dan yuqori	demografik qari

**Jadval Демографическая энциклопедия словарь. – Москва: Советская энциклопедия, 1985. – С.117 ma’lumotlari asosida tuzilgan.*

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, BMT demograflari aholining keksayish darajasini baholash uchun keksalik yoshining boshlanish chegarasini asos qilib olgan va unga ko‘ra, aholining yosh tarkibida 65 va undan yuqori yoshdagilarning ulushi 7 %dan oshsa hudud aholisi demografik qari hisoblanadi.

BMT demograflari tasnifi bo‘yicha mamlakatimizda 65 va undan yuqori yoshdagilar aholining 5,1 %ini tashkil etadi va respublika aholisi demografik qarish bo‘sag‘asida turibdi.

Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida aholining keksayishi darajasi bo‘yicha respublika hududlari guruhlariga ajratildi (4-jadval).

4-jadvaldan ko‘rinib turganidek, 2010-yilda respublikaning 10 ta hududi aholisi – “demografik yosh”, qolgan 4 ta hudud (Buxoro, Toshkent, Farg‘ona viloyatlari va Toshkent shahri) aholisi “demografik keksayish bo‘sag‘isida” bo‘lgan. 2015-yilga kelib 7 ta hudud aholisi – “demografik keksayish bo‘sag‘isida”, faqat Toshkent shahar aholisi “demografik keksa” hisoblangan. 2021-yilda demografik keksayish bo‘sag‘isida o‘tgan hududlar soni 11 taga etgan. Tahlilar O‘zbekiston Respublikasida qarish jarayoni rivojlanayotgan hududlar soni yil sayin ko‘payayotganligini ko‘rsatadi.



4-jadval

O‘zbekiston Respublikasi hududlari aholisining keksayish darajasi bo‘yicha guruhlanishi*

Aholining keksayish darajasi	2010-yil	2015-yil	2021-yil
Demografik yosh	Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon, Jizzax, Navoiy, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo va Xorazm viloyatlari	Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Sirdaryo va Xorazm viloyatlari	Surxondaryo Sirdaryo va viloyatlari
Demografik keksayish bo‘lag‘isida	Buxoro, Toshkent, Farg‘ona viloyatlari va Toshkent shahri	Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Toshkent va Farg‘ona viloyatlari	Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Andijon, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan, Samarqand, Toshkent va Farg‘ona, Xorazm viloyatlari
Demografik keksa	-	Toshkent shahri	Toshkent shahri

Manba: jadval O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Demografik qarish qaytarilmas jarayon bo‘lganligi bois mamlakat bugungi kundan boshlab bu jarayon haqida o‘ylashni, maxsus strategiya ishlab chiqishni, aholining bu qatlamiga alohida e’tibor qaratishni taqozo etadi. Aholi keksaygan sayin davlat byudjetiga bosimning ortib borishi, pensiya ta’minoti tizimini moliyalashtirish va aholini ijtimoiy himoya qilishga bo‘lgan ehtiyojning keskinlashuvi iqtisodiyot uchun muhim muammoga aylanadi.

Aholining keksayishi jarayonining rivojlanishi quyidagi qator ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlariga olib keladi:



- aholining iqtisodiy faolligini pasaytiradi;
- pensiya jamg‘armasi zimmasiga pensiyalar to‘lash harajatlarining benihoya og‘ir yuki tushadi;
- qariyalarga tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun qo‘shimcha mablag‘ sarflash, geriatric muassasalar tarmog‘ini kengaytirish va butun sog‘liqni saqlash tizimini sifatli tarzda qayta qurishni talab qiladi;
- hali ishlashni istaydigan “yosh qariyalarni” ish bilan ta‘minlash;
- moddiy ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasining tuzilmasiga ta‘sir qiladi, ya‘ni qariyalarning ehtiyojlariga muvofiq ravishda tovar va xizmatlar assortimentini o‘zgartirishga to‘g‘ri keladi.

Bizning fikrimizcha, aholining keksayishi sharoitida qariyalarning turmush farovonligini oshirish uchun quyidagi choralarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Nodavlat jamg‘armalar tomonidan qariyalarni manzilli ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasini yanada kuchaytirish. Buning uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishni, ya‘ni haqiqiy yordamga muhtoj qariyalarni aniqlash va ularga ijtimoiy yordam ko‘rsatish hamda doimiy nazoratga olish; mahallalarda keksa kishilar bilan ish olib boruvchi jamoatchilik kengashlarini tashkil etish; fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlari tasarrufida qariyalar markazini barpo etish; mahallalar, tashkilot va muassasalarni, tadbirkor va ishbilarmonlarni yolg‘iz qariyalarga homiylik yordami ko‘rsatishga jalb qilish ishlarini yaxshilash va bu boradagi ishlarni muvofiqlashtirish tavsiya etiladi.

2. Sog‘liqni saqlash vazirligi huzurida geriatric markaz va respublikaning barcha tuman va shaharlarida shu markazning bo‘limlarini ochish hamda ular tomonidan aholining shu kategoriyasiga ko‘rsatiladigan tibbiy xizmat turlarini ko‘paytirish. Fikrimizcha, geriatric markazning asosiy vazifasi qariyalarning sog‘lig‘ini yaxshilash uchun optimal sharoit yaratish, ularning jamiyat hayotida faol ishtiroki hamda jismoniy-ruhiy sog‘lig‘ini uzoq muddat davomida tutib turish hisoblanadi. Biz geriatric markazlar qariyalarning sog‘lig‘ini tiklash uchun quyidagi qator chora-tadbirlar tizimini amalga oshirishi lozim, deb hisoblaymiz: har bir hududda yashovchi keksalar ro‘yxatini tuzish, surunkali bemorlarni davolash va doimiy kuzatish; qariyalar uchun rejali tarzda maslahatlar berishni tashkil qilish; geriatriya bo‘yicha uchastka vrachi va boshqa mutaxassislarining malakasini doim oshirish; shu yo‘nalishning dolzarb muammolariga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy konferensiyalar o‘tkazish; qarish profilaktikasi va davolashning zamonaviy geriatric usuli, geroformokologiyaning so‘nggi yutuqlarini amaliyotga joriy qilish.



3. Bakalavriat va magistratura yo‘nalishlari klassifikatoriga “Gerontologiya”, “Geriatriya” ixtisosliklari, tibbiyot kollejlari “Patronaj hamshirasi”, “Ijtimoiy xodim” ixtisosliklarini kiritish bo‘yicha davlat ta’lim standartlariga o‘zgartirishlar kiritish va shu ixtisosliklar bo‘yicha kadrlar tayyorlashni yo‘lga qo‘yish.

4. Barcha mahallalarda qariyalar uchun mo‘ljallangan kunduzgi muloqotda bo‘lish va hordiq chiqarish jamoatchilik markazlarini ko‘paytirish. Fikrimizcha, milliy mentalitetdan kelib chiqib, respublikaning barcha tuman, shahar va ovullaridagi mahallalarda keksa-qariyalar uchun mo‘ljallangan kunduzgi muloqotda bo‘lish va hordiq chiqarish jamoatchilik markazlari sonini ko‘paytirish maqsadga muvofiqdir.

5. Yolg‘iz keksalarga o‘z uyida ijtimoiy xizmat ko‘rsatish darajasini oshirish. Buning uchun aholiga keksa yoshdagi kishilarga ko‘rsatilayotgan xizmatlar to‘g‘risida to‘liqroq axborot taqdim etish; respublikadagi bandlikka ko‘maklashuvchi markazlar o‘z faoliyatida ishsiz fuqarolarni mazkur yo‘nalishdagi haq to‘lanadigan jamoat ishlariga jalb qilishga alohida e’tibor berib muhtoj yolg‘iz keksalarning o‘z uyida ijtimoiy xizmat turi bilan to‘liq qamrab olishi; keksa insonlarning parvarishi bilan band bo‘lgan keksalarning qarindoshlariga egiluvchan grafik asosida ishlashga imkon berish maqsadga muvofiqdir.

O‘ylaymizki, yuqorida berilgan taklif va tavsiyalarni amaliyotga tadbiq etish O‘zbekistonda istiqomat qilayotgan qariyalarning ijtimoiy-iqtisodiy farovonligining oshishiga yordam beradi.



Ermatova Aziza Kamiljanovna,
*Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni
rivojlantirish agentligi bo'lim boshlig'i,
mustaqil izlanuvchi (PhD)*

Inakov Alisher Kazakovich
*Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni
rivojlantirish agentligi direktori,
t.f.d. professor*

'ZBEKISTONDA KEKSALARGA TIBBIY-IJTIMOY YORDAM KO'RSATISH HOLATI

Annotatsiya. Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisi qariydi va tez orada 65 yoshdan oshganlar soni besh yoshgacha bo'lgan bolalar sonidan oshib ketishi kutilmoqda. Aholining demografik qarishi iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi, sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot tizimiga bo'lgan ehtiyojni oshiradi. Hozirgi vaqtda sog'liqni saqlash xarajatlarining deyarli 40% 65 yoshdan oshgan odamlarga uzoq muddatli parvarish qilish va kasalxonaga yotqizish uchun sarflanadi. Ushbu demografik va epidemiologik o'zgarishlar tez urbanizatsiya, modernizatsiya, globallashuv, xavf omillari va turmush tarzining bir vaqtda o'zgarishi bilan birgalikda surunkali kasalliklarning aholi orasida, ayniqsa qariyalar orasida tarqalishini, jismoniy faollik va hayot sifatining pasayishini oshirdi.

Kalit so'zlari: Tibbiy-ijtimoiy xizmat, keksalarga yordam, ijtimoiy yordam, internat uyi.

Аннотация. По данным Всемирной организации здравоохранения (ВОЗ), население мира стареет, и ожидается, что число людей старше 65 лет скоро превысит число детей в возрасте до пяти лет. Демографическое старение населения создает экономические проблемы, увеличивает потребность в системах здравоохранения и социального обеспечения. В настоящее время почти 40% расходов на здравоохранение тратится на долгосрочный уход и госпитализацию людей старше 65 лет. Эти демографические и эпидемиологические изменения, наряду с быстрой урбанизацией, модернизацией, глобализацией и одновременным изменением факторов риска и образа жизни, привели к увеличению распространенности хронических заболеваний среди населения, особенно среди пожилых людей, снижению физической активности и качества жизни.

Ключевые слова: медико-социальное обслуживание, помощь пожилым людям, социальная помощь, пансионат.

Annotation. According to the World Health Organization (WHO), the world's population is aging and the number of people over the age of 65 is expected to soon exceed the number of children under the age of five. Demographic aging of the population creates economic problems, increases the need



for healthcare and social security systems. Currently, nearly 40% of health care spending is spent on long-term care and hospitalization for people over 65. These demographic and epidemiological changes, together with rapid urbanization, modernization, globalization, and simultaneous changes in risk factors and lifestyles, have increased the prevalence of chronic diseases among the population, especially among the elderly, and decreased physical activity and quality of life.

Key words: medical and social service, assistance to elderly people, social assistance, boarding house.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining statistik ko‘rsatkichlariga ko‘ra 2021-yilda O‘zbekiston aholisi soni 35 271,3 minga etgan, shundan keksa yoshdagilar soni 3 281 ming nafarni tashkil etgan. O‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi erkaklarda 71.7, ayollarda 75.8 yoshni tashkil etgan. Ushbu ko‘rsatkichlar O‘zbekistonda aynan keksa yoshdagi shaxslariga tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatishga bo‘lgan ehtiyojning oshib borishini ko‘rsatmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi tasarrufida keksalar uchun jami 7 ta “Saxovat” internat uylari bo‘lib, 700 dan ortiq keksalar to‘liq davlat ta‘minotiga olingan.

“Saxovat” internat uylari O‘zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan, O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga muvofiq ularni parvarish qilishi shart bo‘lgan qarindoshlari yoki boshqa shaxslar bo‘lmagan yolg‘iz keksalar, 18 yoshidan boshlab I va II guruh nogironligi bo‘lgan shaxslar hamda o‘zgalar parvarishiga muhtoj yolg‘iz yashovchi I guruh nogironligi bo‘lgan keksalar uchun tibbiy-ijtimoiy muassasalari hisoblanadi.

Bundan tashqari yashash joylarida Respublika bo‘yicha 4 mingdan ziyod ijtimoiy xodimlar tomonidan 17 mingga yaqin keksalarga uylarida ijtimoiy xizmat ko‘rsatiladi.

Tadqiqot maqsadi. Keksalarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatishni yanada takomillashtirish, salomatligini mustahkamlash yuzasidan ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari. Uylarida va “Saxovat” internat uylarida yashovchi yolg‘iz keksalarni ijtimoiy-demografik xarakteristikasini tahlil qilish;

Keksa yoshdagi va qariyalarning kasallanish ko‘rsatkichlarini ijtimoiy toifasidan, yoshi, jinsining xususiyatlaridan kelib chiqib o‘rganish;

Yolg‘iz keksalarni yashash sharoitini, sifatini o‘rganish, xavf omillarini aniqlash va prognostik tablitsani ishlab chiqish;

Keksalarga ko‘rsatilayotgan tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatilishini o‘rganish va baholash;

Keksalarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatishni yanada takomillashtirish, salomatligini mustahkamlash yuzasidan ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqish;



Tadqiqot uslublari: statistik, epidemiologik, ijtimoiy-gigienik uslublar, qiyosiy tahlil, tizimli yondoshuv va dalillarga asoslangan tibbiyotning boshqa uslublaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari: Tadqiqot davomida Toshkent shahridagi 2 ta tumanda jami 674 nafar, Toshkent viloyatida 3 ta tumanda jami 473 nafar keksalar respondent sifatida saralab olindi.

Keksalar 3 ta ijtimoiy toifaga bo'lib o'rganildi. 55-74 yoshgacha 1-chi toifa-71.1% , 75-89 yoshgacha 2-chi toifa-24.4%, 90 yosh va undan katta 3-chi toifa-4.5% keksalar.

Oilaviy holati o'rganilganda 35.7% keksalar turmush qurganligi, 15.2% keksalar ajrimda va 40.5% keksalar beva ekanligi aniqlandi. Shuningdek, keksalarning 11,3% oliy ma'lumotlilar, 18,6% o'rta maxsus va 18.9% boshlang'iyach ma'lumotga egaligi aniqlandi. Keksalar hayot tarzi sifatini baholash maqsadida mezon ishlab chiqildi va ular asosida baholandi. Natijada 1-chi toifa 88.7 ball, 2-chi toifa 93.4 ball, 3-chi toifa 96.6 ball bilan baholandi. Hayot tarzi sifatini o'rtacha ko'rsatkichi 91.7 ballni tashkil qildi. Natijada >92 yaxshi hayot tarzi ko'rsatkichi aniqlandi.

Keksalarning psixofiziologik holatini ob'ektiv baholash o'tkazilib, baholash gradatsiyasi va mezonlari asosida ko'rsatkichlar tahlil qilindi.

Shu bilan birga kasallanish ko'rsatkichlari o'rganilganda, 47.0% qon aylanish tizimi kasalliklari, 13.8% suyak-mushak tizimi kasalliklari, 7.2% oshqozon ichak kasalliklari 15.1% boshqa kasalliklar bilan kasallanganligi aniqlandi.

Keksalar salomatligiga ta'sin etuvchi xavf omillari ham o'rganilib, ko'rsatkichlardan kelib chiqib tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ambulator poliklinika muassasalariga keksalar yiliga jami o'rtacha 10.2 marta qatnovi amalga oshirilishi, yiliga 65.4% keksalar statsionar tibbiy yordam olishi hamda statsionardaga o'rtacha o'rin kuni 9.7ni tashki qilishi tadqiqot natijasida aniqlandi. Respondentlar bilan anketa so'rovnomalari asosida ko'rsatilayotgan tibbiy-ijtimoiy xizmatlardan qoniqish holati o'rganildi. So'rovnoma 20.3% a'lo, 34.7% yaxshi, 32.1% esa qoniqarli deb baholanganini ko'rsatdi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston Respublikasida keksalarga maqsadli tibbiy-ijtimoiy yordamni takomillashtirish, optimallashtirish, samaradorligi va sifatini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan tashkiliy va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

keksalarga tibbiy-ijtimoiy xizmatlar samaradorligini oshirishga zamonaviy uslubiy yondashuvlarning joriy etilishi innovatsion yondashuvlar va ilmiy asoslangan faktlar asosida ob'ektiv baho berish, ushbu toifaga tibbiy-ijtimoiy yordamni takomillashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish. O'zbekiston Respublikasida keksalar va nogironlarga maqsadli tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish samaradorligini va



sifatini oshirish, optimallashtirish, takomillashtirish bo‘yicha bir qator o‘quv-uslubiy tavsiyalar va yangi echimlarni ishlab chiqish va amalga oshirish rejalashtirilgan.

Tadqiqot natijalari milliy va xalqaro jurnal va to‘plamlarda e‘lon qilinadi. Tadqiqot materiallari ilmiy-amaliy anjumanlar, simpoziumlar, kongresslar, Respublika sog‘liqni saqlash tashkilotchilari jamiyati va ilmiy seminarlarda xabar qilinadi va sinovdan o‘tkaziladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Аниёзова Д.Ж. Оценка пожилыми пациентами качества первичной медицинской помощи в городской и сельской местности // *Узбекистон врачлар ассоциацияси бюллетени*. – №1, 2017. – С. 6-9.
2. Аниёзова Д.Ж. Результаты комплексной оценки качества жизни пожилых людей // *Журнал теоретической и клинической медицины*. – № 2, 2017. – С.31-35.
3. Аниёзова Д.Ж. Результаты комплексной оценки качества жизни пожилых людей с хроническими заболеваниями // *Вестник экстренной медицины*. – № 9, 2017. – С.84-86.
4. Голубева Е.Ю. Качество жизни населения пожилого и старческого возраста в Российской части Баренс-Евроарктического региона (на примере Архангельской области): пути совершенствования организации медикосоциального обслуживания. Диссертация на соискание ученой степени доктора биологических наук. – Санкт-Петербург, 2012.
5. Гончарева О.В., Малсев С.Н. и др. Тенденция заболеваемости лиц пожилого возраста, проживающих в г.Омске.// *Клиническая геронтология*. – № 11-12, 2014. – С. 50-54.
6. Государственный комитет Республики Узбекистан: Демографическая ситуация в Республике Узбекистан, 2017. www.stat.uz/ru/ofitsialnaya-statistika/demografiya-i-trud/statisticheskie-tablitsy демог/433-аналитические-материалы-ру/2055-демографическая-ситуация-вреспублике-узбекистан123
7. Гусева С.Л. Реформирование системы управления многопрофильной поликлиникой: автореф. дис. ...докт. мед. наук, 2012. – 48 с.
8. Данилова Р.И., Кубышкина М.Л. Анализ чувства одиночества пожилых людей в контексте их жизненного пути. // *Клиническая геронтология*. – № 11-12, 2015. – С. 84-85.
9. Кауров Б.А., Матюхина Е.Б. Особенности частотного спектра заболеваний и полиморбидности у пожилых людей и долгожителей // *Клиническая геронтология*. – № 1-2, 2014. – С. 66-71.
10. Кожуховская О.Л., Голикова А.А. и др. Сравнительная оценка особенностей течения первичного и повторного острого инфаркта миокарда у мужчин с сахарным диабетом в старших возрастных группах.// *Клиническая геронтология*. – № 9-10, 2014. – С. 85.
11. Пономарева И.П. Прощаев К.И. Илниский А.Н. Особенности паллиативной помощи лицам пожилого и старческого возраста с точки зрения современной концепции гериатрии // *Паллиативная медицина и реабилитация*. – №1, 2017. – С. 21-25.
12. Постановление Президента Республики Узбекистан №ПП-2302 от 18.02.2015г. «О Государственной программе «Год внимания и заботы о старшем поколении».



B.Xonturayev,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot
instituti bo‘lim boshlig‘i

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDLARIDA AHOLINING KEKSAYISH DARAJASINI XALQARO INDEKSLAR BO‘YICHA BAHOLASH

Annotatsiya. Ushbu maqolada muallif O‘zbekiston Respublikasi hududlarida aholining keksayish darajasini xalqaro indekslar bo‘yicha baholash mezonlari bo‘yicha tadqiqot olib borgan, xorijiy mamlakatlarning aholining keksayish darajasini baholash bo‘yicha tajribalari o‘rganilgan hamda ulardagi ilg‘or tajribalarni mamlakatimizga tatbiq etish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: keksayish, iqtisodiyot, demografiya, sotsiologiya, gerontologiya, jamiyat, Qarish indeksi, xorijiy davlatlar tajribasi.

Аннотация. В данной статье автор провел исследование критериев отсенки старения населения в регионах Республики Узбекистан по международным индексам, изучил опыт зарубежных стран по оценке старения населения и применил их передовой опыт. нашей стране разработаны научные предложения и практические рекомендации.

Ключевые слова: старение, экономика, демография, социология, геронтология, общество, индекс старения, опыт зарубежных стран.

Annotation. In this article, the author conducted a study of the criteria for assessing population aging in the regions of the Republic of Uzbekistan according to international indices, studied the experience of foreign countries in assessing population aging and applied their best practices. Our country has developed scientific proposals and practical recommendations.

Key words: aging, economics, demography, sociology, gerontology, society, aging index, experience of foreign countries.

Har bir davlatning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishida demografik holati muhim rol o‘ynaydi. Ushbu demografik holatlarining orasida ayniqsa **aholining keksayish** jarayoni jamiyatga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda va hukumatlardan ko‘proq e’tibor talab qilmoqda.

Rivojlangan va rivojlanayotgan ko‘plab mamlakatlarda aholi tarkibida keksa odamlarning ulushi tez sur’atlar bilan o‘sib bormoqda. Aholining keksayishi hozirgi davrda zamonaviy demografik hodisa bo‘lib, garchi uning rivojlanish intensivligi turlicha bo‘lsa-da, barcha mamlakatlar uchun xosdir.



Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda 65 yoshdan oshgan dunyo aholisining ulushi 9,32 foizni tashkil etgan va 2010-yildan boshlab dunyo aholisining qarish jarayoni keskin tezlashgan³¹. BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2050-yilga borib 5 yoshgacha bo'lgan har bir bolaga 65 yoshdan oshgan ikkita keksa to'g'ri kela boshlar ekan³².

XXI asr dunyosining demografik qarish tendensiyalari nafaqat 60 / 65+ yoshidagi odamlarning yuqori darajasi haqida, balki eng qadimgi yosh guruhlarining juda tez qarishi haqida dalolat bermoqda. Shunday qilib, agar dunyo aholisining soni har yili 1,2% ga oshsa, 65 + yoshidagi aholi ikki barobar tezroq – 2,8 %ga o'smoqda, shu bilan birga 100+ yoshdagi aholi umumiy aholi sonining 4 barobaridan ko'prog'i – 9,4% bilan yillik o'sish sur'atlarini ko'rsatmoqda. Dunyo bo'ylab keksa yoshdagi odamlarning aksariyatini ayollar tashkil etadi. Bugungi kunda dunyodagi 60 yoshdan oshgan har 100 ayolga atigi 84 erkak to'g'ri keladi. 80 yoshdan oshgan har 100 ayolga 61 erkak to'g'ri kelmoqda³³.

Dunyo miqyosida dunyo aholisining qariyb 26 foizini 15 yoshgacha bo'lgan yoshlar va to'qqiz foizini 65 yoshdan oshganlar tashkil qiladi. Yevropada bu farq ancha yaqin, aholining 16 foizini 15 yoshgacha, 19 foizini esa 65 yoshdan oshganlar tashkil qiladi.

Yaqin Sharq va Sahroi Kabirdagi Afrika kabi bir nechta davlatlar bundan mustasno, ko'plab mintaqalarda aholi o'sish sur'atlari sezilarli darajada pasaygan. Janubiy Sudan va Angolada aholining eng yuqori o'sish sur'atlari mavjud bo'lib, ular mos ravishda 3,83 va 3,52 foizni tashkil etadi. O'sish sur'atlari yuqori bo'lgan ayollar o'rtacha besh yoki undan ortiq bola tug'adigan bunday mamlakatlarda tug'ilish darajasi yuqori bo'lishi mumkin. Biroq, dunyo aholisining taxminan 50 foizi tug'ilish darajasi past bo'lgan mamlakatlarda yashaydi, bu erda ayollar 2,1 dan kam bola tug'adi.


Yevropaning Latviya va Litva kabi mamlakatlarida 2017-yilda aholi soni 1,08 foizga qisqardi. Yevropada aholining asosiy qismi avvallari mehnatga layoqatli, qaramog'ida kam bo'lgan shaxslar bo'lgan, biroq bu tendentsiya tez orada o'zgarishi kutilmoqda va 2050-yilga borib ko'plab rivojlangan mamlakatlarda keksa aholi soni yoshlardan ko'p bo'lishi kutilmoqda³⁴.

³¹ https://data.worldbank.org/indicator/SP.POP.65UP.TO.ZS?end=2020&most_recent_value_desc=true&start=1960&view=chart&year=2020

³² <https://ru.sputnik.kg/20190421/na-zemle-detej-stanovitsya-menshe-chem-starikov-chto-proiskhodit-1044041462.html>


³³ World Population Prospects, the 2015 Revision [Electronic resource]. NY: UN Population Revision. Mode of access: <https://esa.un.org/unpd/wpp/Download/Standard/Population/>. Date of access: 25.05.2016.

³⁴ <https://www.statista.com/statistics/265759/world-population-by-age-and-region/>



1-rasm. Keksayish jarayonlari mamlakatlar kesimida

2020-yilda dunyo bo‘ylab 147 milliondan ortiq kishi 80-99 yosh oralig‘ida bo‘lib, bu dunyo aholisining 1,9 foizini tashkil qiladi. Garchi bu foiz unchalik katta bo‘lmas-da, 1950-yilda ushbu demografik ma‘lumotlar aholining atigi 0,05 foizini tashkil etgan, ya’ni bizning dunyomizda 70 yil oldingiga qaraganda keksa odamlarning foizi sezilarli darajada yuqori³⁵.



2-rasm. Keksayish jarayonlari mamlakatlar kesimida

Keksa avlod vakili turli xil guruhga mansub bo‘lib, unga bir xil yondashuvni qo‘llash maqsadga muvofiq emas. Ularning boshqa toifa guruhdagilar singari xilma-xilligini, yoshi, jinsi, millati, ma‘lumot darajasi, daromadi va sog‘lig‘i holati jihatidan tan olinishi muhimdir. Keksa yoshdagi har bir toifaning o‘ziga xos ehtiyojlari va qiziqishlari bor, ular maxsus tanlangan dasturlar va tadbirlar orqali qondirilishi kerak³⁶.


³⁵ <https://ourworldindata.org/age-structure>

³⁶ Ageing in the twenty-first century: a celebration and a challenge. NY: UNFPA, 2012. p. 192.



BMT metodologiyasi demografik qarish hodisasini global miqyosda o‘rganish uchun mos bo‘lsa, Rosset metodologiyasi esa, bizning fikrimizcha, ushbu jarayonni, jumladan, mintaqaviy darajada chuqurroq o‘rganishga mos keladi. Uzoq umr ko‘rish darajasini miqdoriy baholash uchun ma’lum bir yoshga etish imkoniyatini aks ettiruvchi va amalda aholining yosh tarkibiga bog‘liq bo‘lmagan uzoq umr ko‘rish koeffitsienti qo‘llaniladi.

Odatda, **aholining keksayish jarayonlarini** fiskal va ijtimoiy rejalashtirishni xabardor qilish uchun o‘lchanadi, chunki u keksa aholi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy xavfsizlik va sog‘liqni saqlash tizimlariga yuklayotgan yukni ko‘rsatadi.



3-rasm. Keksayish jarayonlarini baholovchi metrikalar

Keksayish jarayonlarini quydagi metrikalar bilan o‘lchanadi;

- Aholi qarishining xronologik-yosh ko‘rsatkichlari;
- Aholi qarishining iqtisodiy ko‘rsatkichlari;
- Aholi qarishining jismoniy-salomatlik ko‘rsatkichlari;
- Aholi qarishining funksional ko‘rsatkichlari;
- Biomarkerlar aholi qarishining kelajakdagi potensial ko‘rsatkichlari sifatida;
- Aholi qarishining subektiv ko‘rsatkichlari;

Aholi qarishining xronologik-yosh ko‘rsatkichlari o‘z navbatida joriy xronologik-yoshga asoslangan ko‘rsatkichlar tuzilishi va davriy hayot jadvallari asosidagi ko‘rsatkichlariga bo‘linadi. Aholi qarishining funksional ko‘rsatkichlari ham o‘z navbatida kognitiv faoliyat, sensorning ishlashi va funksional quvvat kabi kichik ko‘rsatkichlarga bo‘linadi.



Bundan tashqari barqaror rivojlanish sharoitida aholining qarishi ko‘rsatkichlari tizimi yuritiladi va ushbu ko‘rsatkichlar 4 ta guruhdan iborat:

- qarish jarayonining ko‘rsatkichlari;
- qarish sabablarining ko‘rsatkichlari;
- qarishning iqtisodiyot uchun oqibatlari ko‘rsatkichlari;
- qariyalarning mavqei va bo‘lajak qariyalar pozitsiyasining ko‘rsatkichlari.

Mamlakat aholisi tarkibidagi keksalarning ulushi – aholining umumiy sonida keksalar va qariyalar ulushining ortishi tushuniladi.

Qarish indeksi - 100 bolaga to‘g‘ri keladigan qariyalar soni. U mehnatga layoqatli yoshdagi odamlar soni yoki ulushining bolalar soni yoki ulushiga (0-14 yosh guruhi) nisbati sifatida hisoblanadi va 100 ga ko‘paytiriladi.

Qarish chuqurligi indeksi-bu butun keksa aholi orasida keksa yoshdagi aholining ulushini aks ettiradi.

Keksa aholida jinsiy nisbat-bu har 100 qari ayolga to‘g‘ri keladigan qari erkaklar soni. Bunda jami qari erkalarining jami qari ayollarga nisbati sifatida hisoblanadi va 100 ga ko‘paytiriladi.

Istiqbolli yosh-bu aholi o‘rtacha 15 yildan ortiq yashamasligi kerak bo‘lgan yosh. Ushbu yondashuv bilan demografik qarish prognozi butunlay o‘zgaradi.

Kelajakdagi yoshni hisobga olgan holda qariyalarning ulushi - 20 yoshgacha bo‘lgan 100 kishiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 15 yoshdan oshmaydigan (bo‘lajak yosh) odamlar soni.

Katta yoshdagi umr ko‘rish davomiyligi - kelajakda barcha katta yoshdagi aholining o‘lim ko‘rsatkichlari ko‘rib chiqilayotgan yil bilan bir xil bo‘lib qoladi degan faraz asosida o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligining qiymati.

Katta yoshda omon qolish darajasi-qarilik yoshiga qadar omon qolgan yoshdagi aholining ulushidir. Shu bilan birga, bu yoshga to‘lgan odamlarning keyingi yoshga qadar omon qolish ehtimolining o‘ziga xos xususiyati.

Xulosa qilib aytganda O‘zbekistonda ham bugungi kunda jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar demografik jarayonlarga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatdi: tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatkichlari keskin kamaydi, tug‘ilganda kutilayotgan hayot davomiyligi uzaydi. Buning natijasida aholining «keksayishi» jarayoni tezlashmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, 1991–2010-yillarda O‘zbekiston Respublikasi aholisining qarish indeksi 6,1 punktga ko‘paygan. O‘zbekiston aholisining keksayish darajasini baholasak, fransuz demograflari tasnifi bo‘yicha mamlakatda 60



yoshdagi va undan yuqori yoshdagilar aholining 7,1 %ini tashkil etadi va respublika aholisi demografik nuqtai nazardan yosh hisoblanadi. BMT demograflari tasnifi bo‘yicha esa 65 yosh va undan yuqori yoshdagilar respublika aholisining 4,5 %in tashkil etadi va bu demografik qarish bo‘lag‘asi tasnifiga mos tushadi.

Horijiy mamlakatlar tajribasini o‘rgangan holda quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish taklif qilinadi:

Demografik qarish bo‘yicha samarali siyosatni ishlab chiqish uchun jinsi, yoshi va yashash joyi bo‘yicha ajratilgan iqtisodiy, demografik va ijtimoiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha ma’lumotlarga ega bo‘lish kerak.

Keksalarning ahvoli to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plashni yaxshiroq tushunish uchun ishonchli jins bo‘yicha ajratilgan ma’lumotlarni taqdim etish uchun yaxshilash kerak:

- qarishning gender jihatlari;
- oila tarkibi va oilani qo‘llab-quvvatlash tizimlarining o‘zgarishi;
- keksalarning oila, jamiyat hayotiga qo‘shgan hissasi;
- keksa odamlarning qashshoqlik darajasi;
- asosiy ijtimoiy va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari; urbanizatsiya va migratsiyaning keksa odamlarga ta’siri;
- favqulodda vaziyatlarda keksalarning ahvoli va boshqalar.

Shuningdek:

1. Mamlakat miqyosida barcha etakchi mutaxassislar orasidan ekspertlar hamjamiyati ishtirokida Faol uzoq umr ko‘rish indeksi»ni joriy etish bo‘yicha yondashuvlarni ishlab chiqish;
2. O‘zbekiston keksaygan aholisining jinsi va sub’ektlari bo‘yicha «Faol uzoq umr ko‘rish indeksi»ni hisoblash algoritmlarini shakllantirish;
3. O‘zbekistonda keksa avlod fuqarolarining 2030-yilgacha bo‘lgan faol uzoq umr ko‘rish konsepsiyasini yaratish, tasdiqlash, va «Faol uzoq umr ko‘rish indeksi» hisobini joriy etish;
4. Zamonaviy axborot ehtiyojlari va qarish sohasidagi xalqaro tavsiyalarga muvofiqligini ta’minlash uchun davlat statistika kuzatuvlari tizimini takomillashtirish;

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://data.worldbank.org/indicator/SP.POP.65UP.TO.ZS?end=2020&most_recent_value_desc=true&start=1960&view=chart&year=2020
2. <https://ru.sputnik.kg/20190421/na-zemle-detej-stanovitsya-menshe-chem-starikov-cto-proiskhodit-1044041462.html>



3. *World Population Prospects, the 2015 Revision [Electronic resource]*. NY: UN Population Revision. Mode of access: <https://esa.un.org/unpd/wpp/Download/Standard/Population/>. Date of access: 25.05.2016.
4. <https://www.statista.com/statistics/265759/world-population-by-age-and-region/>
5. <https://ourworldindata.org/age-structure>
6. *Ageing in the twenty-first century: a celebration and a challenge*. NY: UNFPA, 2012. p.192.
7. Практическая демография [Текст] : учеб. пособие для вузов / под ред. Л. Л. Рыбаковского. – Москва: ССП, 2005. – 280 с.
8. Доклад ООН “О развитии в условиях старения населения мира – 2007” // <https://www.un.org/ru/development/surveys/docs/wess2007.pdf>
9. *Active Ageing Index [Electronic resource]*. NY: UNECE Statistics Wikis. Mode of access: <http://www1.unece.org/stat/platform/display/AAI/Active+Ageing+Index+Home> Date of access: 25.05.2016.
10. *Older Americans 2012: Key Indicators of Well-Being*. Federal Interagency Forum on Aging-Related Statistics. Washington, DC: U.S. Government Printing Office, 2012. URL: <http://www.aarp.org/content/dam/aarp/livable-communities/learn/demographics/older-americans-2012-key-indicators-of-well-beingaarp.pdf> (data obraueriya: 29.11.2015).
11. *2nd Seniors Sentiment Index*. National Seniors Australia, 2014. URL: <https://www.nationalseniors.com.au/sites/default/files/140213-NationalSeniorsAustralia-Challenger-SeniorsSentimentIndex2.pdf>



Ermatov Sh.T.,

*“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot
instituti ilmiy xodimi*

AHOLINING QARSHI VA UNING IQTISODIYOT RIVOJLANISHIGA TA’SIRI

Annotatsiya. Maqolada aholining qarishi global miqyosda o‘lish tendensiyasini namoyon qilishi hamda uning iqtisodiyot yuklanishiga olib kelishi, makroiqtisodiy rivojlanishiga ko‘rsatayotgan ta’siri atroflicha yoritilgan, muammo sifatida ko‘tarilgan.

Kalit so‘zlar: aholi qarishi, iqtisodiyot yuklanishi, pensiya tizimi, o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi, tug‘ilish darajasi, turmush darajasi, turmush sifati.

Аннотация. В статье всесторонне освещается и поднимается как проблема тот факт, что старение населения проявляет тенденцию роста в глобальном масштабе, его бремя на экономику, его влияние на макроэкономическое развитие.

Ключевые слова: старение населения, экономическая нагрузка, пенсионная система, средняя продолжительность жизни, рождаемость, уровень жизни, качество жизни.

Annotation. The article comprehensively highlights and raises as a problem the fact that the aging of the population shows an upward trend on a global scale, its burden on the economy, its impact on macroeconomic development.

Key words: population aging, economic burden, pension system, average life expectancy, birth rate, standard of living, quality of life.

So‘nggi bir necha o‘n yilliklarda dunyoda tug‘ilish darajasi o‘rtacha umr ko‘rishning o‘shishi soyasida doimiy ravishda pasayib bormoqda, aholining qarishi global hodisaga aylandi va, ehtimol, XXI asrning eng muhim ijtimoiy o‘zgarishlaridan biriga aylandi. BMT ma‘lumotlariga ko‘ra, 2018-yilda insoniyat tarixida birinchi marta 65 va undan katta yoshdagilar soni besh yoshgacha bo‘lgan bolalar sonidan oshib ketgan va 2050-yilga borib dunyoda har olti kishidan biri, 2019-yildagi har 11 kishidan biriga nisbatan, 65 yoshdan oshadi. O‘zbekiston Respublikasi misolida esa³⁷, 2022-yil boshida 4 yoshgacha bolalar soni 3,9 mln nafar bo‘lsa, 55 va undan yuqori aholi soni esa 4,6 mln nafarni tashkil etadi (1-jadval). Shu bilan birga, so‘nggi 50 yil ichida dunyo aholisining tabiiy o‘shishi deyarli yarmiga – 1965–1970-yillardagi har 1000 kishiga 20,5 ga nisbatan 2015–2020-yillarda har 1000 kishiga 10,9 kishigacha

³⁷ www.stat.uz - Davlat statistika qo‘mitasi sayti



sekinlashdi³⁸. Shu bilan birga, dunyoda median yosh (aholini ikki bo‘lakka bo‘lgan ko‘rsatkich) doimiy ravishda o‘sib bormoqda va 1950-yildagi 23,6 va 2000-yildagi 26,3 ga nisbatan 2020-yilda 31 yoshga yaqinlashmoqda, yana 20 yildan keyin dunyo aholisining yarmi 50 yoshdan oshiq bo‘ladi.

Aholining qarishi iqtisodiyotni sekinlashtiradi, yuklanishini oshiradi. Bu ta‘sirni sog‘lom byudjet-soliq va ijtimoiy siyosat orqali yumshatish mumkin va odamlarning iqtisodiy faolligining o‘sib borayotgan davri o‘shiga qo‘shimcha turtki berishi mumkin. Aholining tez qarishi dunyoni, byudjet-soliq, ijtimoiy va migratsiya siyosatini qayta ko‘rib chiqishga majbur qilmoqda.

Demografik o‘zgarishlar mehnat va kapital bozorlari, tovarlar va xizmatlar, ijtimoiy ta‘minot va sog‘liqni saqlash hamda pensiya tizimiga sezilarli iqtisodiy va ijtimoiy ta‘sir ko‘rsatadi. Mehnatga layoqatli aholining kamayib borishi natijasi mehnat unumdorligi va yalpi jamg‘armalarning pasayishi bo‘lib, bu investitsiyalar, talab va iqtisodiy o‘shining sekinlashishini bildiradi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) ma‘lumotlariga ko‘ra amaldagi byudjet va pensiya tizimini saqlab qolgan holda, aholining jadal qarishi jahon yalpi ichki mahsulotini (YaIM) 2015-yildagi 4 foizdan 2050-yilga kelib qariyb 2 foizgacha sekinlashtiradi. Bu vaqtga kelib ishlayotgan aholining har 100 nafariga 65 dan ortiq kishilar ulushi yoshi (keksa yoshdagi qaramlik nisbati) rivojlangan mamlakatlarda ikki baravar ko‘payadi, shuning uchun pensiya tizimi, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya qo‘shimcha resurslarni talab qiladi, shu bilan birga ishlaydigan xodimlar soni, va shuning uchun sug‘urta mukofotlarini hisoblash bazasi kamayadi. Bu davlat byudjeti zimmasiga katta yukni yaratadi, pensiya va byudjet-soliq siyosatda o‘zgarishlar bo‘lmagan taqdirda davlat qarzi hajmini 2050-yilga kelib iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotga nisbatan o‘rtacha 180 foizga va rivojlanayotgan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotga nisbatan 130 foizga oshirishi mumkin.

Qarishning yana bir muhim oqibati bor, faol “qarigan” iqtisodiyotda tug‘ilishning pasayishi yalpi talabning vaqtincha qisqarishiga olib keladi va deflyatsiya (narx darajasini pasaytirish; inflyatsiyaga qarama-qarshi jarayon) bosimini keltirib chiqaradi. Bu pul-kredit siyosati samaradorligini pasaytiradi, chunki xalqaro valyuta fondi (XVF) keksalar guruhining yalpi talabi foiz stavkalarining o‘zgarishiga nisbatan sezgir emas, deb topdi. Shu bilan birga, uzoq muddatli istiqbolda tug‘ilish darajasining pasayishi mehnat bozorida taklifni kamaytiradi, bu esa tovarlar bozorida taklifning qisqarishiga olib keladi. Ammo sof iste‘molchilar (pensionerlar) ulushining oshishi, sof tejamkorlar (yoshlar) ulushi kamayganda, tovarlar bozorida ortiqcha talabni keltirib chiqaradi, bu esa, o‘z navbatida, keyinchalik inflyatsiyani tezlashtiishi mumkin.

³⁸ <<https://population.un.org/wpp/Download/Standard/Population/>>



1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi aholisining yosh tarkibi bo‘yicha taqsimlanishi

Ko‘rsat- kichlar	Yillar				
	2018	2019	2020	2021	2022
Jami	32 656 660	33 255 538	33 905 242	34 558 891	35 271 296
0-4	3 464 843	3 551 727	3 646 961	3 756 106	3 932 322
5-9	3 178 295	3 202 432	3 257 918	3 341 346	3 432 468
10-14	2 700 965	2 845 758	2 965 397	3 078 367	3 153 693
15-19	2 593 034	2 557 146	2 558 977	2 569 705	2 616 235
20-24	3 097 952	2 985 366	2 890 718	2 758 841	2 644 952
25-29	3 182 833	3 203 107	3 212 525	3 218 218	3 156 976
30-34	2 892 770	2 987 338	3 037 479	3 081 371	3 130 619
35-39	2 310 372	2 395 355	2 492 190	2 617 689	2 747 566
40-44	1 997 532	2 034 563	2 097 705	2 151 240	2 205 007
45-49	1 776 544	1 820 234	1 871 234	1 910 995	1 949 075
50-54	1 581 980	1 593 966	1 595 991	1 622 297	1 671 457
55-59	1 451 398	1 486 620	1 515 650	1 528 091	1 527 503
60-64	978 738	1 067 433	1 148 734	1 226 095	1 298 018
65-69	617 471	670 718	726 291	762 473	820 718
70-74	274 774	310 630	359 506	468 735	503 149
75-79	274 046	249 254	216 230	246 064	247 365
80-84	148 550	156 913	172 456	148 712	161 159
85+	134 563	136 978	139 280	72 546	73 014

Qarishning makroiqtisodiy jarayonlarga ta‘siri. Aholining qarishining mamlakatlar iqtisodiy o‘rinishiga ta‘sirining quyidagi yo‘nalishlarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

Mehnatga layoqatli aholi salmog‘ining kamayishi va keksalar salmog‘ining ortishi - demografik tuzilishning o‘zgarishi oqibatida ishchi kuchiga taklifning qisqarishi bo‘ladi; bu esa mehnat unumdorligining pasayishiga va mehnatga layoqatli aholiga demografik yuklmaning oshishiga olib keladi.

Aholida keksa odamlarning ulushi oshgani sayin jami jamg‘armalar kamayishi mumkin, bu esa investitsiyalar uchun mablag‘larni va demak, iqtisodiy o‘rinish



sur'atlarini kamaytiradi. Buning sababi, keksa odamlar mehnatga layoqatli yoshdagi odamlarga qaraganda jamg'arishga kamroq moyildirlar.

Bunda iste'mol, iste'mol xarajatlarining qisqarishi modelining o'zgarishi bo'lib o'tadi, bu esa tovar va xizmatlar narxlari va inflyatsiya sur'atlariga ta'sir qiladi. XVF hisob-kitoblariga ko'ra³⁹, aholining qarishi yalpi talabning pasayishi deflyatsion bosim (tovarlar va xizmatlar narxlarining umumiy darajasining pasayishi) bilan birga keladi; shu bilan birga, pul-kredit siyosati samarasiz bo'ladi.

Pensiya tizimi, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya xarajatlari ortib bormoqda, bu esa sug'urta bazasini hisoblash bazasining qisqarishi bilan birga mamlakat byudjetiga sezilarli yuklamani keltirib chiqaradi, shu jumladan, bu vaqt bo'yicha byudjet uzilishini shakllantirgan holda davlat qarzini YaIM ga nisbatining va byudjet beqarorligini oshishiga olib keladi. IHTT hisob-kitoblariga ko'ra⁴⁰, aholining qarishi siyosatida o'zgarishlar bo'lmasa, davlat qarzini keyingi 30 yil ichida rivojlangan mamlakatlarda YaIMning o'rtacha 180% ga, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa YaIMning 130% ga oshirishi mumkin.

Hozirgi vaqtda aholining qarishi nafaqat iqtisodiy oqibatlariga olib keladigan demografik jarayon, balki turli sohalarda, jumladan, iste'mol, turmush tarzi va turmush sifati, turmush darajasi, ta'lim, iqtisodiy rivojlanish kabi sohalarda ham yangi imkoniyatlar ochadigan murakkab ijtimoiy hodisa ekanligini ta'kidlash joizdir. Hukumatning zakovatli siyosati bilan o'rtacha umr ko'rish davomiyligini oshirish, ya'ni odamlarning iqtisodiy faolligini oshirish iqtisodiy o'sishning qo'shimcha vositasiga aylanishi mumkin.

Pensiya yoshidan keyin mehnatni davom ettirishni rag'batlantirish uchun keksalarni o'qitish va qayta tayyorlashni rag'batlantirish va ular uchun mehnat bozorida bandlik uchun sharoit yaratish muhim ahamiyatga egadir. Keks yoshdagi ishchilarni yollagan va ushbu xodimlarni o'qitgan va qayta tayyorlaydigan ish beruvchilarga davlat tomonidan soliq imtiyozlari va subsidiyalar berish, shuningdek ish beruvchilar tomonidan moslashuvchan ish jadvallarini, shu jumladan to'liq bo'lmagan ish kunini yaratishni o'z ichiga olishi mumkin. Bu chora-tadbirlarning barchasi pirovard natijada mehnat unumdorligini rag'batlantirish imkoniyatiga ega bo'lib, ularning o'sishi iqtisodiy o'sish sur'atlarining oshishini ta'minlaydi. 2019-yil yanvar oyida Yaponiyada bo'lib o'tgan G20 simpoziumi doirasida aholining qarishiga javob sifatida pensiya yoshini avtomatik ravishda o'rtacha umr ko'rish davomiyligini oshirish bilan moslashtirish

³⁹ <https://www.imf.org/en/Publications/WP/Issues/2019/09/20/More-Gray-More-Volatile-Aging-and-Optimal-Monetary-Policy-48532>

⁴⁰ <https://www.oecd-ilibrary.org/economics/fiscal-challenges-and-inclusive-growth-in-ageing>



muhokama qilindi (bu mexanizm Daniya, Niderlandiya, Portugaliya va Finlyandiyada joriy etilgan). Xalqaro iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni va aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotning yuqori darajasini ta'minlash uchun ko'p kapitalni talab qiladigan, yuqori bilim talab qiladigan va texnologik intensiv tarmoqlarni rivojlantirish zarur, chunki aholi qarishi doirasida ishlab chiqarish amaliyotiga mehnatni qo'shish hissassi pasayadi.

Tug'ilishning qisqarishi va umr ko'rish davomiyligining ortishi butun dunyo bo'ylab qarishning asosiy omili bo'lsa-da, ba'zi mintaqalarda aholi xalqaro migratsiya tufayli *“yosharmoqda”*. Migratsiya oqimi katta bo'lgan mamlakatlarda bu qarish jarayonini hech bo'lmaganda vaqtincha sekinlashtirishi mumkin, chunki migrantlar mehnatga layoqatli yoshda bo'lishadilar. Biroq, mamlakatda qolgan migrant muhojirlar oxir-oqibatda qariydilar, shuning uchun, agar malakali ishchilar mamlakatga kelib, soliqlar, jumladan, sug'urta badallarini to'lasa, migratsiya iqtisodiy vaziyatni yaxshilashi mumkin. Kelajakda, *“valyuta”* va *“savdo”* urushlariga o'xshab, dunyoda yosh avlod uchun migratsiya urushlari paydo bo'lishi mumkin (buning peshqadamlari allaqachon tez *“qarigan”* Boltiqbo'yi mamlakatlarida paydo bo'lmoqda). Ushbu muammoni hal qilish uchun yoshlarning immigratsiyasiga sharoit yaratish va mamlakatdan emigratsiyaga qarshi kurashish uchun keskin choralar ko'rish kerak.

Yevropa Ittifoqi tajribasi shuni ko'rsatadiki, aholining yoshi o'tgan sari hayotning yuqori sifatini ta'minlaydigan samarali institutlarga talab ortib boradi. Jamiyatning qarishi bilan birga, keksa avlod tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga ta'sir kuchayadi, shuning uchun yosh avlodning jamiyatdagi rolini oshirish, qarorlar qabul qilish va jamiyatning qadriyatli manzarasini shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Aholining qarishi iqtisodiy o'sish, davlat byudjeti va moliyaviy bozorlarga ta'sir qiladi. Siyosiy va institutsional sharoitlarb innovatsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay bo'lgan mamlakatlar *“kumush iqtisodiyot”*dan foydalanishlari mumkin bo'ladi.

Deyarli barcha mamlakatlar, ham rivojlangan, ham rivojlanayotgan mamlakatlar ma'lum darajada o'sib borayotgan keksa aholiga duch kelishmoqda. Ushbu vazifalar quyidagilarga taalluqlidir:

– **iqtisodiy o'sish va farovonlik:** aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulotning o'sishi mehnatga layoqatli fuqarolar ulushining qisqarishi bilan va buning natijasida umumiy ishlab chiqarish va investitsiyalar hajmining pasayishi hisobiga sekinlashadi;

– **pensiyalarni moliyalashtirish:** keksalar ulushining oshishi pensiyaga byudjet xarajatlarini oshirishni yoki soliqlarni oshirishni talab qiladi; foiz stavkalari



pasayganligi sababli pensiya jamg‘armasi tizimlari ham samarasiz bo‘lib bormoqda, bu ham aholining qarishi bilan bog‘liq - keksalar biror iqtisodiy sohaga sarmoya kiritishga kamroq moyil bo‘ladilar;

– **sog‘liqni saqlash:** uzoq umr, shuningdek, yuqori kasallanish va nogironlikni anglatadi; nafaqat hayot, balki sog‘lom hayot davomiyligini oshirish uchun tibbiyotga investitsiyalar kiritish kerak bo‘ladi;

– **ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash:** moliyalashtirishning etishmasligi tufayli qashshoqlik faqatgina keksalarga ta’sir etmaydi; hozir yosh bo‘lganlar ham kattaroq tengsizliklarga va keyinchalik qashshoqlik xavfiga duch kelishi mumkin, chunki ularning kutilayotgan pensiyagacha umr ko‘rish davomiyligi uzoqroqdir;

– **mehnat bozori:** o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligini oshirish va pensiya yoshini oshirish keksa odamlarning bandligini oshiradi, bu keksalar uchun malaka oshirish dasturlarini va ularning sog‘lig‘iga mos keladigan ish o‘rinlarini yaratish yoki moslashtirishni talab qiladi.

Aholining qarishi nafaqat xavf-xatarlarni, balki keksalar ehtiyojlarini qondiradigan va salomatlikni saqlaydigan, shuningdek, ishchi kuchi etishmasligi muammosini hal qiladigan texnologiyalarni ishlab chiqish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, deb yozadi IHHT. Siyosiy sharoitlar innovatsiyalar va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlaydigan mamlakatlar “kumush iqtisod”dan foyda olish uchun eng yaxshi holatda bo‘ladi.

2015-yilda dunyoda keksalarning eng yuqori ulushiga ega Yaponiyada 20-64 yoshdagi 100 kishiga 65 va undan katta yoshdagilardan deyarli 50 kishi to‘g‘ri keldi; qirq yil ichida ko‘pchilik Yevropa mamlakatlarida, shuningdek, Rossiya, Braziliyada bir xil va undan ham ko‘proq bo‘ladi. Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti bo‘yicha o‘rtacha har 100 mehnatga layoqatli aholiga 65 yoshdan oshgan deyarli 60 kishi to‘g‘ri keladi. G20 davlatlarining aksariyatida 2060-yilga kelib mehnatga layoqatli yoshdagi har 100 kishiga 65 yoshdan oshganlar soni kamida ikki baravar, 80 yoshdan oshganlar soni esa 3 barobar ortadi.

Aholining qarishi o‘nlab yillar davomida mehnat samaradorligini pasayishiga olib kelishi mumkin. Bu ta’sir uchta asosiy kanal orqali namoyon bo‘ladi: keksalarning ko‘nikmalari, ayniqsa, raqamlashtirish davrida tezda eskirmoqda; keksa odamlar odatda kam samarali va tadbirkor; keksalar ulushining o‘sishi iste’mol usullarini, masalan, shaxsiy parvarish kabi oddiyroq (va unumdorligi past) xizmatlarga o‘zgartirmoqda. Biroq, bularning barchasi, agar davom etayotgan o‘zgarishlarga to‘g‘ri javob beridsa, muammo emas.

Salomatlikni yaxshilash qarishning samaradorlikka ta’sirini bartaraf etishi mumkin, qariyalarning tajribasi va bilimlari ko‘proq muntazam operatsiyalarda unumdorlikning



pasayishini yaxshi qoplaydi, qariyalarning kelajakdagi qamrab olgan sohalari raqamli jihatdan ancha tushunarli bo'ladi, aholining qarishi o'zi innovatsiyalar va rivojlanish uchun - masalan, sog'liqni saqlash va robototexnika sohasida potentsial yaratadi.

Aholining qarishi davlat moliyasiga misli ko'rilmagan tanglikni keltirib chiqaradi. Bu ikki omilga bog'liq: qaramlik koeffitsientining o'sish sur'ati va YaIM va ish haqining o'sish sur'atlarining pasayishi. Davlat tomonidan moliyalashtiriladigan pensiya sug'urtasi sxemalariga ega bo'lgan mamlakatlarda pensiya tizimlarining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash uchun xarajatlarga tuzatishlar kiritish yoki byudjet daromadlarini oshirish talab qilinishi mumkin, chunki joriy badallar kamayib borayotgan aholi ulushidan yig'iladi.

Hech qanday islohotlarni nazarda tutmaydigan vaziyatda, bir ishchiga qariyalar ulushining oshishi G20 rivojlangan mamlakatlarda davlat qarzining 2060-yilga kelib YaIMning 180 foiziga, rivojlanayotgan mamlakatlarda 130 YaIMga nisbatan foizga oshishiga olib keladi, yoki davlat qarzi hozirgi darajada qolishi uchun G20 davlatlari muqobil sifatida soliqlarni 4,5-11,5 foiz punktga oshirishlari kerak bo'ladi.

Biroq aksariyat mamlakatlarda soliq yukini yosh avlodlar zimmasiga yuklamasdan oshirish mumkin emas, shuningdek, keksalikda qashshoqlik xavfini oshirmasdan pensiya mablag'larini kamaytirish mumkin emas. O'rtacha umr ko'rish davomiyligi oshishi bilan pensiya yoshini oshirish yaxshiroq variant bo'lar edi, ammo bunday reja umr ko'rish davomiyligi past bo'lgan kambag'allarga ta'sir etmasligi kerak, deydi IHTT iqtisodchilari. Bunday islohotlarning kam ta'minlangan aholiga ta'sirini kamaytirish uchun puxta o'ylangan, adekvat chora-tadbirlar - eng kam yoki bazaviy pensiyalar, qashshoqlikka qarshi kurash dasturlari zarur. Ammo ish va nafaqani birlashtirish uchun ko'proq moslashuvchanlik uzoqroq faol qolishni xohlaydiganlarga yordam beradi. Bundan tashqari, sog'liq odatda yosh oshishi bilan yomonlashadi, sezilarli ijtimoiy-iqtisodiy farqlar mavjud: 65 yoshga to'lgan past ta'lim darajasiga ega bo'lgan odamlar orasida sog'lig'i yomonlashgani haqida xabar beradigan nisbat oliy ma'lumotli odamlarga qaraganda deyarli ikki baravar yuqori. 2000-yildan boshlab G20 rivojlangan mamlakatlarida sog'liqni saqlashga davlat xarajatlari o'rtacha 1,5 foiz punktga oshdi, rivojlanayotgan mamlakatlarda - 0,8. Yaponiyada ular bir yarim baravar, yalpi ichki mahsulotning 9 foizigacha ko'paydi, Germaniya va Frantsiya yalpi ichki mahsulotning 9,5 foizini sog'liqni saqlashga ajratadi. Rossiya va Hindiston 17 yil davomida sog'liqni saqlashga sarflangan xarajatlar o'zgarmagan yagona davlatlardir (YaIMning mos ravishda 3% va 0,9%).

Qarishning kelajakdagi sog'liqni saqlash xarajatlari ta'siri o'rtacha umr ko'rish davomiyligining oshishi sog'liqni saqlash holatining yaxshilanishi bilan birga keladimi-



yo‘qligiga juda bog‘liq. Masalan, sog‘liqni saqlashni rivojlantirishning samarali siyosati IHTT mamlakatlarida umumiy (xususiy va davlat) sog‘liqni saqlash xarajatlarining taxminan YaIM 0,3 foiz punktga o‘lishini o‘z ichiga olishi mumkin, 2030-yilga borib ular YaIMning 10 foizigacha emas, 9,7 foizigacha oshadi (2015-yildagi 8,8 foizdan).

Nodavlat pensiya sug‘urtasi davlat pensiyalari qoplanishi past bo‘lgan, moliyalashtiriladigan dasturlarda ishtirok etish ixtiyoriy emas, majburiy bo‘lgan va pensiya jamg‘armalari uchun soliq imtiyozlari sezilarli bo‘lgan mamlakatlarda ko‘proq rivojlangan. Biroq, xususiy pensiya ta‘minoti yuqori bo‘lgan mamlakatlarda ham, ishchilar, ayniqsa, moliyaviy savodxonligi past bo‘lganlar, ko‘pincha juda kam jamg‘arib, qariganda moliyaviy xavfsizligini xavf ostiga qo‘yadi, deb yozadi IHTT⁴¹. Korporativ va shaxsiy rejalar IHTTga a‘zo mamlakatlarning ko‘pchiligida birgalikda mavjud. Ular belgilangan badallar dasturlariga bo‘lingan, bunda xodimlar belgilangan badal to‘laydilar va shu tariqa barcha tavakkalchiliklarni o‘z zimmalariga oladilar, chunki ish beruvchilar kelajakda moliyalashtirishning mumkin bo‘lgan taqchilligi uchun javobgar emaslar. Niderlandiyada ish beruvchi va xodim o‘rtasida tavakkalchilikni taqsimlashni nazarda tutuvchi gibril pensiya sxemasi masalasi muhokama qilinmoqda.

Ammo umuman olganda, korporativ va shaxsiy dasturlar belgilangan imtiyozlar dasturlarining yuqori xarajati tufayli belgilangan badallar tomon harakatlanmoqda: natijada kelajakda ko‘proq odamlar moliyaviy tavakkalchilikni o‘z zimmalariga oladilar. Bu moliyaviy boshqaruv ko‘nikmalarini rivojlantirish va jamg‘arma vositalarini ishlab chiqish ehtiyojini oshiradi. Shu bilan birga, jamg‘arib boriladigan pensiya dasturlari barqarorligining asosiy omili foiz stavkalari dinamikasi va investitsiyalar rentabelligi bo‘lib, bu o‘z navbatida, boshqa narsalar qatori, qarish munosabati bilan jamg‘armalar va investitsiyalar dinamikasiga bog‘liq. Demografik o‘zgarishlar real foiz stavkalarining uzoq muddatli pasayishiga ta‘sir qiluvchi tarkibiy omillardan biri hisoblanadi. O‘z daromadlarining ko‘proq qismini iste‘molga sarflashga moyil bo‘lgan nafaqaxo‘rlar ulushi ortib borayotganligi sababli, mehnatga layoqatli yoshdagi odamlar o‘zlarining iste‘molini cheklaydilar va jamg‘arma stavkalarini oshiradilar, chunki ular pensiyada oldingi avlodlarga qaraganda ko‘proq yil o‘tkazishlarini tushunadilar, ammo kamroq moliyaviy imkoniyatlarga ega.

AQShda o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi va tug‘ilish darajasining pasayishi 1980-yildan boshlab real ko‘rsatkichning 1,25 foiz punktiga pasayishiga olib keldi; Yaponiya bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot shunga o‘xshash xulosaga keldi. Bundan tashqari, past foiz stavkalari shaxsiy pensiya

⁴¹ <<https://www.aegon.com/contentassets/6724d008b6e14fa1a4cedb41811f748a/retirement-readiness-survey-2018.pdf>>



majburiyatlarining joriy qiymatini oshiradi, bu esa pensiya jamg‘armalarining to‘lov qobiliyatini yanada yomonlashtirishi va xavfliroq yoki xavfsizroq investitsiyalarni rag‘batlantirishi va daromadni yanada kamaytirishi mumkin. Past stavkalarda yosh avlodlar jamg‘armalarni kamaytirishi mumkin, bu ularning kelajakdagi pensiya daromadlarini kamaytiradi yoki aksincha, ularning hozirgi iste‘moliga salbiy ta‘sir ko‘rsatadigan yanada ko‘proq tejash mumkin.

Pensiya islohotlari uch tomonlama muammolarni hal qilishi kerak: moliyaviy barqarorlikni oshirish, qarilik davrida qashshoqlik xavfini kamaytirish, ishlarni avlodlar o‘rtasida adolatli taqsimlanishini ta‘minlash. Pensiya tizimlari va siyosat maqsadlariga qarab, variantlar pensiya yoshini kutilayotgan umr ko‘rish davomiyligi bilan bog‘lash, moslashuvchan pensiyani tegishli moliyaviy rag‘batlantirish bilan ta‘minlashni o‘z ichiga olishi mumkin.

Pensiyalar bilan bog‘liq tarkibiy islohotlar siyosiy jihatdan qimmatga tushishi mumkin, chunki ular odatda ko‘paytirilgan badallar, qisqartirilgan yoki cheklangan nafaqalar yoki uzoqroq ish soatlarini o‘z ichiga oladi.

Qariyotgan jamiyatlarda islohotlar yanada qiyinlashishi mumkin, chunki keksa odamlar siyosiy jihatdan faolroq va pensiya bilan bog‘liq salbiy o‘zgarishlarni qo‘llab-quvvatlash ehtimoli kamroq, yosh avlod esa siyosatga qiziqishini yo‘qotadi. Shunday qilib, 2012–2013-yillarda IHTT mamlakatlarida 55 yoshdan ortiq saylovchilar ishtiroki o‘rtacha 86% ni tashkil etdi, bu yoshlardan 16 foizga yuqoridir. Shu bois, islohotlar bilan birga, oldindan maslahatlashuvlar va keng doiradagi manfaatdor tomonlarni muloqotga jalb qilgan holda o‘z vaqtida va samarali muloqot qilish manfaatdor davlat organlari uchun nihoyatda muhimdir. Iqtisodiyot jadal rivojlanayotgan paytda pensiya islohotiga ustunlik beriladi. Biroq, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ular odatda iqtisodiy faoliyatning sekinlashishi davrida, davlat moliya tizimi og‘ir qiyinchilik ostida bo‘lganda o‘tkaziladi. Inqiroz davrida, ayniqsa, ijtimoiy muloqot cheklangan paytda qabul qilingan pensiya islohotlari uzoq muddatda muvaffaqiyat qozonishi ehtimoli pastdir, biroq qisqa muddatli rag‘batlantirishdan foydalanish islohotlar xarajatlarini kamaytirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Синявская О. В. Оценка экономических последствий возможного изменения пенсионного возраста: Автореф. дисс. ...канд. экон. наук. – Москва, 2002.
2. Психология среднего возраста, старения, смерти / Под ред. А. А. Реана. – Санкт-Петербург: Прайм-Еврознак, 2003. – С. 276-277.
3. Захаров С., Рахманова Г. Демографический контекст пенсионного обеспечения: история и современность // Современные проблемы пенсионной системы: комментарии экономистов и демографов / Под ред. Т. Малевой. – Москва, 1997.



Alimov Sardor Komil o‘g‘li,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy tadqiqot instituti
kichik ilmiy xodimi, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

KEKSALIK VA MIGRATSIYA: ZAMONAVIY DEMOGRAFIK MUAMMOLAR DIALEKTIKASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada keksalik va migratsiya fenomenlarining o‘zaro ta’sirlashuvi muammosi yoritib berilgan. Muallif keksalar migratsiyasi, migratsiyaning retsipiyent va donor jamiyat taraqqiyotiga ta’siri masalalariga to‘xtalib o‘tgan.

Kalit so‘zlar: migratsiya, migrant, repatriant, keksalik, keksa, “uchinchi avlod”, keksalar migratsiyasi, donor davlat, retsipiyent davlat

Аннотация. В данной статье освещается проблема взаимодействия явлений старения и миграции. Автор коснулся вопросов миграции пожилых людей, влияния миграции на развитие общества-реципиента и общества-донора.

Ключевые слова: миграция, мигрант, репатриант, старость, пожилые люди, «третье поколение», миграция пожилых людей, страна-донор, страна-реципиент

Annotation. This article highlights the problem of the interaction of aging and migration phenomena. The author touched on the issues of migration of the elderly, the impact of migration on the development of the recipient and donor society.

Keywords: migration, migrant, repatriate, aging, elderly, “third generation”, elderly migration, donor country, recipient country

Globalashuv davri ijtimoiy hayotning barcha jabhalari qatorida turli demografik jarayonlarning ham tezlashuviga olib kelmoqda. Aholi migratsiyasi va insonlarning umri uzayishi bilan bog‘liq bo‘lgan keksalik fenomenlari shular jumlasidan. Bu ikki fenomenning o‘zaro ta’sirlashuvi, aloqadorligi har ikkisinin ham globalashuv tufayli transformatsiyaga uchrayotganligi bilan xarakterlanadi.

Xalqaro migratsiya tashkiloti bergan ma’lumotga ko‘ra, 1970-yildan 2019-yilgacha migrantlar soni sayyora aholisining 2,3 foizidan 3,5 foizigacha oshib, 84 mln.dan 271 mln.ga etgan⁴². 1990-yilda Yer yuzidagi har 35 kishidan bittasi muhojir bo‘lgan bo‘lsa, bugun bu ko‘rsatkich 29 nafarga bir migrantga to‘g‘ri kelmoqda. Agarda butun dunyodagi migrantlarni bir hududga yig‘ib, yagona davlatga birlashtirish imkoniyati bo‘lganida edi, ushbu davlat 2019-yil yakuniga ko‘ra aholi soni bo‘yicha dunyoda Xitoy, Hindiston, AQSH, Indoneziyadan keyin beshinchi o‘rinni egallagan bo‘lard⁴³. Hattoki migrantlar

⁴² World Migration Report 2018 (https://publications.iom.int/system/files/pdf/wmr_2018_en.pdf) International Organization for Migration. – P. 15.

⁴³ Allahyarova T. The decline of liberal political philosophy as one of the reasons of crisis of migration and multiculturalism in western society // Philosophy and life. – Tashkent, 2018. – № 1/2 (1). – P. 13.



hayoliy davlati aholisining soni bo‘yicha tez orada Indoneziyadan o‘tib ketishini ham taxmin qilish mumkin bo‘lar edi. Bu raqamlar migratsiyaning yanada globallashtirib, ko‘lami ortib borayotganligidan dalolat berib turibdi. Ko‘lamning keskin ortib borishi esa migratsiyaning zamonaviy tendensiyalari shakllanishi olib keldi.

Ikkinchi tomondan esa tibbiyotning taraqqiyoti insonlarning turli kasalliklarga davo topishi, inson umrining uzayishiga olib kelmoqda. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining ma‘lumotlariga ko‘ra, 2050-yilga kelib keksa avlodning 80 foizi past yoki o‘rta darajada iqtisodiy rivojlanayotgan mamlakatlarda yashashadi. 2015-yildan 2050-yilga qadar dunyo bo‘yicha 60 yosh va undan katta yoshdagi aholining ulushi 12 foizdan 22 foizgacha etadi⁴⁴. Bu esa mazkur davlatlarning ijtimoiy himoya va sog‘liqni saqlash tizimlari uchun qo‘shimcha bosim bo‘lishi kutilmoqda. Azal-azaldan aholining umumiy sonida 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarning ulushi 60 yoshdan katta aholiga nisbatan ko‘pchilikni tashkil etgan bo‘lsada, 2020-yilga kelib bu ko‘rsatkichlar o‘rin almashdi. Umuman olganda keksalar sonining ortib borishiga quyidagi omillarni sabab sifatida ko‘rsatishimiz mumkin:

- insonlarning hayotida farovonlikning oshishi;
- oziq-ovqatlarning sifat o‘zgarishi va yaxshilanishi;
- sanitariya-gigiyena sharoitlarining yaxshilanishi;
- tibbiy yordam sifatining oshishi⁴⁵;
- nisbatan global tinchlik qaror topishi va boshqalar.

Aholi migratsiyasi va keksalik fenomenlarining dialektik ta’sirlashuvini turli rakursda kuzatish mumkin. Masalan, ba’zi davlatlardan keksa yoshdagi insonlarning migratsiyasi ularning hayotidagi o‘zgarishlari, nafaqaga chiqish, o‘zi uchun qulay yashash joyiga o‘tish ko‘rinishida sodir bo‘ladi. Ba’zi mamlakatlar esa keksa avlodning migratsiyasini rag‘batlantirishga harakat qiladi. Bunday fenomenal jarayonni Isroil tajribasida ko‘rishimiz mumkin. Isroil butun dunyodagi yahudiylarni o‘z hududiga chorlashi barobarida keksa yoshdagi immigrant yahudiylar uchun ham shart-sharoitlar yaratishga harakat qiladi. Jumladan, Isroilga qaytgan keksa repatriantlar uchun “Absorbsiya savati” deb nomlangan imtiyozlar paketi taqdim etilib, uning tarkibida turli maqsadlar uchun subsidiyalar joylashtiriladi. Qolaversa, 1989-yil 1-sentabrdan keyin qaytgan keksa immigrantlarga kvartira ijarasi uchun yordam berish ham yo‘lga qo‘yilgan⁴⁶. Bu orqali Isroil o‘zining ijtimoiy siyosatini namoyon qilib, har bir yahudiy, yoshidan qat’iy nazar Isroilga qaytsa, davlat himoyasida bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi.

⁴⁴ <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/ageing-and-health#:~:text=At%20this%20time%20the%20share,2050%20to%20reach%20426%20million>.

⁴⁵ Балабанова Г. Г. Старение населения как следствие демографического перехода // Актуальные проблемы экономического развития. – 2020. – С. 53-58.

⁴⁶ Руководство для пожилых граждан Израиля права, льготы и информация. 2015. – С. 54.



Keksalar odatda potensial migrant hisoblanishmaydi. “Uchinchi avlod” deb hisoblanuvchi keksa avlod o‘z yashash joyini o‘zgartirishni istamaydi, odatda individual marginalizm holatida bo‘ladi⁴⁷. Aynan shu sababli keksalar yoki migratsiya qilishmaydi, yoki migratsiya qilgan taqdirida ham ijtimoiy adaptatsiyalari qiyin kechadi.

Biroq aksariyat holatlarda migratsiya fenomeni aholining turmush darajasi oshishi, tug‘ilish va o‘limning kamayishi oqibatida yillar o‘tib demografik muammolarga duch kelayotgan rivojlangan mamlakatlarda demografik muvozanatni tartibga soluvchi omillardan biri hisoblanadi⁴⁸. O‘z navbatida ta’kidlash kerakki, migratsiya tufayli mamlakatga kirib kelayotgan aholi odatda tub aholidan millat, til, din, madaniyat nuqtayi nazaridan farq qiladi, bu esa tub aholining yo‘q bo‘lib ketishi, jinoyatchilikning ortishi kabi turli muammolarga olib kelishi mumkin. Migratsiya retsiptiyent davlatdagi ishchi kuchi etishmasligi muammosini vaqtinchalik hal qiladi, ikkinchi tomondan donor davlatning o‘zida aholi keksayishi, ishchi kuchi etishmasligi muammolariga olib kelishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, keksalik va migratsiya fenomenlari zamonaviy dunyoning demografik manzarasi shakllanishida katta ta’sir ko‘rsatib, ularning o‘zaro munosabatlarini tahlil qilganda konseptual yondashuv talab qilinadi. Migratsiya ba’zida “keksayib” borayotgan rivojlangan davlatlarning demografik muammolarini hal qilsa, ba’zida donor davlatlarning o‘zlari uchun ishchi kuchi etishmasligiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *World Migration Report 2018* (https://publications.iom.int/system/files/pdf/wmr_2018_en.pdf) International Organization for Migration. – P. 15.
2. Allahyarova T. *The decline of liberal political philosophy as one of the reasons of crisis of migration and multiculturalism in western society* // *Philosophy and life*. – Tashkent, 2018. – № 1/2 (1). – P. 13.
3. <https://www.who.int/news-room/fact-sheets/detail/ageing-and-health#:~:text=At%20this%20time%20the%20share,2050%20to%20reach%20426%20million>.
4. Балабанова Г. Г. Старение населения как следствие демографического перехода // *Актуальные проблемы экономического развития*. – 2020. – С. 53-58.
5. *Руководство для пожилых граждан Израйля права, льготы и информатсия*. 2015. – С. 54.
6. Соколов Н. В., Рехтина Л. С. *От молодежной мигрatsiu к мигрatsiu пожилых: парадоксы старения принимающего общества* // *Журнал исследований социальной политики*. – 2018. – Т. 16. – №. 1. – С. 51-66.
7. Журавлева Т. Л., Гаврилова Я. А. *Анализ факторов рождаемости в России: что говорят данные РМЭЗ НИУ ВШЭ?* // *Экономический журнал Высшей школы экономики*. – 2017. – Т. 21. – №. 1. – С. 166.

⁴⁷ Соколов Н. В., Рехтина Л. С. *От молодежной миграции к миграции пожилых: парадоксы старения принимающего общества* // *Журнал исследований социальной политики*. – 2018. – Т. 16. – №. 1. – С. 51-66.

⁴⁸ Журавлева Т. Л., Гаврилова Я. А. *Анализ факторов рождаемости в России: что говорят данные РМЭЗ НИУ ВШЭ?* // *Экономический журнал Высшей школы экономики*. – 2017. – Т. 21. – №. 1. – С. 166.



III SHO‘BA.

MILLIY QADRIYATLAR VA BARQAROR AVLODLARARO MUNOSABATLAR





M.Yuldashev,

Din ishlari bo‘yicha qo‘mita mas‘ul xodimi

KEKSALARGA HURMAT – INSONIY BURCH

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimizda azaldan keksalarga va qariyalarga qaratilgan e‘tibor, hurmat va ehtirom holatlari milliy hamda diniy qadriyat darajasiga yetgani yoritilgan.

Kalit so‘zlar: keksalik, keksalarni ulug‘lash, keksalarni hurmat qilish, din, milliy qadriyat, o‘dab-ahloq.

Аннотация. В статье поясняется, что в нашей стране внимание и уважение к пожилым людям достигли уровня национальной и религиозной ценности.

Ключевые слова: старость, прославление пожилых людей, уважение к старшим, религия, национальные ценности, нравственность.

Annotation. The article explains that in our country attention and respect for the elderly have reached the level of national and religious values.

Key words: old age, glorification of the elderly, respect for elders, religion, national values, morality.

Keksalarni qadrlash asrlar davomida xalqimiz qoniga singib ketgan milliy, diniy va umuminsoniy qadriyatlarimiz hisoblanadi.

Davlatimiz doimiy ravishda keksalarga katta e‘tibor qaratib, ularni ham ma‘nan, ham moddiy qo‘llab-quvvatlab kelmoqda. 2017-yili Haj mavsumida yurtboshimiz tashabbuslari bilan 100 nafarga yaqin Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini muborak Haj safariga imtiyozli yuborish bilan taqdirladilar.

Islom dinining go‘zal odob-axloqlaridan biri kishilarni doimo bir-birlariga yaxshilik qilishga buyuradi. Xususan, go‘daklar, ayollar va keksalar kabi kishilarga e‘tiborni yanada ko‘proq qaratishga chaqiradi. Kexsa deganda uzoq yashab katta yoshga etgan kishilar ko‘zda tutiladi. Masalan: kexsa odam, kexsa ayol gohida qariya ham deyiladi. Alloh taolo o‘z hikmati bilan har kimga turli muddatli umr beradi. Ba‘zilar yoshligida vafot etsa ba‘zilar uzoq umr ko‘radilar.

Keksalik yoshiga etgan kishilar boshqalarning yordamiga muhtoj bo‘ladilar. Qur’oni karimning Yosin surasida Alloh taolo marhamat qiladiki: **“Biz kimga uzoq umr bersak, uning vujudini ham zaif qilib qo‘yamiz. Axir aql yurgazmaydilar.”** Ya’ni bunda har kim keksayganida yordamga muhtoj bo‘ladi. (Shuningdek bir qancha oyatlarda. Keksalarni hurmat qilish haqida zikr qilinadi).



Darhaqiqat, odam bolasining umri o'tib keksaygan sari uning jismi zaiflashib boradi, ammo hayot sinovlarida toblangan, boshidan yaxshi va og'ir sinovlarni o'tkazgan keksa yoshdagi kishilarning borligi barchamizga Allohning bergan ulug' ne'matidir. Bu haqida janobi Payg'ambarimiz (s.a.v) shunday deganlar. **“Agar oralaringizda munkillagan qarilar, o'tlab yurgan chorva hayvonlari va emizikli chaqaloqlar bo'lmaganida edi, boshingizga balolar selday oqib kelgan bo'lardi.”**

Xalqimizda qaysi bir xonadonda ota-ona yoki ulardan birlari hayot bo'lsa, usha oila bag'ri butin oila deyiladi. Darhaqiqat, keksalarimiz yoshlarning ta'lim tarbiyasi, odob-axloqini nazorat qilib, o'z hayotiy tajribalardan kelib chiqib, pandu nasihat qiladilar. Unga rioya qilgan yoshlar hayotda adashmay, jamiyatda o'z o'rinlarini topishlari oson bo'ladi.

Alloh taolo bizlarga keksalar tufayli shunchalar ko'p marhamt ko'rsatar ekan, o'z navbatida, bizlar ham ularning hurmatlarini joyiga qo'yishimiz, izzat-ikrom ko'rsatishimiz lozim. Alloh taolo Qur'oni karimda keksalarga hurmat, xususan ota-ona qariganda ularning xizmatida hozir bo'lish haqida oyat nozil qilgan. (Isro surasi) Rasululloh (s.a.v). ham hadislarining birida: **“Mo'ysafid kishini hurmat qilish Alloh taoloni ulug'lash demakdir”** deganlar.

Chunki keksalarga yaxshilik qilishni, ularga hurmat-izzat ko'rsatishni Alloh buyurgan. Allohning amriga itoat etish esa uni ulug'lashdir. Rasululloh s.a.v. (matn) **“Kichiklarimizga rahm-shafqatda, kattalarimizga hurmat-izzatda bo'lmagan kishi bizdan emasdir”** deganlar (Imom Abu Dovud va Termiziy rivoyati).

Ya'ni yoshi ulug' kishilarni hurmat qilish musulmonlik belgisi bo'lib, nafaqat bizning dinimizda, balki samoviy dinlarda ham ta'kidlangan. Masalan: Muso (alayhissalom) Madyan qishlog'iga borganlarida u erdagi quduq oldida bir to'da odamlar chorvalarini sug'orayotganlarini ko'radilar. Chekkaroqda esa ikkita ayol o'z chorvalarini sug'ormay turardi. Shunda Muso (alayhissalom) u ayollardan nima uchun sug'orishga aynan ular kelganliklarini so'raydilar. Shunda ayollar oilada keksayib qolgan otalardan boshqa hech qanday erkak yo'qligini, Bu yerdagi erkaklar sug'orib bo'lganlaridan keyingina sug'orishlarini aytadilar. Shundan so'ng Muso (alayhissalom) ayollarga chorvalarini sug'orib beradilar. Ular bo'lgan voqeani otalariga aytib berishgach, u kishi Muso (alayhissalomni) huzuriga chaqirib tashakkur bildiradilar. Ushbu voqeaning yana bir e'tiborli tomoni shundaki, o'z navbatida Muso (alayhissalom) ham u kishiga o'zlarining bu diyorlarga qanday sabablar bilan kelib qolganlarini aytib, undan maslahat so'raydilar.

Payg'ambarimiz (s.a.v) keksalarni hurmat qilishda o'zlari ibrat bo'lganlar. Masalan: Makka shahrida sahobalar bilan birga turgan paytlarida bir keksa ayol qo'lida og'ir



yuk bilan ketayotgan edi. Shunda Rasululloh (s.a.v) darhol borib qo‘lidagi og‘ir yukini ko‘tarib ayolning uyiga yetkazib qo‘yganliklari, keksa ayolni esa o‘z navbatda minnatdorchik bildirib, haqiga duo qilganliklarini eslaymiz. Hazrati Ali (k.v) ham yoshi ulug‘ boshqa bir din vakilini hurmat qilib u kishidan oldin yurib ketishlikni o‘ziga lozim topmadi. Bunda albatta bag‘rikenglik va keksalarga hurmatni bilib olamiz.

Yana bir hadis sharifda Rasulluloh (s.a.v) shunday deganlar: **“Katta yoshdagilar bilan birga suhbatda bo‘linglar, ulamolardan masalalar so‘ranglar va donolar bilan aralashib turinglar.”** deganlar. Xalqimizda *“Qari bilganini pari bilmas”* degan naql bor. Bu ham ushbu hadisning mazmuniga hamohangdir.

Yaratgan yurtimizdagi barcha yoshi ulug‘ keksa kishilarimizni sog‘-salomat saqlasin. Doimo bizlar uchun duogo‘y bo‘lib yurishlarini nasib etsin!



A.A.Xuseynova,

*Buxoro davlat universiteti professori,
falsafa fanlari doktori*

J.J.Shodiyev,

*BuxMTI “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi dotsenti,
falsafa fanlari doktori (PhD)*

MILLIY QADRIYATLAR VA BARQAROR AVLODLARARO MUNOSABATLAR – KELAJAK AVLOD TAYANCHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada keksa avlod vakillarining yoshlarni tarbiyalashdagi o‘rni hadislar, ajdodlarimizning so‘zlari misolida keltirilgan. Shuningdek, yosh avlodni tarbiyalashda milliy qadriyatlarning ta‘siri, ularning kelajak avlodni voyaga yetkazishdagi roli tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: keksa, yosh avlod, qadriyat, hadis, farzand, tarbiya, Rudakiy, Yangi O‘zbekiston.

Аннотация. В данной статье на примерах хадисов и слов наших предков приводится роль представителей старшего поколения в воспитании молодежи. Также анализируется влияние национальных ценностей в воспитании подрастающего поколения, их роль в подведении подрастающего поколения к взрослой жизни.

Ключевые слова: пожилые люди, молодое поколение, ценность, хадис, ребенок, воспитание, Рудаки, Новый Узбекистан.

Annotation. In this article, on the examples of hadiths and the words of our ancestors, the role of representatives of the older generation in the education of young people is revealed. It also analyzes the influence of national values in the upbringing of the younger generation, their role in bringing the younger generation to adulthood.

Key words: elderly people, young generation, value, hadith, child, education, Rudaki, New Uzbekistan.

Yangi O‘zbekiston. Ushbu ibora tilimizga yaqindagina kirib kelganiga qaramay, millionlab yurtdoshlarimiz ongu shuuriga singishga ulgurdi. Uni har kim o‘zicha tushunib, talqin qilishi ham tabiiy. Men uchun yangi O‘zbekiston milliy taraqqiyotning shonli manzili, bizdan kelgusi avlodlarga qolajak ulkan merosdir.

Inson – hayot gultoji. Uning qadri, hurmati har doim e‘zozga loyiq. Keksalarni ardoqlash, izzat-hurmat qilish, ko‘makka muhtojlarning hurmatini joyiga qo‘yish qon-qonimizga singib ketgan fazilat. Ayniqsa, o‘tganlarni xotirlash, aziz otaxon-u onaxonlarning duosini olmoqlik saodati o‘zgacha.



Mamlakatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son Farmonlar ijrosini ta'minlash, shuningdek, aholi sog'ligini mustahkamlashga ko'maklashadigan aniq dasturlarni amaliyotga joriy etish, yoshlar, ayollar va keksalarni sog'lom turmush tarziga keng jalb qilish va ularni jismoniy faolligini oshirish uchun qo'shimcha shart sharoitlar yaratildi. Aholining uzoq umr ko'rish davomiyligini ta'minlash dolzarb masalalardan biridir. Zero, ushbu ko'rsatkich insonlarning sog'lom turmush tarzi va farovon hayoti ifodasidir. Shu o'rinda sog'lom turmush tarzi nima, unga amal qilish me'yorlari qanday, yurtimizda sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan chora-tadbirlar nimalardan iborat, kabi savollar tug'iladi. O'zbekiston miqiyosida engi uzoq umr ko'rganlar soni bugungi kunga kelib (100 yoshdan oshgan) 15 dan ortiq kishini tashkil qilganligini hisobga olgan holda, haqiqatan ham respublika miqiyosida o'rtacha yoshni oshirish davlat darajasidagi masala sifatida ko'rilishi bejizga emasdir.

Bizga ma'lumki tarbiya-avlodlararo ijtimoiy-tarixiy va hayotiy tajribani uzatishga xizmat qiluvchi, oila, ta'lim muassasalari, ijtimoiy, siyosiy va boshqa tashkilotlar, OAV va boshqalar ta'siri ostida jismonan sog'lom, ma'nau barkamol insonni shakllantiruvchi va takomillashtiruvchi uzluksiz jarayon hisoblanadi. Yuksak ma'naviyatni tarbiyalash vositasi hisoblangan, muayyan shaxs, jamoa, muayyan guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkamollik, ruhiy, axloqiy, ma'naviy etuklik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta'lim-tarbiya jarayonini ifodalovchi tushuncha bu- ma'naviy tarbiyadir. Ma'naviy tarbiya keng ma'noda inson shaxsini shakllantirishga, uning ishlab chiqarish va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotda faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ma'naviy ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini ifodalaydi.

Rudakiy axloqqa oid asarlarida aql, idrok, xulq-atfor va bilim asosiy o'rin egallagan. Bilimni hamma boyliklardan ustun qiladi, uning ayrim nasihatlarini insonning qanday holatda baxtli bo'lishi sharoitlarini aniqlashga yordam beradi.

Yaxshi odob, yaxshi nom va aql. U insonlarning voqealarini ichki mohiyatidan uning tashqi tomonini ajrata bilishga chaqiradi. U yaxshilik saxiylik va ulug'vorlikni targ'ib qiladi.

“Keksalikdan shikoyat qasidasi” asari moddalar bir shakldan ikkinchi shakllar o'tishini hamda yo'q bo'lib ketmasligini ta'kidlaydi.

Mamlakatning ertangi kuni, tinch va obod bo'lishi eng oldin mana shu kichik jamiyatda o'sib-unayotgan bolalarimizga bog'liq. Qaysi oilada, qaysi mahallada tarbiya yaxshi yo'lga qo'yilar ekan, o'sha oila, o'sha mahalla gullab-yashnaydi. Farzand tarbiyasini qachondan boshlamoq kerak?, degan savol ko'pchilikni o'yantiradi. Ko'pchilik olimlar unga turlicha javob berib kelganlar. Xususan, Ibn Sino bola tarbiyasi bilan uning tug'ilishidan avvalroq, ona qornidan boshlaboq shug'ullanish lozim, deb



javob bergan. Oila, odob-axloq va ta'lim-tarbiyaga e'tibor qon-qonimizga singib ketgan burchlarimizdandir. “Bir bolaga etti qo'shni ota-ona” degan ibratli maqol ham aynan xalqimizga xos. Mana shu maqolning o'zi ham farzand tarbiyasi, oilaparvarlik biz uchun nechog'lik muhim ekanini bildiradi. Mahalla ahli, ayniqsa keksalar ko'chada nobop ish qilayotgan bola oldidan hech qachon beparvo o'tib ketmagan, shu zahotiy oq tanbeh berib to'g'ri yo'lga chaqirgan. Zero, har tomonlama chiroyli, odobli, go'zal xulqli bo'lish, nafsni poklashga buyuruvchi muqaddas dinimiz oilaga katta ahamiyat beradi. Oiladagi muhit ota-ona o'z ma'suliyatlarini his qilishi bilan barqaror bo'ladi. Bir qatorda mahalla-kuy ham katta ibrat maktabidir. “Qush uyasida ko'rganini qiladi”, deb bejiz aytmagan xalqimiz. Farzand tarbiyalayotgan ota-ona har bir harakati, yurish turishi, muomalasi, boshqalar bilan o'zaro munosabatida olijanob fazilatlarni namoyon eta bilishi kerak. Chunki bola tabiatan nihoyatda taqlidchan va kuzatuvchan bo'ladi. Shuning uchun uning atrofdagilari o'z odatlari bilan ba'zan o'zlari sezmagan holda ularga ta'sir qiladilar. Oiladagi qo'pol munosabatlar, ko'p yolg'on gapirish, yoqimsiz xatti-harakat bola tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladigan nosog'lom muhitni keltirib chiqaradi. Farzand tarbiyasida ota-onaning muomalasi muhim o'rin tutadi. Bola ota-ona tomonidan qo'pol, dag'al so'zlar eshitib, kaltak eb katta bo'lsa, bu uning tabiatiga salbiy ta'sir qiladi. Bu esa o'z navbatida oiladagi nosog'lom muhitda tarbiyalanayotgan boladan “ma'naviy kasal” insonlar shakllanadi. Ular esa jamiyat ma'naviyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oilada ota-onalar “ommaviy madaniyat” ta'siriga berilib ketishi oqibatida farzandlarning tarbiyasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Yurtimiz fuqarolari chet-el yurtlarini kezib, yangi xalq va urf-odatlarini guvohi bo'lib qaytmoqdalar. Shu jumladan Yevropa davlatlariga sayr qilib kelayotgan fuqarolarimiz bugungi kunda g'arb o'smirlari orasida boshqa mamlakatlar yoshlariga qaraganda uyushgan jinoyatchilik va zo'rvonlikka berilish holati yuqori. Bunga sabab bolalarga keragidan ortiq erkinlik berilgani ekan. Ularni hozirdan aysh-ishratga berilib, turli axloqsiz hatti-harakatlarga ruju qo'yishdan hech kim qaytarmasligini aytib berishmoqda. Islom shu ma'noda ota-onalarni o'z farzandlariga sog'lom tarbiya berishga rag'batlantiradi. Hadisi sharifda “Farzandlaringizni hurmat qiling va ularni yaxshi xulq bilan xulqlantiring” deb ta'kidlangan. Farzand tarbiyasi jarayonida bola huquqlarining kamsitilmasligi talab etiladi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tuyg'ulariga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Mehr-muhabbat berishda ham me'yorni saqlay bilish kerak. Bolaning barcha aytganlarini qilish, barcha to'g'ri-noto'g'ri xatti-harakatlarini ma'qullash yoki hatto indamaslik farzandning umuman tarbiyasiz bo'lib o'sishiga olib keladi. Ortiqcha taltaytirib erkalash bolani har jihatdan sustlashtirib qo'yadi, mehr ko'rsatish esa uni yanada faol bo'lishga undaydi. Erka o'sgan bola faqatgina shaxsiy manfaatlarini ko'zlaydigan, ma'suliyatsiz bo'lib voyaga



etadi. Shuning uchun farzandning barkamol inson bo‘lib etishida onaning xizmati shu bilan birga oiladagi yoshi katta bobojon va buvijonlarning o‘rni juda zarur va muhimdir. Bolalik chog‘ida farzandning qalbi o‘ta yumshoq va ta’sirga beriluvchan bo‘ladi. Shu bois diniy ta’limotlarda bolalarni mehr bilan erkalash, farzandning bolalik davrini xursand o‘tkazishga alohida e’tibor qaratiladi. Ayniqsa, qiz bolaning ko‘ngli nozik bo‘lishini hisobga olib, ularga alohida mehr ko‘rsatishga chaqiriladi. Diniy ta’limotlarda ota-ona o‘z farzandlariga ta’lim-tarbiya berishi ham dolzarb vazifalardan deb qaraladi. Bu haqda Muhammad (alayhissalom): “Farzandlaringizga ta’lim bering, chunki ular sizniki bo‘lmagan vaqt uchun tug‘ilganlar”, deb har bir ota-onani bolaning o‘z zamonasi ilm-fani, ta’limiga befarq qaramaslikka chaqirganlar. Tarbiyada eng muhim vosita bu mehr va shirinso‘zlik bilan tarbiyalashdir. Bu ikki vosita bir bo‘lib, bolani shakllantiradi. Shu jumladan, ta’limni ham g‘azab va jazolash bilan amalga oshirmagan ma’qul. Zero, zo‘rlab berilgan ta’lim bola xotirasidan tezda o‘chib ketadi. Oqibatda uning shu sohaga nisbatan qiziqishi so‘nishi mumkin. Bundan ko‘rinadiki, ta’limning avvali ham yaxshi tarbiyadan boshlanadi. Islom ta’limotida yosh avlodning jismonan sog‘lom va baquvvat bo‘lib ulg‘ayishiga jiddiy ahamiyat berilgan. Bu haqda Payg‘ambarimiz (s.a.v.): “Farzandlaringizga suzish va kamon otishni, qizlarga ip yigirishni o‘rgatinglar”, deganlar. Bugungi kunda farzand tarbiyasida ijtimoiy muammolardan, uyali telefonlardagi tajovuzliklar hamda ijtimoiy tarmoqlar to‘ri tobora avj olmoqda. Ushbu zamonaviy kommunikatsiya vositalari muhim aloqa vositalari bo‘lishi bilan birga ba’zi ma’naviyati to‘liq shakllanmagan sust yoshlarga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ijtimoiy tarmoq ta’siriga tushib qolgan yoshlarga ota-onalar, o‘quv muassasalari bilan birgalikda yondoshib aloqa vositalarining asl mohiyatini tushuntirib berishlari lozim. Tarbiyadan tashqaridan bo‘ladigan salbiy ta’sir bu, eng katta xatardir. Chunki farzandga oilada bu boradagi erkinlikka yo‘l qo‘yilmagach, u o‘z qiziqish va rag‘batlarini qondiradigan sabablarni tashqaridan izlay boshlaydi. Demak, ota-ona farzandining tashqi hayotiga ham katta e’tibor qaratishi talab etiladi. Ya’ni, ular farzandi maktab yoki kollejdin keyin qayerga borishi, nima bilan shug‘ullanishini nazorat qilish lozim. Farzandga bilim olish uchun sharoit yaratish ham ota-onaning vazifasidir.

O‘zbek xalqi hech qachon birovga bosh egmagan, hech kimdan kam bo‘lmagan va hech kimdan kam bo‘lmaydi ham. Yoshlarimiz, zaminimizda yashayotgan har bir fuqaro qalbidan shu yurt, shu xalq bilan g‘ururlanish, uning kelajagi, faravonligi yo‘lida qayg‘urish, kuyunchaklik hislari chuqur ildiz otmog‘i lozim. Zero, har qanday millatni, shu xalqni ulug‘lash uchun yashashi kerak. Ana shu tuyg‘uni qalbida jo qilgan, shu g‘oya atrofida birlashgan xalqni hech qanday kuch engolmaydi.



Muqaddas Abdusamatova,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi,
"Saodat" jurnali jurnalisti

YORQIN TUYG'ULAR

Annotatsiya. Maqola memuar shaklida yozilgan bo'lib, muallifning bolaligi, yoshligi, turmushi hamda faoliyatida yetishgan yutuqlari, kechinmalarini o'z ichiga olgan bo'lib, yoshlarni motivatsiyalash xarakteriga ega.

Kalit so'zlar: hayot mazmuni, umr bahosi, qiyinchiliklar, urush yillari, iroda, oila, ish faoliyati, ijod, mehnat, jamoat ishlari faoli, nuroniy keksalar, yurt ravnaqi

Аннотация. Статья написана в форме мемуаров, содержит достижения и опыт детства, юности, жизни и творчества автора, носит характер мотивации молодежи.

Ключевые слова: смысл жизни, ценность жизни, трудности, военные годы, воля, семья, трудовая деятельность, творчество, труд, общественный деятель, просвещенные старики, национальное развитие.

Annotation. The article is written in the form of memoirs, contains the achievements and experience of childhood, youth, life and work of the author, has the character of motivating youth.

Keywords: meaning of life, value of life, difficulties, war years, will, family, labor activity, creativity, labor, public figure, enlightened old people, national development.

Hayot, umr... Purma'no so'zlar. Har ikkisi bebaho, benazir asl ne'mat. Lekin hayotning ham, umrning ham o'ziga xos va o'ziga mos zalvori bor. Bu birovga engil, birovga esa og'ir. Gohida zavqli, gohida qayg'uli, gohida jo'shqin, gohida sokin. Aslida esa hayot shirin. Tiriklik ya'ni odam bo'lib dunyoga kelmoq, bu katta baxt, omad desa bo'ladi. Lekin uning hayot deb atalmish ne'matdan baxra olishi, ulg'ayishi unib-o'sishi, o'z o'rnini topishi esa- bu ikkinchi olam. Buning uchun inson izlanishi, intilishi, mehnat qilishi zarur. Bolalikda ota-ona bag'rida ulg'ayib, ularning o'git-maslahatlariga quloq tutib ko'pchilik hayot yo'lining xaritasini chizib oladi. O'qiydi, o'qiydi, intiladi, izlanadi, mehnat qiladi. Ushbu yo'l to'g'ri, ravon emas, yiqiladi, qoqiladi, goho to'xtab ham qoladi. Iroda yordamga kelib, yana va yana oldinga intiladi, maqsad sari harakat qiladi.

Bolaligimda, Taxtapulda yoshligim juda go'zal manzaralar oralig'ida o'tdi. Kanal qazilishi, sharshara qurilishi, bog'-ichidagi atirgullar, suv bo'yidagi majnuntollaru jiydazorlar eh-xe qay birini aytasiz.



Ayniqsa turli xil rangdagi atirgullarning ifori, dilni yayratardi, jiyda gullaganda esa bog' qo'ynida oshiq-ma'shuqlar sayr qilishardi. Lekin mahallamizda biron kimsa qaytib kelsa (g'alabad so'ng vaqt o'tganda ham) onam rahmatli yana qayg'uga ko'milib yig'lardilar. Onamning yig'lashini ko'rib ezilib ketardim.

Duxobaga o'rab qo'yilgan “qora xat”ni otam bilan onam ko'tarib, eh-he qancha yurishmadi. Ayniqsa mahallamizdagi katta harbiy Omon aka ancha sarson qilgani esimda, huddi aniqlab, akamni topib beradigandek. Axiyri hujjatlar muhimi “qora xat”ning bir qismi o'sha odam qo'lida “yo'q” bo'ldi, onam esa akam tishlab ketgan non va do'ppilarini umrlarining oxirigacha saqladilar. Otam o'qituvchi va mahalla raisi, onam faol jamoatchi bo'lganlar, katta-kichik ularni hurmat qilishardi. Shu bois biz farzandlar ham yaxshi o'qishimiz kerak edi. Bu borada bizlarga nazorat kuchli bo'lgan.

Oilada o'ziga yarasha moddiy qiyinchiliklar ham yo'q emasdi. Ayniqsa urush tugagan yillar “zaborny”ni ko'tarib kechasi nonga navbatda turishlikni hech birimiz yoqtirmasdik. Lekin navbatma-navbat chiqishni odat qilib olganmiz. 50-70-yillarda Taxtapul chindan ham go'zallashib ketdi. Katta er maydonlari odamlarga uchastkaga bo'lib berildi. Qator uchastkalar, ravon ko'chalar paydo bo'ldi. Ammo bog'dagi tarovat, suv bo'yidagi majnuntollari, gullar ifori yo'qola boshladi. O'sha go'zallik, o'sha latofat, o'sha manzara, bolalik-yoshlik qalbmida hamon saqlanib qolgan. O'sha zavq va o'sha go'zallik tufayli yozuvchilar uyushmasiga ishga kirdim, she'r mashq qildim. TashDUga kechki bo'limga o'qishga kirdim, kunduzi Shuxratning “Shinelli yillar”, O.Yoqubovning “Muqaddas”, Hamid G'ulomning “Toshbolta oshiq”, Mirtemirning “Manas” ning qirg'izga to'g'ridan-to'g'ri (diktovka) tarjimalarini mashinkada ko'chirib, adabiyotga ixlosim kuchaydi. Uyushmada G'afur G'ulom, Oybek, Komil Yashin, Uyg'un, Shuxrat, Asqad Muxtor, Shayxzoda va yana o'nlab alloma ijodkorlarni ko'rib ular suhbatlaridan bahramand bo'lish menga qanot baxsh etdi. Ayniqsa Muzayyana opa, Saida opa, Zulfiya opa men o'tiradigan mo'jaz xonada bir piyola choy ustida suhbatlashib qolishsa mendan baxtiyor odam yo'q edi. Shu suhbat, shu davralar o'z navbatida meni hayotga tayyorladi, umrni mazmunli o'tkazishga dav'at etdi. Halollik, poklikka yurtni sevishta, vatanparvarlikka o'rgatdi. Keyinchalik “Yosh leninchi” gazetasiga o'tganimda Abdulazal Vahobov, Muhammadjon Qo'shoqov, Muxtor Ahmedov, Rustam Shog'ulomov kabi qalbi keng, mehribon, muruvvatli ustozlarga duch keldim.

Hayot meni siyladi, erkaladi, oila qurdim, farzandlarim birin-ketin voyaga etishdi. O'qib, o'rganib, hayotda yo'llarni topishdi. Ular ham bolalikdan hayot xaritasini chizib, intilib yashashmoqda. Gazetada adabiyot va san'at bo'limini boshqarar



ekanman o‘sha bolalikdagi go‘zallik nashidasi, alloma ijodkorlardan olgan o‘gitlar, ulardan ko‘rgan mehr va muruvvatlar, aniqsa Xolbek Yodgorov, Ma‘ruf Nazarov, Laziz Qayumov, Farida Usmonova kabi jurnalistlardan olgan ibratlarim, To‘g‘on Ernazarov, Anvar Shomaqsudov, Saydi Umarovlardan olgan saboqlarim menga hamqadam bo‘ldi. Hayot yo‘limning chirog‘i bo‘ldi. Shundanmikan odamlar orasida ko‘p bo‘ldim. Mehnat safarlarida yurib yoshlar hayotlarini o‘rgandim. Tahririyatga kelgan arznomalarni tekshirishga borib o‘nlab joylarda hal qilib qaytdim. Marg‘ilonda rus qizni ishdan sababsiz xaydashganda joyga borib o‘rganib qayta ishga joylashtirib qaytgandim. U erdagi qadamjo haqida 1968-yili “Muqaddas kabutarlar” sarlavhali ocherk yozgandim. Xorazmlik to‘rt nafar maktab bitiruvchisini ota-onasi turmushga bermoqchi bo‘lishganda, yozgan shikoyatlariga asosan borib o‘rganib to‘rttalasini Xiva tibbiyot texnikumiga joylashtirib qaytganim esimda. “Bulbulcha” ansambili tarixi ham faoliyatimdan o‘rin olgan. Yosh oilalarni, qo‘ni-qo‘shnilarni yarashtirish borasida ham tahririyat topshirig‘iga binoan ko‘p ishlar qilingan. Ehtimol shu savobli ishlar evaziga hayot meni siyladi. Yana qo‘limda birga xizmat qilgan Amirqul Karim, Umida Abduazimova, Qo‘chqor Norqobil, Sirojiddin Raupov va yana qancha yoshlarga ma‘lum darajada ish o‘rgatdim. Bu ham savob desa bo‘lgulik, hullas hayotim kitobini varaqlasam yorqin sahifalar bisyor.

1985-yili “O‘zbekistonda xizma ko‘rsatgan madaniyat xodimi” unvoniga sazovor bo‘ldim. O‘shanda erta tongda maktabimiz direktor Xakimjon Xoshimovning birinchi bo‘lib tabriklagani unvonni qadrini yana yuz bor oshirgandi nazarimda.

Shukrki o‘g‘il-qizlarni uylantirish, uzatish pallasiga ham etib keldik. Quda andalikning ham o‘ziga yarasha gashti, zavqi va mas‘uliyati bor. Ota-ona uchun esa farzand baxtini ko‘rishdek yuksak mukofot yo‘q. Afsus uni oldindan belgilab bo‘lmaydi. Buni hayot deydilar. Adashadi, qoqiladi. Bunday paytda ota-ona ayniqsa, onalar iztirob chekadi. Farzandning yo‘lini topib ketishi aniq, shunday bo‘lsa-da onalar yostig‘i xo‘l bo‘ladi, halovati yo‘qoladi. Nafaqat halovat sog‘ligini yo‘qatayotgani ko‘ziga ko‘rinmaydi. Axir u ona-da!

Yana shu narsa quvonarliki buning hammasini yaratgan egam ko‘rib turadi. Har bir qadamingiz, sabr-bardoshingiz, oqqan ko‘z yoshingiz uchun mukofotlaydi.

Shukrki ana shu mukofot tufayli baxtiyor, farovon yashayapmiz. Nabiralar qatorga kirishdi. Abiralar safi kengaymoqda, ijod olamida ozmi-ko‘pmi kitoblar chiqardim. Bolalikdan qalbim tubida turgan niyat bor edi. Katta G‘afur akam dutor chalib qo‘shiq aytganlarida, ayniqsa “ushshoq”ni nazarimda bog‘imizdagi olcha, gilosu, shaftoli o‘riklar ham shoxlarini egib tinglagandek bo‘lardi. Ko‘cha eshikdan Zamira buvi, Xumayro opoqi, Qumri opa, Mahbuba kennoyilar kirib kelib, tinglashari. Afsus, akam



juda erta qirq yoshda vafot etdilar. Ulardan dutor chalishni o‘rganib ulgurmadim. Shu niyat qalbim tubiga cho‘kkan edi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning besh tashabbuslari niyatimni amalga oshirishga sabab bo‘ldi. Asli qo‘shiq aytish jonu dilim, keyingi ikki-uch yil ichida dutor chalishni ham o‘rgandim. Dastlab notalarni o‘rganib, so‘ng mashhur sozanda Ilyos Lutfullaevdan saboq oldim. Besh tashabbusning uchtasini bajarish qo‘limdan kelayotganidan baxtiyorman. She’rlarim matbuotda ko‘rinib turibdi, kitoblarim chiqyapti, sportga oshnoman. Piyoda yuraman. Sog‘lik uchun foydali. Dutor chalib qo‘shiq, aytaman, texnologiyani to‘la egallash borasidaharakat qilayapman.

Besh tashabbusni yoshlar orasida targ‘ib qqilish nuroniy onaxon va otaxonlarga tushuntirish ishlarida birmuncha faol bo‘lganimdan suyunaman, jumladan Bo‘ka tumanida o‘tkazilgan qator tadbirlarda qatnashib xalqimiz hayotdan roziligidan quvondim. Prezidentimiz olib borayotgan ishlar yotti yoshdan etmish yoshgacha odamlarga zavq-shavq ulashayotganidan ko‘ngil ravshan tortadi. Buni Navoiy, Sirdaryo viloyatlariga mehnat safari chog‘ida shohidi bo‘ldim. Shaxarda 40, 110, 38 va boshqa qator maktablarda, Toshkent texnologiya institutida va boshq ko‘pgina joylarda o‘tkazilgan tadbirlardan ham olam-olam zavq oldim.

O‘tgan yili hayotimda yana katta voqea yuz berdi. 1-darajali mehnat faxriysi ko‘krak nishoni sohibasi bo‘ldim. Hukumatimiz tomonidan berilgan bu yuksak mukofot yana qanot bag‘ishladi. Ko‘nglim yayradi, tilim sayradi! Axir bunday dorilamon zamonlarga shukur qilmay bo‘ladimi?! Shukr Olloh o‘zingga shukr. Nabira kelinlaru, nabira kuyovlar ko‘rdim. Ko‘rsatganingga shukr. Bundan buyon ham nevara, evaralar davrasida keksalik gashtini surish bilan birga, ijod mehnat qilib, jamoat ishlarida faol bo‘lib yashash niyatidaman.

Ko‘rsatilgan g‘amxo‘rliklarga javoban biz nuroniy keksalar ham el-yurt ravnaqi yo‘lida, yoshlarni munosib tarbiyalashda faollikni qo‘ldan boy bermaylik. Shukrona qilib yashaylik. Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo.

*Umr berding Alloh, yashab yuribman,
Toshlar orasidan durlar terib man,
Barchani o‘zimdek yaxshi ko‘ribman,
Shukur deyman Alloh, o‘zingga shukur.*

*Aqlimni taniboq men baxt izladim,
Hayotda juda ko‘p maqsad ko‘zladim,
Har qadam, har onda shirin so‘zladim,
Shukur deyman Alloh, o‘zingga shukur.*



*Nabiralar bo‘ldi umringa bezak
Besamar o‘tmabdi hayotim demak.
Abiralar ko‘rish bu omad desak,
Shukur deyman Alloh, o‘zingga shukur.*

*Yurtim yuksalmoqda zamona ko‘rkam,
Dunyoga tanildi ko‘hna yosh o‘lkam,
Porloq kelajakka, qadamlar shahdam,
Shukur deyman Alloh, o‘zingga shukur.*

*Bu dunyo aylanar misli charhpalak
Vaqtini to‘xtatolmay jonimiz halak,
Abiralar to‘yin ko‘rmoqlik tilak,
Shukur deyman Alloh, o‘zingga shukur.*

*Inshooloh tilagim bo‘lgay ijobat,
Egam o‘zing bersang bunga ijozat,
Yurgayman bu yo‘lda qilib ibodat
Shukur deyman Alloh, o‘zingga shukur.*



Mahmudxodjayeva Umida Muminovna,
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi
Fuqaroviy-huquqiy fanlar kafedrasida katta o‘qituvchisi,
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

VOYAGA YETGAN BOLALARNING O‘Z OTA-ONALARIGA NISBATAN MAJBURIYATLARINI AMALGA OSHIRISHNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MASALALARI

Annotatsiya. Maqolada oila qonunchiligiga ko‘ra voyaga etgan bolalarning ota-onalari oldidagi majburiyatlari, uning ahamiyati va bugungi kundagi ahvoli ilmiy-nazariy jihatdan tahlil etilib, taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tayanch tushunchalar: ota-ona, bola, shaxsiy-nomulkiy huquq, majburiyat, g‘amxo‘rlik.

Аннотация. В статье научно-теоретически анализируются обязанности совершеннолетних детей перед родителями по семейному законодательству, его значение и современное состояние, разработаны предложения и рекомендаций.

Ключевые слова: родители, ребенок, личное-имущественное право, обязательство, забота.

Annotation. The article scientifically and theoretically analyzes the obligations of adult children to their parents under family law, its significance and current state, proposals and recommendations are developed.

Key words: parents, child, personal property right, obligation, care.

Bolalarning o‘z ota-onalari oldidagi majburiyatlarini bajarish deganda ulaga g‘amxo‘rlik qilish moddiy va ma‘naviy ehtiyojlarini qondirish tushuniladi. Farzandlarning bu burchi shaxsiy majburiyat bo‘lib, boshqa shaxslarga o‘tishi mumkin emas va bolalar ota-onalarini o‘zlari moddiy va ma‘naviy parvorish qilish kerakligini anglatadi. Bu xususida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 66-moddasi voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzandlar o‘z ota-onalari haqida g‘amxo‘rlik qilishga majburlirlar⁴⁹ deb belgilab beradi.

Shu o‘rinda aytish joizki, O‘zbek tilining ixohli lug‘atida “g‘amxo‘rlik” so‘zi arabcha so‘zdan olingan bo‘lib qayg‘uga sheriklik qilish, hamdardlik bildirish, kimsa uchun qayg‘urish⁵⁰ degan ma‘nolarni anglatadi.

⁴⁹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Тошкент: Адолат. 2022. – Б.25.

⁵⁰ Ўзбек тилининг изохли луғати. Ўзбекистон Республикаси фанлар Академияси. Алишер навоий номидаги тил ва адабиёт институти. –Тошкент, 2021. – Б.437.



Bu konstitutsion norma voyaga etgan, ya'ni mehnatga layoqatli bolalar mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj ota-onalar o'z ota-onasiga ta'minot berishlari va ular to'g'risida g'amxo'rlik qilishlari shartligi oila qonunchiligimizga o'tkazish orqali oilaviy-huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy termin sifatida kirib keldi. Biroq “g'amxo'rlik” so'zi ota-onaning shaxsiy-nomulkiy huquqlarini o'zida to'la aks ettira olmasligi, shu bilan birga huquqiy hujjatda mustahkamlangan tushunchalarning bunday noaniqligi, kerakli xatti-harakatning aniqlanmasligi ularni sharhlash huquqini keltirib chiqaradi.

Shu boisdan oila qonunchiligida garchi ota-onalarning bolalarga nisbatan ta'lim-tarbiya berishga oid huquq va majburiyatlari ko'zda tutilgan bo'lsada biroq, voyaga etgan farzandlarning o'z ota-onalari oldidagi shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlari haqida normalar mavjud emasligini ko'rishimiz mumkin. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi 2008-yil 7-yanvardagi “Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida”gi O'RQ-139-son Qonunida ham bolalarga nisbatan biror o'rinda majburiyat yuklatilmaganligini aytish mumkin.

Agarki oilada bolalarga nisbatan faqatgina huquqlarni belgilab bersak, kelajakda ular o'z huquqlarinigina talab qila oldaigan shaxsga aylanishi, zimmasidagi burch va majburiyatlarni bajarmaslik holatlariga duch kelishimiz mumkin albatta.

Bu xususida X.B.Abduraxmonova bolalarning majburiyatini tahlil qilish asnosida shuni ta'kidlaydi: Ota-ona va bolalar o'rtasidagi munosabatlar nafaqat huquqiy, balki diniy axloqiy me'yorlar bilan ham tartibga solinadi. Bolaning shu ota-onadan tug'ilganlik fakti, o'z navbatida, ular o'rtasidagi huquq va majburiyatlarni vujudga keltiradi. Ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarda bolalarning huquqi ota-onalarning majburiyatini belgilasa, va aksincha, bolalarning majburiyati ota-onaning huquqini belgilab beradi⁵¹. Albatta muallifning fikrini qo'llab quvvatlagan holda, ota-onalarning shaxsiy nomulkiy huquqlarining doirasini aniqlash ularni huquqiy tartibga solish zarur hisoblanadi.

Bu haqda N.F.Imomov ham shaxsiy nomulkiy munosabatlarga nisbatan huquqiy ta'sir mexanizmi masalasi bo'yicha doktrinal masala qayta ko'rib chiqilishi lozimligini ta'kidlaydi⁵². N.F.Imomovning fikrini qo'llab-quvvatlagan holda, globallashtirish jarayonida vujudga kelayotgan yangi shaxsiy nomulkiy huquqlar tizimi konsepsiyasi va ularni himoyalash bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni belgilash maqsadga muvofiqdir.

Oila qonunchiligimizga ko'ra voyaga etgan, mehnatga layoqatli bolalar mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj ota-onalar o'z ota-onasiga ta'minot berishlari va ular

⁵¹ Абдурахмонова Х.Б. Халқаро хусусий ҳуқуқда ота-она ва фарзандлар ўртасидаги муносабатларни тартибга солиниши: ю.ф.д. ... дисс. – Тошкент, 2021. – Б.30.

⁵² О.Оқюлов, Ш.Н.Рўзиназаров, Н.Ф.Имамов, Ж.И.Бабаев. Фуқаролик қонунчилигининг ривожланиши ва такомиллаштириш истиқболлари (ахборот-таҳлилий материал). – Тошкент: ТДЮУ, 2016 й, 66-бет.



to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilishlari shart⁵³ ekanligi majburiyat sifatida belgilab beriladi. Mazkur normadan ko‘rinib turibdiki ota-onalarning boqish huquqi ikkita majburiy shart bilan bog‘liq: 1) ota-onalar nogironlik, pensiya yoshi yoki kasallik (yoki boshqa sabablar) tufayli mehnatga layoqatsizligi; 2) ota-onaning olgan daromadi yoki mol-mulki yashash uchun yetarli emasligi.

Milliy qonunchiligimizga muvofiq ota-onasining davlat va nodavlat muassasalari qaramig‘ida ekanligi voyaga etgan mehnatga layoqatli bolalarni ota-ona haqida g‘amxo‘rlik qilish va ularga moddiy yordam ko‘satish majburiyatidan ozod qilmaydi. Shu o‘rinda haqli savol tug‘iladi. Qonun chiqaruvchi voyaga etmagan bolaning yashash joyi o‘z ota-onasi, farzandlikka oluvchilari yoki vasiylikda bo‘lgan fuqarolarning joyi sifatida belgilab beradi-ku, biroq, nima uchun ota-onaning voyaga etgan o‘z bolalari bilan birga yashash huquqini, bolalarga nisbatan majburiyat sifatida yuklab bermagan? Bu albatta ham ahloqiy ham diniy qarashlarga hamda milliy urf-odat va qadriyatlarimizda o‘z aksini topganligini alohida aytish mumkin. Mehnatga layoqatsiz, yordamga muhtoj ota-onalarning moddiy ta‘minoti bilan birga shaxsiy nomulkiy huquqlarini (o‘z bolalari bilan birga yashash, ularni g‘amxo‘rliklariga doimiy ega bo‘lish, ma‘naviy, ruhiy va jismoniy ko‘mak olish, insoniy qadr qimmat va hurmat ehtiromda bo‘lish, faravon muxitda yashash) ham kafolatlab berilishi milliy qonunchiligimizdagi dolzarb masalalardan biridir.

Chunki, sir emaski voyaga etgan farzandlari mavjud bo‘lib “Sahovat” uylarida yashayotgan keksalar jamiyatimizda uchrab turadi. Shu boisdan, har qanday majburiyatlarni bajarish uchun sanksiyalarni (oqibatlarini) belgilash kerak, chunki faqat shu tarzda jamoat farovonligi saqlanadi va ta‘minlanadi. Shaxs o‘z harakatsizligi yoki qonunga xilof xatti-harakatlari oqibatlarini anglamaguncha, javobgarlik tuyg‘usiga ega bo‘lmaydi⁵⁴. Albatta muallifning bu qarashlarida ota-onalarning shaxsiy nomulkiy huquqlarini himoya qilishga qaratilgan g‘oyalar mujassam bo‘lib, qo‘shimcha sifatida aytish joizki voyaga etgan bolalarning o‘z ota-onalariga nisbatan o‘zaro mas‘uliyati va birdamligini anglashi eng asosiy zarurat bo‘lib hisoblanadi.

Shelly Kaganning tahliliga ko‘ra voyaga etgan bolalarning ota-onalari oldidagi majburiyatlarining uzoq muddatli g‘amxo‘rlik talablarini belgilaydigan uchta harakat tamoyilini ko‘rib chiqadi; ular minimal prinsip, mo‘tadil prinsip va ekstremal prinsipdir⁵⁵. Bu albatta g‘arb nuqtayi nazaridan yondashilganligini inobatga olib,

⁵³ Ўзбекистон Республикаси Оила кодекси. Адолат. – Тошкент, 2022. – Б.47.

⁵⁴ Perkumienė, Dalia. Legal regulation problems of children’s obligations to maintain their parents: Case of Lithuania. ISSN 2708-0404 (Online), ISSN 2708-0390 (Print). Humanities Studies. 2020. Випуск 6 (83)

⁵⁵ Shelley Kagan, The Limits of Morality (Oxford: Oxford University Press, 1989).



bolalarning o'z ota-onalariga nisbatan majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni tartibga solishni taqazo etadi.

Bolalarning ota-onalarini boqish majburiyati xorijiy qonunlarda ham umum e'tirof etilgan⁵⁶. masalan, Germaniya (Germaniya Fuqarolik Kodeksining 161-moddasi) va Fransiya (Fransiya Fuqarolik Kodeksining 205-moddasi)⁵⁷. Latviya qonunchiligi to'g'ridan-to'g'ri qarindoshlarni g'amxo'rlik bo'yicha umumiy majburiyatni o'z ichiga oladi⁵⁸, Estoniyada, bolalar, agar ular yordamga muhtoj bo'lsa, nafaqat ota-onalarni, balki bobo va buvilarini ham qo'llab-quvvatlashlari shart. Kanadaning Oila huquqi to'g'risidagi qonunining 32 moddasiga ko'ra, voyaga etgan bolalar, ota-onalarini moddiy qo'llab quvvatlari kerak. Biroq, ikkita shart mavjud - ota-ona bolaga g'amxo'rlik qilgan yoki uni qo'llab-quvvatlagan bo'lishi kerak va qo'llab-quvvatlash faqat bola taqdim eta oladigan darajada cheklangan. Bu Oila qonunining kamdan-kam muhokama qilinadigan qismidir⁵⁹. AQShning amaldagi qonunchiligiga ko'ra, hatto voyaga etmagan bola ham muayyan sharoitlarda ota-onasini boqishi shart⁶⁰.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, eng avvalo, oila a'zolarining o'zaro huquq va majburiyatlari mutanosibligi oila a'zolarining o'zaro mas'uliyati va birdamligini anglashi bilan mustahkamlanadi. Ota-onalar va ularning farzandlari o'rtasidagi munosabatlarning mavjudligi yoki yo'qligini aniqlashning muhim omili - bu shaxslar o'rtasidagi yaqinlik darajasi. Shuni ta'kidlash kerakki, ota-onalari voyaga etgunga qadar yoki undan ko'proq vaqt davomida moddiy yordam ko'rsatgan bolalar ota-onalariga zarur yordamni ko'rsatishlari kerak. Biroq, bolalar ota-onalariga g'amxo'rlik qilishlari kerakligi haqidagi qoida qonundan ko'ra ko'proq axloqiy deb qaralishi aniq. Biroq, katta yoshdagi bolalar uchun bu mas'uliyatni ta'minlashga davlat organlari tomonidan hozirgi kunga qaraganda ko'proq e'tibor berilishi lozim. Shu boisdan oila qonunchiligimizga bolalarning ota-onalari oldidagi shaxsiy nomulkiy huquq va majburiyatlari doirasini aniqlash va ularni belgilab berish qonunchilik nazariyasining oldidagi dolzarb vazifalar bo'lib qolaveradi.

⁵⁶ Ambrazevičiūtė, K., 2012. Property Support for Older People in Need of Maintenance: A Civil Law Perspective", Legal Problems, No. 1 (75) 101.

⁵⁷ Article 205 of the French Civil Code. Retrieved 18 December, 2020. <https://www.legifrance.gouv.fr/affichCode.do?cidTexte=LEGITEXT000006070721&dateTexte=20170501>

⁵⁸ Maintenance claims - Latvia. Retrieved 18 December, 2020: https://e-justice.europa.eu/content_maintenance_claims-47-lv-lt.do?member=1#toc_1.

⁵⁹ Marcovitch, I, 2019, What responsibilities do parents and adult children have towards each other? Retrieved 18 December, 2020: <https://nelliganlaw.ca/blog/family-law/what-responsibilities-do-parents-and-adult-children-have-towards-each-other/>.

⁶⁰ Maintenance - Parents, Children and Grandparents, Is there a duty on children to support their parents? 2016 <https://www.divorcelaws.co.za/family-law-blog/maintenance-parents-children-and-grandparents> [aplankyta 2021 03 25].



Husniddin Norqulov,
*“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot
instituti katta ilmiy xodimi,
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.*

OILAVIY QADRIYATLARNI SINGDIRISHDA KEKSA AVLOD VAKILLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada - qadriyatlar xalqimizning bebaho boyligi sifatida madaniy-ma’rifiy hodisalar, urf-odatlar, an’analari zahirida inson qadr-qimmatini oshishiga xizmat qilishi, yoshi ulug‘ otaxonlarning shukronalik, el-yurtga tinchlik-omonlik, elga to‘kin-sochinlik tilab qilinayotgan duolari, hayotning ne-ne sir-sinoatlari-yu kutilgan-kutilmagan qiyinchiliklariga dosh berib, yorug‘ kunlarga ishonchlarini susaytirmay yashagan bunday insonlarning ibratli umr yo‘li nafaqat ularning o‘g‘il-qizlariga, balki bugun katta hayot ostonasiga qadam qo‘yayotgan barcha yoshlarga saboq bo‘lishi, eng asosiysi oilaviy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirishda keksa nuronilarning o‘rni beqiyos ekanligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: oilaviy qadriyatlar, keksalar, nuroniy buvi-buvalar, ota-onalar, farzand tarbiyasi, oila mustahkamligi, mehnatsevarlik, sadoqat, samimiyat, ishonch, vatanni sevmqlik, adolat, poklik, to‘g‘rilik, “Keksalar maslahati” guruhi.

Аннотация. В данной статье ценности служат повышению достоинства человека в основе культурно-просветительских мероприятий, обычаев и традиций как бесценного богатства нашего народа, молитвы престарелых отцов о благодарности, мира и благополучия для страны, благополучие для народа, смысл жизни. Образцовая жизнь таких людей, выдержавших свои тайны и неожиданные трудности и проживших не ослабляя веры в светлые дни, должна быть уроком не только их сыновьям и дочерям, но и всем молодым людям, ступившим сегодня на порог большой жизни, поясняется, что место бесценное.

Ключевые слова: семейные ценности, пожилые люди, просвещенные бабушки и дедушки, родители, воспитание детей, крепость семьи, трудолюбие, верность, искренность, доверие, любовь к родине, справедливость, чистота, корректность, группа «Советы пожилым».

Annotation. In this article, values serve to increase the dignity of a person at the heart of cultural and educational events, customs, and traditions as the priceless wealth of our people, the prayers of the elderly fathers for gratitude, peace and prosperity for the country, prosperity for the people, the meaning of life. The exemplary life of such people, who endured their secrets and unexpected difficulties and lived without weakening their faith in bright days, should be a lesson not only to their sons and daughters, but also to all young people who are stepping on the threshold of a big life today. It is explained that the place is incomparable.

Key words: family values, the elderly, enlightened grandparents, parents, child upbringing, family strength, hard work, loyalty, sincerity, trust, love of the country, justice, purity, correctness, “Advice to the Elderly” group.



Keksalarimiz xonadonlarimiz ko‘rki, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan qadriyatlarimiz, an‘analarimiz, bebaho merosimizning donishmand egalaridir.

Qaysi xonadonda nuroniy otaxon yoki onaxon bo‘lsa, bu oilada albatta fayzu baraka, farovonlik, ahillik bo‘ladi.

Oila murg‘ak vujud qalbida eng pokiza tuyg‘ularni shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyoga kelgan farzand aynan oila bag‘rida bir qator dastlabki hayotiy ko‘nikmalarni egallaydi. Darhaqiqat, qadimdan milliy urf-odat va an‘analarimizni yosh avlod ongiga singdirishda, ularni jismonan barkamol, ma‘nan etuk, mehr-oqibatli, saxovatpesha, o‘zgalar dardini his qila oluvchi, yiqilganga tirgak bo‘la oladigan insonlar qilib tarbiyalashda sog‘lom oila muhiti asosiy o‘rin egallaydi.

Qadriyatlar xalqimizning bebaho boyligi sifatida madaniy-ma‘rifiy hodisalar, urf-odatlar, an‘analari zamirida inson qadr-qimmatini oshishiga xizmat qiladi. Oilada bolaga salomlashishdan tortib to‘g‘ri oqatlanish, kiyinish, kattalar va tengdoshlar bilan o‘zaro muloqot, jamoatchilik ichida o‘zini tutish singari ma‘naviy-ma‘rifiy, yurish-turish bilan bog‘liq qadriyatlar singdirib boriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniyatlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida: **“Oilaning tarbiyaviy-ta’lim salohiyatini mustahkamlash, jamiyatda oilaviy qadriyatlarni saqlash, oilalarda ma‘naviy-axloqiy muhitni yaxshilash va ularning farovonlik darajasini oshirish”** [1] masalalari keng vazifa qilib qo‘yilgan bo‘lib, hozirda bu borada institutda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilayotganligini e‘tirof etish mumkin.

Bola o‘zini anglash sari qadam qo‘yganidan tevarak-atrofni, yaqinlarini, unga g‘amxo‘rlik qilayotgan ota-onalarini tanishni va ularning xatti-harakatlariga taqlid qilish va o‘zlashtirishni boshlaydi. O‘zbek oilalariga xos bo‘lgan mehnatsevarlik, sadoqat, samimiyat, ishonch, vatanni sevmoklik, adolat, poklik, to‘g‘rilik singari fazilatlar shaxsiy namuna sifatida ota-onadan farzandga bevosita singdiriladi. Urf-odat va an‘analarimiz, madaniyatimizdan bahramand bo‘lgan o‘g‘il-qizlarimizning hayot tarziga yoshliklaridan ota-onalariga ko‘mak berish, so‘ngra o‘z oilalari uchun qayg‘urish hissi singib boradi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 1990-yil 14-dekabrdagi A/RES/45/106-son rezolyusiyasi bilan e‘lon qilingan 1 oktabr – “Xalqaro keksalar kuni”ni O‘zbekiston Respublikasida ham har yili ushbu sanada keng nishonlash maqsadida oktabr oyining birinchi haftasini “Keksalar haftaligi” etib belgilangan.



4–10-oktabr kunlari bo‘lib o‘tadigan haftalik doirasida nuroniylarning holidan xabar olish, ularni manaviy va jismoniy qo‘llab-kuvvatlash, hurmat-ehtirom ko‘rsatish va e‘zozlash bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Ushbu haftalikni “mahallabay” o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish va yuqori saviyada tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan holda amalga oshirilishini ta‘minlashga e‘tibor qaratiladi.

Haftalik doirasida har bir mahallada nuroniylar, shu jumladan, yakka-yolg‘iz keksalarni jalb etgan holda ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar, shu jumladan, **“Saxovat”** va **“Muruvvat”** internat uylarida istiqomat qilayotgan keksalar uchun madaniy tadbirlar, tanlovlar, sport musobaqalari va xayriya tadbirlari o‘tkaziladi.

Bu kabi ijtimoiy-ma‘rifiy loyihalar yoshi ulug‘ insonlar mamlakatimizda doimo e‘tibor va e‘zozda ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Yoshi ulug‘ otaxonlar bilan suhbatlashar ekansiz, ular tilidan tushmayotgan shukronalik, el-yurtga tinchlik-omonlik, elga to‘kin-sochinlik tilab qilinayotgan duolardan ko‘ngilda yorug‘ tuyg‘ular uyg‘onadi. Hayotning ne-ne sir-sinoatlari-yu kutilgan-kutilmagan qiyinchiliklariga dosh berib, yorug‘ kunlarga ishonchlarini susaytirmay yashagan bunday insonlarning ibratli umr yo‘li nafaqat ularning o‘g‘il-qizlariga, balki bugun katta hayot ostonasiga qadam qo‘yayotgan barcha yoshlarga saboq bo‘lishga arziydi.

Xalqimizda **“Qarisi bor uyning parisi bor”**, **“Qari bilganni pari bilmas”** degan maqollar bor. Ular zamiridagi ma‘no shuki, keksalik umr daraxtining har jihatdan voyaga etgan, hosili pishib etilgan, birgina soyasining o‘zi ming dardga davo, har bir so‘zi ming ma‘noga ega faslidir. Keksalari bor uyda qut-baraka, tinchlik-totuvlik, ahil-inoqlik bo‘lishi ham shundan. Umrini halol mehnat bilan o‘tkazgan, solih farzandlar tarbiyalab etishtirgan, o‘zidan ibratli amallar qoldirayotgan bunday insonlar bilan muloqot qilishning o‘zi katta baxt.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-sentabrdagi **“Keksa avlod vakillarining jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy faolligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi 816-son Qarorida [2] keksa avlod vakillarini ijtimoiy himoya qilish, ularga e‘tibor va g‘amxo‘rlikni kuchaytirish, ularning turmush sharoitini yaxshilash, faol va mazmunli hayot kechirishlarini ta‘minlash, boy hayotiy tajribasidan keng foydalanish maqsadida qator vazifalar belgilangan.

O‘zbek oilalarida istiqomat qilayotgan keksa avlod vakillariga ko‘rsatilayotgan ehtirom zamirida piru badavlat onaxonlari-otaxonlarimizni e‘zozlash, ularning o‘gitlari, pand-nasihatlariga amal qilish, keksaygan chog‘larida tayanch bo‘la olish singari qadriyatlar mavjud. Dasturxon atrofidagi yig‘inlarda keksa avlod vakillari xalqimizning nodir ijod namunalari maqol, matallar, rivoyatlaru hikmatlar orqali turli



xil maishiy masalalar va muammolarga echimlar ko'rsatiladi. Keksaygan ota-onalarga kiyim yoki pul emas, balki oila a'zolarining shirin so'zi va tasallisi, ruhiy daldasidan, e'tiboridan ortiqroq narsaning o'zi yo'q.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmonida: **“Nuroniy va keksalarni mahallalarda oilalarni mustahkamlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrab-avaylash, yoshlarni Vatanga muhabbat, ezgulik va rahmdillik singari an'analarni hurmat qilish ruhida tarbiyalashga jalb etish”** [3] vazifalar ham keng yoritilgan.

Keksalarga ko'rsatilayotgan mehr-oqibat va muruvvat oiladagi uchinchi avlod vakillariga o'z ota-onalarining qarilik gashtini osoyishtalik va baxtiyorlikda o'tkazishlarini ta'minlaydi. Zero har birimiz kamolga etkazgan va mislsiz muhabbat, beminnat non-tuzi bilan siylagan validasiyu padari oldida bir umr qarzdordir.

Tarixiy manbalardan ma'lumki, Amir Temur xonadonida o'rnatilgan tartibga asosan, shahzodalar tarbiyasi ularning onalari zimmasida emas, balki buva-buvilari zimmasida bo'lgan. Bo'lg'usi olim Mirzo Ulug'bekning onasi Gavharshodbegim hayot bo'lsalarda, uning oilaviy tarbiyasi bilan Saroymulkxonim shug'ullanib kelganligi tarixiy manbalarda keltirilgan. Amir Temur o'z navbatida bobo sifatida Mirzo Ulug'bekning harbiy ish, davlatni idora qilish, ilm egallash borasidagi tarbiyasiga alohida e'tibor qaratadi. Natijada Mirzo Ulug'bek ma'rifatparvar davlat arbobi, butun dunyoga mashhur olim, etuk falakiyotshunos bo'lib etishadi.

Bundan ko'rinadiki yoshlar tarbiyasida keksa avlod vakillarining alohida o'rni borligi isbot talab qilmaydigan masala ekanligi hammaga ma'lum.

Keyingi yillarda O'zbekistonda aholi turmush kechirishining yaxshilanishi natijasida keksa avlod vakillarining o'rtacha umr ko'rish yoshi ko'payib, ularning soni muntazam ravishda ortmoqda. Buning natijasida, tug'ilish ko'rsatkichlarining nisbatan balandligiga qaramay, bugungi kunda respublika aholisining **10 foizini** keksa avlod vakillari tashkil qilmoqda.

BMT Departamentining bergan ma'lumoti bo'yicha **2500-yilga** borib butun dunyoda qariyalar safi **580 millionga** yetadi. **2025-yilga** borib dunyoda yoshi **60** va undan katta kishilar miqdori **1 milliarddan** oshishi mumkin, **45** yildan keyin esa er yuzidagi umumiy aholining **13,7 foizini** keksalar tashkil etadi.

Fanda keksalik davri va unga aloqador jihatlar uch bosqichga bo'lib o'rganiladi: **keksayish davri:** erkaklar uchun – 60–74 yosh, ayollar uchun – 55–74 yosh oralig'ida; **nuroniylik davri:** erkaklar va ayollar uchun – 75–90 yosh oralig'i; **umrboqiylik** – 90 yosh va undan ortiq, ya'ni 100 yosh bilan yuzlashuv davri.



Ma'lumotlarga ko'ra, rivojlangan davlatlar (AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya Federativ Respublikasi, Fransiya, Yaponiya va b.) aholisi tarkibining 25 foyizini keksa avlod vakillari tashkil qilib, bu ko'rsatkichlar yil sayin o'sish tendensiyasiga ega bo'lmoqda.

Yoshlar bilan bobo-momolariga munosabati qandayligi xususida suhbat o'tkazilganda, ular oilada keksa avlod vakillarining birgalikda yashashi bir qator oilaviy ziddiyatlarni echimiga asos bo'lishini quyidagi xulosalarda kuzatish mumkin:

1. Oilada keksa avlod vakillarining bo'lishi er va xotin o'rtasida ziddiyatlarning ochiq namoyon bo'lmasligini ta'minlaydi.

2. Oilada ishlab topilgan mablag'ni to'g'ri taqsimlashda keksalar tajribasi, moliyaviy madaniyati yoshlarga har jihatdan o'rnak bo'ladi.

3. Oilada yangi tug'ilgan chaqaloqni sog'lom rivojlantirishda keksalar ishtiroki ijobiy rol o'ynaydi. Tajribasiz kelin qaynonasi yoki onasi oldida o'zini dadil tutadi. Chaqaloqni barcha holatlardagi tarbiyasida momolar maktabi yosh onaga, deylik, nevara kelinga qo'l keladi.

4. Bobo va buvilar o'smirlik davrini boshdan kechirayotgan bola xulqining doimiy nazoratda bo'lishini ta'minlaydi. Ularning dashnom va talablari bolada u qadar norozilik hissini paydo qilmaydi. Ota-ona tanbehi esa negadir bolaning ruhiyatiga tez ta'sir qiladi.

5. Oilaviy qadriyatlarning bardavomligi, halol va harom, isrof va uvol tushunchalarini qaror toptirish ko'pni ko'rgan momo va bobolarning beg'araz yordamlari diqqatga sazovordir. Milliy urf-odat va udumlar, qadriyatlar yoki zamonaga mos tartib-qoidalarning yoshlarga singdirilishida bobo va momolarning boy tajriba katta ahamiyatga egadir.

Yoshlarni oilaviy qadriyatlar asosida tarbiyalashda keksa avlod vakillarining o'ziga xos o'rni yuqori ekanligini quyidagilarda ko'rish mumkin:

– yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ularning ongiga singdirishda keksa avlod vakillarining ijtimoiy faolligini oshirish borasida **“Nuroni”** jamg'armasi tomonidan turli vazirlik va idoralar bilan o'zaro hamkorlik tizimi mustahkam yo'lga qo'yildi;

– **“Inson qadri ulug', xotira muqaddas”, “Mardlik, burch va sadoqat”** shiorlari ostida **“Xotira”** maydonlarida, mahallalarda, ta'lim muassasalari va boshqa tashkilotlarda yoshlarning keksa avlod vakillari bilan uchrashuvlarini muntazam o'tkazish tizimi yo'lga qo'yildi;

– keksa avlod vakillarining targ'ibot-tashviqot ishlari natijasida juda ko'p notinch hamda ajrim yoqasidagi oilalar yarashtirildi, voyaga etmaganlar profilaktik hisobdan



chiqarildi, spirtli ichimlikka ruju qo'yganlar bunday illatdan xalos bo'lishiga erishildi.

Shuningdek, keksa avlod vakillari hamda nogironligi bo'lgan shaxslarga tibbiy-ijtimoiy xizmat ko'rsatish, hayotini sermazmun qilish, jamiyatda egallab turgan fuqaroviy pozitsiyalarini mustahkamlash, uzoq va mazmunli umr kechirish maqsadidagi intilishlarini kuchaytirish, qo'llab-quvvatlash masalalari bugungi kunning dolzarb masalalari hisoblanadi.

So'nggi yillarda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan, keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning samarali tizimini shakllantirish va joriy qilish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirildi.

Xususan, o'zgalar parvarishiga muhtoj yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga bepul taqdim etiladigan asosiy oziq-ovqat va gigiena vositalari soni **15 turdan 19 turga** oshirildi, nogironligi bo'lgan shaxslarga bepul beriladigan protez-ortopediya buyumlari va rehabilitatsiya texnik vositalarining ro'yxati **22 turdan 27 turgacha** ko'paytirildi, sanatoriylarda sog'lomlashtirilgan keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarning soni **43 ming nafarni** tashkil etib, **20 foizga** ortdi.

Davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan nuroniy va keksalarimizga e'tibor butun yil mobaynida qilinadigan ishlarning bosh mezoni, ustuvor, markaziy vazifasiga aylanayotgani butun xalqimizni quvontirmokda. Qarilik gashtini surayotgan keksalarimizni e'zozlash, hurmatini joyiga qo'yish borasida katta ishlarni bajarish lozimdir.

Keksalariga g'amxo'rlik ko'rsatish va e'tiborni kuchaytirish, ularning hayot darajasi va sifatini oshirish uchun qulay tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi taklif va tavsiyalar keltirish mumkin:

- qonunchilik va me'yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, pensiya ta'minoti va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish, yoshi ulug' insonlarga davlat xizmatlari, shu jumladan, turli ma'lumotnoma va tasdiqlovchi hujjatlarni olish xizmatlari ko'rsatishning eng qulay tizimini shakllantirish;

- mamlakatimizning iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy va intellektual salohiyatini oshirish, jamiyatimizda tinchlik, totuvlik va barqarorlik muhitini mustahkamlashga, sog'lom va barkamol unib o'sayotgan avlodni tarbiyalashga beqiyos hissasini qo'shgan keksa avlod vakillariga munosib e'tibor qaratish chora-tadbirlarini kuchaytirish;

- yoshlarni ota-onalarni, har bir nuroniyini chuqur hurmat qilish, e'zozlash va ularga g'amxo'rlik ko'rsatish tuyg'usi ruhida tarbiyalash bo'yicha aniq tadbirlarni amalga oshirish;



- keksalarning hayot faoliyati va dam olishini tashkil etish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, bunda ular uchun tuman va mahallalarda muloqot markazlari, jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishlari uchun sharoit yaratish;
- televidenie, ommaviy axborot vositalari, kinoteatrlar, teatr va boshqa madaniy-ma’rifiy muassasalarda yoshi ulug‘ insonlarning qiziqishlariga mos mavzuda yangi maxsus ko‘rsatuvlar, spektakl va filmlar yaratish va efirga uzatish hajmini ko‘paytirish;
- “Keksalar maslahati” guruhi orqali keksalarning muammolarini manzilli o‘rganish va bartaraf etish, keksa avlod vakillarining boy hayotiy tajribasidan oilalar va mahallalarda keng foydalanishdan iborat.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, xozirgi kunda mamlakatimizda keksalar har bir oilada hayot kechirmoqda. Yuqorida keltirilgan qonun va qarorlar esa mamlakatimizda keksalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish va ularning hayot farovonligini ta’minlashga qaratilgan. Zotan, bu aziz Vatanda inson qadri va sha’ni har narsadan ulug‘dir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-sonli Farmoni. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 02.03.2022 y., 06/22/81/0174-son).*
2. *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 27-sentabrdagi “Keksa avlod vakillarining jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy faolligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 816-son Qarori. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 28.09.2019 y., 09/19/816/3823-son; 19.06.2020 y., 09/20/391/0777-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 08.02.2022 y., 09/22/62/0111-son, 05.04.2022 y., 09/22/153/0266-son, 14.07.2022 y., 09/22/385/0643-son; 10.08.2022 y., 09/22/438/0726-son).*
3. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-81-sonli farmoni. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 02.03.2022 y., 06/22/81/0174-son)/*



Nigora Buranova,

*Toshkent arxitektura qurilish instituti,
t.f.n., dots.*

KEKSALARNI QADRLASH INSONIYLIK BURCHIMIZ

Annotatsiya. Maqolada keksalarni hurmatlash insoniylik va farzandlik burchimiz ekanligi ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, Qur‘on va Hadislardan ham misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: jamiyat, oila, keksalik, taraqqiyot, vatan, farzand, ota-ona, inson, tarbiya.

Аннотация. В статье показано, что уважение к пожилым людям — это наш долг перед человечеством и детьми. Также приводятся примеры из Корана и хадисов.

Ключевые слова: общество, семья, старость, развитие, Родина, ребенок, родители, человек, воспитание.

Annotation. the article shows that respect for the elderly is our duty to humanity and children. Also, there are given examples from the Qur‘an and the hadiths.

Keywords: society, family, old age, development, homeland, child, parent, man, upbringing.

*“Kimki bir ulug‘ yoshga kirgan insonni yoshi uchun
hurmat qilsa, Alloh unga ham shu yoshga etganda,
ko‘rsatgan hurmatidan ziyodaroq va afzalroq hurmat
qiladiganlarni tayyorlab qo‘yadi”*

Hadisdan

Jamiyat taraqqiyotida, uning yuksalishida insonning vatani oldidagi mas‘uliyati ulkan bo‘lib, bu uning oila va jamiyatdagi har bir harakati, har bir qadamida millatining manfaatlari, kelajagi yotganligini yurakdan his qilib yashashiga zamin yaratadi. Bu esa o‘z navbatida fuqarolarning siyosiy ongliligi va ma‘naviy etukligi darajasi bilan belgilanadi. Bunda albatta oila a‘zolarining o‘zaro munosabatlari, ota-ona, farzandlarning tarbiyasi muhim o‘rin tutadi.

Ijtimoiy omil sifatida oilaning jamiyatdagi o‘rni, farzandlarning ijtimoiy, ahloqiy va mehnat tarbiyasiga oilaning yoshi ulug‘lari ko‘proq e‘tibor bilan qaraydilar. Shu bilan birga sog‘lom, ma‘rifatli oila va u voyaga etkazadigan har tomonlama etuk avlodning shu millat va mamlakat iqtisodiy-siyosiy rivojining, yurtimizning shonu shuhrati, qudratining poydevori, farovonligining muhim shartlaridan biri keksalarga bo‘lgan hurmat va e‘zozda.



Jamiyatning ma’naviy qiyofasi oilalarning qandayligiga bog‘liqligi azaliy haqiqat. Oiladagi keksalarning xizmatlarini qilish, ularning hurmatlarini joyiga qo‘yish, xushmuomalalik kabi fazilatlarining shakllanishida keksalarimizning o‘rni beqiyos. Oilaning ma’naviy-ahloqiy qiyofasi ajdodlarimizdan bizga o‘tgan bilim va tajriba, madaniy qadriyatlar asosida va yurtdoshlarimizning erishgan yutuqlari negizida paydo bo‘ladi.

Hozirgi tahlikali, globallashuv jarayonida muqaddas islom dinimiz g‘oyalarini niqob qilib xalqimiz, ayniqsa yoshlarimizning dinga bo‘lgan qiziqishlari, e‘tiqodlaridan o‘zlarining g‘arazli maqsadlarini amalga oshirishga bo‘lgan urinishlari bo‘lmoqda. Bunday vaziyatda bizlar albatta yoshi ulug‘larimiz va olimu ulamolarimizning yordami va tajribalariga tayangan holda amaliy maslahatlariga muhtojlik sezamiz.

Yurtimizning kelajakda ma’naviy etuk barkamol farzandlar tarbiyalash borasidagi vazifalari davlat darajasiga ko‘tarilishining asosi bor albatta. Bunda xalqimizning ming yillik tarixi, bugungi ma’naviy hayotimizning ham asosi bo‘lgan sof islom dinimiz bu yo‘ldan sobit qadam bilan yurishimizga yordam beradi. Chunki keksalari e‘zozlanadigan yurt albatta yuksak marralarni egallaydi, negaki, ularning boy tajribalari, zakovati, hayotiy tajribalari bizlar uchun mayoqdir. Bu davlatimiz qudrati, mamlakatimiz kelajagi bilimli, dono va ma’naviy barkamol avlodlarga bog‘liq ekanligini chuqur anglagan holda harakat qilish lozimligini ko‘rsatadi.

Xalqimizning asrlar davomida shakllangan yuksak ma’naviyati, an’ana va udumlari, ulug‘ bobokalonlarimizning o‘lmas merosidan oziqlanishimiz hayotiy zaruriyatdir. Davlatimiz tomonidan yuritilayotgan muhim vazifalardan yana biri, aholining barcha qatlamlarini yurtimizning tinchligiga, hotirjamligiga tahdid soluvchi vositalardan imkon qadar uzoqlashish, ularning zararli oqibatlarini yoshlarga etkazishda keksalarimizning o‘rnini yuqori qo‘yish darkor.

Yuksak texnologiyalar shiddat bilan kirib kelayotgan bu davrimiz yoshlarda mas’uliyat, e‘tibor, odamiylik kabi hissiyotlarni chegaralab qo‘ymoqda. Bularning o‘rnini internetdagi virtual aloqalar orqali amalga oshirsa bo‘ladi, degan fikrda yurgan ba’zi yoshlarimiz borligi achinarli holdir. Negaki, inson yoshi o‘tgan sari mehrga, e‘tiborga, farzandlarining ko‘magiga muhtoj bo‘lishi tabiiy. Ayrim yoshlar bunday ko‘makka javob berishning oson va qulay usulini ham topishgan. Ya’ni telefon orqali muloqot qilish, kerakli mahsulotlarni xonadonlarga yetkazib beruvchi tashkilotlardan foydalangan holda ota-onasiga mahsulot yetkazib berishni so‘ramoqdalar (albatta, pul bilan). Lekin ota-ona bu narsalarni so‘rashdan maqsadi farzandi bilan biroz bo‘lsada suhbatlashish va diydoriga to‘yish ekanligini afsuski unutib qo‘ymoqdamiz. Ularning



gaplarini go'yoki bir injiqlikdan boshqa narsa emas deya baholayotganligimiz bilan o'z farzandlarimizga o'rnak bo'layotganligimizni unutib qo'ymaylik. Inson taftini inson ko'taradi. Zero, insoniyatda keksalik davrini boshidan kechirishi bor, biroq bu xolat uning zaifligi, muhtojligi bilan kechmaydi, deb kim kafolat bera oladi. Shunday ekan ularni e'zozlash degani aytgan narsasini muhayyo qilish emas, balki ularning e'tiborlarini qozonish, rozi qilish ham darkor.

Axir muqaddas kalom bo'lmish Qur'oni Karimda “Rabbingiz, Uning O'zigagina ibodat qilishingizni hamda ota-onaga yaxshilik qilishni amr etdi. (Ey inson) Agar ularning biri yoki har ikkisi huzuringda **keksalik yoshiga** etsalar ularga “uf!...” dema va ularni jerkima! Ularga doimo yoqimli so'z ayt!” (Isro surasi, 23 oyat), deyilishi bejiz emas, albatta.

Xalqimizga xos bo'lgan iymon-e'tiqod, insof-diyonat, sahoovat, halollik, mehr-oqibat, sharmu-hayo kabi fazilatlarni yanada yuksaltirib borishda keksalarning ko'magiga doim muhtojlik sezishimiz tabiiydir. Oilalardagi tinchlik, totuvlik, halovat, o'zaro rahm-shafqat bo'lishi har bir oila a'zosining burchi va mas'uliyatidir. Bunday insoniy fazilatlarni anglagan oila a'zolari o'z zimmalaridagi vazifalarini yaxshi bilishi va yoshlar tarbiyasida qo'llashlari lozim.

Abu Umoma (Olloh rozi bo'lsin) dan rivoyat qilingan hadisi sharifda bunday deyiladi: “Uch toifa kishilarni: musulmon qariya, olim va odil podshohni faqat munofiq inson hurmat qilmaydi” (Imom Tabaroniy rivoyati). Bu Hadisi sharifdan shu narsa anglanadiki, yoshi kattalarni hurmatlash, ehtirom qilish go'zal fazilat ekanligi, yoshlar qalbida yaxshi xulqlarga muhabbat uyg'otish va ularni shunday fazilatlar sohibi bo'lishga undaydigan chiroyli odob bo'lishi ham muhim o'rinni egallaydi.

Mamlakatimizda keksa fuqarolarga davlat va jamiyat tomonidan diqqat-e'tibor, g'amxo'rlik ko'rsatishni oshirish hamda ularni ijtimoiy muhofaza qilishni, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish maqsadida 2002-yil O'zbekiston Respublikasida “Qariyalarni qadrlash yili” [1], 2015-yilni “Keksalarni e'zozlash yili” [2] deb e'lon qilgani keksalarni – xonadonlarimizning fayzu-barakasi bo'lgan otaxon va onaxonlarimizga bo'lgan yuksak ehtiromni ko'rsatadi.

Shuningdek, voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzandlarning o'z ota-onalari haqida g'amxo'rlik qilishlari majburiyligi konstitutsiyamizning “Oila” bobi 66-moddasida [3] alohida mustahkamlab qo'yilgan.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarda milliy g'urur tuyg'usini kuchaytirishga xalqimiz o'tmishini va boy tarixini o'rganish, jahon taraqqiyotiga daxldor bo'lgan sharq madaniyatini puxta egallash ham katta ahamiyatga egadir. Bu yo'lda yoshi ulug'lar, ota-onalar ibrat bo'lishlariga ehtiyoj sezamiz.



Yoshi ulug‘larning duosini olgan, tinchlik va osoyishtalik barqaror bo‘lgan taqdirdagina Vatanimiz o‘z oliy maqsadlariga erishadi. yoshi ulug‘ otaxon-u onaxonlarni qadr etish, ularning hurmatini o‘rniga qo‘yish bizning uzoq asrlik urf-odatlarimiz, an‘analarimiz, yashash tarzimizning ajralmas bir bo‘lagiga aylangan.

Tavsiyalar: avvalombor keksa avlod vakillariga bo‘lgan g‘amxo‘rlik va e‘tiborni yanada kuchaytirishga qaratishimiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 24.01.2002dagi 30-son.*
2. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.02.2015dagi PQ-2302-son qarori*
3. *O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021, – 78 b.*



Zumrad Ilxamova,

*“Mahalla va oila” ilmiy-tadqiqot instituti
kichik ilmiy xodimi*

KEKSA AVLOD VAKILLARINING MILLIY AN’ANA VA QADRIYATLARGA TA’SIRI

Annotatsiya. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida keksa avlod hayotining bir qator o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish, keksa yoshdagi aholini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat dasturlari hamda o‘zbek xalqining milliy qadriyatlari, an‘analari, urf-odatlarini asrab-avaylash va rivojlantirishga keksa avlod vakillarining ulkan xizmatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: keksa avlod, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, doimiy aholi, urf-odat, an‘analar, avlod, ota-ona.

Аннотация. В статье рассматриваются ряд специфических особенностей жизни пожилых людей в Республике Узбекистан, государственные программы поддержки пожилого населения и сохранения национальных ценностей, традиций и обычаев узбекского народа, в чем есть большая заслуга представителей старшего поколения.

Ключевые слова: старшее поколение, социальная поддержка, постоянное население, традиции, обычаи, поколение, родители.

Annotation. The article outlines specific peculiarities of the life of the elderly in Uzbekistan, state programs of supporting the elderly and preserving national values, traditions and customs of Uzbek nation, which is mainly the merit of the elderly.

Key words: the elderly, social support, permanent population, traditions, customs, generation, parents.

O‘rtacha umr ko‘rishning o‘sishi insoniyat uchun katta ne‘matdir. Jamiyatning ijtimoiy tuzilmasida keksalar ulushini oshirish omillaridan biri - tibbiyot va tibbiy texnologiyalarning rivojlanishining mavjudligi hisoblanadi. Ijtimoiy-demografik sohadagi ushbu tendentsiyani o‘rganish, jamiyatdagi keksa odamlar ulushining o‘sishi keksa yoshdagi aholining hayotini o‘rganishni, ularning yangi, doimiy o‘zgaruvchan turmush sharoitlariga moslashishi bilan bog‘liq asosiy qarama-qarshiliklar va muammolarni aniqlashni dolzarblashtiradi.

Ijtimoiy farovonlik, keksalar hayotining xususiyatlarini tahlil qilish aholining ushbu yosh guruhini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash sohasida samarali davlat siyosatini amalga oshirish uchun asosdir. Bu, ayniqsa, mamlakatimizning ham, dunyoning barcha davlatlarida ham har bir shaxsning konstitutsiyaviy mustahkamlab qo‘yilgan huquq va erkinliklari to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida alohida ahamiyat kasb etadi.




O‘zbekiston Respublikasida keksalarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish va e‘tiborni kuchaytirish, ularning turmush darajasi va sifatini oshirish uchun qulay tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan qonunchilik va me‘yoriy-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, pensiya ta‘minoti va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish davlat dasturlarining eng ustuvor vazifalari hisoblanadi.

Shunday qilib, O‘zbekiston Respublikasida keksa avlod vakillari hayotining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish keksa yoshdagi aholini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat dasturlari samaradorligini tahlil qilish, shuningdek, bunday faoliyatni rivojlantirish imkonini beradi.

Keksa avlodni yosh kogortasining bir turi sifatida bir xil vaqt oralig‘ida va bir xil sharoitlarda tug‘ilgan va ijtimoiy moslashishning asosiy bosqichlarini bosib o‘tgan ma‘lum bir guruh odamlari nuqtai nazaridan talqin qilish mumkin. Keksa avlod deganda, yoshi 55 yoshdan oshgan erkaklar va ayollarni o‘z ichiga olgan ijtimoiy guruhni tushunamiz.


O‘zbekiston aholisi soni 2022-yil 1-yanvar holatiga O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, 35,3 million kishini tashkil qildi. Aholining o‘rtacha yoshi 29,1 yoshni tashkil etadi, bu uning boshqa mamlakatlarga nisbatan yosh tarkibini tavsiflaydi.

O‘zbekiston aholisining 18,9 million kishi 30 yoshgacha bo‘lganlar, 11,7 million kishi 30 yoshdan 54 yoshgacha bo‘lganlar va 4,6 million kishi 55 yoshdan kattalarni tashkil etgan. (1-rasm).




1-rasm

2022-yilning 1-yanvar holatiga respublikada 55 yoshdan kattalar doimiy aholiga nisbatan 13,1 foyizni tashkil etgan. (2-rasm).



2-rasm

Yillar davomida ushbu korsarkich o‘tib kelgani kuzatilmoqda, agar 2017-yilda bu korsarkich 11,9 foyizni tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilda esa 13,1 foyizni tashkil etib 1,2 foyizga ko‘paygani aniqlandi. (3-rasm).



3-rasm

O‘zbekistonda keksa avlod vakillariga alohida e‘tibor qaratilmoqda, ularning huquqiy va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ular uchun qulay shart-sharoit yaratish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlanmoqda.

O‘zbek xalqining milliy qadriyatlari, an‘analari, urf-odatlarini asrab-avaylash va rivojlantirishga, umuminsoniy qadriyatlar nuqtai nazaridan katta e‘tibor qaratilayotgani keksa avlod vakillarining ulkan xizmatlaridir.



Anʼanalar Oʻzbekiston xalqi turmush tarzi va milliy madaniyatining ajralmas qismi boʻlib, qadriyatlar va munosabatlar tizimida yuksak oʻrin tutadi. Eng mustahkam oilalar mahalliy urf-odat va anʼanalar asosida tashkil etilgan oilalardir.

Tarixiy madaniy qadriyatlar va oʻziga xos milliy anʼanalar, jumladan, oila instituti bilan bogʻliq boʻlgan anʼanalar jamiyatimizda nafaqat saqlanib qolgan, balki yanada rivojlanib bormoqda.

Oʻzbek xalqiga xos, yoshlar ongiga singdiriladigan milliy qadriyatlardan, albatta oʻz uyini, ona yurtini ulugʻlash, kattalarga hurmat, axloq – tarbiya, kamtarlik, mehmondoʻstlik, bolalarga boʻlgan muhabbat va boshqalardir.

Oʻzbekistonda urf-odat va anʼanalarga rioya qilish, kelib chiqishi va ijtimoiy mavqeidan qatʼi nazar, azaldan har bir insonning burchi boʻlib kelgan.

Oilada shaxsning axloqiy tarbiyasi, madaniy kamolotiga asos solinadi, bu esa keyinchalik uning xulq-atvor normalarini shakllantiradi, ichki dunyosini boyitadi. Oila koʻp jihatdan uning ijtimoiy va ijodiy faolligini ragʻbatlantiradi, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishga hissa qoʻshadi.

Koʻp farzandli boʻlish, bir oilada bir tom ostida bir necha avlod vakillarining birga yashashi anʼanalari oilalar mustahkamligi, oilaviy nizolarning, ayniqsa, yosh oilaning shakllanish bosqichida kamayishida muhim omil boʻlmoqda. Oʻzbek oilalarida oʻz ota-onasiga yuksak hurmat saqlanib qolgan. Aksariyat yoshlar yangi turmush qurganlarning moddiy mustaqilligi va oʻzaro sevgi oilani yaratish uchun zarur deb hisoblashadi.

Oilaviy anʼanalarga rioya qilish hayotga, oʻz oilasiga, yaqinlariga qadrli munosabatning namoyonidir. Anʼanalar, bayramlar, muhim oilaviy sanalar avloddan-avlodga oʻtadi. Avlodlararo munosabatlar yosh avlodning anʼanalari, qadriyatlari va tafakkurini shakllantiradi, dunyoqarashdagi aniq xatolardan himoya qiladi va ijtimoiy xulq-atvorni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati :

1. *Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi maʼlumotlari/ Oʻzbekiston aholisi soni* – www.stat.uz
2. *Максакова Л.П. Демографическая ситуация в Узбекистане с точки зрения социальной безопасности // Центральная Азия и Кавказ. – 2012. – Т. 15, № 3. – С. 24–37.*
3. *Садыкова Ш.М. Актуальные вопросы социальной защиты пожилых людей в Узбекистане // Национальная ассоциация ученых (НАУ). – 2015. – Т. 4–6, № (9). – С.159–160.*
4. *Абдураманов Х.Х. Социальная защита престарелых: на примере республики Узбекистан // Проблемы современной экономики. – 2016. – №2. – С.193–196.*



U.N. Nurullayeva,

“Oila va xotin-qzlar” ilmiy-tadqiqot instituti
qisqa muddatli loyiha ishtirokchisi

KEKSALAR QADRIYATLARI JAMIYAT IJTIMOIIY-MADANIY TIZIMNING O‘ZAGI

Annotatsiya. Maqolada keksalik davrining jamiyat uchun foydali jihatlari jamiyat barqarorligini ta’minlash nuqtai nazaridan yoritilgan bo‘lib, bunda keksalarning xulq-atvor namunasi va qadriyatlar tizimining ahamiyatiga urg‘u qaratilgan. Shuningdek, keksalar qadriyatlar tizimini o‘rganish metodologiyasi borasida takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: keksalar, qadriyatlar tizimi, xulq-atvor, Sh.Shtern metodologiyasi.

Аннотация. В статье освещаются преимущества старости с точки зрения обеспечения стабильности общества, подчеркивая важность модели поведения и систему ценностей пожилых людей. Также есть предложения относительно методики изучения системы ценностей старшего поколения.

Ключевые слова: пожилые люди, система ценностей, поведение, методология С. Штерна.

Annotation. The article highlights the benefits of old age in terms of ensuring the stability of society, emphasizing the importance of the behavioral patterns and value system of older people. There are also proposals regarding the methodology for studying the value system of the older generation.

Key words: elderly people, value system, behavior, S. Stern’s methodology.

Hozirgi vaqtda aksariyat iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda keksalar sonining ko‘payishi, ularning jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyati, ijtimoiy jarayonlarga ta’sir ko‘rsatish qobiliyati o‘sib borishi holati kuzatilmoqda. O‘zbekistonda 55 yoshdan oshgan ayollar va 60 yoshdan oshgan erkaklar keksalar qatoriga kiritilgan bo‘lib, ular O‘zbekiston aholisining 10 foizini tashkil etadi⁶¹. Ba’zi manbalarga ko‘ra, 2050-yilga kelib mamlakatda keksa kishilar soni aholi umumiy sonining qariyb 20 foizini tashkil etadi⁶².

Zamonaviy jamiyatda ko‘p hollarda keksalik davri salomatlikning yomonlashuvi, o‘jarlik, ijtimoiy faollikning pasayishi kabi salbiy jihatlar

⁶¹ Ўзбекистон aholisining 10 foizini keksalar tashkil etmoqda. 2021y. <https://xs.uz/uzkr/post/ozbekiston-aholisining-10-foizini-keksalar-tashkil-qilmoqda>

⁶² Ўзбекистонда keksalar soni ortmoqda. <https://anhor.uz/uz/society/3593-2/>



bilan ifodalanishi keng tarqalgan. Biroq keksalik davrining jamiyat uchun ijobiy tomonlari ham mavjud. Bir qator tadqiqotlar hamda amaliy ishlar asosida⁶³ keksa insonlarning jamiyat, jumladan, uning barqarorligini ta’minlashda ikki asosiy ijobiy jihati mavjudligi aniqlandi:

Birinchidan, ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar materiallari shuni ko‘rsatadiki, keksalik davrida odamning ruhiy holati vazminlik, ehtiyotkorlik, xotirjamlik kabi xususiyatlar bilan to‘ldiriladi. Yoshi o‘tgani sari hayotning qadr-qimmatini hissi oshadi, insonning o‘zini o‘zi qadrlashiga bo‘lgan munosabati o‘zgaradi. Keksalar o‘zlarining ichki dunyosi va fiziologik holatiga ko‘proq e’tibor berishni boshlab, ularda hayotning yangi ritmi paydo bo‘ladi. Qariyalar o‘z hayotiy tajribasi, hotirjamligi va emotsional barqarorligi tufayli ko‘proq fikrlashga moyil bo‘lishadi, istalgan fursatlar va stressli holatlarni hushyorlik, vazminlik hamda sovuqqonlik bilan hal qilishadi. Shu bilan birgalikda keksalarda ko‘p holatlarda vazifalarini vaqtida bajarish ko‘nikmasi shakllangan bo‘ladi.

Ikkinchidan, yoshi katta insonlarga yoshligi va o‘tgan umrlari, oldingi davrlarni eslash, xotirlash, qumsash holatlari xos bo‘lib, bu holat ularning o‘zlariga bo‘lgan ishonchi hissini oshishiga olib keladi. Ma’lumki, qadriyatlar inson va jamiyat ma’naviyatining asosiy tarkibiy qismi, atrof-muhitdagi turli voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash hamda baholash uchun qo‘llaniladigan tushunchalardir. Asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga meros bo‘lib kelgan urf-odatlar, qadriyatlar, an’analar milliylik ramzi sifatida katta qadrga ega. Yoshlar jamiyatning eng katta va harakatchan qismi hisoblangani uchun ularni tarbiyasi, axborot kompetentligini oshirish zamonning dolzarb masalalari qatoriga kiradi. Shu o‘rinda mafkuraviy va ma’naviy xurujlarning maqsad va mohiyatini o‘z vaqtida anglab oladigan va ularga qarshi o‘z fikri, mustaqil dunyoqarashiga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalashda keksa avlodning va milliy qadriyatlarning o‘rni beqiyosdir.

Yuqorida keltirilgan ikki hususiyat keksalarning jamiyat va yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyatini izohlaydi. Keksalar turmush tarzi, og‘ir vaziyatlarda o‘zini tutish namunasi, shuningdek, suhbatlari bilan jamiyat a’zolarining tarbiyasida muhim o‘rin egallaydi. Shu nuqtai nazardan O‘zbekistonda keksalarning ijtimoiy faolligini va yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini oshirish masalasi dolzarb sanalib, ularni ijtimoiy

⁶³ Преимущества пожилого возраста <https://www.seniorgroup.ru/experts/9-preimushchestv-pozhilogo-vozhraasta/>



himoya qilish, rag'batlantirish hamda moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganligi ijobiy holat sanaladi.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, so'nggi o'n yilliklarda globallashuv, integratsiya va jamiyat modernizatsiyasi jarayonlari tufayli nafaqat yoshlarning, balki qariyalarning qadriyatlari hamda ongida o'zgarishlar tufayli ularning o'zini o'zi anglashi, ijtimoiy o'zaro munosabatlarga yo'nalganlik holatlari o'zgacha ko'rinish kasb etmoqda. Zamonaviy gumanistik va ijtimoiy o'zgarishlar sharoitida jamoatchilik ongining ma'naviy qadriyatlari tobora ustuvor ahamiyat kasb etib, keksalar qadriyatlar tizimi ijtimoiy-madaniy tizimning o'zagiga aylanmoqda. Zero ular asosida kelajak avlod shakllanishi va tarbiyalanishi kerak. Bu vaziyat yoshlar va o'rta avlod qadriyatlari barobarida keksalar qadriyat tizimini o'rganish muhimligidan dalolat beradi. Aholi qadriyatlar tizimini o'rganishda xorijiy hamda milliy adabiyotlar tahlili natijasida ularning aksariyatida keksalar qadriyatlar tizimini o'rganishda ikki jihatga e'tibor qaratish lozimligi aniqlandi:

Milliy adabiyotlar va tadqiqotlarning aksariyatida qadriyatlar klassifikatsiyasi yetarli darajada asoslanmagan va berilmaganligi tufayli mavjud qadriyatlarni baholash hamda o'lchash maqsadida, avvalo, ularning jamiyatimiz xususiyatlaridan kelib chiqqan holda optimal klassifikatsiyasini keltirish muhimligi masalasining dolzarbligini oshirmoqda;

Aholi, jumladan, keksalar qadriyatlarini o'rganish maqsadida olib boriladigan tadqiqotlarning metodologiyasi va instrumentariysini ishlab chiqish jarayonida xorij tajribasi, qadriyatlar klassifikatsiyasi, shuningdek, Sh.Shvarsning qadriyatlarni baholash metodologiyasi asosida jamiyatimizga mos metodologiyani yaratish maqsadga muvofiq.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, keksa avlod turmush tarzi va qadriyatlar tizimini o'rganish butun jamiyat va uning istiqboli uchun muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birgalikda qadriyalar tizimini har tomonlaman o'ylangan va sifatli metodologiya asosida tadqiq qilish orqali ularning qadriyatlar ierarxiyasini to'g'ri baholash hamda prognozlashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Social Values Across Generations https://www.environicsinstitute.org/docs/default-source/project-documents/canadian-millennial-social-values-study/appendix-social-values-across-generations.pdf?sfvrsn=bc02971e_2
2. Taylor Paul, Morin Rich. Generations Apart — And Together. <https://www.pewresearch.org/social-trends/2009/08/12/ii-generations-apart-and-together/>



3. The Whys and Hows of Generations Research <https://www.pewresearch.org/politics/2015/09/03/the-whys-and-hows-of-generations-research/>
4. Values of Older Adults Related to Primary and Secondary Prevention <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/books/NBK53768/>
5. Абдикакимов М.Т. Ценностные установки молодежи и старшего поколения казахстанского общества https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/32347/1/klo_2015_02.pdf
6. Преимущества пожилого возраста <https://www.seniorgroup.ru/experts/9-preimushchestv-pozhilogo-vozrasta/>
7. Садыкова Х.Н., Хаматханова М.А. Поколенческие изменения ценностных ориентаций: методика и результаты исследования <https://cyberleninka.ru/article/n/pokolencheskie-izmeneniya-tsennostnyh-orientatsiy-metodika-i-rezultaty-issledovaniya>
8. Суетина Н.М. Ценности старшего поколения как фактор социальной стабильности <https://cheloveknauka.com/tsennosti-starshego-pokoleniya-kak-faktor-sotsialnoy-stabilnosti>
9. O‘zbekistonda keksalar soni ortmoqda. <https://anhor.uz/uz/society/3593-2/>
10. Хрупин С.И., Сустина Н.М. Духовные ценности старшего поколения как фактор социального единства и согласия http://www.vestnik.adygnet.ru/files/2006.2/253/hrupin2006_2.pdf



Bo'riyeva Mahbuba,
*"Oila va xotin-qizlar" ilmiy-tadqiqot
instituti kichik ilmiy xodimi*

OILADA AVLODLARARO MUNOSABATLARNI TA'MINLASHDA KEKSA AVLODNING ROLI

Annotasiya. Maqolada avlodlar o'rtasidagi oilaviy masalalar yoritib berilgan. Keksa avlod vakillaridagi tajriba, o'git, nasihatning oilaviy munosabatlarni tashkil etishda o'ziga xos ta'siri xususiyatlari bayon etilgan. Keksalarning o'zbek oilalari shahslararo munosabatida ma'naviy-ahloqiy muhitni shakllantirishdagi ta'siri tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: avlodlar o'rtasidagi munosabatlar, avlodlararo aloqalar, shaxsiy kamolot, shaxs, oila, avlod, o'z-o'zini namoyon qilish.

Аннотация. В статье освещаются вопросы семьи между поколениями. Описаны особенности специфического влияния опыта, обучения, советов представителей старшего поколения на организацию семейных отношений. Анализируется влияние пожилых людей на формирование духовно-нравственной среды в межличностных отношениях узбекских семей.

Ключевые слова: отношения между поколениями, межпоколенческие отношения, личностное развитие, человек, семья, поколение, самовыражение.

Annotation. The article highlights family issues between generations. The features of the specific influence of experience, training, advice from the representatives of the older generation on the organization of family relations are described. The influence of older people on the formation of the spiritual and moral environment in the interpersonal relations of Uzbek families is analyzed.

Keywords: relations between generations, intergenerational relations, personal development, person, family, generation, self-expression.

Bir kichik oilani hisobga oladigan bo'lsak, oilada o'zidan kattalarga, ya'ni ota-ona, buvi-boboga hurmat, ularning oldida bir umr qarzdorlik burchi odamiyligimiz timsoli hisoblanadi. Shuningdek oilada katta hayot tajribasiga ega bo'lgan ota-bobolarimiz, onaxonlarimiz o'giti, pand-nasihatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Oqni qoradan, yahshini yomondan farqlashda, odob-ahloq sirlarini o'rganishda, xalqimiz hayotida asrlardan buyon saqlanib, davom etib kelayotgan rasm-rusum va urf-odatlarini o'rganishda ular yaqin maslahatchiga aylanishgan.

Mamlakatimizda kekse avlod vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat, oilalar va mahallalarda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, shuningdek, yosh avlodni xalqimizning ko'p asrlik an'analari hurmat qilish ruhida tarbiyalash ishidagi rolini oshirishga oid islohotlar olib borilmoqda. Prezidentimiz



Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 28-dekabrda “O‘zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash “Nuroni” jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 28-dekabrda “Keksalar va nogironlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror nuroniylarni rag‘batlantirish, ularning hayot darajasi va sifatini yanada yaxshilash borasidagi tizimli ishlarning mantiqiy davomi bo‘ldi.⁶⁴

O‘zbek oilalarda katta avlod vakillari tomonidan hayotiy tajribani yosh avlodga uzatish va yosh avlod vakillari tomonidan katta avlod merosini o‘zlashtirib olish, oilalarda shahslararo munosabatda ma’naviy-ahloqiy muhitni shakllantirishda keksalarning o‘z o‘rni bor. Ular ajdodlar yaratgan ma’naviy-ahloqiy qadryatlarning davomchisi sifatida yosh avlodni tarbiyalovchi murabbiy hisoblanadi.

Amir Temur xonadonida o‘rnatilgan tartibga asosan, shahzodalar tarbiysi ularning onalari zimmasida emas, balki buvi-bibilarimiz zimmasida bo‘lgan. Bo‘lg‘usi olim Mirzo Ulug‘bekning onasi Gavharshodbegim hayot bo‘lsalarda, uning oilaviy tarbiyasi bilan Saroymulxonim shug‘ullanib kelganligi tarixiy manbalarda keltirilgan. Amir Temur o‘z navbatida bobo sifatida Mirzo Ulug‘bekning harbiy ish, davlatni idora qilish, ilm egallash borasidagi tarbiyasiga alohida e’tibor qaratadi. Natijada Mirzo Ulug‘bek ma’rifatparvar davlat arbobi, butun dunyoga mashhur olim, etuk falaqiyotshunos bo‘lib etishadi.⁶⁵

Keksalarning ibratli hayot yo‘li, o‘gitlar, yillar silsilasida toblangan chuqur hayotiy tajribasi yoshlarimizning o‘z yo‘lini to‘g‘ri tanlay olishida qariyb barcha asrlar davomida mayoq vazifasini o‘tab kelmoqda.

Zamonaviy jamiyat oila darajasida ham, umuman jamiyat darajasida ham avlodlar o‘rtasidagi munosabatlar bilan tavsiflanadi. Tadqiqotchilar buni dunyoda ro‘y berayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy o‘zgarishlar bilan bog‘lashadi. Ularning barchasi u yoki bu tarzda insonning dunyoqarashi, turmush tarzi, shaxslararo munosabatlarining shakllanishiga ta’sir qiladi. Avlodlar o‘rtasidagi davomiylik an’analaridan voz kechish oila a’zolari o‘rtasidagi munosabatlardagi nizolar va nomutanosiblikni, yosh avlodning qadriyat yo‘nalishlarining o‘zgarishini keltirib chiqaradi.

Insonning hayot sikli ko‘p qirrali o‘zgaruvchanlik bilan tavsiflanadi. U hayotning quyidagi bosqichlarini o‘z ichiga oladi: bolalik, o‘smirlik, kattalik va qarilik. Hayotning

⁶⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.12.2016 dagi PF-4906-son “O‘zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash “Nuroni” jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.// “Xalq so‘zi”, 2016 yil 30 dekabr

⁶⁵ Amir Temur o‘gitlari:(to‘plam). – Toshkent: Navro‘z, 1992, 64-b.



turli bosqichlarida inson turli xil ijtimoiy rollarni bajaradi - bola, talaba, xodim, ota-ona, bobo-buvi. Bolalik, o'smirlik va o'spirinlik - bu shogirdlik, jamiyat me'yorlari va qadriyatlarini o'zlashtirish davrlari.

Yetuklik davri, normalar va qadriyatlar individual imkoniyatlarga muvofiq imkon qadar to'liq o'zlashtiriladi. Keksalik davrida shaxs ijtimoiy tuzilmalarni o'zlashtirish jarayonidan orqada qoladi. Oila avlodlararo munosabatlar tizimining asosiy bir qismidir. U bir qator muhim ijtimoiy vazifalarni bajaradi:

- tarbiyaviy (yosh avlodni ijtimoiylashtirish);
- ruhiy muloqot vazifasi;
- ijtimoiy maqom (oila a'zolariga ma'lum ijtimoiy maqom beradi);
- dam olish (qiziqishlarni o'zaro boyitish);
- hissiy (psixologik himoya, hissiy yordam olish).⁶⁶

Avlodlararo o'zaro munosabatlar hech qachon mutlaqo teng bo'lmazligi mumkin, nosimmetrik ko'rinishda bo'ladi. Katta avlod vakillari yoshlarga ta'lim va ma'lumot berishadi, o'tmishdan meros bo'lib kelgan madaniyat bilan tanishtiradilar va keyinchalik bu merosni berishadi.

Avlodlararo munosabatlar qarigan ota-onalar, voyaga etgan bolalar, nevaralar va hatto chevaralar o'rtasidagi munosabatlar zanjirini anglatadi. Har bir oila a'zosi o'rtasida ma'lum bir o'zaro munosabatlar mavjud bo'lib, u har bir avlodga foyda keltiradi. Misol uchun, keksalar har xil tajribalarga to'la hayot kechirdilar va o'zlarining katta yoshli bolalari va nabiralariga boy bilim va yordam berishlari mumkin. Ayni paytda, katta yoshli bolalar ko'pincha sog'lig'i yoki harakatchanligi tufayli ota-onalariga yordam berishadi va shu bilan birga o'zlarining kichik bolalarini qo'llab-quvvatlaydilar. Nihoyat, eng yosh avlod mehr, baxt keltiradi va ko'pincha zamonaviy texnologiya bilan bog'liq vazifalarni bajarishda yordam bera oladi - o'smirning yangi uyali telefon yoki masofadan boshqarish pultini qanchalik tez topishini ko'rganmisiz?

Ushbu avlodlararo munosabatlar oilaning har bir a'zosi o'rtasida sevgi, g'amxo'rlik va qo'llab-quvvatlashning namunasini qanday namoyon etishini ko'rish oson. Bolalar va o'smirlar o'zlarining kundalik hayotlarida rivojlangan ijtimoiy ko'nikmalar va barqarorlikni ko'rishadi, bu ularga maktabda yaxshi o'qishga va salbiy ta'sirlardan qochishga yordam beradi. Xuddi shunday, o'z farzandlari va nabiralari bilan yaqin bo'lgan keksalar ko'pincha sog'lomroq, kamroq yolg'iz va atrofdagi dunyoga ko'proq aralashadilar.

Xuddi shu imtiyozlar qarindosh bo'lmagan avlodlarga ham tegishli. Boshqalar bilan avlodlar o'rtasidagi do'stlik o'sib borishi hayotga o'ziga xos nuqtai nazarni

⁶⁶ Голод С.И. Семья и брак: историко-социологический анализ. – Санкт-Петербург, 1998. – с.112



taqdim etishi mumkin, chunki keksa avlodlar yoshlarga kelajakda nima kutishlarini o‘rganishga yordam beradi va eng yaxshi hayot kechirishlarini ta’minlash uchun maslahatlar beradi. O‘z navbatida, yoshlar ham keksa odamga kundalik ishlarga bir oz ko‘proq yordam berish mumkin. Har ikki tomon ham hayotga turlicha qarashlar va yondashuvlardan foyda olishlari mumkin. Avlodlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda yusak madaniyat, odob ham zarur. Lekin, birinchi navbatda, sog‘lom fikr va adolat bo‘lmog‘i lozim, zero, bunga rioya qilinmas ekan, albatta ziddiyat va janjal kelib chiqishi tabiiydir.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.12.2016 y.PF-4906-son “O‘zbekiston faxriylarini jtimoiy qo‘llab-quvvatlash “Nuroni” jamg‘armasi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.*// “Xalq so‘zi”, 2016-yil 30 dekabr.
2. *Amir Temur o‘gitlari:(to‘plam).* – Toshkent: Navro‘z, 1992, 64-b.
3. *Голод С.И. Семья и брак: историко-социологический анализ.* – Санкт-Петербург, 1998. – С.112



Xasanboy Abdusamatov,

*“Oila va xotin-qizlar” ilmiy tadqiqot instituti ilmiy kotibi
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

MIGRATSIYA JARAYONIDA QADRIYATLARNING TO‘QNASHUVI

Annotatsiya. Ushbu maqolada migrantlarni yangi ijtimoiy muhitga moslashishda qadriyatlar tizimini o‘rni ko‘rsatilgan. Migrantlarning qadriyatlari bo‘yicha xorij olimlarini nazariyalari yoritilgan. Migrantlarni qo‘llab-quvvatlashga oid taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: migratsiya, migrant, qadriyatlar, moslashish, yangi ijtimoiy muhit.

Аннотация. В данной статье показана роль системы ценностей в адаптации мигрантов к новой социальной среде. Освещены теории зарубежных ученых о ценностях мигрантов. Даны предложения и рекомендации по поддержке мигрантов.

Ключевые слова: миграция, мигрант, ценности, адаптация, новая социальная среда.

Annotation. This article shows the role of the value system in the adaptation of migrants to a new social environment. Theories of foreign scientists about the values of migrants are highlighted. Suggestions and recommendations for supporting Migrants are given.

Key words: migration, migrant, values, adaptation, new social environment.

Hozirgi kunda xalqaro migratsiya jarayoni jahon taraqqiyotining etakchi xususiyatlaridan biriga aylandi. Ushbu jarayon mamlakatlarning taraqqiyotiga, millatlararo, ijtimoiy va xalqaro nizolarning vujudga kelishiga qisman bo‘lsa ham bog‘liq hisoblanadi. Keng miqyosdagi migratsiya muhojir jamoalarning shakllanishi, mezbon mamlakatlarda millatchilik partiyalarni faoliyatini kuchayishi va milliy o‘zlikni himoya qilish bilan bog‘liq jarayonlarni kuchaytiradi. Ziddiyatlarni oldini olish, millatchilik tendensiyalarini zaiflashtirish uchun muhojirlarni qabul qiluvchi jamiyatda integratsiyalash mexanizmini yaratish kerak.

Migrantlarni mezbon mamlakatlar jamiyatiga integratsiyalashuvi har doim ham oson kechmagan. Chunki integratsiyalashuv jarayonini quyidagi murakkab tarkibiy qismlari mavjud; ekologik, fuqarolik, diniy, ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-psixologik va madaniy. Arab mamlakatlari, Lotin amerikasi va Xitoy davlatlarida yashayotgan migrantlarni integrallashuvi qiyin kechadi. Migrantlarga nisbatan “integratsiyasi” atamasini ilk bor fanga rus olimi E.Nitoburg tomonidan kiritilgan bo‘lib, u yahudiylarni AQShning ijtimoiy-madaniy muhitiga integratsiyalashuvi misolida ko‘rib chiqqan.

Migrantlar oldida mezbon jamiyat qadriyatlari va o‘z qadriyatlari to‘qnashuvi yuzaga keladi. “Qadriyat” tushunchasi fanlararo tushunchalardan biri bo‘lib, u falsafa, sotsiologiya, iqtisodiyot va boshqa fanlarda ham turlicha talqinga ega.



Qadriyatlar tizimida migratsiya jarayoniga mos keladigan psixologik nazariyalardan biri D.A.Leontiv tomonidan taklif qilingan nazariyadir. Olim tomonidan qadriyatlar quyidagi uch tizimga bo'lingan:

- ijtimoiy ideallar. Bu qadriyatlarning asl shakli hisoblanadi, u oiladan tortib to insoniyat tomonidan ishlab chiqiladi. Ijtimoiy qadriyat insoniyatning mingyillik tajribasi maxsuloti hisoblanadi;

- mujassamlashgan qadriyatlar. Ijtimoiy qadriyatlar bizga mavhum tarzda kelmaydi, u ma'lum shaxslar tomonidan asarlar orqali yetib keladi;

- shaxsiy qadriyatlar. Odamlarning faoliyati orqali sodir bo'ladigan, ularni maqsad sari etaklaydi. Ijtimoiy qadriyatlarni tan olish orqali shaxsiy qadriyatlar shakllanadi.

Migratsiya jarayoni yuqoridagi ikki qadriyatlarni ijtimoiy shaxsiy qadriyatlar to'qnashuvi yuzaga keladi. Misol uchun g'arb jamiyatidan sharq jamiyatiga yoki aksi bo'lgan xodislar. Ushbu xodisalarda qadriyatlarni idrok qilish ikki tomoni mavjud. Agar migrant yangi ijtimoiy muhitni qadriyatlarini tan olmasa, nizo va to'qnashuvlar yuzaga kelish ehtimoli bo'ladi. Ushbu holatda ikkita psixologik jarayoni shaxsni idrok darajasi va jamiyatni darajasi o'rtasidagi integratsiyalashuvi muhim bo'ladi.

Odatda, migrantlarni yangi ijtimoiy muhitga moslashish, o'zga tilda erkin gaplashish, ish topish va o'z o'rniga ega bo'lishi bilan xodisalarni ko'p ko'ramiz. Ba'zi xollarda migrantlar yangi ijtimoiy muhitga o'z qadriyatlari olib keladi va shu bilan yashash tarzini davom ettiradi. Ular o'zlarini diniy e'tiqodi, milliy taomlarini asrab qolishga harakat qiladi.

Yuqoridagi xarakterlar megopolist shaharlarda ko'p kuzatiladi, ular o'z qadriyati va yangi madaniy xususiyatlarini teng o'zlashtira oladi. Aholisi kam bo'lgan, chekka hududlarda migrantlarga nisbatan odamlar ehtiyotkor munosabatda bo'ladi, yangi tendensiyalarni tez qabul qilish yoki uni inkor etishga ijtimoiy nazoratda bo'ladi.

Turli qadriyatlarning o'zaro bog'liqligini aniqlashda muhim mezonlardan biri mezbon aholining o'z qadriyatlariga va migrantlarga bo'lgan munosabatga bog'liq. Davlat darajasida migrantlarni oqimlarini tartibga solish, migrantlarni jamiyatga moslashtirish modellari ishlab chiqilmoqda, ammo migrantlarni qadriyatlarini saqlab qolish yoki unga zid bo'lgan g'oyalarga qarshi psixologik himoya mexanizmlari shakllantirish borasida ishlash sezilarli darajada ijobiy emas.

G'arb tadqiqot markazlari tomonidan ushbu masala o'rganilmoqda. Turi mamlakatlarda nodavlat tashkilot migrantlar bo'yicha statistik ma'lumotlarni to'playdi holos. AQSh da migrantlarni idrok etishini tahlil qilib boradigan jamg'armalar faoliyat olib boradi. Ushbu tadqiqot markazlarida migrantlar haqida jamoatchilik fikri o'lchanib boriladi. Bunday tadqiqotlar demokratik mamlakatlarda ko'pchilik ovozi bilan siyosiy, ma'anviy qadriyatlarni hamda migrantlarga qaratilgan siyosatni pragmatik mulohazalar bilan bog'lash imkonini beradi. Migrantlar bilan munosabatdagi noaniqlik, ularning



faoliyatiga qaratilgan me'yoriy hujjatlarni to'g'ri yo'la qo'yishda empirik tayanch vazifasini bajaradi.

Migratsiya qadriyati va qonunchilik haqida gap yutirilganda, quyidagi uchta asosiy model mavjud:

– birinchi model segregatsiya strategiyasi. Migrantlarga vaqtinchalik hodisa sifatida qaralib, ularni yangi ijtimoiy-madaniy muhitga moslashtirish bo'yicha keskin choralar ko'rilmaydi;

– ikkinchi model assimilatsiya strategiyasi. Immigrantlarga davlat jiddiy xodisa sifatida qaraladi, hukumat imkon qadar shu ularni jamiyatga tez qo'shilib ketishiga harakat qiladi;

– uchinchi model multikulturalizm modeli. Ushbu modelga ko'ra, davlat tomonidan etnik va diniy guruhlariga, siyosiy va iqtisodiy jarayonlarda ishtirok etishi uchun teng huquq va imkoniyatlar beriladi.

Ushbu modellar hozircha hech bir mamlakatda samarali yo'lga qo'yilmagan. Chunki har bir davlat o'zining tarixiy tajribasidan kelib chiqib, migrantlar to'g'risidagi qonunlarni va muayyan modellarni yaratadi. Ayni vaqtdagi jamiyat xalqaro migratsiya jarayonidagi muammolarni dastlabki bosqichlarini hal qilish darajasida xolos. Hozirgi vaqtda qadriyatlar “madaniyatlararo” va “madaniyatlar ustidan” tizimida shakllanmoqda. Juda ko'p mamlakatlar migrantlar masalasida be'tiborlik asosida siyosat olib boradi, natijada migrantlarning yangi ijtimoiy muhitga xulq-atvori chizig'i o'z-o'zidan shakllanadi. Moslashishning o'z-o'zidan paydo bo'lishiga tayanish, migrantlar bilan olib boriladigan siyosatni samarali yakunlanishiga olib kelmaydi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Нитобург Э. США: «Исчезающий американский еврей» — интеграция или ассимиляция? // *Этнографическое обозрение*. – № 5, 1995.
2. Дячков М.В. Об ассимиляции и интеграции в политических сообществах // *Социальные исследования*. – № 7, 1995. – С. 89.
3. Стокер П. Работа иностранцев: Обзор международной миграционной рабочей силы. – Москва: Академия, 1995. – С. 54–67.
4. Сапенко И.П. Социально-политические последствия международной миграции населения // *МЕ и МО*. – № 3, 1999. – С. 52–63.
5. Ценности — предметы и явления культуры, морали, нравственности и т.п.; явление, предмет, имеющий то или иное значение, важный, существенный в каком-то отношении. (Большой толковый словарь русского языка под ред. А.С. Кузнецова, – Санкт-Петербург: Норинт, 1998. –1036 с.
6. Леонтев Д.А. Ценностные представления в индивидуальном и групповом сознании. *Психологическое обозрение* – № 1, 1998.
7. Леонтев Д.А. Методика изучения ценностных ориентаций. *Психологическое обозрение*. – № 12, 2000.
8. Хантингтон Столкновение цивилизаций, – Москва: Аст, 2003, –603 с.



Qambarov Abdujabbor Boxroliyevich,

Namangan davlat pedagogika instituti

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish metodikasi”

kafedrasi katta o‘qituvchisi

JAMIYATDA MILLIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA TARIXIY TAFAKKUR VA TARIXIY XOTIRANING O‘RNI VA AHAMIYATI.

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistonda milliy ma’naviyatimizni tiklash, xalqimizning ongi-tafakkurida eski ma’naviy-mafkuraviy aqidalarini yo‘qotib, jamiyatimizda milliy ruh va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish masalasi yuzasidan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Kalit so‘zlar: tarixiy tafakkur, tarixiy xotira, jamiyat, qadriyatlar, tarixiy ong, mustaqillik, milliy ruh, ma’naviyat.

Аннотация. Данная статья направлена на разработку предложений и рекомендаций по вопросу восстановления нашей национальной духовности в Узбекистане, ликвидации старых духовно-мировоззренческих убеждений в сознании нашего народа, формирования национального духа и патриотических чувств в нашем обществе.

Ключевые слова: историческое мышление, историческая память, общество, ценности, историческое сознание, независимость, национальный дух, духовность.

Annotation. This article is aimed at developing proposals and recommendations on the restoration of our national spirituality in Uzbekistan, the elimination of old spiritual and ideological beliefs in the minds of our people, the formation of a national spirit and patriotic feelings in our society.

Key words: historical thinking, historical memory, society, values, historical consciousness, independence, national spirit, spirituality.

Mustaqillik xalqimizga milliy o‘zlikni, bebaho qadriyatlarimizni, eng muhimi, milliy tafakkurimizni qaytarib berdi. Jamiyatimiz oldida turgan ezgu maqsadlarga erishish, milliy o‘zlikni qayta anglash, unga rahna soluvchi turli “madaniyat”lar xurujidan himoyalaniish, bunday tajovuzlarga qarshi tura oladigan yoshlarni voyaga etkazish hozirgi davrda avlodlararo vorisiylikni ta’minlashni taqozo qilmoqda. Demak, jamiyatning tarixiy ma’naviy ildizlari, urf-odat, an’alariga asoslangan ma’naviy hayotning asosiy tamoyillarini tiklamay turib, kelajak hayotni qurib bo‘lmasligi anglashimiz kerak. Xususan, Prezidentimiz aytganlaridek, “Milliy ma’naviyatimizni rivojlantirish, uni xalqimiz, ayniqsa, hayotiga sindirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning ahamiyati katta. Afsuski, hozirgi paytda bu fanlar rivoji zamondan ortda qolmoqda.



Hususan, biz uchun nixoyatda dolzarb bo'lgan tarix fani ham bundan mustasno emas. Tarixga oid tadqiqot ishlari asosan bayonchilik, publitsistik usulda olib borilmoqda. Natijada olis va yaqin o'tmishimizning ko'pgina voqealarning mazmun-mohiyati, ularni yuzaga keltirgan omillar va tarixiy qonuniyatlar ochilmasdan qolmoqda"[1]. Jamiyatda millatning ruhiy ma'naviy xususiyatlari tarixiy taraqqiyot jarayonida rivojlanadi. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, o'zining mustahkam davlatchilik siyosati yuksak vatanparvarlik ma'naviyati uzoq tarixga borib taqaladi. Shuningdek, turkiyalik olim, professor Usmon Turon tarixiy xotirani millat rivojidadagi o'rniga, belgilovchi o'rinni ajratadi. Jumladan: u shunday yozadi: "bashariyat xofizasida mavjud bo'lgan tarix shuurda yashar ekan, millatlar shaxsiyatini o'stirishga, madaniyat va mafkuralarni quvvatlantirishga xizmat qiladi. O'z xalqi tarixini bilmagan millatlar xotira va idroklarini yo'qotib qo'ygan davdirlarga o'xshaydi. Bu alpozda yashayotgan millatlarning yuksalishiga yoxud o'zligini muhofaza etishlariga, hatto ularning tarqalib ketmasligiga kafolat yo'q[2]".

Sobiq ittifoq davridan qolgan mafkura asosida yashab bo'lmasligini tarixiy taraqqiyot jarayoni ko'rsatib qo'ydi. Shu bois, sho'rolar zamonida jamiyatdagi barcha jarayonlar "kommunistik" mafkura asosida amalga oshirilgan bo'lib, rasman mustaqil, lekin amalda markazga bo'ysindirilgan respublikalarda xalq ma'naviyati, qadriyati umuman hisobga olinmas edi, qolaversa, hukmron mafkura asosida jamiyat boshqarib kelingan.

Turli millat va elatlardan etishib chiqqan mutafakkirlar hukmron mafkura talablariga mos tushsa, darsliklarga kiritilgan. Masalan, «O'zbekiston SSR tarixidan hikoyalar»[3] kitobida Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabi qomusiy olimlar haqida qisqagina ma'lumot berilgan, Imom Buxoriy, Iso at-Termiziy, Abu Mansur al-Moturidiy, Burhoniddin Marg'inoniy, Zamaxshariy kabi yuzlab buyuk mutafakkir, muhaddis, ulamolar to'g'risida esa lom-mim deyilmagan va o'rganishga yo'l qo'yilmagan.

Binobarin, o'tmishga nazar tashlar ekanmiz, milliy yakdillik orqali ijobiy natijalarga ham erishilganini ko'ramiz. Tarixiy voqealarni o'rganishda to'g'ri ilmiy-nazariy, metodologik asoslarga tayanishning ahamiyati juda katta. Sovetlar xukmronligi davrida tarixiy tadqiqotlar, uni o'qitish va o'rganish ishlari markscha-lenincha metodologiyaga bo'ysundirildi. Har qanday voqeani yoritishga sinfiylik, partiyaviylik nuqtai nazarlaridan yondashildi. Tarixiy voqea-hodisalar kambag'allarni va yo'qsillarni himoya qilgani tarzda, ularning manfaatlariga muvofiq holda yoritildi [4].

Xalqimizning haqiqiy tarixini o'rganishga bo'lgan bugungi kundagi intilish tabiiy ravishda jamiyatda milliy ongni rivojlanishiga sabab bo'ladi. Prezidentimiz



Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, “Tan olishimiz kerak, jamiyatimiz hayotining barcha soha va tarmoqlari qatori ma’naviy – ma’rifiy ishlarimizda ham hali echimini kutib turgan, o‘zgarishlar shamoli kirib bormagan masalalar oz emas. Yangi hayot, yangi jamiyat qurishga qaratilgan islohotlar jarayonida bu ishlarimizning nazariy asosi bo‘lgan milliy g‘oyani rivojlantirish, ayniqsa, g‘oyat muxim ahamiyatga ega. Jahon tarixiga nazarga solsak, har bir xalq avvalo o‘z milliy g‘oyasi asosida birlashib, taraqqiy etgani, murakkab sinovlardan o‘tib kelayotganiga amin bo‘lamiz” [5].

Har bir xalq, elat va millat o‘zining ijtimoiy hayotini aks ettiradigan etnik ongga ega hisoblanadi. Milliy ong insonning biror-bir etnik qatlamga munsubligini his etishi, o‘z o‘tmishi va ajdodlari haqida tarixiy tasavvurga ega bo‘lishi, milliy an’ana, marosim va qadriyatlarni umuinsoniy qadriyatlar asosida anglashidir. Masalan, “tarixiy xotira milliy ongning komponenti bo‘lgani holda, ijtimoiy ongning boshqa shakllarining o‘rnini bosmaydi va ayniqsa, ularga zid kelmaydi, balki ular bilan o‘zaro munosabatda bo‘ladi ” [6], shu bilan birga tarixiy tafakkur tarixiy xotira asosida shakllanar ekan, xalqning milliy tarixiy xotirasi yo‘qolishi uning kelajagi barham topishiga olib kelishi mumkinligi haqidagi turli hil qarashlar bor. Shu bois, tarixiy xotiraning, ayniqsa, milliy tarixiy xotiraning shakllanishida, avvalo, xalq og‘zaki ijodi juda katta o‘rin tutadi. Xalq ijodida ezgulik va olijanoblik, mardlik va qahramonlik, vatanparvarlik va insonparvarlik tarannum etilgan. Jamiyatda yangi davr boshlanganda kechagi kun tarixiy xotirasida ustivor bo‘lgan o‘tmish qahramonlari va qadriyatlari turli hil ziddiyatlarga uchraydi. Shu bois, jamiyatda tarixiy tafakkur va tarixiy xotiraning ta’siri, ayniqsa, millat davlat tarixidagi burilish jarayonlarida yaqqol namoyon bo‘ladi, milliy uyg‘onish jarayoni tezlashishiga olib keladi.

Masalan, huquqshunos olim J. Toshqulov “XIX asrning ikkinchi yarmida Chor Rossiyaning olib borgan bosqinchilik, mustamlakachilik, talonchilik, zo‘ravonlik siyosati mahalliy xalqparlikning qattiq qarshiligiga uchradi. Ular o‘z vatanini himoya qilish va uning davlat mustaqilligini saqlab qolish, keyinchalik mustamlakachilik zulmiga barham berish uchun mardanavor kurash olib bordilar. Bu kurash jarayonida mustaqillikka erishish yo‘llari haqida ilk g‘oyalar shakllana boshladi. Bu davr xalqlari tarixiga mustaqillik uchun kurashning dastlabki bosqichi sifatida kirdi.” – deb ta’kidlaydi[7]. Bu tarixiy haqiqat. Biroq masalaning siyosiy jihatdan mushohada qiladigan bo‘lsak, unga kengroq yondashish zarur deb hisoblaymiz. O‘zbekistonda mustaqillikni dastlabki yillaridan boshlab, tarixiy jarayonlarni ma’naviyatning oliy mezonlari asosida shakllanganligi bilan izohlashimiz mumkin.

Ko‘p millatli O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, milliy masalaga, O‘zbekistonda istiqomat qiluvchi millatlar o‘rtasidagi tinch-totuvlikni juda ham nozik



bo‘lgan milliy his tuyg‘ularga, milliy, madaniy, ma’naviy ehtiyojlarni har tamonlama nozik did, o‘tkir farosat bilan yondashilmoqda. Buning sababi: milliy madaniyatlarning o‘zaro ta’siri va o‘ziga xosligi, ularning bir-birini boyitishi va shu qatori birikishidir. O‘zbekiston ko‘p millatli davlat hisoblanib va uning milliy xususiyatlarga to‘g‘ri yondashilsa, bu davlatning ma’naviy, ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti uchun katta imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ko‘p millatlilikka yondashuv boshqa davlat rahbarlariga nisbatan tubdan farq qiladi, ayrimlar ko‘p millatlilik ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ko‘p millatlilikka yondoshuv boshqa davlat rahbarlariga nisbatan tubdan farq qiladi, ayrimlar ko‘p millatlilik ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni sekinlashtiradi, degan fikrni ilgari sursa, u ko‘p millatlilik “... bu ko‘p millatli, bag‘rikeng, mexnatkash va olijanob xalqimizning tub manfaatlari, uning orzu-intilishlarini ifoda etadigan ana shu siyosatni jadal davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki uni yanada yuksak bosqichga ko‘taramiz” [8]. Shunday qilib, millat ichidagi turli xil turli xil moddiy turmush tarziga, turli xil moddiy turmush sharoitiga ega bo‘ladilar, ya’ni ruhiy kechinmalarga ega bo‘ladilar va ular jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga o‘z manfaatlarini ifodalagan tarzda yondashadilar. Shuning uchun ham S. Mamashokirov ana shu nozik masalaga e’tibor berish zarurligini ta’kidlab o‘tadi “... hozirdanoq, ”e’tibor berish zarurligini ta’kidlab o‘tadi: “... hozirdanoq, bir millat o‘z ehtiyojlari va manfaatlarini boshqa millatning yoki boshqa xalqlar vakillarining huddi shunday intilishlarini kamsitish hisobiga ro‘yobga chiqarmasligi lozim.[9]” Shuningdek, ko‘pgina boshqa millat vakillari shu millatning urf-odatlarini, an’analarni shu darajada o‘zlashtirib oladilarki, bu urf-odatlar, an’analari ularning turmush tarziga aylanadi, hamda ular shu millat ravnaqi uchun haqiqiy jonkuyarga aylanadilar. Ular boshqa millat vakillari bo‘lsalar ham, shu millatning qahramonlariga aylanadilar. Abduqahhor Ibrohimov ana shu masalaga e’tiborni beradi: “Arman qizi Tamaraxonim o‘zbek ashula va lapar san’atini butun dunyoga mashhur etdi. Boshqird qizi Galiya Izmaylova o‘zbek balerinasini sifatida nom qozondi. Ozarbayjon farzandi Maqsud Shayxzoda, tatar o‘g‘loni Asqad Muxtor o‘zbek adabiyotini o‘zbekona xalqchil asarlar bilan boyitdilar. Buxoro yahudiylari – Sulaymon Yudakov o‘zbek klassik operasi bo‘lmish Maysarani ishini yaratdi, Manas Leviev “O‘rik gullaganda” kabi o‘nlab qo‘shiqlari bilan xalqimizni maftun ayladi. Maryam Yoqubova “O‘tkan kunlar” filmida haqiqiy O‘zbekoyim bo‘ldi”[10].

Shundan ko‘rishimiz kerakki, yuqorida nomlari tilga olingan yozuvchi, san’atkorlar xalqimiz orasidagi mashhur yozuvchi, san’atkorlar qatoridan o‘rin egalladilar. Shuni e’tiborga olish kerakki, ko‘pchilik bu adabiyotchi va san’atkorlarning millatini bilishmaydi va ularni xalqiy o‘zbek deb qabul qilishadi. Shu bois, tarixni adabiyot va



san’at vositasida badiiylashtirib taqdim qilish naqadar muhimligini bildiradi. Shuning uchun ham o‘tmishga munosabat – murakkab jarayondir. Jamiyatda yashovchi har bir xalq tarixida shonli sahifalar ham, qora sahifalar ham bo‘lgan. Shuning uchun tarixga munosabat – murakkab masala hisoblanadi. O‘tmishni haqqoniy tarzda jamiyatga yoritib berish zarur.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik – milliy g‘oyamizning poydevoridir.* – Toshkent: “Tasvir”, 2021. – B. 24-25.
2. *Usmon Turon. Turkiy xalqlar mafkurasi.* – Toshkent: 1995. – B.5.
3. *O‘zbekiston SSR tarixidan hikoyalar.* – Toshkent: O‘qituvchi, 1989. – B.17.
4. *Usmonov Q, Sodiqov M, Oblomurodov N. O‘zbekiston tarixi 1-qism.* –Toshkent. Abdulla Qodiriy, 2002. – B. 8.
5. *Bo‘ronov Mizrob Mavlonovich O‘zbekistonda ma’naviy tiklanishdan yuksalishga o‘tish jarayonlarining ijtimoiy-falsafiy jihatlari. 09.00.04 – Ijtimoiy falsafa falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.* Toshkent 2020. – B.12.
6. *Гулямова Д., Никитченко Г. Историческая память как объект изучения социологии // Общественное мнение. Права человека.* – Ташкент, 2001. – С.99.
7. *Toshqulov J. O‘zbekiston hududida mustaqillik haqidagi g‘oyalarning shakllanishi va rivojlanishi. O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat –maqolalar to‘plami.* –Toshkent: Adolat, 1997, – B.40.
8. *Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari.* – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2020. – B.126.
9. *Mamashokirov S. Inson, ma’naviyat, ziddiyat// Muloqot.1/2001.-B.19.*
10. *Ibroximov A. Bizkim o‘zbeklar...* – Toshkent: 1999. – B. 252.



Jurayeva Shaxnoza Saadmuratovna,
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti
kichik ilmiy xodimi

YOSHLAR KAMOLOTIDA MILLIY QADRIYATLARNING O‘RNI

Annotatsiya. Jamiyatda o‘ziga xos, barqaror, muvofiqlashtirilgan qadriyatlarning mavjudligi odamlarning ma’naviy va ijtimoiy-madaniy immunitetini ta’minlaydi. Qadriyatlar madaniyat ustidan himoya qiladi. O‘z qadriyatlarini yo‘qotgan jamiyat muqarrar ravishda tarix sahnasini tark etadi. Qadriyatlar yoshlarni rivojlantirish va tarbiyalash uchun me’yoriy-imperativ jihatni belgilaydi. Bu manzarani bilgan va o‘zlashtirgan yoshlar jamiyat ulardan nimani kutayotgani, qanday yashashi, nima bo‘lishi va nimaga intilishi haqida aniq tushuncha va tasavvurga ega bo‘ladi. Maqolada zamonaviy yoshlar rivojlanishining qadriyat jihatlari ko‘rib chiqiladi. Qadriyatlar har qanday jamiyatning tayanch tuzilmalari bo‘lib, undagi a’zolarining mentalitetini tashkil etishi ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: qadriyat, yoshlar, jamiyat, konsepsiya, ideallar, farovonlik, oila, ijtimoiylashuv.

Аннотация. Наличие в обществе конкретных, устойчивых, согласованных ценностей обеспечивает духовный и социокультурный иммунитет людей. Ценности защищают выше культуры. Общество, утратившее свои ценности, неизбежно сойдет со сцены истории. Ценности определяют нормативно-императивный аспект развития и воспитания молодежи. У молодых людей, знающих и осваивающих этот ландшафт, будет четкое понимание и видение того, чего ждет от них общество, как жить, кем стать и к чему стремиться. В статье рассматриваются ценностные аспекты развития современной молодежи. Ценности являются базовыми структурами любого общества, и показано, что они формируют менталитет его членов.

Ключевые слова: ценность, молодёжь, общество, концепция, идеалы, благополучие, семья, социализация.

Abstract. A society that has lost its values will inevitably leave the stage of history. Values determine the normative-imperative aspect for the development and education of young people. Young people who know and master this landscape will have a clear understanding and vision of what society expects from them. The article examines the value aspects of modern youth development. Values are the basic structures of any society, and it is shown that they form the mentality of its members.

Key words: value, youth, society, concept, ideals, well-being, family, socialization.

“Qadriyat” tushunchasi har doim faylasuflar, sotsiologlar, psixologlar, madaniyatshunoslar uchun qiziqish obyekti bo‘lib kelgan va bu qadriyatlarning turli tushuncha va nazariyalarida o‘z ifodasini topganligi bilan dalillanadi. Qadriyatlar



va qadriyat yo‘nalishlarini o‘rganishning klassik va zamonaviy sotsiologik, falsafiy va ijtimoiy-psixologik konsepsiyalarini tahlil qilish bizga ushbu tushunchalarni talqin qilishning ko‘plab yondashuvlarini aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, zamonaviy ijtimoiy-tarixiy sharoitda tahlil yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlaridan qat’iy nazar, ijtimoiy qadriyatlar individual va ijtimoiy ongning eng muhim tarkibiy qismlari sifatida o‘rganiladi, hayot strategiyalarini shakllantirishga ta’sir qiladi, ijtimoiy xulq-atvor va ijtimoiy subyektlarning o‘zaro ta’sirining xarakterini aniqlashdagi ularni amalga oshirishning asosiy vositalaridir [5].

Inson va jamiyatni o‘rganish bilan shug‘ullanadigan fanlar uchun qadriyat yo‘nalishlari muammolari eng muhimlaridan biridir. Buning sababi, birinchi navbatda, qadriyatlar bir shaxs uchun ham, har qanday ijtimoiy guruh, millat va butun insoniyat uchun integral asos bo‘lib xizmat qiladadir.

Qadriyatlar - bu voqelikni idrok etishda ustuvorliklarni belgilovchi, hayotning barcha sohalarida o‘z xatti-harakatlar yo‘nalishlarini belgilaydigan va asosan jamiyatning “hayot tarzi” ni shakllantiradigan eng muhim maqsadlar va xulq-atvor normalari to‘g‘risidagi odamlarning umumlashtirilgan g‘oyalaridir. Umumlashgan shakldagi tizim yoki ustun qadriyatlar to‘plami ma’lum bir jamiyatning madaniyati va tarixiy tajribasining xususiyatlarini ifodalaydi [6].

Qadriyat yo‘nalishlari - bu shaxsning ijtimoiylashuv va ijtimoiy moslashuv jarayonlarida hayotiy tajribasi bilan shakllangan va mustahkamlangan, muhimni ahamiyatsizdan ajratib turadigan shaxsning ichki (dispozitsiyaviy) tuzilishining elementlarida namoyon bo‘lishidir. Shaxs hayotining yakuniy ma’nolari va asosiy maqsadlari doirasi sifatida qabul qilingan ma’lum qadriyatlarni shaxs tomonidan qabul qilmaslik, shuningdek ularni amalga oshirishning maqbul vositalarini aniqlash orqali ro‘yobga chiqadi [3].

Jamiyatdagi jadal ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, iqtisodiy taraqqiyotning jadallashuvi bilan bir qatorda insonga axborot ta’sirining soni va hajmining ortishi kuzatilmoqda, stress omillari soni ortib bormoqda. Bunday sharoitda tashkilot xodimlari, ayniqsa, yoshlar oldida muvaffaqiyatli, raqobatbardosh bo‘lish va shu bilan birga jismoniy va ruhiy salomatlikni saqlash vazifasi turibdi, kadrlar tanlash sohasida ishlaydigan psixologlar uchun esa, vazifa xodimlarning muvaffaqiyatini samarali bashorat qila oladigan bunday shaxsiy tuzilmalar uchun [7].

Zamonaviy ijtimoiy-madaniy voqelikda globallashuv, axborot, jinsiy va boshqa inqiloblar kabi umumiy sivilizatsiya tendensiyalari ta’sirida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar jamiyat ma’naviy qadriyatlari evolyutsiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi va



ko'rsatmoqda. Shu sababli, ma'naviy qadriyatlar tushunchasi doimiy modernizatsiya jarayonlari, XX asrning ikkinchi yarmida boshlangan ishlab chiqarish munosabatlaridagi global o'zgarishlar tufayli paydo bo'lgan zamonaviy “xavf jamiyati” ning ijtimoiy voqeliklari kontekstida yangi ma'no kasb etadi. Hayotiy qadriyatlar va maqsadlar tizimi shaxsning mazmunini belgilaydi. Bu uning atrofidagi dunyoga, boshqa odamlarga, o'ziga bo'lgan munosabatlarining asosini tashkil qiladi. Hayotiy maqsadlar va qadriyatlar insonning asosini tashkil qiladi, ularsiz u to'liq yashay olmaydi, dunyo bilan o'zaro aloqada bo'lmaydi [1].

Yoshlar alohida ijtimoiy guruh sifatida doimiy ravishda psixologlar va sotsiologlarning tadqiqotlari diqqat markazida bo'ladi, chunki aynan ular davom etayotgan o'zgarishlarning ko'rsatkichi bo'lib, butun jamiyatning rivojlanish salohiyatini belgilaydi. Qadriyatlarning muqarrar ravishda qayta baholanishi, o'rnatilgan poydevorlarni buzish sharoitida aniq bo'lgan inqirozi, eng muhimi, ushbu ijtimoiy guruhning ongida namoyon bo'ladi. Zamonaviy yoshlarning ma'naviy yo'nalishlarini, hayotiy ustuvorliklarini o'rganish juda muhim, chunki bu uning yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashish darajasini aniqlashga imkon beradi. Jamiyatning kelajakdagi holati ko'p jihatdan yosh avlodda qanday qadriyatlar poydevori shakllanishiga bog'liq [2]. 16-27 yoshni ijtimoiy kamolotning shakllanishi, “kattalar dunyosi” ga kirish va unda moslashish davri sifatida tavsiflash mumkin. Yoshlarning ijtimoiy mavqeining xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

- jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy normalarni o'zlashtirish zarurati;
- yangi ijtimoiy rollarni ishlab chiqish;
- ijtimoiy harakatchanlikning yuqori darajasi;
- hayotiy qadriyatlar va ustuvorliklarni shakllantirish;
- hayotda o'z o'rnini faol izlash.

Yoshlar ko'plab ijtimoiy jarayonlarda ishtirok etishlari nafaqat amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning o'ziga xos ko'rsatkichi, balki kelajak jamiyat salohiyatini ham shakllantiradi. Qadriyatlar shaxs va jamiyat tizimining integratsiyasida muhim rol o'ynaydi.

Shaxsning hayotiy qadriyatlarini u o'z hayotini quradigan va baholaydigan baholash va chora-tadbirlar ko'lamini deb atash mumkin. Qadriyatlar tizimi - bu shaxsning harakat va xulq-atvorlarini amalga oshirishda amal qiladigan e'tiqod va munosabatlar yig'indisidir. Bunda “qadriyat” tushunchasi “motivatsiya” tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Jamiyat dinamik va yoshlar uning eng harakatchan qismidir. Ular o'zlarining qadriyatlarini doimiy ravishda qayta ko'rib chiqadilar va qayta baholaydilar. O'tmishda



bo‘lgani kabi hozir ham sevgi, e’tiqod, oila, mehr-oqibat, adolat kabi abadiy qadriyatlar mavjud va e’tirof etilmoqda. Biroq, bu qadriyatlar yaqinda odamning mutlaq qulaylik, barqarorlik, moddiy boylik, xudbinlik va hokimiyatga bo‘lgan istagiga yo‘l ochdi.

Ko‘pgina tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, shaxs qadriyatlar va me’yorlar to‘g‘risidagi tayyor g‘oyalar to‘plami bilan tug‘ilmaydi, u ularni asta-sekin, ijtimoiylashuv jarayonida o‘zlashtiradi, bu esa, bevosita shaxs rivojlanadigan muhitga bog‘liq. Yoshlarning qadriyatlarga yo‘naltirilganligiga ko‘plab omillar ta’sir qiladi. Shaxsning birlamchi ijtimoiylashuvi oilada sodir bo‘ladi. Bolada hali axloqiy g‘oyalar shakllanmaganligi sababli ota-onalar unga kattalarga hurmat, do‘stlashish qobiliyati, xushmuomalalik, jamiyatda xulq-atvor, axloq kabi ma’naviy qadriyatlarni singdiradilar. Aynan oilada turli vaziyatlarga munosabat namunalari o‘zlashtiriladi va ko‘chiriladi.

Aksariyat insoniy qadriyatlar hokimiyat ta’siri ostida shakllanadi. Agar hayotning dastlabki bosqichlarida ota-onalar va oilaning fikri obro‘li bo‘lsa, kelajakda tengdoshlar va do‘stlar katta rol o‘ynaydi. Ijtimoiy doirani saqlab qolish va o‘zini o‘zi tasdiqlash uchun faoliyat sohasiga ega bo‘lishni xohlaydigan bola, ma’lum bir guruh odamlarning xatti-harakatlari qoidalariga har tomonlama moslashadi va natijada ijobiy bo‘lgan ma’lum qadriyatlarni o‘zlashtiradi [8].

Submadaniyatni yoshlarning hayotiy qadriyatlarini shakllantirishga ta’sir qiluvchi omillardan biri deb atash mumkin. Yoshlar submadaniyati deganda ma’lum bir yosh avlod madaniyati, umumiy turmush tarzi, xulq-atvori, guruh normalari, qadriyatlari va stereotiplariga ega bo‘lgan ijtimoiy guruh tushuniladi. Submadaniyat – bu o‘z maqsadlari, qadriyatlari, ideallari, illyuziyalarining tashuvchisidir. U shaxs dunyoqarashining shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Ammo shuni ta’kidlash kerakki, so‘nggi yillarda submadaniyatlar o‘zgargan. Endi ularning o‘rnini yangi ijtimoiy harakatlar faol egallaydi. Shu munosabat bilan, yangi g‘oyalar va fikrlar ta’siri ostida qadriyatlarni qayta baholash mavjud. Shaxsda hayotiy qadriyatlarni shakllantirishda madaniyat va san’at ma’lum rol o‘ynaydi. Filmlarni tomosha qilish, kitob o‘qish, musiqiy kompozitsiyalarni tinglash - bularning barchasi ongimizda iz qoldiradi. Ularning ta’siri ostida insonning dunyoqarashi, axloqi va boshqa hayotiy qadriyatlari va ustuvorliklari shakllanadi.

V.P.Tugarinovning yozishicha, qadriyatlar tasnifiga bag‘ishlangan adabiyotlarda ularni “hayot va madaniyat qadriyatlariga bo‘lish” mavjud. Hayot va madaniyat o‘rtasidagi farq aniq. Insonga hayot tabiat tomonidan berilgan, madaniyat esa odamlar tomonidan yaratilgan. Madaniyat qadriyatlari moddiy va ma’naviy qadriyatlarga bo‘linadi. Bu hayot qadriyatlari nazariyasini ishlab chiqish, bu tarbiyaviy xarakterdagi



ko‘plab savollarga javob berishga imkon beradi: hayotning mazmuni, uning haqiqiy va yolg‘on qadriyatlari, hayot optimizmi, insonning haqiqiy baxti nima va boshqalar” [4].

Zamonaviy jamiyatimizdagi o‘zgarishlar muqarrar ravishda yosh avlodning qadriyat yo‘nalishlari tizimida, kasbiy faoliyat sohasini tanlash motivatsiyasida sezilarli o‘zgarishlarga olib keldi. Talabalar yoshlarning bir qismi bo‘lib, mehnat va hayotning alohida sharoitlari bilan ajralib turadigan o‘ziga xos ijtimoiy guruhdir. Ushbu hayot davrida yoshlar atrofdagi dunyoni qayta ko‘rib chiqish, g‘oyalarni qadrlash va umuman dunyoqarash bilan bog‘liq muammolar bilan birinchi o‘ringa chiqadi. Yoshlarda bo‘lajak kasbida o‘z qiyofasini yaratishga qiziqish ortib bormoqda.

Yoshlarni sotsializatsiya qilish institutlari faoliyati samaradorligining asosiy qiyinchiligi kelajakning aniq belgilangan qiyofasi va jamiyatning yaxlit ijtimoiy organizm sifatida rivojlanishining yaqin istiqbollarning yo‘qligi, yagona tuzilmaning yo‘qligida namoyon bo‘ladi. Ushbu qiyinchilikning oqibati yoshlarning mavjud sotsializatsiya institutlariga va jamiyatning qadriyatlar tizimiga ishonchsizligi, ijtimoiy kafolatlarning pasayishi sharoitida ijtimoiylashuv omillarining yoshlarga ta’sirining kuchayishi va jamiyatning innovatsion salohiyati o‘rtasidagi muqarrar ziddiyatda ko‘rinadi.

Yangicha turmush tarzi, jinoiy aql-zakovat, shafqatsizlik, erkinlik va mas’uliyatsizlikni namoyon etuvchi salbiy yot madaniyat namunalari ta’sirida, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida milliy qadriyatlar, urf-odat va marosimlarning “yemirilishi” insoniy munosabatlar bosqichining jiddiy muammosidir. Yoshlarning yoshi, hayotiy tajribasi kamligi tufayli ularning ma’naviy e’tiqodi va mavqei beqarorligi ular ongiga g‘ayriinsoniy, axloqsiz, ekstremistik g‘oyalarning kirib kelishiga xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida qayta tiklangan mahalla instituti o‘zbeklarning shaxsiy, mehnat va ijtimoiy hayotida muhim o‘rin tutadi. Mahalla tarixan va zamonaviy ma’noda hamisha yagona yashash joyi, umumiy ijtimoiy va boshqa manfaatlar bilan bog‘langan odamlarning aniq belgilangan ijtimoiy, madaniy va ma’naviy hamjamiyati sifatida faoliyat ko‘rsatib kelgan va faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Mahalla fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish tizimining asosi bo‘lib, jamiyatning dolzarb masalalarini hal etishda xalq ishtirokini ta’minlaydi. Iqtisodiyot, ijtimoiy va madaniy hayotning dolzarb masalalari bo‘yicha ko‘pincha jamoaviy fikr shu yerda shakllanadi, odamlarning jamiyatdagi xatti-harakatlari qoidalari belgilanadi. Yosh avlodda yuksak ma’naviyat va axloqni shakllantirish mahalla faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biridir.



Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Матюх Е.Т. Жизненные ценности современной молодежи в условиях социального риска // *Современные проблемы науки и образования*. – № 4, 2012. (дата обращения: 31.08.2022).
2. Андрееenkova A.B. Жизненные планы, ценностные ориентации и моральный облик молодежи. – Казань: Знания, 2007. – 278 с.
3. Журавлева Н.А. Динамика ценностных ориентаций молодежи в условиях социально-экономических изменений // *Психологический журнал*. – № 1, 2006. – С. 35-44.
4. Кули Ч. Социальная самость // *Американская Социологическая мысль: / Под общ. ред. В.И. Добренкова*. – Москва: Международный университет бизнеса и управления, 1996. – С. 314-327.
5. Лапин Н.И. Динамика ценностей населения реформируемой России /Н.И.Лапин, Л.А.Беляева, Н.Ф.Наумова, А.Г.Здравомыслов. – Москва: Эдиториал УРСС, 1996. – 224 с.
6. Лутовенко В.М. Проблемы ценностные ориентации молодежи в Территория науки. –№ 5, 2015. Современное общество //Социс. – Москва: «Наука», – №4, 2009. – С. 63. Мачулская И.А., Беляев Р. В., Машин В.Н.
7. Абдирайымова Г.С. Ценностные ориентации молодежи // *Мысль*. – № 7, 2005. – С. 58–62.
8. Елишев С.О. Теоретико-методологические подходы к изучению понятий «ценность», «ценностные ориентации» // *Вестн. Моск. ун-та. Сер. Социология, Политология*. – № 3, 2010. – С. 74–90.



Malohat SAIPOVA,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

MILLIY QADRIYATLAR: MEHNAT MIGRATSIYASIGA KETGANLARNING OILAVIY MUNOSABATLARIDAGI O'ZIGA XOSLIKLAR

Annotatsiya. Maqolada muallif oila ijtimoiy institutini fanlar kesimida o'rganilishi, oiladagi qadriyatli yo'nalishlar tizimi va aholining mehnat migratsiyasiga chiqib ketish sabablari, mehnat migrantlari oilalarida milliy qadriyatlarning saqlanishi xususida fikr yuritadi.

Tanyach so'zlar: oila, qadriyatli yo'nalishlar, migratsiya, ichki, tashqi, kelajak, ma'naviyat.

Аннотация. В статье автор размышляет об изучении социального института семьи в разрезе науки, системы ценностных направлений в семье и причин миграции населения, сохранения национальных ценностей в семьях трудовых мигрантов.

Ключевые слова: семья, ценностные ориентации, миграция, внутренний, внешний, будущее, духовность.

Annotation. In the article, the author reflects on the study of the social institution of the family in the context of science, the system of value directions in the family and the reasons for the migration of the population, the preservation of national values in the families of labor migrants.

Key words: family, value orientations, migration, internal, external, future, spirituality.

Har bir davlatning buyukligi uning fuqarolari, hududida istiqomat qiluvchi aholisining miqdoriy va sifatga oid ko'rsatkichlari bilan belgilanadi. Insoniyat o'zining minglab yillar davomida mavjud bo'lishida ishlab chiqqan turmush tarzi – bu oila bo'lib, u jamiyatning birmuncha barqaror ijtimoiy instituti sifatida asosiy hayotiy qadriyatga aylandi.

Zamonaviy jamiyatda oila ko'plab fanlarning tadqiqot ob'ekti bo'lgan muhim ahamiyatga egalikni saqlab qolgan. Keling, shu o'rinda sohalar bo'yicha oilani o'rganish jihatlarini ko'rib chiqamiz:

1) *falsafa* oilani eng muhim umuminsoniy qadriyat, insoniyat mavjud bo'lishida sharoitlari yuqori ijtimoiy, tabiiy va ma'naviy maqsadga muvofiq bo'lgan yashash muhiti deb biladi;

2) *psixologiya* oilani barqarorligi uning a'zolarini o'zaro munosabatlariga bog'liq bo'lgan kichik ijtimoiy guruh sifatida idrok etadi;



3) *pedagogika* oilani bolalar va o‘smirlarning tarbiyalashdagi asosiy ijtimoiy institut sifatida tan oladi;

4) *yurisprudensiya* – oila a‘zolarining huquqiy munosabatlari va majburiyatlarini tadqiq etgancha, oilani a‘zolari o‘zaro huquqiy burch bilan bog‘langan kichik jamoa sifatida ta‘riflaydi;

5) *sotsiologiya* oilaga jamiyat uchun, avvalo, hayotiy zarur bo‘lgan reproduktiv, ijtimoiylashgan va ekzistensial funksiyalarni bajaruvchi eng muhim institut, jamiyatning kichik tizimi sifatida qiziqish bildiradi.

Jamiyatning noyob bioijtimoiy bo‘g‘ini bo‘lgancha oila o‘zining ijtimoiy jihatdan ahamiyatli qadriyatlar tizimini shakllantirish va rivojlantirishdagi roli boshqa ijtimoiy sub’ektlardan tubdan farqlanadi. Chunki faqat oiladagina hayotiy qadriyatlarning madaniy mazmuni singdiriladi, integratsiya jarayoni uzluksiz boradi. Qadriyatli yo‘nalishlar tizimi – turmush tarzining eng muhim komponenti (turmush tarzi – hayot kechirish darajasi) [2]. Zamonaviy jamiyatda qadriyatlar tizimi shaxsning rivojlanishiga, shuningdek, oila qurishi, kasbiy shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi shaxs dunyoqarashining elementi hisoblanadi. Aytish mumkinki, qadriyatlar tizimi barcha o‘zaro ijtimoiy harakatlarni boshqaradigan fundamentdir. Kimlar uchundir qadriyatlar ierarxiyasi doirasida moddiy mo‘ljal to‘plami, ya’ni oziq-ovqat, kiyim-kechak, pul, sayru-tomosha birinchi planga chiqadi. Boshqalar uchun esa bu to‘plam hayotiy muhim bo‘lmaydi, aksincha ma’naviy qadriyatlar birinchilikni kasb etadi.

Tan olish lozimki, ijtimoiy aloqalar va munosabatlarning ko‘p qirraliligini kuchayishi oqibatida oilaning tabiati birmuncha o‘zgardi. Mutaxassislar oilaviy munosabatlarning o‘zgarishi, nikoh va ota-onalik institutlarining kelgusida ajralishi sharoitida yangi institutlarning, ijtimoiy maqomlar va ota-onalar xulq-atvorining me‘yorlari yuzaga kelishiga e’tibor qaratdilar. “Bu jarayonlar davomida quyidagi ko‘rinishlar kuzatiladi:

- tug‘ilishning pasayishi va o‘limning ko‘payishi;
- xatar guruhidagi oilalar sonining ortishi;
- o‘smirlar muhitida deviant axloqning yuqori darajasi;
- turmush tarzi sifatida yolg‘izlik fenomenining institutitsiallasuvi” [3].

Tadqiqot mavzuimiz mehnat migrantlarining oilalari bo‘lgani bois, shu toifa oilalaridagi qadriyatlar va munosabatlarga to‘xtalishni lozim topdik. Migratsiya jarayoni bugungi kunda dunyoning farovonlik jihatidan faqir davlatlardan tortib, rivojlanayotgan davlatlari-yu, rivojlangan davlatlarga ham daxl qilib ulgurdi. Aholi migratsiyasi – bu fuqarolarning doimiy yashash yoki o‘qish yoxud mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun hududda vaqtincha bo‘lish joyini o‘zgartirish maqsadida ham ichki, ham tashqi chegarani har qanday kesib o‘tishi bilan bog‘liq ham qanday ma’muriy-hududiy harakatidir [1].



Migratsiya:

- sabablari (ixtiyoriy va majburiy);
- tipi (ichki va tashqi);
- turi (ortga qaytadigan va ortga qaytmaydigan) bo‘yicha farqlanadi.

Migratsiyaning ixtiyoriy sabablari orasida salmoqli o‘rinni “oilaning iqtisodiy farovonligini ta’minlash” egallaydi. Oilani hamisha muqaddas sanagan o‘zbek xalqi ham bugungi kunda dunyo bo‘ylab mehnat migratsiyasi jarayoni ishtirokchisi sifatida hayot kechirmoqdalar. Oilada er yoki xotinning mehnat migratsiyasida bo‘lishi ularning farzandlari tarbiyasida muayyan iz qoldirishi, tabiiy. Biroq har ikki ota-onaning mehnat migratsiyasiga chiqib ketishichi?! Voyaga etayotgan farzandlarini keksa avlodga: ota-onasi yoki buvi-buvasiga yoki xolasi, amakisi, tog‘asiga tashlab ketar ekanlar, ularning kelajagini iqtisodiy jihatdan ta’minlayotganlariga ishonadilar. Biroq masalaning ma’naviy jihatini nazardan qochirayotganlarini hamisha ham anglab etmaydilar. Chunki:

- ota-onalaridan biri yoki har ikkalasi mehnat migratsiyasiga chiqib ketgan holatda bolalar tirik ota-onasi bo‘la turib, o‘zlarini noto‘liq oilada voyaga etayotgandek idrok etadilar;

- 3 yoshdan keyingi yosh davriga o‘tish va o‘smirlik, o‘spirinlik yoshiga o‘tishdagi o‘ziga xoslikni qiyinchilik bilan boshdan kechiradilar;

- ota-ona g‘amxo‘rligidan, ko‘magi, nazorati-yu, mehridan baxramand bo‘lmagan bolalar psixologik stressni his qilib yashaydilar;

- erta ulg‘ayishga duchor qilingan bolalar ishonchni yo‘qotadilar, kattalar va tengdoshlari bilan muloqotda qiyinchilikni his qiladilar.

Ham ota, ham onasi mehnat migratsiyasiga chiqib ketayotgan bolalar ko‘p hollarda buvi-buvalarga, yaqin qarindoshlarga qoldiriladi. Katta avlodning yosh xususiyatiga ko‘ra, bolalar muayyan nazoratda bo‘ladilar, biroq yaqin qarindoshlarning o‘z shaxsiy oilalari borligi tufayli etarlicha e’tibor qaratilmagan bolalar ko‘pincha o‘z hollariga tashlab qo‘yiladi. Tadqiqotimiz doirasida bolalarning oiladagi munosabatlarda buvi-buvalari orqali milliy qadriyatlarning singdirilayotganiga amin bo‘ldik:

- “Men mustaqil hayotga qadam qo‘yganimda buvamga o‘xshab yurtimizga xizmat qilaman. Fabrika qurib, sex ochaman, ko‘plab odamlarni ishga olaman. Shunda ularning yaxshiroq yashashiga hissa qo‘shaman va hech kim chet elga chiqib ketmaydi”;

- “Buvim yoshliklaridan gilam to‘qigan ekanlar, hozir hamma ishni texnika bajarsa-da, qo‘l mehnati ko‘pchilikka yoqadi. Men ham hunarmand bo‘laman”;

- “O‘z ishimni ustasi bo‘lsam, ko‘p pul topaman va ota-onamni haj safariga olib boraman”;



– “Buvimni har bayramda o‘quvchilari yo‘qlab kelishadi. Ko‘pincha ular nabiralarini ham olib kelib buvimni o‘rnak qilib ko‘rsatishadi. Buvim “ustoz – otangdek ulug‘”, deb bejiz aytishmagan, deyдилar”. Ularga o‘xshashni istayman”;

– “Buvam oyoqlaridan urushda ayrilgan ekanlar. “Urushning nomi o‘chsin, tinchlik – oliy ne‘mat”, deyдилar doim. Tinch yashashning qadriga etish kerak”.

Bir tomondan bo‘lg‘usi oilaviy rollarga tayyorgarlik o‘taladigan, boshqa tomondan esa oila tomonidan ijtimoiy vakolatli, etuk shaxs shakllantiriladigan oilaning bola tarbiyasidagi o‘ziga xos o‘rni shubhasiz ekanini ta’kidlagan qadriyatli yo‘nalishlarning qaror topishida ham

Qarindoshlar qarorida bo‘lgan bolalar uchun “baxtli oila” tushunchasi o‘rnini “muvaffaqiyatli karera”, “moddiy ta’minot” kabi tushunchalar egallagan bo‘lsa, keksa avlod vakillari bo‘lmish buvi-buvalar qarorida bo‘lgan bolalar “mehr-muhabbat”, “yaxshi do‘st, “salomatlik”, “xavfsizlik”, “tinchlik”, “tabiat mehrga muhtoj” kabi atamalarning asl mohiyatini yaxshi tushunadilar. Shuningdek, qadriyatli yo‘nalishlarida “bilim olish”, “barqaror shaxsiy munosabatlar”, “haqiqiy sevgi”, “sodiq do‘st bo‘lish”, “oilal” kabi tushunchalarning o‘rni saqlanib qolgan.

“Qadriyatlar va xulq-atvor me‘yorlarining avlodlararo uzluksizligining buzilishi, oldingi avlodlarning ijtimoiy tajribasi qadrining yo‘qolishi natijasida, ba’zi rus olimlari ta’kidlaganidek, ijtimoiy tartibga solishning universal modellari mavjud bo‘lmaganida, yoshlarda individuallashtirish o‘z-o‘zini boshqarish shakli sifatida birinchi o‘ringa chiqadi” [4].

Xulosa tarzida aytish mumkinki, avlod-ajdodlarimiz tomonidan to‘plangan bitmas-tuganmas milliy qadriyatlar amal qiladigan mamlakatimizda o‘z kelayotgan avlodning ma’naviy qashshoqlashishiga yo‘l qo‘ymaslik, o‘z kelajagini, milliy qadriyatlarni saqlab qolish uchun, ayniqsa, mehnat migrantlarining oilalarida barcha ijtimoiy institutlar ta’sirini ishga solgan holda yosh avlodda etik va axloqiy barqaror qadriyatlarning shakllanishi va rivojlanishiga erishishga harakat qilmog‘i darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алексеева В.Г. Ценностные ориентации как фактор жизнедеятельности и развития личности. // Психол. журн. 1984. – Т. 5, № 5. – С. 63-70.
2. Антонов С.И. Семейный образ жизни в селской России. // Монография (по социально-педагогического опроса родителей и детей). – Москва: Ключ, 2006. – С. 14.
3. Верещагина А.Б. Трансформация института семьи и демографические процессы в российском обществе. // Автореф. дис.... д-ра социол. наук. – Ростов-на-Дону, 2009. – С. 3.
4. Зубок Ю.А., Чупров В.И. Социальная регуляция в условиях неопределенности. Теоретические и прикладные проблемы в исследовании молодежи. – Москва: Академия, 2008. – С. 173.



IV SHO‘BA.

KEKSA AVLODNING IJTIMOIY-IQTISODIY FAOLLIGI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA





Sh.M. Sodiqova,

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

“Din psixologiyasi va pedagogika” kafedrası professori,

sotsiologiya fanlari doktori

IJTIMOY GERONTOLOGIYANING DOLZARB MASALALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy gerontologiyaning paydo bo‘lishi, keksalarni ijtimoiy himoyalash masalalariga e‘tibor qaratilgan bo‘lib, unda keksalarning turmush tarzi, yangi sharoitlarga moslashishi, farzandlararo munosabatlari, ijtimoiy mavqei, oiladagi o‘rni tahlil etilgan. Shuningdek, ota-onaning farzandi oldidagi burch va majburiyatlari, farzandlarning ham ota-onalari olidadagi mas‘uliyatlari tadqiq etilgan.

Kalit so‘zlar: gerontologiya, ijtimoiy gerontologiya, keksalik, qarilik, uzoq umr ko‘ruvchilar, keksalarni ijtimoiy himoyalash modellari.

Аннотация. В данной статье основное внимание уделяется возникновению социальной геронтологии, вопросам социальной защиты пожилых людей, анализу образа жизни пожилых людей, адаптации к новым условиям, взаимоотношениям детей, социальному положению и роли в семье. Также исследованы обязанности и обязательства родителей перед своими детьми, и обязанности детей перед своими родителями.

Ключевые слова: геронтология, социальная геронтология, старение, старение, долгожители, модели социальной защиты пожилых людей.

Annotation. This article focuses on the emergence of social gerontology, issues of social protection of the elderly, analysis of the lifestyle of the elderly, adaptation to new conditions, children’s relationships, social status and role in the family. The duties and obligations of parents to their children, and the duties of children to their parents are also investigated.

Key words: gerontology, social gerontology, aging, aging, centenarians, models of social protection of the elderly.

Gerontologiya - (yunoncha gerontos – qariya va logos - fan) insonning qarishi to‘g‘risidagi fan. Ijtimoiy gerontologiya – keksalarning demografik, ijtimoiy-iqtisodiy, psixologik, axloqiy, ma‘naviy jihatlarini, keksalarning turmush tarzi, yangi sharoitlarga ijtimoiy moslashuvi, ijtimoiy mavqei, oiladagi o‘rni va roli o‘rganadi.

“Gerontologiya” keksalik haqidagi fan bo‘lib, u falsafa va tibbiyot uyg‘unligida yuzaga kelgan qadimiy fanlardan biridir. Uning paydo bo‘lishi tibbiyot ilmi asoschislari Gippokrat va Ibn Sino, faylasuflar Sitseron va Seneka nomlari bilan bog‘liqdir. Insoniyat o‘z taraqqiyotining ilk davridan boshlab uning butun tarixi davomida umrni uzaytirishga intildi va bu orzuni amalga oshirish uchun doimo vosita qidirdi.



Ma’no-mohiyatiga ko‘ra, gerontologiya – insoniyat madaniyati tengdoshi, u eng zamonaviy fanlarning qadimiysi va qadimiy fanlarning zamonaviysi bilan bir qatorda turadi. Keksalik haqidagi fan barcha davrlarda olimlar yaratgan yangi ilmlarni o‘zida mujassamlantirdi. Bular tibbiyot, fiziologiya, falsafa va biologiya, psixologiya, sotsiologiya, demografiya va etnografiya, tarix va huquqshunoslik bo‘lib, keyinchalik gerontologiya bioximiya, psixoanalitika, psixofiziologiya kabi yangi fan yutuqlari bilan boyidi. Keksalarni ijtimoiy himoyalash, qadrlash, inson hayotining mazmun-mohiyatiga doir masalalarning metodologik asosi qadimdan olimlarni qiziqtirib kelgan. Ma’naviy merosimiz «Avesto»da ham keksalarni qadrlash, ularga hurmat-ehtirom ko‘rsatish inson hayotining ma’no-mazmunini belgilaydigan muhim mezon ekani ta’kidlangan. «Avesto»da yozilishicha, insonning yashashidan maqsadi metindek e’tiqodli bo‘lib, yurtni obod, elni farovon, turli qavmlarning bir-biri bilan do‘st, qariyalarni qadrlab, e‘zozlab, ular nasihatlariga rioya etib, qariyalar bilan yoshlar bir-biri bilan inoq, bahamjihat bo‘lishini ta’minlashdan iboratdir.

Bu mavzuga bag‘ishlangan asarlar sifatida Mark Tuliyl Sitseron (eramizgacha 106-43 yy.)ning «Katta Katon keksalik haqida» va Abu Ali ibn Sino (980-1037 y.)ning «Tib qonunlari» asarini aytish mumkin. Mazkur asarlarni asrlar ajratib turadi, ammo qarilik muammolariga bag‘ishlangan maxsus va ilk tadqiqotlardan bo‘lganligi ularni birlashtiradi.

Keksalik masalasiga Abu Nasr Forobiy, Rizouddin ibn Faxriddin va boshqa Sharq allomalari ham alohida e’tibor qaratganlar. Jumladan, Kaykovus «Qobusnoma» asarida quyidagilarni yozadi: «Har kishi ota-ona (asli)ning yaxshiligini bilmasa, birovning yaxshiligiga baho berolmaydi. O‘z farzanding seni hurmat qilishini istasang, sen ham ota-onangni hurmat qil, chunki sen ota-onang haqiga nima ish qilsang, farzandlaring ham senga shunday ish qiladi»⁶⁷. Insonning ota-onasi barhayot chog‘lari eng baxtiyor, eng mas’uliyatli va g‘animat damlardir. Shu bois imkon qadar ularni rozi qilish va duolarini olish har bir oqil farzandning muqaddas burchidir.

Rizouddin ibn Faxriddin «Ilmi axloq» kitobida: «Naqadar baxt va martabalarga erishgan bo‘lsangiz-da, ota-onalaringizni hech vaqt unutmangiz! Ularga itoatli bo‘lib, hurmat qilingiz! Nasihatlarini tinglab, rizoliklarini olingiz!»⁶⁸ deya uqtirgan. XX asr boshlarida yashab o‘tgan M.Behbudiy, A.Fitrat kabi ma’rifatparvarlarning asarlarida jamiyat taraqqiyotida keksalarning o‘rni, ularni qadrlash mezonlari haqida fikrlar bildirilgan.

Bugungi kunda dunyoda keksayish va keksalik muammolari xalqaro ahamiyatga molik ijtimoiy-sotsiologik masalaga aylanmoqda. Bunda keksayish jarayon, keksalik

⁶⁷ Кайковус. Қобуснома. – Тошкент: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 1992. – Б.176.

⁶⁸ Ризоуддин ибн Фахриддин. Илми ахлоқ. – Тошкент: Чўлпон, 1993. – Б.60.



uning natijasi sifatida tushunilmoqda. Keksayish jarayoni shaxsning o‘rta yoshdan qari yoshlilar guruhiga o‘tishi bilan xarakterlanadi. Keksayish barcha jarayonlar kabi bir qancha bosqichlardan iborat bo‘lib, Jahon Sog‘liqni saqlash tashkiloti bu borada uchta tadrijiy bosqichni belgilaydi: 60 yoshdan 74 yoshgacha – keksalik, 75 yoshdan 89 yoshgacha – qarilik, 90 yosh va undan katta yosh uzoq umr ko‘ruvchilar. Fikrimizcha, keksalikning jahon miqyosidagi aniq standarti bo‘lishi mumkin emas. Chunki keksalikni davrlarga bo‘lish muayyan mamlakatdagi o‘rtacha umr ko‘rish darajasi bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqilishi lozim. BMTning Statistik byurosi va aholi bo‘limi hamda milliy statistik tashkilotlarning ma‘lumotlariga ko‘ra, o‘rtacha umr ko‘rish darajasi Yevropada erkaklar orasida – 71 yosh, ayollar o‘rtasida – 79 yosh, dunyo bo‘yicha esa shunga mos ravishda 64 yosh va 68 yosh. O‘zbekistonda 2022-yil 1-yanvar holatiga o‘rtacha umr ko‘rish 73 yosh, erkaklar uchun 71,7 va ayollar uchun esa 75,8 yoshni tashkil etadi⁶⁹. O‘zbekiston uchun quyidagi bosqichlar mos keladi: 60–69 yosh – keksalik, 70–84 yosh – qarilik, 85 yosh va undan kattalar – uzoq umr ko‘ruvchilar.

Qur’oni karimning «Nahl» surasi, 70-oyatida «tuban umr» ko‘rish iborasi ishlatiladi, ya’ni qariy qartaygan yosh. Shu necha yoshdan boshlanadi degan masalada turli tavsirlar bor: birida 60 yosh desa, boshqasida 75 dan, yana bir rivoyatda 80 dan, boshqasida 90 dan keyin boshlanadi, deyiladi.

Farzand go‘dakligida ota-onaga qanchalik muhtoj bo‘lsa, ota-ona keksayganida farzandlarining yordamiga shunchalik zarurat sezadi. Zero, Alloh taolo marhamat qiladilarki, «biz kimga uzoq umr bersak, uning vujudini ham (egik, zaif) qilib qo‘yurmiz. Axir aql yurgizmaydilar mi?!» (*Yosin surasi, 68-oyat*). Oilada keksalarning borligi – bu baxt. Bu haqda Rasullulloh shunday deganlar: «Agar oralaringizda munkillagan qariyalar, o‘tlab yurgan jonzotlar va emizikli chaqaloqlar bo‘lmaganida edi, boshingizga balolar selday oqib kelardi».

Qur’oni karimning «Al-isro» surasi, 23-24-oyatlarida: Ota onaga yaxshilik qilish amr etildi. «Ey inson, agar ularning biri yoki har ikkisi huzuringda keksalik yoshiga etsalar, ularga «uf» dema va ularni jerkima! Ularga doimo yoqimli so‘z ayt! Ular uchun, mehribonlik bilan, xorlik qanotini past tut va duoda: «Ey Rabbim! Meni ular go‘daklik chog‘imda tarbiyalaganlaridek, sen ham ularga rahm qilgin, deb ayt».

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytishimiz mumkinki, ota-onaning farzandi oldida quyidagi burch va majburiyatlari mavjud: ota-ona farzandini halol rizq bilan boqishi; bolaga chiroyli va ma’noli ism qo‘yish; imkoni bo‘lsa aqiqa qilish (ziyofat berish);

⁶⁹ <https://aniq.uz/yangiliklar/uzbekistonda-aholining-urtacha-umr-kurish-davomiyligi-necha-yosh>



o‘g‘il bola bo‘lsa sunnat qilish; hamma farzandlarini bir xilda ko‘rish; farzandlarini yaxshi kishilar bilan do‘st tutishiga e‘tibor berish; bolani odobli qilib tarbiyalash; yaxshi va yomonni ajratishga o‘rgatish; kasb-hunar va bilim olishga o‘rgatish; uylanish yoshiga etsalar uylantirishi zarur.

Yoshlarni ham ota-onalari oldida quyidagi o‘z majburiyatlari mavjud: Otaga muhabbatingni saqla, otaga muhabbatingni yo‘qotsang, Alloh seni turli fayzlardan mahrum qilur; Alloh otalar nomi bilan ont ichmoqni taqiqlaydi; otasining vafotidan keyin ham uning hayot vaqtidagi do‘stlarini do‘st tutgan odam yaxshilarning yaxshisidir; sening o‘zing ham moling ham otangnikidir; otasining yaqinlarini ziyorat qilish; otaning do‘stini hurmat etmoq yaxshidir; insonlarning karami dinidadir, muruvvati aqlidadir, obro‘si axloqidadir.

Keksalarni ijtimoiy himoya qilish bo‘yicha hozirgi kunda dunyoda ko‘plab samarali modellar mavjud. *Birinchi model* Shvesiyada qo‘llanilayotgan model bo‘lib, unga ko‘ra, davlat ijtimoiy himoya sohasidagi barcha mas‘uliyatni o‘z zimmasiga oladi. Ijtimoiy himoya va ijtimoiy kafolatning muhim yo‘nalishini pensiya bilan ta‘minlashga oid chora-tadbirlar tashkil etadi. Rivojlangan mamlakatlarda pensiya yoshi turlicha belgilangan. Italiyada erkaklar uchun – 60 yosh, ayollar uchun – 50 yosh, Fransiya erkak va ayollar uchun bir xil – 60 yosh, AQSh, Germaniya, Shvesiya, Kanada va Ispaniyada har ikki jins uchun ham 65 yosh qilib belgilangan. *Ikkinchi model* Avstriya, Germaniya, Italiya, Fransiya qo‘llaniladigan konservativ model bo‘lib, unda pensiyani hisoblab chiqishda ish haqi ko‘rsatkichini o‘zgartirish tartibi mavjud (indeksatsiya). Shu bilan birga, ish haqining umumiy narxga nisbatan tez o‘sishi va pensionerlarning turmush darajasi ishlaydigan fuqarolarnikiga muvofiq ravishda ortib borishi zarurligi e‘tiborga olinadi. *Uchinchi model* AQSh, Kanada, Avstraliya, Buyuk Britaniya qo‘llaniladigan liberal model bo‘lib, unga asosan, pensiyani hisoblab chiqishda yashash sharoiti ko‘rsatkichidan foydalaniladi. Bunday holda pensiya va ish haqi darajasi o‘rtasidagi tafovutni kamaytirish maqsadida iste‘mol mollari narxining oshishi munosabati bilan pensionerlar ko‘radigan zararni qoplaydigan miqdorda pensiyaga qat‘iy qo‘shimchalar qo‘shiladi. Bu usul ijtimoiy muhofazaning bir shakli bo‘lib hisoblanishi ilmiy asoslangan.

Rivojlangan mamlakatlarda umumiy ijtimoiy sug‘urta tizimidan tashqari xususiy tartibda to‘lanadigan qo‘shimcha pensiyalar ham keng qo‘llaniladi. Fransiya barcha yollanma ishchilar shunday qo‘shimcha ta‘minot tizimi bilan qamrab olingani aniqlangan. Pensiyasi miqdori turmush kechirishga etmaydigan pensionerlar alohida himoyalangan bo‘lib, muhtojlarga yordam beruvchi jamiyat va jamg‘armalar, idoralarning e‘tibori bevosita ularga qaratilgan. Bunday faoliyatga muruvvat ko‘rsatuvchi



nodavlat tashkilotlar tizimi jalb etiladi. Rivojlangan mamlakatlar qonunlarida o‘z ifodasini topgan, ya’ni xususiy pensiya jamg‘armalari yaxshi faoliyat ko‘rsatmay, yetarli pensiya miqdorini ta’minlay olmasa, hukumat 20 yildan kam bo‘lmagan davrda yangi pensiya tizimiga sug‘urta badali to‘lab borgan fuqarolarga yashash uchun zarur bo‘lgan eng kam xarajatlar miqdorida pensiya to‘lashni kafolatlaydi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, xulosa qilishimiz mumkinki, bugungi kunda keksalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash jarayonini sotsiologik yondashuvlar asosida tadqiq qilish jamiyatning barcha tuzilmalari o‘rtasidagi uyg‘unlik va mutanosiblikni ta’minlash imkonini beradi. Jumladan, O‘zbekistonda keksalarga bo‘lgan hurmat, e’tibor milliy mentalitetimizning mazmun-mohiyatini ifoda etishi, olib borilgan izlanishlarimiz, xorijiy davlatlar tajribasi o‘laroq, o‘tkazgan qiyosiy tahlillarimiz asosida keksalarning hayot faoliyatini tashkil etish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarish, ularni yanada qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 15-martdagi PQ-167-son «Nuroniylarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning turmush darajasini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori bugungi kunda keksalar va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyatdagi faolligini oshirish masalalariga bag‘ishlangan. Mazkur qarorda «Hech kim mehr va e’tibordan chetda qolmasin» shiori ostida ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan keksalar va nuroniylar holidan doimiy xabar olish tizimini tashkil qilish hamda ijtimoiy himoya dasturlari doirasida davlat xizmatlari ko‘rsatilishini ta’minlash» nazarda tutilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *Quroni karim.* – Toshkent, Islom universiteti, 2001-yil.
2. *Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 15-martdagi «Nuroniylarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning turmush darajasini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-167-son qarori*
3. *Kaykovus. Qobusnoma.* – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi “Xalq merosi” nashriyoti, 1992. – B.176.
4. *Rizouddin ibn Faxriddin. Ilmi axloq.* – Toshkent: Cho‘lpon, 1993. – B.60.
5. <https://aniq.uz/yangiliklar/uzbekistonda-aholining-urtacha-umr-kurish-davomiyligi-necha-yosh>



Mirodil Baratov,
*O‘zbekiston Fanlar akademiyasi
Davlat va huquq instituti bo‘lim boshlig‘i,
yuridik fanlar doktori, professor*

BARCHA – AQLGA, AQL – YILLARGA, YILLAR – TAJRIBAGA MUHTOJDIR YOXUD KEKSALIK VA HOZIRGI ZAMON: HOLAT, TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR XUSUSIDA AYRIM MULOHAZALAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada qadriyatlar xalqimizning bebaho boyligi sifatida madaniy-ma’rifiy hodisalar, urf-odatlar, an’analari zahirida inson qadr-qimmatini oshishiga xizmat qilishi, yoshi ulug‘ otaxonlarning shukronalik, el-yurtga tinchlik-omonlik, elga to‘kin-sochinlik tilab qilinayotgan duolari, hayotning ne-ne sir-sinoatlari-yu kutilgan-kutilmagan qiyinchiliklariga dosh berib, yorug‘ kunlarga ishonchlarini susaytirmay yashagan bunday insonlarning ibratli umr yo‘li nafaqat ularning o‘g‘il-qizlariga, balki bugun katta hayot ostonasiga qadam qo‘yayotgan barcha yoshlarga saboq bo‘lishi, eng asosiysi oilaviy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirishda keksa nuroniylarning o‘rni beqiyos ekanligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: oilaviy qadriyatlar, keksalar, nuroniy buvi-buvalar, ota-onalar, farzand tarbiyasi, oila mustahkamligi, mehnatsevarlik, sadoqat, samimiyat, ishonch, vatanni sevmqlik, adolat, poklik, to‘g‘rilik, “Keksalar maslahati” guruhi.

Аннотация. В данной статье в основе культурно-просветительских мероприятий, обычаев и традиций как бесценного богатства нашего народа служат ценности повышения человеческого достоинства. неожиданные трудности, и прожили, не ослабляя веру, в светлые дни, не только для своих сыновей и дочерей, но и сегодня они ступают на порог большой жизни. Подчеркивается, что неоценима роль пожилых интеллигентов в воспитании семьи ценностей в сознании молодежи.

Ключевые слова: семейные ценности, пожилые люди, просвещенные бабушки и дедушки, родители, воспитание детей, крепость семьи, трудолюбие, верность, искренность, доверие, любовь к родине, справедливость, чистота, корректность, группа «Советы пожилых».

Annotation. In this article, values serve to increase human dignity in the basis of cultural and educational events, customs, traditions as the priceless wealth of our nation, gratitude of the elderly fathers, peace and security to the country, abundance of wealth. The exemplary way of life of such people, who endured the requested prayers, the mysteries of life and the unexpected difficulties, and lived without weakening their faith in bright days, is not only for their sons and daughters, but today they are stepping on the threshold of a great life. It is highlighted that the role of old intellectuals is incomparable in instilling family values into the minds of young people.

Key words: family values, elderly, enlightened grandparents, parents, child upbringing, family strength, hard work, loyalty, sincerity, trust, love of country, justice, purity, correctness, «Advice of the Elderly» group.



Barcha – aqlga, aql – yillarga, yillar – tajribaga muhtojdir.

Mavjud holat. Ijtimoiy tarmoqlarimizdagi chiqishlarga e’tibor qaratamiz: “Keksalarni hurmat qilish – hammaning burchi”, “keksalar e’zozlanmoqda”, “Keksalarni e’zozlash, ularga hurmat-ehtirom ko‘rsatish – xalqimizga xos ezgu fazilat”, “Keksalar haftaligi”, “Keksalar maslahati” guruhlar, yurtimizdagi barcha mahallalarda nuroniylar, shu jumladan, “Saxovat” va “Muruvvat” internat uylarida istiqomat qilayotgan keksalar ishtirokida madaniy-ma’rifiy tadbirlar, tanlovlar, xayriya tadbirlari, jumladan, nuroniy va yoshlar uchrashuvlari o‘tkazildi... Sifatlashlarni yana davom ettiraverish mumkin.

Biroq faranglar aytmoqchi, voqealar rivojiga de yure/de facto rakursdan yondoshaqlik-chi. Shakldan – mohiyatga, ommaviylikdan – xususiylikka kirib boraylik-chi. Manzara qanday: axir, O‘zbekiston bizning yurt! Uning yutug‘u-yutqizig‘i ham bizniki!

Allomalar keksalik xususida.

Yoshlik bilan keksalik orasidagi muddat naqadar qisqa!

Sh. Monteske

Keksalik xuddi qorday to‘satdan bosadi, ertalab tursangiz – hammayoq oppoq.

J. Renar

Jasorat tugagan kuni qarilik boshlanadi.

A. Morua

Qariganda aqliy nuqsonlar tashqi qiyofadagi nuqsonlar kabi yaqqolroq ko‘zga tashlana boshlaydi.

F. Laroshfuko

Keksayganini odam qachon sezadi? Buni orzu-umiddan voz kechib, faqat xotiralar bilan yashay boshlaganda his qiladi.

F. Zanders

Qariganda yoshlikdagiga nisbatan ko‘proq ishlash kerak.

I. Gyote



Haqiqiy hayot ellik yoshdan keyin boshlanadi. Bu yoshda odam chinakamiga pishib yetiladi, boshqalar o‘rnak olsa arzigulik xislatlarga ega bo‘ladi, birovlariga saboq bo‘ladigan narsalarni tushunib etadi.

U. Bok

Qarilik baxt bo‘lolmaydi, “baxtli keksalik”, degan gapni johil odamlar o‘ylab chiqarishgan. Qarilik yo osoyishta, yoki g‘am-hasrat bilan o‘tish mumkin. Izzat-ikrom ko‘rgan qariyalar osoyishta kun kechiradilar. Unutilgan, yolg‘iz qolgan keksalarning esa kuni g‘am-hasrat bilan o‘tadi.

V.A. Suxomlinskiy⁷⁰.

Manbalarda qayd etilganidek, “Keksalik davri bolalik va yoshlik davridek hayotning bosqichlaridan biri sanaladi. Faqat farq shundaki, bolalik va yoshlik davri kuch-qudrat va energiyadan to‘la bo‘lsa, ammo keksalik davri esa jismoniy faoliyat mezonining kamayishi va kuch-qudratning zaiflanishi bilan yuzma-yuz bo‘ladi”⁷¹.

BMT Bosh assambleyasi 1982-yilda keksalarning Butunjahon kengashini tashkil etdi. 1990-yilda kengash oktabr oyining birinchi kunini keksalarni hurmat-ehtirom qilish va ularning mushkulotlarini hal etish yo‘lida harakat qilish uchun “Keksalar xalqaro kuni” deb e‘lon qildi.

Mamlakatimizda keksalar

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27.09.2019dagi “Keksa avlod vakillarining jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy faolligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 816-son qarori bilan 2019-yildan har yili oktabr oyining birinchi haftasida “Keksalar haftaligi” o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 26-sentabrdagi tegishli bayoniga asosan joriy yilning 3–9-oktabr kunlari *“Keksalarni e‘zozlash, ularga hurmat-ehtirom ko‘rsatish – xalqimizga xos ezgu fazilat”* g‘oyasi ostida mamlakatimizning barcha hududlarida “Keksalar haftaligi” o‘tkazildi. Ushbu qaror bilan mamlakatimiz bo‘ylab “Keksalar maslahati” guruhlarini tashkil etildi. Yurtimizdagi barcha mahallalarda nuroniylar, shu jumladan, “Saxovat” va “Muruvvat” internat uylarida istiqomat qilayotgan keksalar ishtirokida madaniy-ma’rifiy tadbirlar, tanlovlar, xayriya tadbirlari, jumladan, nuroniy va yoshlar uchrashuvlari o‘tkazildi. “Mehnat faxriysi”, “Mo‘tabar ayol” va “Mahalla iftixori” ko‘krak nishonlari ta’sis etildi.

⁷⁰ <https://ziyouz.uz/hikmatlar/tafakkur-gulshani/keksalik-a-ida/>

⁷¹ <https://parstoday.com/uz/radio/programs-i23989->



Ayni dam farg‘onalik usta paxtakor Qodirali Bahromov, Lola Murotova, Erkin Vohidov, Manzura Madaliyeva (Farg‘ona), Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Siyosatxon Abdullayeva (Andijon), Xalchaxon Mirzayeva (Namangan), O‘tbosar Abdiyev (Sirdaryo), Sharof rashidov, Umarali Qayumov (Jizzax), Anor Mahmudova, Vera Pak (Xorazm), Umar Xudoyberganov (To‘rtko‘l), Marhamat G‘ulomova, Muhabbat Sharapova (Qashqadaryo), Tog‘ay Murod, Rahmon Muhammadiev (Surxondaryo), Ravshan Rahmonov, Oydinoy Sa‘dullayeva (Navoiy), Said Shermuhammedov, “Qorako‘l maktabi” asoschisi To‘xtamurod Jumaev, Muyassar Temirova (Buxoro), Islom Karimov, Mirumar Asadov (Samarqand), To‘xtamurod ota Zufarov, Antonina Xlebushkina, Suyima G‘aniyeva, Shavkat Ayupov, Hidoyat Usmonova (Toshkent). Ro‘yxatni yana davom ettiraverish mumkin. Ular bizning faxrimiz, iftixorimiz, g‘ururimizdir! Biroq...

Rivojlanish tendensiyalari

Keksalik: plyus va minuslar	
Plyuslar	Minuslar
Ulug‘lik, buyuklik sari	Nafaqaga chiqish (chiqarilish)
Donishmandlik	Ijtimoiy faoliyat olib bormaslik
Boy hayotiy va amaliy tajriba sohibi	Jufti haloli (turmush o‘rtog‘i)ning vafot etishi
Xusni-xulqda, odobda ziynatlashish	Yoshlikdagi jismoniy qudrat va kamolotning so‘nib borishi – layoqatsizlikning boshlanishi
Zakovat va mulohazakorlik	Salomatlikning xatarda qolishi
Osoyishtalik	Yolg‘izlik
Baxtiyorlik, piru badavlatlik	Farzandlar tomonidan keksalar uyiga topshirilish
Shirin xotiralar davri	“Yaroqlilik muddati tugagan”lik
Piru badavlatlik	Yoshga qarab kamsitilish (diskriminatsiya qilish, ayniqsa, mehnat bozorida). Bunga qarshi inkor qonunlar Angliya, Amerika, Daniya, Irlandiya va Avstraliya kabi mamlakatlarda mavjud.



Sadoqat (yurtga, millatga, ajdodlarga, avlodlarga, hamkasblarga) (L.Yashin, H.Rahmonqulov, I.Zokirov, otam)	Jamiyat a’zolaridagi salbiy qarashlar – boshqalar bilan aloqalarda qadr-qimmatga ega bo‘lmashlikni his qila boshlash
“Otangga rahmat, onangga rahmat”ni jon qulog‘i bilan eshitish	... lar orasida “Padaringga la’nat”ni eshitish
Rohat-farog‘at davri, ibodatlarga kon davri	G‘am-hasrat davri, Keksalikdagi aqliy zaiflik, sovuq xotiralar davri
Shukrona. Sabrona. Xalqonalik. Iymonboylik. Bilimda ummonlik. Yaxshiliklarga, Yangiliklarga konlik. Mardlik. Saxiylik. Mehribonlik. G‘amxo‘rlik. G‘animat damlar. Faxr, iftixor, g‘urur tuyg‘usi hokimlik!	...

Islom dini keksalar haqida. Dinimiz keksalarni hurmat-ehtirom qilish va ularni muhofazat etishni jamiyatning har bir shaxsi uchun vojib etib ko‘rsatma beradi. Rasuli Akram salallohu alayhi va olihi va sallam shunday marhamat qiladilar: “Musalmnon keksalarni hurmat-ehtirom qilish Alloh taolog’a ta’zim qilishdir”. Yoki boshqa bir joyda shunday buyuradilar: “Har bir kishi keksa yoshda bo‘lgan shaxsning maqomi va fazilatini yoshiga qarab bilsa va uni hurmat-ehtirom qilsa, Alloh taolo uni oxiratdan qo‘rqish va xavotirlanishdan amonda saqlaydi”. Yoshi ulug‘ insonlarni qadrlash va kichiklarga mehr-muhabbat ko‘rsatish islom dinining axloqiy dasturulamallaridan sanaladi va oila poydevorini musaffo aylab, mustahkamlaydi. Imom Sodiqlayhissalom bu haqda shunday marhamat etadilar: **“Kichiklarga rahim-shafqat qilmagan va keksalarimizning qadrlarini bilmaganlar bizdan emas”**.

Dinimiz yoshi ulug‘ kishilarga g‘amxo‘rlik qilishga buyuradi. Keksalik yoshi quyidagi tartibda bo‘ladi: etuklik, mo‘ysafidlik, keksalik, qarilik yoki o‘ta keksalik⁷².

Ushbu mualliflar xulosa qilib aytadilarkim, keksalarni e’zozlashda ushbu jihatlarga alohida e’tibor berish kerak:

- yoshi ulug‘ odam kirib kelganida hurmati uchun kichik yoshdagilar o‘rnidan turishi;
- majlislarda oldin yoshi katta odamga so‘z berilishi;
- yig‘ilishlarda yoshi ulug‘larning izni bilan gapirilishi;

⁷² М.Бобур Йўлдошев, Ш.Абдурасулов. Барака ёши улуғларимиздадир // <https://religions.uz/news/detail?id=38>.



- yoshi ulug‘ odamga kichik yoshdagi odamning salom berib, murojaat qilishi;
- yoshi ulug‘ odamni hurmat qilib, keksaligi uchun yig‘inlarda yuqoriga, to‘rga o‘tkazish;
- yoshi ulug‘lar bilan odob, xushmuomala va ehtirom bilan gaplashish;
- yoshi ulug‘larning oldini kesib o‘tmaslik;
- yoshi ulug‘larga biror narsani tushuntirishda ochiq gapirmasdan imo-ishora yoki qochirim bilan tushuntirish;
- keksalar oldida baland ovozda gapirmaslik;
- keksalarning oldida yoki ortidan bo‘lsa ham, kesatib, masxara qilib gapirmaslik;
- keksalar oldida odob bilan o‘tirish;
- muhim ishlarni keksalardan maslahat olib, so‘ng boshlash;
- keksalardan oldin taomga qo‘l uzatmaslik;
- suv yoki choy kabilarni uzatishni yoshi kattalardan boshlash.

Istiqboldagi muammolar (yo‘nalishlar, prognozlar)

Yaponiya.

Yaponiyada 65 yoshdan kattalar “keksa” deb hisoblanadi. 2021-yil sentabr oyi holatiga ularning soni 36,4 million nafarni tashkil etgan. Bu mamlakat aholisining 29,1 foizini tashkil etmoqda. Yaponiyaning gerontologik (gerontologiya – tirik organizmlarning qarishini o‘rganuvchi fan) jamiyati hozirgidagidek 65 yoshli kishilarni emas, balki 75 yoshdan oshganlarni rasman keksa odamlar deb hisoblashni taklif qildi.

Keksa deb ataluvchi odamlar biologik nuqtai nazardan hozirda taxminan 5-10 yilga yosharganlar. Yosh ishchilar soni kamayayotgan sharoitda, agar biz keksa deb hisoblanuvchi odamlar ongini o‘zgartirsak, bu jamiyatni qo‘llab-quvvatlaydi.

Yaponiyada tug‘ilish koeffitsienti 1,44 ni tashkil etmoqda. Demografiyaga ko‘ra, aholi kamayib ketmasligi uchun bir ayolga 2,2 nafar bola to‘g‘ri kelishi kerak, ammo aksariyat rivojlangan davlatlarda tug‘ilish koeffitsienti bu ko‘rsatkichdan tushib ketgan. AQShda tug‘ilish koeffitsienti – 1,76, Ispaniyada – 1,5, Bolgariya aholisi 1,46 ko‘rsatkich bilan rekord tezlikda kamayib bormoqda. Prognozlarga ko‘ra, 2050-yilga kelib Latviyada atigi 1,52 million aholi qoladi. Janubiy Koreyada esa 1,26. Singapur eng past tug‘ilish ko‘rsatkichiga ega (0,83), ammo hukumat bu muammoni immigratsiya yordamida hal qilishni rejalashtirmoqda.

Uzoq umr ko‘rish bobida

Uzoq umr kechirish uchun, birinchi navbatda, parhezga rioya qilish kerak ekan. Ayni paytda 60 va undan yuqori bo‘lgan kishilar o‘sha paytda kamroq taom iste’mol



qilishgan. Hozir ham ularning aksariyati ozroq ovqat eyishga intilishadi. Ovqat kalloriyasini kamaytirish hisobiga xolesterin ham ancha kamayadi. Shu sababli yaponlarning ko'pchiligi ortiqcha vazndan xolos bo'lgan. Semirish kasalligi yurakka o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Hozir ham Yaponiyada 80 yoshdan oshgan fuqarolarning aksariyati vokzal va aeroportlardagi eskalatorlardan foydalanmaydi.

Mamlakatda yangi qariyalar harakati tashkiloti tuzilgan bo'lib, unga 75 yoshdan yuqori bo'lganlar a'zo bo'lishlari mumkin. Yaponiya markazidagi Nagan prefekturasi o'zining uzoq umr kechiruvchilari bilan dong taratgan. Saku shahri misolida oladigan bo'lsak, mahalliy rasmiylar bu hududni *“salomatlik va boqiy umr kechiruvchilar shahri”* deb e'lon qildi. Bejizga Bu yerda keksalar uchun turli ijtimoiy dasturlar ishlab chiqilmagan. Shahar rahbariyati aholidan iloji boricha kamroq tuz iste'mol qilish va uy-joylarini haddan ziyod isitib yubormaslikka da'vat etmoqda. Shahar dengiz sathidan 700 metr balandlikda joylashgan bo'lib, uning markazidan Tikuma daryosi oqib o'tadi. Asama tog'i ham ko'rinib turadi. Bu qishloq o'zining tabiiy go'zalligi bilan barchani o'ziga rom etmoqda. Qishda 15 daraja sovuq, yozda boshqa hududlarga nisbatan ancha salqinroqdir. O'tgan asrning 60-yillarigacha Saku insultga chalinish bo'yicha Yaponiyada eng yuqori o'rinni egallab kelgan. Bu birinchidan qahraton sovuq va me'yoridan ortiq tuz iste'mol qilishdandir, deb aytishadi shifokorlar.

1971-yilda Saku shahri hokimligi mahalliy fuqarolarga sog'lomlashtirish bo'yicha maslahat tizimini taqdim etdi. Unga ko'ra, har bir oila ikki yil muddatga sog'lom turmush tarzini tarkib toptirish maqsadida maxsus maslahatchilarni yolladi. Endi esa qishloqda vaziyat batamom o'zgardi. Miyaga qon quyilish oqibatida o'lim holatlaridan asar ham qolmadi. Sakuda yashovchi Itikava Teko 85 yoshga kirib qoldi. Uning kanselyariya tovarlari va idora jihozlarini sotish bilan shug'ullanuvchi kichkinagina do'koni ham bo'lgan. Keksaligiga qaramasdan, bu ayol har kuni 8 soatdan kassa apparati yonidan jilmaydi. Xotirasi ham kuchli bo'lib, peshtaxtadagi har bir buyumning nomini yoddan biladi. Onaxon har kuni ertalab 7 da turib vanna qabul qiladi. Tomorqasida ishlaydi, mahalliy suv havzasida kapalak, ya'ni butterflyay usulda suzishni juda yoqtiradi. Ishxonasigacha mashinasini o'zi boshqarib boradi. Haftalik jadvali rang-barang qilib tuzilganki, barcha yumushlarni bajarishga ulguradi. Kalligrafiya, Jaz raqsi, teri hunarmandchiligi va karaoke deysizmi, barchasini qoyilmaqom qilib bajaradi. Uyiga kech soat 21 dan so'ng kirib keladi. Tush paytida ozginagina meva, sut mahsulotlari, kechqurun esa yana sabzavot va baliq iste'mol qiladi. Shundan so'ng ikkinchi vannani qabul qilib, yozish-chizish bilan mashg'ul bo'ladi.

Dunyoning qaysi hududida kimlar uzoq umr kechiradi? – degan haqli savol tug'ilishi tabiiy. Haqiqatan ham ular qayerda istiqomat qilishadi? Taniqli yozuvchi va olim Den



Byuttner bu sohada uzoq ilmiy tadqiqotlar olib boradi. Unga ko'ra, Yaponiyaning Okinava, Italiyaning Sardiniya, Gresianing Ikariya, AQShning Loma Linda va Kosta-Rikaning Nikoya yarim oroli va orollarida uzoq umr kechiruvchilar makon topgan. Okinavadagi 900 ta qishloqda 1 millionga yaqin aholi yashar ekan. Ayollar ko'pchilikni tashkil etadi. Buyuk Britaniya va AQSh bilan solishtiradigan bo'lsak, ular soni 4 hissaga ko'p. Yana bir qiziq ma'lumot, Okinava aholisi o'zini parhez bilan qiynab o'tirishmaydi. Ko'ngli nimani tusasa, shuni iste'mol qilaverishadi. Kuniga eyiladigan taom 1 ming 200 kalloriyani tashkil etadi. G'arbdagilar esa ulardan 20 foizga kamroq ovqat tanovul qilishadi. 80-90 yoshli orollik yaponlar o'z tengdoshlariga qaraganda, 30 yoshga yosh ko'rinishadi. Ular kuniga kam-kam ovqat eyishadi. Ko'proq meva va sabzavotlarga e'tibor qaratishadi.

Taomnoma sirlaridan biri bu soya va tofu, sabzavotlar, boy antioksidantlardan iboratdir. Sharhimiz so'ngida dunyo mamlakatlaridagi o'rtacha umr kechirish darajasi xususida to'xtalsak. Yaponiyada erkaklar 80, ayollar 85, Shvesiyada erkaklar 77 yarim, ayollar 82 yarim, Ispaniyada esa ayollar 80, erkaklar 82 yildan umr kechirmoqda. Kanada, Shveysariya, Fransiya, Norvegiya va Belgiyada ham bu ko'rsatkich juda yuqoridir...

Xulosa. Modomiki, keksalik umrning shomi ekan, unga tayyor bo'lib borishimiz lozim. “Qush inida ko'rganini qiladi”, “Olmaning tagiga – olma, behining tagiga – behi tushadi”, “Qo'yni ham, echkini ham o'z oyog'i bilan osib, so'yadilar”, deganlaridek, ertamiz, istiqbolimiz oldindan kafolatlanmagan holi hayotimizda ortimizdan munosib o'rinbosarlarni qoldirish bu – har birimizning vazifamiz! Bu – butun jamiyatning vazifasi! Bas, unga befarqlik, mavjud, shakllangan hayotiy qadriyatlarni mensimaslik – kelajakka xiyonat! Millatga – xiyonat!

Bayon etilganlar va hayotiy kuzatuvlardan quyidagilarni aytish mumkin bo'ldi.

Birinchidan, shaxsiy namunaga sazovor zamondosh va makondoshlarimizni e'zoz va namuna sifatida “hurmat taxtasi”da emas, amaliy, hayotiy e'tibor, izzat-ikromni har qachongidan kuchaytirish lozim. Bunda har bir otaning, har bir onaning shaxsiy namuna bo'lishi zarur.

Ikkinchidan, Ota-onalar universitetini shakllantirish lozim. Hech bir sharhsiz, Abdulla Avloniy bobomiz aytganidek,

“Tug'ib tashlash bilan bo'lmas bola, bo'lgay balo sizga.

Vujudi tarbiyat topsa, bo'lur ul rahnamo sizga.

Temirchining bolasi tarbiyat topsa bo'lur olim.

Buzilsa xulqi, Luqmon o'g'li bo'lsa ham bo'lg'usi zolim”.



Uchinchidan, mavjud “Oila maktablari” faoliyatini moddiy qo‘llab-quvvatlash taklif etiladi.

To‘rtinchidan, “Tarbiya” darslariga mumkin qadar diniy ilmdor mutaxassislarni jalb qilish taklif etiladi.

Beshinchidan, sog‘lom turmush tarzini, sog‘lom ovqatlanish tarzini targ‘ib qiluvchi ko‘rgazmali teleradiochiqishlarni ko‘paytirish lozim.

Sarlavhada aytganimizdek, “barcha – aqlga, aql – yillarga, yillar – tajribaga muhtojdir”. Ha, keksalik – qadriyat, keksalar – bizning boyligimizdir. Ularni asrash, avaylash, umrini mazmunli o‘tkazish – bizlarga farzdir. Bir to‘g‘ram non, bir piyola choy, ammo mehr birlan, muhabbat birlan. Duolar birlan... Boshqasiga o‘rin ham yo‘q... Alarga e’tibor ertaga bizlarga qaytgusidir: ertangi kunimizga hamirturush, ertangi kunga katalizator, ertangi kunga ko‘zgudir.

Keyingi bekat, haqiqiy bekat: hayot – halollik – halovat bekati barchamizga muborak bo‘lsin.



Shuhrat Ergashev,
O‘zbekiston Fanlar akademiyasi
Tarix instituti katta ilmiy xodimi,
tarix fanlari nomzodi

KEKSALIK TUSHUNCHASI VA UNING ZAMONAVIY TALQINI

Annotatsiya. Keksalik ijtimoiy-falsafiy tushuncha bo‘lib, u jamiyat taraqqiyoti bilan muvoziy ravishda o‘zgarib boradi. Jamiyatning iqtisodiy va axloqiy etuklik darajasi, jumladan, uning keksalarga bo‘lgan munosabati bilan ham belgilanadi. Maqolada keksalik va jamiyatda unga munosabatning anashu jihatlariga e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: Keksalik, pensioner, demografiya, Uyg‘oni, BMT, O‘zbekiston.

Аннотация. Старость – социально-философское понятие, меняющейся параллельно с развитием общества. Уровень экономической и нравственной зрелости общества определяется и его отношением к пожилым людям. Статья посвящена этим аспектам старости и отношению к ней в обществе.

Ключевые слова: старость, пенсионер, демография, Возрождение, ООН, Узбекистан.

Annotation. Old age is a socio-philosophical concept that changes in parallel with the development of society. The level of economic and moral maturity of a society is also determined by its attitude towards older people. The article is devoted to these aspects of old age and ant the attitude towards it in society.

Keywords: old age, pensioner, demography, Renaissance, UN, Uzbekistan.

XX asr oxirlaridan boshlab dunyoda keksalik muammolariga qiziqish kuchaydi. Bu albatta er yuzida aholi sonining jadal o‘shishi bilan bog‘liq edi. Hozirgi zamonda yoshi 60 dan oshgan aholi soning o‘shish tendensiyasi kuzatilmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining prognozlari bo‘yicha 2050-yilga kelib er yuzi aholisining 20 foizdan ko‘prog‘ini pensionerlar tashkil qiladi.

O‘zbekistonda 2021-yil 1-yanvar holatiga pensionerlar soni 3 mln 824 ming kishi yoki aholi umumiy soniga nisbatan 11,2 foizni tashkil qiladi. Shundan faqat 2 mln 489 ming yoki 74,3 foizi yosh bo‘yicha pensionerlar hisoblanadi⁷³.

Aholi sonida pensionerlar ulushining ortishi jamiyatning keksayishi degan nom oldi. Kexsa yoshdagi kishilar sonining o‘shishi bilan zamonaviy jamiyatda keksalik fenomenini ijtimoiy-falsafiy anglash ham dolzarb muammoga aylanmoqda. Masalan, Yevropa mamlakatlarida har yili keksalikka bag‘ishlangan mingdan ortiq ilmiy

⁷³ Пенсионеров в Узбекистане стало больше. <https://xs.uz/ru/post/pensionerov-v-uzbekistane-stalo-bolshe>



aqolalar e’lon qilinayapdi. Bu ilmiy maqolalarda keksalik fenomeniga turli xil ta’riflar berilmoqda. Aslida keksalik – har bir kishi hayotining ajralmas qismi, u sog’liq va jismoniy qobiliyatning ma’lum susayishi bilan xarakterlanadi.

Keksalik va unga munosabat jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida o’zgarib borgan. Masalan, amerikalik asteklarda “Keksalari yo‘q xalqning ahvoliga voy!”, - degan maqol qadim davrlardayoq keksalarga bo‘lgan munosabatni belgilab beradi. Ammo asteklarda 30 dan oshgan kishi kekxa hisoblangan. Bunga boshqa xalqlarda ham misollar ko‘p, masalan, ko‘pchilik rus shoiri A.S. Pushkinning “xonaga 30 yoshlardagi qariya kirib keldi” degan gapini misol qilib keltiradi. Bunga, albatta, tarixiy asos bor. 1896–1897-yillari Rossiyada o‘rtacha umr davomiyligi erkaklarda – 29,4 yosh, ayollarda – 31,7 yoshni tashkil qilgan⁷⁴.

Bunday misollarni jahon adabiyotda ham ko‘plab uchratish mumkin. Uilyam Shekspirning “Romeo va Juletta” pesasidagi voqealar tasvirlangan paytda Julettaning onasi senora Kapuletta 28 yoshda, Julettaning o‘zi esa 13 yoshda bo‘lgan.

Keksalik muammosiga Uyg‘onish davri mutafakkiri Mishel Monten ham e’tibor qaratadi. U inson hayoti va tabiatni bir-biri bilan taqqoslab, uni bir necha davrga bo‘ladi. Boshlanish nuqtasi dastlabki kurtaklash, keyin gullash va hosilga kirish bosqichi va davrni sekin-asta so‘lish bosqichi yakunlaydi.

Keksalikni kasallik – patologik jarayon bilan qiyoslab, uning belgilari sifatida sergaplik, xasislik, bid’atparastlikni keltirgan faylasuf kekxa kishini nochor, noshud deb ataydi va shu sababli yaqinlarining mehr-muhabbati va g‘amxo‘rligini uni davolashning yagona usuli deb hisoblaydi⁷⁵.

Shundan kelib chiqib, Uyg‘oni davri shoirlari o‘z sh’erlariga mavzu qilib asosan yoshlikni oladi va uni kuylaydi:

*O, yoshlik, go‘zalsan,
Bir on, daqiqa. Kuylagin,
Ertani kutma, o‘ynagin!
Baxtli bo‘l, sen shunga loyiqsan! (Lorenzo Medichi).*

Albatta, Yevropa Uyg‘onish davridan keyin o‘tgan besh olti yuz yildan ko‘proq vaqt davomida insoniyat juda uzoq va murakkab taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Eng

⁷⁴ Водарский Я.Е. Население России за 400 лет (XVI – начало XX вв.) – М.: «Просвещение», 1973. С. 89.

⁷⁵ Курышова Т.С., Алтпысбаева Ж.М. Старость как социально-философский феномен / Бюллетень медицинских Интернет-конференций. 2016. Том 6. № 5. С. 986.



yangi davrga kelib ochlik, og‘ir mehnat, yuqumli kasalliklar, savodsizlik, jaholat singari inson hayotini qisqartiruvchi omillarni bartaraf qilish yo‘llari topildi. Insonga nisbatan buyuk burilish yuz berdi. Endi uning yoshligi ham, keksaligi ham birday qadrlanadigan bo‘ldi.

Zamonaviy xalqaro taqqoslash tizimi 1939-yili Sog‘liqni saqlash Amerika assotsiatsiyasi demografik seksiyasi tomonidan taklif qilingan yosh kvalifikatsiyasi bo‘yicha o‘tkaziladi. Unga ko‘ra 1 yoshgacha – chaqaloqlik, 1 – 4 – maktabgacha yosh, 5 – 14 – maktab yoshi, 15 – 24 yosh – o‘smirlik davri, 15 – 44 yosh – eng faollik davri, 44 – 64 – o‘rta yosh, 65 – 74 yosh – keksalikning ilk davri, 75 yoshdan keyin – keksalik davri⁷⁶.

Albatta, hamma xalqlarda ham bu ko‘rsatkichlarga rioya qilishning imkoni yo‘q, zero, bir qator Afrika, Lotin Amerikasi va Osiyo xalqlarida o‘rtacha umr davomiyligi hali rivojlangan mamlakatlar darajasidan ancha past.

Zamonaviy tibbiyot yutuqlari yashashning o‘rtacha davomiyligini ancha uzaytirgan bo‘lsa-da, uning eng yuqori chegarasida katta o‘zgarish yuz bermadi. Bronza davri kishisining o‘rtacha yashash davomiyligi 18–20 yosh, Rim imperiyasining boshlang‘ich davrida bu ko‘rsatkich 23 yoshgacha uzaydi, faqat XIX asr oxiriga kelib 70 yoshga yaqinlashdi, XXI asr boshida ayrim mamlakatlarda bu ko‘rsatkich 80 yoshdan oshdi, natijada XX asrda 65 yoshdan katta kishilarning aholi umumiy sonidagi ulushi uch – to‘rt marta ko‘paydi⁷⁷.

Kuchayib borayotgan aholining qarish jarayoni so‘nggi o‘n yilda jamiyatda keksa avlodning ijtimoiy-iqtisodiy roli jiddiy o‘zgarganiga alohida e‘tiborni jalb qilmoqda. Ayni paytda “keksalik” tushunchasining umumiy ta‘rifi mavjud emas, zotan turli jamiyatlarda u insonning jismoniy faolligi va ijtimoiy rolidagi o‘zgarishlarga qaratilgan bo‘ladi. Masalan, odamlar nabirali bo‘lganda yoki pensiyaga chiqib, kamroq ishlab boshlaganda keksa hisoblanadi, ammo ko‘pchilik mamlakatlarda biologik yosh, ya‘ni ma‘lum davr yashagan kishi keksa hisoblanadi. Bunday holatda asos qilib biologik davrlashtirish olinadi, unga ko‘ra keksalik inson hayotining ma‘lum davri bo‘lib, u organizm avlod qoldirish qobiliyatini yo‘qotishi bilan boshlanadi va sog‘liqni yo‘qotib borishdan o‘limgacha davom etadi. Shu tariqa keksalik 45–50 yoshdayoq boshlanishi kerak, zero demografiyada insonning avlod qoldirishga qobiliyatli davri 15–49 yosh, tug‘ilish past bo‘lgan hollarda 15–44 yosh qilib belgilangan. Ammo

⁷⁶ Русанова Н.Е. Понятие возраста в демографии и современное старшее поколение / Народонаселение, – №2, 2013. – С. 63 – 64.

⁷⁷ Василенко Н.Ю. Социальная геронтология: Учебное пособие. – Владивосток: ТИДОТ ДВГУ, 2005. – С. 22.



BMTning mezonlari bo‘yicha 65 va undan katta yoshdagi kishilarning ulushi 7 foizdan oshganda aholi «demografik keksa» hisolanadi⁷⁸.

Biroq keksalik – faqat biopsixologik emas, ijtimoiy-tarixiy tushuncha ham bo‘lib, uning davriy chegarasi shartli va turli jamiyat, ijtimoiy guruh va tarixiy bosqichlarda o‘zgarib boradi. Amalda pensiyaga chiqqan kishi keksa hisoblanadi, ammo pensiya yoshi gender va kasbiy cheklovlarga ega, ya’ni turli jins va kasbdagi kishilar har xil yoshda pensiyaga chiqadi.

Xullas, «keksalik» tushunchasi davrga qarab o‘zgaruvchan bo‘lib, uning chegarasi jamiyatning rivojlanganlik darajasi bilan bog‘liq. Masalan, O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng o‘tgan davr mobaynida keksalarga alohida g‘amxo‘rlik qilish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Mamlakatimizda 1997-yil – “Inson manfaatlari yili”, 2002-yil – “Qariyalarni qadrlash yili”, 2007-yil – “Ijtimoiy himoya yili”, 2015-yil – “Keksalarni e‘zozlash yil”, 2022-yil – “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili” deb e‘lon qilinishi davlatning xalq, ayniqsa keksa avlodga g‘amxo‘rligi kuchayib borayotganidan dalolat beradi. Bu esa respublikamizda keksalar sonining ortishi, ayni paytda «keksalik» yoshi va tushunchasining o‘zgarishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Василенко Н.Ю. Социальная геронтология: Учебное пособие. — Владивосток: ТИДОТ ДВГУ, 2005.
2. Водарский Я.Е. Население России за 400 лет (XVII – начало XX вв.) — Москва: Просвещение, 1973.
3. Демографический энциклопедический словарь. — Москва: Советская энциклопедия, 1985.
4. Курьшова Т.С., Алтысбаева Ж.М. Старост как социально-философский феномен / Бюллетень медицинских Интернет-конференций. — № 5, 2016. Том 6.
5. Русанова Н.Е. Понятие возраста в демографии и современное старшее поколение / Народонаселение, №2-2013.
6. Пенсионеров в Узбекистане стало больше. <https://xs.uz/ru/post/pensionerov-v-uzbekistane-stalo-bolshe>

⁷⁸ Демографический энциклопедический словарь. — Москва: Советская энциклопедия, 1985. — С. 117.



Yuldosheva Umida Usmonovna,
*“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot
instituti tayanch doktoranti,
Strategik tahlil va prognozlashtirish
bo‘limi kichik ilmiy xodimi*

KEKSA AVLOD VAKILLARINI QO‘LLAB QUVVATLASH IJTMOIY SIYOSATINING SAMARADORLIGINI YANADA OSHIRISHDA IJTMOIY TADBIRKORLIKNING O‘RNI

Annotatsiya. Ushbu maqolada keksa avlod vakillarini qo‘llab-quvvatlashda ijtmoy siyosatining samaradorligini yanada oshirishda ijtmoy tadbirkorlikning o‘rni va mavjud mexanizmlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: keksa avlod vakillarini qo‘llab quvvatlash ijtmoy siyosati, ijtmoy tadbirkorlik, keksa avlod vakillarini ijtmoy-iqtisodiy qo‘llab quvvatlashda ijtmoy tadbirkorlikning o‘rni va mavjud mexanizmlari .

Аннотация. В статье рассмотрена роль и существующие механизмы социального предпринимательства в усовершенствование социальной политики по поддержке старшего поколения.

Ключевые слова: социальная политика по поддержке старшего поколения, социальное предпринимательство, роль и существующие механизмы социального предпринимательства в системе социально-экономической поддержки старшего поколения.

Annotation. The article outlines the role and existing mechanisms of social entrepreneurship in further development of social policy to support the older generation.

Key words: social policy to support the older generation, social entrepreneurship, the role and existing mechanisms of social entrepreneurship in socio-economic support of the older generation.

O‘zbekiston bugun keng ko‘lamli siyosiy, ma‘muriy, iqtisodiy va ijtmoy islohotlar amalga oshirilayotgan o‘z taraqqiyotining yangi bosqichida, bu o‘z navbatida ijtmoy jarayonlarni boshqarish va ijtmoy muammolarni samarali hal qilishning turli mexanizmlarini ishlab chiqish zaruratini taqozo etadi. Iqtisodiy va ijtmoy barqarorlik jarayonlarini integratsiyalash muammosi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ijtmoy-iqtisodiy rivojlanishning bu kabi yo‘nalishi va asosiy vazifalari 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasida va boshqa bir qator normativ huquqiy hujjatlarda o‘z aksini topgan. Yurtimizda olib borilayotgan ijtmoy



siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri bi keksa avlodni ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab quvvatlashdir. Jumladan, sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar takomillashtirildi, Mahalla va nuroniylarni qo‘llab quvvatlash vazirligi tashkil etilishi, mahallalarda “Keksalar maslahati” guruhleri va “Buvijonlar maktabi” jamoatchilik kengashleri tashkil etilishi kabi institutsional o‘zgarishlar amalga oshirildi.

Keksa avlodni ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab quvvatlash, mavjud muammolarni bartaraf etishning samarali vositalaridan biri ijtimoiy tadbirkorlikdir. Nisbatan yangi va innovatsion hodisa sifatida bu aholi turmush darajasi va sifatini hamda iqtisodiyotning raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirishga yordam beradi, bu esa aynan hozirda pandemiya tufayli jahon va milliy iqtisodiyotlarda kuzatilayotgan inqirozli holatlar va iqtisodiy-ijtimoiy barqaror rivojlanish dinamikasining pasayishi sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.

“Ijtimoiy tadbirkorlik” atamasi ilmiy jamoatchilikka faqat 20-asrda kirdi, ammo bu hodisaning kelib chiqishi, ehtimol, ancha qadimgi. “Ijtimoiy tadbirkorlik” (ing. sotsial entrepreneurship) va “ijtimoiy tadbirkor” (ing. social entrepreneur) atamalari birinchi marta 1960–1970-yillarda ijtimoiy o‘zgarishlarga bag‘ishlangan ingliz tilidagi adabiyotlarda tilga olingan. Piter Drukerning so‘zlariga ko‘ra, “ijtimoiy tadbirkor butun jamiyatning mahsuldorligini o‘zgartiradi”⁷⁹.

Gregori Dizga ko‘ra, ijtimoiy tadbirkorlar ijtimoiy sektordagi o‘zgarishlarning agentlari bo‘lib, ular quyidagi xususiyatlarga ega:

- ijtimoiy ahamiyatga ega biznes yaratish va saqlashga qaratilgan maqsadni qabul qilish;
- ushbu maqsad bilan bog‘liq yangi imkoniyatlarni aniqlash va tinimsiz amalga oshirish;
- uzluksiz innovatsiya, moslashish va o‘rganish jarayonida ishtirok etish;
- mavjud resurslar bilan cheklanmagan shiddatli harakat;
- ular ishlayotgan ijtimoiy guruhlar taqdiri va ularning faoliyati natijalari uchun mas’uliyat hissini oshirish⁸⁰.

Ijtimoiy tadbirkorlikning asosiy xususiyati bu ijtimoiy komponentdir, ya’ni ushbu hodisaning maqsadi ham, subyektlar faoliyatining asosi ham yangi yaratilgan qiymat

⁷⁹ Дэвид Борнштейн Как изменить мир. Социальное предпринимательство и сила новых идей=How to change the World: Social Entrepreneurs and the Power of New Ideas. – М: Альпина Паблишер, 2015. – 496с.

⁸⁰ Джилл Кикал, Томас Лайонс. Социальное предпринимательство: миссия — сделать мир лучше = Understanding Social Entrepreneurship: The Relentless Pursuit of Mission in an Ever Changing World. — М.: Альпина Паблишер, 2014. — 304 с.



(ijtimoiy va (yoki) iqtisodiy) bo‘lib, asosiy faoliyat uni davom ettirish va kengaytirishga qaratilgan⁸¹.

Shunday qilib, ijtimoiy tadbirkorlik deganda adolatli, shaffof va keng ijtimoiy ekotizimga resurslarni investitsiya qilish tushuniladi, nafaqat xodimlarga xolis munosabat, balki kompaniyadan tashqaridagi odamlarga, jamiyat va uning ijtimoiy guruhlariga ham ijtimoiy-iqtisodiy foyda keltiradigan biznes turi tushuniladi.

Keksa avlodni ijtimoiy tadbirkorlikka jalb qilish yoki keksa avlodni iqtisodiy ijtimoiy qo‘llab quvvatlash va bu borada mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy tadbirkorlik turlari quyidagicha institutsional shakllar sifatida namoyon bo‘lishi mumkin:

- o‘z-o‘zini ish bilan ta’minlash va moliyaviy barqarorlikni ta’minlash instituti (masalan, masofadan turib ishlashda);
- hududlarni rivojlantirish va ijtimoiy muammolarni hal etishga jalb qilish instituti;
- ijtimoiy innovatsiyalarni yaratish va resurs salohiyatini ro‘yobga chiqarish jarayonida “bir-birini to‘ldiruvchi” institut.

Xorijiy davlatlar tajribasidan keksa avlodni ijtimoiy tadbirkorlikka jalb qilish yoki keksa avlodni iqtisodiy ijtimoiy qo‘llab quvvatlash va bu borada mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan ijtimoiy tadbirkorlik modellariga quyidagilarni misol keltirishimiz mumkin:

I. Bandlikni ta’minlash

- a) Nafaqadagi keksa avlod vakillariga ish o‘rni yaratish
- b) Keksa avlod vakillariga masofadan turib ishlash imkoniyati va ish o‘rinlari
- c) Klasterlar ishiga keksa avlod vakillarini jalb qilish va hokazo.

II. Ijtimoiy xizmatlar

- a) “Keksalar bog‘chasi”
- b) Yolg‘iz qariyalarga uy yumushlariga yordam berish
- c) Xospislar
- d) Arzonlashtirilgan tibbiy xizmatlar

III. Iqtisodiy-ijtimoiy faolligini oshirish bo‘yicha

- a) Tajriba almashish platformalari (masalan yoshlar qariyalarga kompyuter savodxonligi darslari, qariyalar o‘z kasbidan kelib chiqib turli darslar)
- b) Qariyalar uchun turizm xizmatlari
- c) Qariyalar uchun turli sport to‘garaklari
- d) Qariyalar uchun o‘quv markazlari

⁸¹ Kickul J., Lyons T.S. Understanding social entrepreneurship: The relentless pursuit of mission in an ever changing world. Routledge, 2016. 350 p.



IV. Qariyalar uchun maxsus mobil ilovalar va dasturlar

- a) telemeditsina xizmatlari
- b) kardiokompleks
- c) mobil telefonlarda yordam chaqirish tugmasi va hokazolar.

Yurtimizda keksa avlodning ijtimoiy faolligini oshirish maqsadida ijtimoiy tadbirkorlikning institutsional asoslarini shakllantirish bo'yicha muvaffaqiyatli amaliyot sifatida “Buvijonlar maktabi” loyihasini misol keltirishimiz mumkin.

Olimlar tomonidan ijtimoiy tadbirkorlik bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilayotganiga qaramay, ijtimoiy tadbirkorlikka oid ilmiy tadqiqotlar, xususan, sotsiologik tahlil nuqtai nazaridan va O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish istiqbollari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga tizimli yondashuv zarurligi saqlanib qolmoqda.

Shunday ekan, ijtimoiy tadbirkorlikni, shu jumladan, ijtimoiy tadbirkorlikning mohiyati, dinamikasi va rivojlanish istiqbollarini ijtimoiy-iqtisodiy o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'lamini ko'paytirishni maqsadga muvofiq. Ijtimoiy tadbirkorlikning huquqiy maqomi tasdiqlanishi va ijtimoiy tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi, shuningdek, ijtimoiy tadbirkorlik uchun imtiyozlar va subsidiyalar belgilanishi ham milliy iqtisodiyot va ijtimoiy siyosatimizda muhim bosqich hisoblanadi.

Ijtimoiy tadbirkorlik ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishishning samarali vositalaridan biridir. Ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun hududlarning resurs salohiyatini aniqlash va bu jarayonni hududdagi mavjud muammolarni hal etish bilan integratsiyalashuvi hududlarda iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Shuningdek, bunday ijtimoiy ahamiyatga molik tashabbuslarning hayotga tatbiq etilishi aholi, jumladan, qariyalar uchun qo'shimcha imkoniyat va istiqbollarni ochib bermoqda.

Shunday qilib, ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakatning keyingi iqtisodiy ijtimoiy barqarorligini ta'minlash uchun zarur; ushbu jarayonning muhim omillari:

- ijtimoiy tadbirkorlikning asosiy masalalarini tartibga solishning normativ-huquqiy bazasini shakllantirish;
- subsidiyalar va imtiyozlar masalalari;
- ijtimoiy tadbirkorlikka oid ilmiy tadqiqotlar doirasini kengaytirish;
- ijtimoiy tadbirkorlik amaliyotini joriy etishda hududlarning resurs salohiyati va ijtimoiy muammolarini aniqlash.

O'zbekistonda ijtimoiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun imkoniyat va shart-sharoitlar yaratish yuz minglab ish o'rinlari va yangi iqtisodiy infratuzilma ob'ektlarini



yaratish orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishishning samarali mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur tadbirkorlik sohasining rivojlanishi aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini biznesga jalb etish, qator ijtimoiy muammolarni hal qilishga yordam beradi. Jumladan, aynan qariyalarni tadbirkorlikka jalb qilish va ularga xizmat ko‘rsatishga qaratilgan ijtimoiy tadbirkorlik amaliyotlari keksa avlodni qo‘llab quvvatlash borasidagi ijtimoiy siyosat samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022dagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni*
2. *O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.03.2022dagi “Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash vazirligining tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-147-sonli Qarori www.lex.uz*
3. *Девид Борништейн. Как изменить мир. Социальное предпринимательство и сила новых идей=How to change the World: Social Entrepreneurs and the Power of New Ideas. – Москва: Alpina Publisher, 2015. – 496 с.*
4. *Djill Kikal, Tomas Layons. Джилл Кикал, Томас Лаёнс. Социальное предпринимательство: миссия – сделать мир лучше = Understanding Social Entrepreneurship: The Relentless Pursuit of Mission in an Ever-Changing World. – Москва: Alpina Publisher, 2014. – 304 с.*
5. *Kickul J., Lyons T.S. Understanding social entrepreneurship: The relentless pursuit of mission in an ever-changing world. Routledge, 2016. 350 p.*



MUNDARIJA

KIRISH

Egamberdiyeva N.	4
Kalanov R.	6

I SHO‘BA. KEKSA AVLOD VA IJTIMOIIY SIYOSAT

Basitxanova E. “Keksalar haftaligi”da sog‘liqni saqlash tizimida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida	14
Tog‘ayqulov T. Nuroniy va keksalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari	17
Musayeva N. Qadriyatga aylanayotgan an‘ana.....	23
Xuseynova A.A., Sultonova N.E. O‘zbek oilalarida keksalarni e‘zozlash – eng oliy qadriyat ekanligini kelajak avlodga yod etish zamon talabidir.....	27
Soatov O. Keksalari e‘zoz topgan yurt kam bo‘lmaydi	33
Xodjayev S. Faol qarish indeksi keksalarga oid ijtimoiy siyosat asosi.....	38
Saydivaliyeva X. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlarning ota-onalariga ta‘minot berish majburiyati.....	44
Sodiqov F. O‘zbekistonda keksa avlod vakillarini qo‘llab-quvvatlash borasidagi islohotlar	51
Axmedov Z.R. Nuroniylarni davlat va jamiyat hayotidagi rolini oshib borishi	56
Turayeva S.R. Ayolni ulug‘lash – oilani, Vatanni, hayotni ulug‘lashdir.....	63
Jaxongirov Y.S. O‘zbekistonda ijtimoiy-ma‘naviy muhit barqarorligini ta‘minlashda otinoyilar faoliyati o‘rni	75



II SHO‘BA. KEKSALIK VA HOZIRGI ZAMON: IJTIMOIIY VA DEMOGRAFIK O‘ZGARISHLAR

Akramova F.Q. Urush va mexnat faxriylari uchun Respublika pansionatida keksalarni ijtimoiy himoyalash masalalari.....	82
Abduramanov X.X. Keksalarni ijtimoiy himoya qilishning demografik asoslari	94
Ermatova A.K., Inakov A.K. O‘zbekistonda keksalarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko‘rsatish holati	100
Xonturayev B. O‘zbekiston respublikasi hududlarida aholining keksayish darajasini xalqaro indekslar bo‘yicha baholash	104
Ermatov Sh.T. Aholining qarshi va uning iqtisodiyot rivojlanishiga ta‘siri	111
Alimov S.K. Keksalik va migratsiya: zamonaviy demografik muammolar dialektikasi	120

III SHO‘BA. MILLIY QADRIYATLAR VA BARQAROR AVLODLARARO MUNOSABATLAR

Yuldashev M. Keksalarga hurmat – insoniy burch	124
Xuseynova A.A., Shodiyev J.J. Milliy qadriyatlar va barqaror avlodlararo munosabatlar – kelajak avlod tayanchi	127
Abdusamatova M. Yorqin tuyg‘ular.....	131
Mahmudxodjayeva U.M. Voyaga yetgan bolalarning o‘z ota-onalariga nisbatan majburiyatlarini amalga oshirishni huquqiy tartibga solish masalalari	136
Norqulov H. Oilaviy qadriyatlarni singdirishda keksa avlod vakillarining o‘ziga xos xususiyatlari.....	140
Buranova N. Keksalarni qadrlash insoniylik burchimiz.....	147
Ilxamova Z. Keks avlod vakillarining milliy an‘ana va qadriyatlarga ta‘siri	151
Nurullayeva U.N. Keksalar qadriyatlari jamiyat ijtimoiy-madaniy tizimning o‘zagi	155



Bo‘riyeva M. Oilada avlodlararo munosabatlarni ta’minlashda keksa avlodning roli	159
Abdusamatov X. Migratsiya jarayonida qadriyatlarning to‘qnashuvi	163
Qambarov A.B. Jamiyatda milliy qadriyatlarni shakllantirishda tarixiy tafakkur va tarixiy xotiraning o‘rni va ahamiyati.	166
Jurayeva Sh.S. Yoshlar kamolotida milliy qadriyatlarning o‘rni	171
Saipova M. Milliy qadriyatlar: mehnat migratsiyasiga ketganlarning oilaviy munosabatlaridagi o‘ziga xosliklar	177

IV SHO‘BA. KEKSA AVLODNING IJTIMOY-IQTISODIY FAOLLIGI: MILLIY VA XALQARO TAJRIBA

Sodiqova Sh.M. Ijtimoiy gerontologiyaning dolzarb masalalari	182
Baratov M. Barcha – aqlga, aql – yillarga, yillar – tajribaga muhtojdir yoxud keksalik va hozirgi zamon: holat, tendensiyalar va istiqbollar xususida ayrim mulohazalar	187
Ergashev Sh. Keksalik tushunchasi va uning zamonaviy talqini	196
Yuldosheva U.U. Keks avlod vakillarini qo‘llab quvvatlash ijtmoiy siyosatining samaradorligini yanada oshirishda ijtimoiy tadbirkorlikning o‘rni	200

“KEKSALIK VA HOZIRGI ZAMON: MAVJUD HOLAT, RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLDAGI MUAMMOLAR”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami

(13-oktabr 2022-yil)

“Mahalla va oila nashriyoti”
Toshkent – 2022

Nashr uchun mas’ul: **B. Mavlonov**
Muharrirlar: **O‘. Nomozova,**
N. Xusenova
Badiiy muharrir: **F. Sobirov**
Dizayner-sahifalovchi: **L. Abdullayev**



1940

Nashriyot ro‘yxat raqami № 1043191. 24.09.2021-y.
Bosishga ruxsat etildi: 03.10.2022.
“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 $\frac{1}{8}$
Nashriyot bosma tabog‘i 24,4.
100000, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,
M.Ismoilıy ko‘chasi 1-G uy.

“RAZIKOV” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent, Yakkasaroy tuman, Qushbegi ko‘chasi, 6-uy.